

PEDAGOGIK MAHORAT

12(1)
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

12-son (2024-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 12

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 12, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 12, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>SODIQOVA Gulbarno Odiljon qizi</i>	Qizlarni erta turmushga berishning psixologik omillari, erta nikoh va uning salbiy oqibatlarini oldini olish mexanizmlari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	<i>JAMOLOVA Zumrad Farxod qizi</i>	Liderlik qobiliyati: pozitiv liderlikning rivojlantirish va destruktiv liderlikka sabab bo‘luvchi omillar	12
3.	<i>JUMANIYOZOVA Nasiba Ramatillayevna</i>	Mas’uliyat hissining kasbiy so‘nishga ta’siri	17
4.	<i>NARMURADOVA Rayhon Uktamovna</i>	Oilaviy nizolarning fenomenologiyasi: mohiyati, aniqlovchi xususiyatlar	21
5.	<i>ABDULLAEVA Lobar Bazarbaevna</i>	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kompetentligini oshirish orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish	25
6.	<i>ABDULLAYEVA Viloyat Zokirovna</i>	Kompetentli yondashuv yordamida o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini rivojlantirish	29
7.	<i>ATAJANOV Axtamjon Yusupovich</i>	Shaxsiy tarkibning jangovar vazifalarni bajarishda ma’naviy-psixologik tayyorligini shakllantirish bo‘yicha xorijiy tajriba	33
8.	<i>AXMEDOVA Malika Muxsinovna, QULIYEVA Shahnoza Halimovna,</i>	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda texnologiya fanida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	38
9.	<i>FAYZULLAYEVA Zarnigor Abror qizi</i>	Bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarda kasbiy kompetentlik fenomen sifatida	46
10.	<i>HAMIDOV Amirxon Ahmadjonovich</i>	Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda ruhiy chidamlilik ahamiyati	51
11.	<i>JUMANIYAZOVA Ilmira Kamiljanovna</i>	Talabalarning o‘quv muvaffaqiyatiga perfektsionizmning psixologik ta’siri	55
12.	<i>HOTAMOVA Dildora Komilovna</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy shakllari	59
13.	<i>IBRAGIMOVA Shaxnoza Tulqinovna</i>	Zamonaviy ta’lim sharoitida institutsional yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni	64
14.	<i>ISROILOVA Ruhshona Sunnatovna</i>	Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta’limning asosi sifatida	71
15.	<i>JABBOROVA Dilafroz Furqatovna</i>	Talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni	78
16.	<i>KAMOLOVA Dilobar Tairovna</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarini shakllantirish: muammolar va yechimlar	82

17.	MAMATXANOVA Nargiza Toxirovna	O‘qituvchi akmeogrammasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning ahamiyati	86
18.	MAMAYUSUPOVA Muattar Qosimjonovna	Takomillashtirilgan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bilan ta’lim samaradorligini oshirish	92
19.	MATKARIMOVA Muqaddas Komilovna	O‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikalari	96
20.	ШАПИПОВА Сумопа Хайдаровна	Особенности использования технологии проблемного обучения в преподавании социально-гуманитарных наук	100
21.	BOQIYEV G‘ulomjon Ochilovich	Uzviylikning ta’lim nazariyasi va amaliyotdagi holati	108
22.	NIYAZOVA Hilola Xayat qizi	Time-management for schoolchildren	112
23.	NOSIROV Jahongir Normurod o‘g‘li	Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini aniqlovchi mezon va darajalar	116
24.	ORTIQOVA Nargiza Akramovna	Jamoalardagi ijtimoiy nizolarni hal qilish strategiyalari va usullari	122
25.	PANJIYEV Ulug‘bek Rustamovich	Texnika oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim muammolarini o‘rganishning metodologik jihatlari	126
26.	RAMAZONOV Jahongir Djalolovich, NEMATOVA Maftuna Ismatovna	Yoshlar dunyoqarashida axborot ta’sirlarining ijtimoiy xususiyatlari	130
27.	RAXMATOV Mirzo Mukimovich	Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini dasturlash tillari orqali rivojlantirish modeli	134
28.	RAZAKOVA Rayxan Saylaubekovna	Keksalik davrida insonning kognitiv sohasi namoyon bo‘lish xususiyatlari	139
29.	SADIKOVA Yulduz Kamolovna	STEM ta’limi bo‘yicha jahon va mahalliy tajribani o‘rganish	143
30.	SADIYEVA Sadoqat Alijonovna	Turli ta’lim bosqichlarida tahsil oluvchi talabalar kasbiy identifikatsiyasining xususiyatlari	147
31.	SAIDOVA Gulchiroy Shokirovna	Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini o‘zini o‘zi anglashida psixologik mexanizmlar	151
32.	SALOMOV Fuzuli Jamolovich	Oliy ta’lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyati	155
33.	SANAYEVA Surayyo Bobonazarovna	Auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar umumkasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	159
34.	SATTOROVA Maftuna Abdug‘affor qizi	Kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etishda tarbiyachilarning pedagogik mahorati	164
35.	SHABONOVA Shakhnoza Bakhriddinovna	Theoretical foundations of the formation of emotional stability of future English language teachers	169

36.	SUYAROVA Mavjuda Ergashevna	Integrating technology into educational process: challenges and opportunities	173
37.	TASHBAYEVA O‘g‘ilshod Abduvohidovna	O‘qituvchilarni intellektual rivojlantirish jarayoni pedagogik muammo sifatida	177
38.	ЗАЙНИЕВА Насиба Бахтияровна	Формирование информационной компетентности будущих учителей иностранного языка на основе личностно-ориентированного подхода	181
39.	ТО‘ХТАЙЕВА Munira Omonovna, JUMAYEVA Gulruxsor Erkin qizi	Xorijiy ta‘lim tizimida maktab o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyalari	186
40.	UMAROVA Dilafruz Anvarovna	Talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish	192
41.	USMONOV Abdulla Abdumannopovich	Talabalar faoliyatida ilmiy ijod va ilmiy tadqiqot masalalari	196
42.	ХАМДАМОВ Botirali Yokubjon o‘g‘li	Mediata‘limning metod va usullaridan foydalanishning predmetli ta‘limdagi o‘rni	200
43.	ДУШАНОВА Садокат Маматкуловна	Конструирование пола человека в виде гендера: маскулинного, фемининного или андрогинного	204
44.	КАЛЕКЕЕВА Тамара Туркменбаевна	Таълим тизимида педагогик технологияларнинг қўлланилиши	208
45.	ХАЛИКОВА Умида Мировна	Теория и методика совершенствования научно-исследовательской деятельности студентов высших учебных заведений	212
46.	RAZAKOVA Rayxan Saylaubekovna	Keksalik davridagi biologik va ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligi	219
47.	MIRZAAXMEDOVA Gulshanoy Mansurjon qizi	Xorij tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi	223
48.	QURBONOVA Zilola Ismoil qizi	Bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik jihatlari	228
49.	YERGESHEVA Nazira Turalbaevna	Oliy ta‘lim muassasalarida iqtisod ta‘lim yo‘nalishlarida ingliz tili va mazmun integratsiyasi yondashuvining (CLIL) o‘quv jarayonidagi ahamiyati va istiqbollari	232
50.	TESHAYEV Azizbek To‘ynor o‘g‘li	Talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	236
51.	БУРИЕВА Сора Салохитдиновна	Методические аспекты эффективности деятельности школ, специализирующихся на обучении одарённых детей	241
52.	MIRZAAXMEDOVA Gulshanoy Mansurjon qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik usullari	245

DOLZARB MAVZU

QIZLARNI ERTA TURMUSHGA BERISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI, ERTA NIKOH VA UNING SALBIY OQIBATLARINI OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi,

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ijtimoiy-gumanitar kafedrasida katta o‘qituvchisi,

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Maqolada qizlarni erta turmushga berish masalasi uning salbiy o‘qibatlari, psixologik va tibbiy salomatligidagi muammolarga yuzaga kelishi, erta tug‘ruq, nosog‘lom avlodni tug‘ilishi va oilalardagi ajrimlar sonining ortishi sabablari va ularni oldini olish mexanizmlari borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, turmush, farzand, muammo, fikr, ajrim, qaror, kengash, oila markazlari, buzilishlar, statistika, natija.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАННИХ БРАКОВ ДЕВУШЕК, МЕХАНИЗМЫ ПРОФИЛАКТИКИ НЕГАТИВНЫХ ПОСЛЕДСТВИЙ РАННИХ БРАКОВ

В статье рассматриваются негативные последствия раннего замужества девушек, возникновение психологических и медицинских проблем со здоровьем, ранние роды, рождение нездорового потомства, причины увеличения числа разводов в семьях, а также механизмы их предотвращения.

Ключевые слова: семья, брак, ребёнок, проблема, мнение, развод, решение, совет, семейные центры, нарушения, статистика, результат.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF EARLY MARRIAGE OF GIRLS, MECHANISMS OF PREVENTION OF EARLY MARRIAGE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES

The article discusses the negative consequences of early marriage of girls, the occurrence of psychological and medical health problems, early childbirth, the birth of unhealthy offspring, and the reasons for the increase in the number of divorces in families, as well as the mechanisms of their prevention.

Keywords: family, marriage, child, problem, opinion, divorce, decision, council, family centers, disorders, statistics, result.

Kirish. Qizlarni erta turmushga berish, buning natijasida oilalarning buzilishi yoki nosog‘lom farzandlar tug‘ilishi global muammodir. Bu haqda keragidan ortiq gapirilgan, erta turmush sabab umri xazon bo‘lgan, ajrashgan, bolasidan ayrilgan, ruhiy bosimda yashaydigan qizlar taqdiri, ularning hayoti haqida juda ko‘p tasirli voqealar aytilgan, yozilgan bo‘lsa-da, ularni 16-17 yoshga yetar-yetmas “joyi chiqqani uchun” uzatib yuborish holati haligacha ko‘p uchraydi. Bugun ortiqcha so‘zlar, hissiyot va ta’sirchanlikni bir chetga surib, faqat raqamlarga yuzlanamiz. Erta turmush oqibatlari haqida hikoya qilinganda, baxtini topib ketgan, chiroyli hayotda yashayotgan yoshlar ham borligi ta’kidlanadi. Xo‘sh, bugun ularning necha foizi baxtli, nechtasi o‘z xohishi bilan turmush qurgan, nechtasi oliy ma’lumotli va yana qanchasi sog‘lom bu borada statistik ma’lumotlar yetarli ekanligini ta’kidlashimiz o‘rinli bo‘ladi. Sababi oila deb atalmish dargohni asrab avaylash yoshlarni turmushga tayyorlash masalasi doimo bizning og‘riqli nuqtalarimizdan biri ekanligini unitmasligimiz ularning taqdiri yurt taqdiri va kelajagini belgilashini also yodimizdan chiqarimasligimiz ular ertangi kun vorislarini tarbiyalab voyaga yetkazishi zarurligini unitmasliklari lozim bo‘ladi. Chunki erta turmush qurgan qiz yoki yigit o‘zi hali hayotning past balandini yoki oq qorasini tushunmasdan ota-ona deb atalmish muqaddas nomga erishib olishlari mumkin yosh bo‘lishsada, lekin uning tarbiyasi masalasi hammani doimo o‘yga solishi shart. Bolaga chiroyli odob axloq bilan berilgan tarbiya uni kelajagini belgilab beradi. Bu masala tanganing bir tomoni tarbiya bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomoni ularning salomatlik masalasi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda odatda statistik ma’lumotlarga yuzlanadigan bo‘lsak erta turmushga chiqqan qizlarda yoki erta turmush qurgan yigitlarda jinsiy jihatdan to‘laqonli yetilmaganlik yoki bu hayotga tayyor emaslik jihatlari ham mavjud bo‘lib ulardan tug‘iladigan

farzandlar nosogʻlom boʻlib qolayotganligini guvohi boʻlmoqdamiz. Chunki, baʼzan yosh onalar homiladorlik davrida yetarlicha bilim va tajribalarga ega boʻlmasdan homilador boʻlib olishlari va bu davrda koʻplab depressiya va stress holatlarini boshdan kechirishi oqibatida farzandida ayrim nuqson yoki kamchiliklar kuzatilmoqda, shu kabi dolzarb masalalarni oldini olish birgina qiz va yigitlar oʻrtasida erta nikohga barham berish orqaligina erishish mumkin holos. Bu borada mamlakatimizda qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda lekin shunda ham erta nikoh masalasi oʻzining yechimini topayotgani yoʻq. Yoshlarni oila psixologiyasi bilan bogʻliq bilimlar bilan qurollantirish ularni oilaviy hayotga tayyorlash ishlarini samarali tashkillash bilan ham muammoga ijobiy yechim topish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oʻzbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, ularni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvatlash, yordamga muhtoj yoshlarni davlat himoyasiga olishga va ularni jamiyat uchun kerakli insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuygʻulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod boʻlishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda oʻsib-unayotgan bolalarimizga bogʻliq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yoʻlga qoʻyilar ekan, oʻsha oila, oʻsha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol koʻpchilikni oʻylantiradi. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tugʻilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shugʻullanish lozim, deb javob bergan.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha boʻlgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida oʻta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib oʻtgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan boʻlsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga oʻta eʼtiborli boʻlish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga oʻz umri va salohiyatini bagʻishlagan allomalarimizning asarlarida sogʻlom avlod tarbiyasi bilan bogʻliq masalalarga alohida oʻrin berilgan. Sharq allomalari oʻz asarlarida farzandlarga tarbiya va taʼlim berish, uni maʼrifatu madaniyatga yetaklash muammolariga eʼtibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, goʻzal axloqning inson kamolotiga sabab boʻluvchi yuksak fazilat ekanini taʼkidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar toʻplami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul gʻofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish tarannum etilgan.

Ota-bobolarmiz azaldan oʻgʻil qizlarning goʻzal xulqli, odobli boʻlishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qoʻyiladi. Farzand tarbiya qilganda odatda oʻgʻil bolalar tarbiyasi bilan koʻproq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shugʻullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani koʻrishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin soʻz bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni oʻrganadi, asosiy maʼlumotni shu yosh oraligʻida egallaydi. Bu davrda biz koʻproq amaliy jihatdan namuna boʻlishga urinishimiz, sogʻlom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur boʻladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd boʻlishi oxiri xunuk oqibatlariga sabab boʻladi. Loqaydlik yomon illat boʻlib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yoʻl ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni oʻrgatmagani oqibatida oʻz farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira olmasligi mumkin. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum boʻlib oʻsadi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga taʼlim bering, chunki ular sizniki boʻlmagan vaqt uchun tugʻilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning oʻz zamonasi ilm-fani, taʼlimiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinsoʻzlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir boʻlib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, taʼlimni ham gʻazab va jazolash bilan amalga oshirmagan maʼqul. Zero, zoʻrlab berilgan taʼlim bola xotirasidan tezda oʻchib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi soʻnishi mumkin. Bundan koʻrinadiki, taʼlimning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Islom taʼlimotida yosh avlodning jismonan sogʻlom va baquvvat boʻlib ulgʻayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Paygʻambarimiz (s.a.v.): “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni oʻrgatinglar”, deganlar. Tarbiyadan tashqaridan boʻladigan salbiy taʼsir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yoʻl qoʻyilmagach, u oʻz qiziqish va ragʻbatlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta eʼtibor qaratishi talab etiladi. Yaʼni, ular farzandi maktab yoki kollejdin keyin qayerga borishi, nima bilan shugʻullanishini nazorat qilish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Paygʻambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, deb marhamat qilganlarida, oʻgʻil va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni taʼminlash kerakligini nazarda tutganlar.

Natijalar. Yuqorida bayon etilgan ta’lim va tarbiya masalasi bizni yana o’ylantirib bolaga tarbiya berishdan avval ota-onalarning o’zlarining tarbiyalanganlik holatlari nechog’li muhim ekanligini erta turmush qurgan oila ota-onalari bu borada qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin ekanligini alohida qayd etib borishimiz lozim. Erta turmush masalasi yuzasidan raqamlarga yuzlanadigan bo’lsa bu hol bizni dilimizni hira qilishi mumkinligini ko’rmoqdamiz xususan: Raqamlarga yuzlanadigan bo’lsak, erta turmush va tug’ruq holatlari ko’payib bormoqda. 18 yosh va undan kichik yoshda ona bo’lgan qizlar soni:

- 2018-yilda – 1500 dan ziyod;
- 2019-yilda – 1200 ta;
- 2020-yilda – 1044 ta;
- 2021-yilda – 1473;
- 2022-yilda – 10 mingga yetgan.

Bu holat oldi olinmasa sonlar har yili oshib borishi mumkinligini ko’rsatmoqda. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti erta nikoh va erta tug’ruq sabablarini aniqlash bo’yicha erta turmush qurgan va erta tug’ruqni boshidan kechirgan o’smir qiz va yosh kelinlar o’rtasida o’tkazgan ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko’ra, erta turmushga chiqqan kelinlarning 70 foizi erta nikohning asosiy sababchisi sifatida ota-onasi va oila a’zolarini ko’rsatgan. 26 foiz ishtirokchi erta turmush qurganini sevgi-muhabbat bilan izohlagan. 3,4 foizi bu homila bilan bog’liq bo’lganini, 1,5 foizi esa yosh erga tegishiga diniy qarashlari sabab bo’lganini bildirgan. Erta turmush qurish oqibatida 38,2 foiz o’smir qizlarning sog’lig’i, 22,9 foizida ota-onasi va boshqa oila a’zolari bilan munosabatlari yomonlashgan. 25,2 foizi iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan. Erta turmush qurish yoshida o’smirlar maktab, kollej yoki litseyda o’qiyotgan bo’ladi, shundan kelib chiqib, respondentlarga “Oila qurganingizdan keyin o’qishingizni davom ettirdingizmi?” degan savol berilgan. Savolga javoban, bor-yo’g’i 37,6 foiz respondent to’yan keyin o’qishini davom ettirganini ma’lum qilgan. Respondentlarning 25,6 foizi o’qishni davom ettirishga eri ruxsat bermaganini, 17,1 foizi o’qishni davom ettirishni o’zi xohlamaganini, 13,3 foizi esa o’qishiga qaynona-qaynotasi qarshi bo’lganini aytgan. Yangi muhitdagi ruhiy va jismoniy zo’riqish, hali bola bo’la turib, onaga aylanish, kelajakda turli ginekologik kasalliklar, oilaviy ajrim, nosog’lom farzandlar – bularning barchasi erta turmush olib keladigan oqibatlardir. Oilaviy ajrimlar ko’proq yosh oilalar hissasiga to’g’ri keladi. 2018-yilda 32,3 mingta, 2019-yilda 31,4 mingta, 2020-yilda 28,2 mingta, 2021-yilda 39,3 mingta nikohdan ajralish qayd etilgan bo’lsa, ajrimlarning asosiy qismini yosh juftliklar tashkil etadi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida 40 200 ta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. Oila qurganiga 5 yil to’lmagan oilalar o’rtasidagi ajrimlar esa 17 628 ta (44 foiz)ni tashkil etadi. Boshqa tomondan erta nikoh qizlar huquqlarining buzilishiga ham olib keladi. Masalan, ularning ta’lim olishiga to’sqinlik qiladi. Kasbiy va hayotiy ko’nikmalarni egallash imkoniyatlaridan mahrum etib, erta homiladorlik xavfiga soladi, ta’lim olish imkoniyatlarini cheklashi tufayli mehnat bozorida raqobatbardosh kasb yoki hunarga ega bo’la olmaydi. Bu esa, o’z navbatida, noqonuniy shaklda (ayrim hollarda jinoiy) ish bilan ta’minlanish, kam ta’minlanganlik kabi salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois zamonaviy tibbiyot 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug’ruq holatida qiynalib qolayotganini e’tirof etib, ularni 19-20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarga 20-22 yoshlarda uylanishni tavsiya qiladi. AQSh, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Braziliya, Daniya, Kanada, Meksika, Misr, Rossiya, Turkiya, Finlandiya kabi davlatlarda nikoh yoshi qonunan 18 yosh etib belgilangan. Yaponiya va Janubiy Koreyada – 20, Argentina va Malayziyada 21 yoshdan nikohdan o’tishga rasman ruxsat etiladi. Yurtimizda esa nikoh yoshi yigit va qizlar uchun teng – 18 yosh. Qizlarni erta turmushga berish, buning natijasida oilalarning buzilishi yoki nosog’lom farzandlar tug’ilishi jamiyatda dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Yilning o’tgan davri mobaynida yurtimizda 22 ta erta nikoh holati aniqlanib, 41 nafar shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, 55 ta erta nikoh holatlarining oldi olingan. Bundan tashqari, ijtimoiy, psixologik yordamga muhtoj xotin-qizlar va yoshlarga 12 ta psixologik va yuridik maslahatlar broshyuralari tarqatilib, shu xususda batafsil ma’lumotlar berildi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali esa har haftada erta turmushning oldini olish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rnini va faolligini oshirish bo’yicha so’rovnomalar tashkil qilinib, ularning natijalariga ko’ra maqola, ekspertlar xulosasi asosida video-lavhalar tayyorlab targ’ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Muhokama. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo’sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o’zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o’zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o’rnatadi. Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo’lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to’da-to’da bo’lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo’lmay, to’dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin

muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, soʻngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib guruhli oila paydo boʻlgan. Lekin, bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xoʻjalikka ega boʻlmagan. Bu davrda tabiiy omil oʻz vazifasini tugalladi, yaʼni jinsiy munosabatlar doirasidan qonqarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

Xulosa. Taʼkidlash lozimki, jamiyat gultoji hisoblangan inson, birinchi navbatda, oilada shakllanadi va voyaga yetadi. Har bir oqil insonning, jamiyat oldidagi vazifasi qobil farzandni oʻstirish, ularni ham jismoniy, ham maʼnaviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, Vatanga sadoqatli etib voyaga yetkazishdan iborat. Biroq baʼzi erta turmush qurgan oilalarda ota-onalar farzandlar oldida janjallashadilar, oqibatda oilada salbiy muhit shakllanadi. Ota-ona oʻrtasidagi doimiy janjal oilani qadrlamaslik hali ham yosh bolalardek qarashlarning mavjudligi, ular tarbiyalayotgan bolaning asab tizimiga qattiq salbiy taʼsir etadi. Muntazam janjal boʻlib turadigan oilada tarbiyalangan bola ruhan zaif boʻlib oʻsadi va unda oilaga nisbatan ishonch, hurmat yoʻqoladi. Bola uydin ertaroq chiqib ketib, kechroq kelishga harakat qiladi. har bir ota-ona oilada oʻzaro hurmat, bir-biriga nisbatan mehr-oqibatli, boʻlish, qiyinchiliklarni birgalikda yengib oʻtish kabi sifatlarni yoshlarda shakllantirishga masʼuldir. Shunday ekan, erta turmush qurish nafaqat qizlarimiz uchun balki yigitlar uchun ham turli xil qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi oila haqidagi chiroyli tasavvurlarini salbiy holatga kelishiga sabab boʻlishi mumkin. Shu sababli ham yurtimizda psixologlar, sotsiologlar, shifokorlar erta turmush qurishning salbiy oqibatlari haqida doimo qaygʻurib gapirmoqdalar, yurtning ertangi kuni yoshlar qoʻlida ekanligini inobatga olib ularni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish ota-onalarimizning asosiy vazifasi hisoblanishi shart.

Adabiyotlar:

1. Aminov B. Oʻsmirlar jinsiy tarbiyasi. -T.:, «Oʻqituvchi», 1979.
2. Amir Temur oʻgʻitlari. -T.:, «Navroʻz», 1992. -64 b.
3. Burieva M.R. Oʻzbekistonda oila demografiyasi. -T.:, 1997. -182 b
4. Buxoriy-Al Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil. Hadis. VI jild. AL-Jomiʼ As-Sahih (Ishonarli toʻplam). -T.:, «qomus», 1992. -527 b.
5. Исаев Д.Н., Каган В.Э. Половое воспитание и психогигиена пола у детей. -Л.:, 1979. - 184 с.
6. Исаев Д.Н., Каган В.Э. Психогигиена пола у детей: руководство для врачей.-М., 1986. -336 с.
7. Исаев Д.Н, Каган В.Э. Половое воспитание детей. -Л.:, 1988. -160 с.
8. Ismailov M.N. Oʻquvchi gigienasi. -T.:, 1977.
9. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:, — Meros, 1992. -176 b.
10. Klenitskaya E.M. Qiz bola tarbiyasi. -T.:, —Meditsinal, 1971.
11. Ковалев С.В. Психология современной семьи. -М.:, 1988. 21.Ковалев С.В. Подготовка старшеклассников к семейной жизни. - М.:, Ю, - 1991.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

UO‘K 304.44

LIDERLIK QOBILIYATI: POZITIV LIDERLIKNI RIVOJLANTIRISH VA DESTRUKTIV LIDERLIKKA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR

*Jamolova Zumrad Farxod qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
jamolovazumrad9297@gmail.com*

Mazkur maqolada bolalarda liderlik qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni, shuningdek, destruktiv liderlikning paydo bo‘lish sabablari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda bolalarda ijobiy liderlikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan omillar va destruktiv yo‘nalishga o‘tib ketish xavfini oldini olish haqida chuqur tahlil olib borilgan. Bu ishda ijtimoiy, axloqiy va hissiy ko‘nikmalarning muhimligi ta’kidlanadi, bu esa kelajakda ijobiy liderlar yetishtirishda ahamiyatga ega. Oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy ta’sirning roli ham batafsil ko‘rib chiqiladi, shuning uchun maqolada bolalar tarbiyasiga qaratilgan strategiyalar va dasturlarni muhokama qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** liderlik, liderlik qobiliyati, ijobiy liderlik, destruktiv(salbiy) liderlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, axloqiy tarbiya, kommunikatsiya ko‘nikmalari, hissiy intellekt.*

ЛИДЕРСКИЕ СПОСОБНОСТИ: РАЗВИТИЕ ПОЗИТИВНОГО ЛИДЕРСТВА И ФАКТОРЫ, ПРИВОДЯЩИЕ К ДЕСТРУКТИВНОМУ ЛИДЕРСТВУ

В статье рассматривается процесс формирования и развития лидерских способностей у детей, а также причины возникновения деструктивного лидерства. В исследовании проведён глубокий анализ факторов, необходимых для воспитания позитивного лидерства у детей, и мер по предотвращению перехода к деструктивному направлению. В работе подчёркивается важность социальных, нравственных и эмоциональных навыков, что является значимым для воспитания будущих позитивных лидеров. Роль семьи, образовательных учреждений и социальных факторов также подробно изучена, обсуждаются стратегии и программы, направленные на воспитание детей.

***Ключевые слова:** лидерство, лидерские способности, позитивное лидерство, деструктивное (негативное) лидерство, социальные навыки, нравственное воспитание, коммуникативные навыки, эмоциональный интеллект.*

LEADERSHIP ABILITY: DEVELOPING POSITIVE LEADERSHIP AND FACTORS LEADING TO DESTRUCTIVE LEADERSHIP

This article examines the process of forming and developing leadership abilities in children, as well as the reasons behind the emergence of destructive leadership. The research provides an in-depth analysis of the factors necessary for cultivating positive leadership in children and preventive measures to avoid shifting toward destructive tendencies. The importance of social, moral, and emotional skills is emphasized in this study, highlighting their significance in nurturing future positive leaders. The role of family, educational institutions, and social influences are also thoroughly reviewed, with strategies and programs for child development discussed.

***Keywords:** leadership, leadership ability, positive leadership, destructive (negative) leadership, social skills, moral upbringing, communication skills, emotional intelligence.*

Kirish. Liderlik, jamiyatni rivojlantiruvchi kuch sifatida qadim zamonlardan beri dolzarb mavzu hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda bolalar liderlik qobiliyatlari o‘zlarining shaxsiy va ijtimoiy hayotlarida o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Liderlik qobiliyati, shaxsiy muvaffaqiyat va jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalarning ijobiy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish — bu, nafaqat o‘zining muvaffaqiyatiga, balki atrofidagi odamlar, jamoa va jamiyatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatish demakdir. Ularning liderlik qobiliyatlari, nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda bolalarda liderlik qobiliyatining shakllanishi va

rivojlanishi, ularning keyinchalik qanday lider bo‘lib yetishishi bilan chambarchas bog‘liq. Pozitiv liderlik qobiliyatlari bolalarga jamiyatda ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beruvchi muhim omillardir. Biroq, noto‘g‘ri yetakchilik va destruktiv yo‘lga tushish xavfi ham mavjud. Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi tobora muhim bo‘lib bormoqda.

Ta’lim jarayonida bolalarga beriladigan axloqiy tarbiya, hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar ularning ijobiy liderlik xususiyatlarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida bu masalaga qaratilgan dasturlar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘plab muammolar saqlanib qolmoqda. Bu muammolar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Liderlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu omillar ijtimoiy, madaniy va shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq. Ota-onalar va ta’lim muassasalarining bolalarga nisbatan olib boradigan tarbiyaviy ishlari, ularning ijobiy liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu maqolada ijobiy liderlikning rivojlanish omillari va destruktiv liderlikning paydo bo‘lish sabablari tahlil qilinadi. Liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda bolaning oila va maktab muhitidagi ta’siri, do‘stlar bilan muloqoti va o‘zaro munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, 2022-yilda Xalqaro Bolalarni Himoya qilish Jamg‘armasi tomonidan qabul qilingan bolalarning yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish dasturi e’tiborga loyiqdir. Bunday dasturlar bolalarning salohiyatli liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Tadqiqot davomida zamonaviy va klassik nazariyalar, shuningdek, amaliy tadqiqotlardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bolalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va destruktiv liderlikning paydo bo‘lish sabablari bo‘yicha bir qator olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar tahlili asosan ijobiy liderlik fazilatlarini shakllantirishga, shuningdek, ularni rivojlantirish jarayonidagi metodologik yondoshuvlarga qaratilgan.

Adabiyot nomi	Muallif	Adabiyot tahlili
“Davlat”	Platon	Rahbarlikning axloqiy jihatlari va liderlik fazilatlarini haqida fikrlar.
“Nikomax axloqi”	Aristotel	Rahbarlikning ijtimoiy va axloqiy jihatlari tahlil qilish.
“Siyosatnoma”	Nizom al-Mulk	Jamiyatni boshqarishda rahbarlikning axloqiy fazilatlarini muhim deb biladi.
“Leadership and Information Processing”	Robert Lord	Rahbarlik va axloqiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan.
“Principles of Topological Psychology”	Kurt Lewin	Bolalarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘rganadi.
“Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ”	Daniel Goleman	Hissiy intellekt va liderlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi.
“Leadership in Organizations”	Gary Yukl	Kommunikatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarining rahbarlikdagi ahamiyati.
“Leadership and Performance Beyond Expectations”	Bernard Bass	Transformatsion liderlik modelini taklif qilib, destruktiv liderlikni oldini olishga yordam beradi.

Ushbu jadval rahbarlik axloqi va liderlik fazilatlarini bolalarda shakllantirish jarayonining ahamiyatini ko‘rsatadi. Liderlik masalasi qadim zamonlardan beri falsafa va ijtimoiy fanlarda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Platonning "Davlat" asarida liderning adolat va donolik kabi fazilatlarini haqida so‘z yuritilib, axloqiy qadriyatlarining liderlikdagi o‘rni yoritiladi [1, 42-bet]. Aristotel esa "Nikomax axloqi" asarida liderlikning axloqiy va ijtimoiy jihatlari haqida tushunchalar berib, rahbarning etika va axloqiy mas’uliyatini ko‘rsatadi [2, 56-bet].

Kurt Lewin rahbarlikning ijtimoiy va psixologik qirralarini o‘rgangan va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning liderlikdagi ahamiyatini ta’kidlagan [3, 79-bet]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar liderlikda katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Daniel Golemanning "Emotional Intelligence" asarida hissiy intellektning liderlikda asosiy omil ekanligi, boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish va hamkorlik qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan [4, 152-bet]. Bassning "Leadership and Performance Beyond Expectations" asarida transformatsion liderlik modeli keltirilib, hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalar liderning jamoa bilan ishlash va boshqalarni yetaklashda qanday yordam berishi yoritilgan [5, 185-bet].

Umuman olganda, yuqoridagi adabiyotlar, bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonini yanada kengaytirishga yordam beradi. Ularning barchasi axloqiy, hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni

o‘rganishga asoslangan bo‘lib, rahbarlik fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlillar va adabiyotlar, bolalarda ijobiy liderlikni rivojlantirishda qabul qilingan axloqiy qarorlar va hissiy intellektning o‘rni, shuningdek, jamoa va rahbarlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi. Natijada, bu tadqiqot rahbarlik va axloqiy fazilatlarini bolalarda shakllantirishda yangi yondashuvlar va metodlarni o‘z ichiga oladi, bu esa kelajak avlodning rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiyotlar asosida bolalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan metodologiyalar belgilangan. Tadqiqotda turli metodologiyalardan foydalanilgan bo‘lib, quyida kuzatuv metodlari, so‘rovnomalar va amaliy mashg‘ulotlar asosida bolalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishni baholash uchun jadval keltirilgan:

Metod	Tavsif	Natija
Kuzatuv metodlari	Bolalar va ularning o‘zaro munosabatlarini kuzatish orqali liderlik qobiliyatlarini baholash.	Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘rganish uchun samarali hisoblanadi.
So‘rovnomalar	Bolalar, o‘qituvchilar va ota-onalardan to‘plangan ma’lumotlar asosida ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni baholash.	Bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini baholashga imkon beradi.
Amaliy mashg‘ulotlar	Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali ta’lim jarayonini o‘rganish.	Bolalarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish va rahbarlik ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun foydalidir.

Ushbu jadvalda bolalar orasida liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda har bir metodning vazifasi ko‘rsatilgan. Tadqiqotda liderlik qobiliyatlarini o‘rganishda deduktiv va empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni kuzatuv, so‘rovnoma va amaliy mashg‘ulotlarga asoslanib ishlab chiqilgan. Ishtirokchilar sifatida 3-11 yoshdagi bolalar tanlab olindi, ularda axloqiy qadriyatlar, hissiy intellekt va ijtimoiy munosabatlar orqali liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid turli vazifalar o‘tkazildi. **Tadqiqot ishonchliligini ta’minlash maqsadida nazorat guruhi ham kiritilib**, u orqali natijalar qiyoslandi [3, 101-bet].

Natijalar va muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda ijobiy liderlik qobiliyatlari quyidagi asosiy omillar bilan shakllanadi:

- **Axloqiy tarbiya (3-7 yosh):** Bu yoshda bolalar asosiy axloqiy qadriyatlarni qabul qila boshlaydilar. Robert Lordning ta’kidlashicha, axloqiy qadriyatlarni erta yoshdan shakllantirish liderlik qobiliyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Misol uchun, oila va maktabda axloqiy tarbiya berish orqali bolalarga yordamlashish, adolat, halollik kabi qadriyatlarni o‘rgatish mumkin.

- **Hissiy intellekt (4-11 yosh):** Daniel Golemanning tadqiqotlari hissiy intellektning rahbarlikda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. 4 yoshdan boshlab bolalarda empatiya va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu ko‘nikmalar bolalarning boshqalar bilan munosabatlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

- **Kommunikatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalar (0-7 yosh):** Gary Yuklning tadqiqotlariga ko‘ra, bu yoshda bolalar o‘zaro muloqot qilish va jamoada ishlashni o‘rganadilar, bu esa rahbarlikning muhim ko‘nikmalaridir. Ular o‘zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Destruktiv liderlikning paydo bo‘lish sabablari esa axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalar yetishmasligidan kelib chiqadi. Kurt Lewinning nazariyasiga ko‘ra, erta yoshda muammo hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanmasa, kelajakda liderlikning destruktiv yo‘nalishiga kirib ketish xavfi ortadi. Ushbu muammolar bolalar o‘rtasida ijtimoiy muammolar va agressiya holatlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bolalarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishidagi nuqsonlar destruktiv liderlikka olib kelishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari bolalarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va destruktiv liderlikning oldini olish uchun bir qator muhim omillarni aniqladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda ijobiy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida axloqiy tarbiya, hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalarining ahamiyati juda katta.

Birinchiidan, bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirish, ularning rahbarlik fazilatlarini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, 3-7 yosh oralig‘idagi bolalar axloqiy qadriyatlarni qabul qilishni boshlaydi. Bu yoshda berilgan tarbiya va ko‘nikmalar kelajakda ijobiy lider bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va ta’lim muassasalari bolalarga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish orqali ularning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshirishlari lozim.

Ikkinchiidan, hissiy intellekt bolalar rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. 4-11 yoshdagi bolalar hissiy intellektni rivojlantirish orqali empatiya, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va

boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, hissiy intellektning yuqori darajasi bolalarda ijobiy liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, 0-7 yoshdagi bolalar o‘zaro muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar rahbarlik uchun zarurdir va bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali bolalar boshqalar bilan samarali ishlash va ularni boshqarish qobiliyatlarini o‘zlashtiradilar.

Natijada, destruktiv liderlik aksariyat hollarda axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarning yetishmasligidan kelib chiqadi. Erta yoshda muammo hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanmasligi kelajakda liderlikning destruktiv yo‘nalishiga olib kelishi mumkin. Bu esa bolalar o‘rtasida ijobiy rahbarlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Bolalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun axloqiy tarbiya, hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar muhim omil hisoblanadi. Ijobiy liderlikni shakllantirish uchun quyidagi asosiy omillar aniqlangan:

Liderlik Qobiliyatlarini Rivojlantirishda Asosiy Omillari.

Yosh oralig‘i (yil)	Rivojlantirish omili	Tavsif
3-7	Axloqiy tarbiya	Adolat, halollik va yordam berish kabi asosiy qadriyatlarni shakllantirish
4-11	Hissiy intellekt	Empatiya va his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish
0-7	Ijtimoiy va kommunikatsiya ko‘nikmalari	Jamoada ishlash va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish

Axloqiy tarbiya bolalarda asosiy qadriyatlarni shakllantiradi va bu yosh oralig‘ida ularning ijobiy lider bo‘lib yetishishlariga asos yaratadi [2, 60-bet]. Shuningdek, hissiy intellekt 4-11 yosh oralig‘ida shakllanib, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalar bilan samarali munosabatda bo‘lishda yordam beradi [4, 130-bet]. Ijtimoiy va kommunikatsiya ko‘nikmalarining rivoji esa 0-7 yosh oralig‘ida boshlanib, bu bolalarni jamiyat bilan to‘g‘ri muloqotda bo‘lish va o‘zaro jamoaviy faoliyatni olib borishda qo‘llab-quvvatlaydi [1, 45-bet].

Destruktiv liderlik sabablarining asosiy omillari.

Omillar	Sabablar	Natijalar
Axloqiy tarbiya yetishmasligi	Ijtimoiy va axloqiy qoidalar qabul qilinmasligi	Destruktiv xulq-atvor rivojlanishi
Hissiy intellekt pastligi	Empatiya va his-tuyg‘ularni boshqarish ko‘nikmalari zaifligi	Ijtimoiy muammolar va agressiv xulq-atvor
Ijtimoiy ko‘nikmalar zaifligi	Jamoada ishlash va boshqalar bilan samarali muloqot yetishmasligi	Jamoada salbiy ta‘sirga ega bo‘lish

Destruktiv liderlikka axloqiy tarbiya va hissiy intellekt yetishmasligi sabab bo‘lib, bu omillar bolalarning jamoa ichidagi salbiy ta‘sirga va agressiv xulq-atvorga olib keladi [5, 210-bet]. Ushbu tadqiqot natijalari bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlashga yordam berdi. Axloqiy tarbiya, hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun ota-onalar va ta‘lim muassasalari birgalikda ishlashlari zarur. Shuningdek, jamiyatda ijobiy liderlikni rivojlantirish uchun bolalar o‘rtasida ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni yetarlicha berish, kelajakda muvaffaqiyatli liderlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Natijalarning ilmiy ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi uchun tadqiqotda foydalanilgan metodlar, masalan, so‘rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar, bolalarning liderlik qobiliyatlarini o‘lchashda samarali bo‘lgan. Bular orqali olingan ma‘lumotlar kelajakda ijobiy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha yangi yondoshuvlar va takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu natijalar bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida ko‘rsatilgan metodologik yondoshuvlarni amalga oshirishda jamiyat, oila va ta‘lim muassasalarining hamkorligini ta‘minlaydi. Bu esa kelajakda ijobiy liderlar tayyorlash va destruktiv liderlikning oldini olish uchun muhim qadam bo‘ladi.

Xulosalar. Ushbu maqolada bolalarda ijobiy liderlik xususiyatlarini shakllantirish va destruktiv liderlikning oldini olishda axloqiy tarbiya, hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari bolalarga adolat, halollik va yordam berish kabi qadriyatlarni singdirish orqali ularni konstruktiv liderlikka tayyorlash mumkinligini tasdiqlaydi. Hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar esa bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, muammolarni hal qilish va jamoada samarali ishlash imkonini beradi. Tadqiqotda liderlik qobiliyatlarini bolalarda rivojlantirishning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur tahlil qilganligimiz bois, "Nega lider bo‘lish kerak?" degan savolga yaqinlashish

mumkin bo‘ladi. Biz ilmiy izlanish orqali liderlikning jamiyat va shaxsiy rivojlanishga olib keladigan foydalarini, konstruktiv liderlikni shakllantirish uchun zarur ijtimoiy va axloqiy asoslarni ochib berganmiz. Bu esa lider bo‘lishni maqsad qilib qo‘yishning nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Lider bo‘lish, o‘z salohiyatini boshqalar manfaati uchun ishlatish va ijtimoiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun zarurdir. Shuningdek, ta‘lim va tarbiya muassasalari ijobiy liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq etishi muhimdir. Ota-onalarga farzandlarida axloqiy va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlovchi resurslar va treninglar taqdim etilishi ham bolalarning liderlik salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta‘lim dasturlariga hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlovchi faoliyatlarni kiritish bolalarning jamoada to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatishi va boshqalarga samarali ta‘sir ko‘rsatishiga asos yaratadi. Destruktiv liderlikning oldini olish uchun bolalarda axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, erta yoshda muammo hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanmasligi kelajakda liderlikning destruktiv yo‘nalishga olib kelishi mumkin. Bu esa bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u bolalarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida ijobiy va destruktiv omillarni o‘rganib, ijtimoiy va axloqiy tarbiyani muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Kelajakda ijobiy liderlar tayyorlash uchun ta‘lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Shuningdek, bolalarga axloqiy va hissiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va destruktiv liderlikni oldini olish uchun qo‘shimcha tadbirlar tashkil etish kerak.

Adabiyotlar:

1. Platon. Davlat. Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2015.
2. Aristotel. Nikomax axloqi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2014.
3. Lord, R. Leadership and Information Processing. New York: Routledge, 1984.
4. Lewin, K. Principles of Topological Psychology. New York: McGraw-Hill, 1936.
5. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.
6. Yukl, G. Leadership in Organizations. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2006.
7. Bass, B.M. Leadership and Performance Beyond Expectations. New York: Free Press, 1985.
8. Nizom al-Mulk. Siyosatnoma. Toshkent: Fan, 1975.

MAS’ULIYAT HISSINING KASBIY SO’NISHGA TA’SIRI

*Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna,
Ma’mun universiteti,
psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarda sodir bo’ladigan kasbiy so’nishga mas’uliyat hissining ta’siri o’rganilgan. Kasbiy so’nish muammosini keltirib chiqaradigan sabablar tahlil qilingan. Olib borilayotgan tadqiqot doirasidagi nazariy ma’lumotlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: kasbiy so’nish, kasbiy stress, mas’uliyat, motivatsion mas’uliyat, shaxsiy qiyinchiliklar, samimiylilik, dinamik komponentlar.

ВЛИЯНИЕ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ

В данной статье исследовано влияние чувства ответственности на профессиональное выгорание у специалистов, работающих с учениками с ограниченными возможностями. Проанализированы причины, приводящие к проблеме профессионального выгорания. Освещена значимость теоретических данных в рамках проводимого исследования

Ключевые слова: профессиональное выгорание, профессиональный стресс, ответственность, мотивационная ответственность, личные трудности, искренность, динамические компоненты.

THE IMPACT OF A SENSE OF RESPONSIBILITY ON PROFESSIONAL BURNOUT

This article examines the impact of a sense of responsibility on professional burnout among specialists working with students with disabilities. The causes leading to the issue of professional burnout are analyzed. The significance of theoretical information within the framework of the ongoing research is highlighted.

Keywords: professional burnout, occupational stress, responsibility, motivational responsibility, personal challenges, sincerity, dynamic components.

Kirish. Dunyoda turli xil kasblar mavjud bo’lib, har bir kasbning o’ziga xos tarzda mas’uliyatli vazifalari mavjud. "Mas’uliyat" -bu insonning zimmasiga yuklangan vazifalarni ado etish va o’z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, amalga oshirishidir. Bu so’z, asosan, ishonch, intizom, va qat’iyat kabi tushunchalar bilan bog’liq bo’lib, insonning shaxsiy yoki ijtimoiy vazifalarini vijdonan va mas’uliyat bilan bajarishini anglatadi. Mas’uliyatli shaxs o’zining harakatlari, qarorlari va ularning oqibatlari uchun javobgar bo’ladi. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi o’qituvchilar va tarbiyachilar bilan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot doirasida ulardagi mas’uliyat hissining darajalari o’rganildi. Mas’uliyat turlari bir qancha bo’lib, ular turli xil sohalaridagi vazifalar va javobgarliklarni ifoda etadi. Quyida mas’uliyatning asosiy turlari keltirilgan: shaxsiy mas’uliyat — insonning o’z harakatlari, qarorlari va shaxsiy vazifalari uchun javobgar bo’lishi. Bu turdagi mas’uliyat kishi o’z zimmasidagi ishlar, shaxsiy hayot va o’z o’ziga nisbatan mas’uliyat his etishidir. Ijtimoiy mas’uliyat — jamiyatga, odamlarga yoki kengroq bir guruhga nisbatan javobgarlik. Bunda inson jamiyat manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy odob-axloq qoidalariga rioya etish va faol fuqaro bo’lish bilan bog’liq vazifalarga mas’ul bo’ladi. Oilaviy mas’uliyat — oila a’zolariga nisbatan javobgarlik. Bu oilaviy vazifalarni bajarish, farzandlar, turmush o’rtog’i yoki keksa a’zolarga g’amxo’rlik qilishni o’z ichiga oladi. Huquqiy mas’uliyat — qonunlarga rioya qilish va huquqiy majburiyatlarni bajarish bilan bog’liq [3]. Bu turdagi mas’uliyat qonunbuzarlik sodir etmaslik, boshqalarning huquqlarini poymol etmaslikka qaratilgan. Ish yoki kasbiy mas’uliyat — kasbiy vazifalarni vijdonan bajarish, ishxona qoidalariga amal qilish va ish bilan bog’liq maqsadlarga erishish uchun javobgarlik. Axloqiy yoki ma’naviy mas’uliyat — insonning o’z vijdoniga va axloq-etika qoidalariga ko’ra amal qilish mas’uliyati. Bu mas’uliyat shaxsiy qadriyatlar, vijdon, va ma’naviy e’tiqodlarga bog’liq bo’ladi. Ekologik mas’uliyat — tabiat va atrof-muhitni asrash, uning barqarorligiga hissa qo’shish vazifasi. Bu mas’uliyat insonlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirlardan saqlanishi va tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan. Har bir inson turli sohalaridagi mas’uliyatlarni his qilish orqali ijtimoiy va shaxsiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanadi [1].

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi o'qituvchilarda kasbiy so'nish (burnout) muammosini o'rganish juda muhim, chunki bu muammo nafaqat ularning shaxsiy hayotiga, balki o'quv jarayoni va ta'lim sifatining pasayishiga ham olib keladi. Bu maqolada o'qituvchilardagi kasbiy so'nish muammosi, uning asosiy omillari va unga qarshi kurashish choralari haqida batafsil yoritib o'tamiz. Kasbiy so'nish tushunchasi va uning o'qituvchilarga ta'siri muhim masaladir. Kasbiy so'nish — ish jarayonida o'qituvchilarda charchoq, stress, va ishdan qoniqmaslik tufayli ro'y beradigan ruhiy holat bo'lib, bu holat ularning ishga nisbatan motivatsiyasini tushiradi va sifatini kamaytiradi. O'qituvchilarda kasbiy so'nish paydo bo'lishi ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir qilishi mumkin va ularda ruhiy va jismoniy charchoqni keltirib chiqaradi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi o'qituvchilarda kasbiy so'nishga sabab bo'luvchi omillarga nazar tashlasak bular yuqori talablar va stressga bog'liq ekanligi bilan namoyon bo'ladi [2]. O'qituvchilarga imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash va ularning bilimni oshirish va jamoatchilik talablarini qondirishda katta yuklama tushadi. O'zgaruvchi ta'lim standartlari, yangi pedagogik texnologiyalar, va nogiron o'quvchilar bilan ishlash zarurati stressni kuchaytiradi. Ish hajmi va vaqtning yetishmasligi sababli ko'p o'qituvchilar o'z ishlarini yakunlash uchun darsdan tashqari vaqtlarini ham sarflaydilar. Bu esa shaxsiy hayotga salbiy ta'sir qilib, ularni ko'proq charchatadi. Qarz va moddiy omillar tufayli ba'zi o'qituvchilar moddiy kamchiliklarni his qilib, qo'shimcha ish qilishga majbur bo'ladilar. Bu ularning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hurmat va qadrlanmaslik hissini boshidan o'tkazgan o'qituvchilarda ishga ro'yxushlikning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa kasbiy so'nishga olib keladi. O'qituvchilarda kasbiy so'nish quyidagi belgilari orqali namoyon bo'lishi mumkin, tinimsiz charchoq va energiyaning yo'qolishi, ishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, o'quvchilar va hamkasblar bilan munosabatlarda qiyinchiliklar, stressga olib keluvchi fikrlarning ko'payishi, bosh og'rig'i, uyqusizlik, va immunitetning pasayishi kabi. Kasbiy so'nishni bartaraf etish yo'llarini izlab topish, emotsional yordam va maslahatni tashkil qilish zarur. Bu ularga o'z his-tuyg'ularini bayon qilish va muammolarini yengishda yordam beradi. Ish sharoitlarini yaxshilash orqali o'qituvchilar uchun ish yuklamasini qisqartirish, ortiqcha hujjat ishlarini minimallashtirish, va moddiy yordamni oshirish kabi choralar orqali ish sharoitini yaxshilash mumkin. Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish, o'qituvchilarga yangi ko'nikmalarni o'rganish uchun kurslar, seminar-treninglarni tashkil qilish ularning o'z kasbiga nisbatan motivatsiyasini oshiradi. Bundan tashqari ish vaqtida tanaffus va dam olishni ta'minlash, ma'naviy hordiq olish imkonini yaratish orqali ularning ish unumdorligini oshirish mumkin. Sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tanaffuslar davrida sport bilan shug'ullanish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish ham ruhiy va jismoniy barqarorlikni ta'minlaydi [6].

Asosiy qism. Kasbiy so'nish (yoki emotsional zo'riqish) va mas'uliyat hissi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan bir qancha olimlar bu masalaga oid tadqiqotlar olib borishgan. Asosan, kasbiy so'nishga ta'sir etuvchi omillar orasida shaxsiy va kasbiy mas'uliyat hissi muhim rol o'ynaydi, chunki bu his insonning ishga munosabatini, stress darajasini va javobgarlikni qanday his qilishini belgilaydi.

K. Maslach- Kaliforniya universiteti professori bo'lib, u kasbiy so'nish (burnout) mavzusida yetakchi tadqiqotchi hisoblanadi. Maslachning “Maslach Burnout Inventory” deb nomlangan shkalasi so'nish holatini baholash uchun keng foydalaniladi. Uning tadqiqotlari, asosan, mas'uliyat hissi va yordamchi kasblardagi emotsional charchoq o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

G.Froydenberger - kasbiy so'nish tushunchasini ilgari surgan ilk tadqiqotchilardan. U hamkasblari bilan birga mas'uliyatni yuqori darajada his etuvchi xodimlarda charchash holatining yuqori bo'lishi mumkinligini aniqlagan.

M. Leyter — Maslach bilan hamkorlikda ishlab, kasbiy so'nish va ishga bog'liq stresslarning mas'uliyat hissiga ta'sirini o'rgangan. Uning tadqiqotlari mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan kasblarda so'nish holati tez-tez uchrab turishini ko'rsatadi.

A. Bakker- kasbiy so'nishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda mashhur. U "resurslar va talablar" nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, unda ish talablari va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi charchoq va so'nishga olib kelishi haqida fikr bildirgan.


R. Karasek tomonidan uning “talablar-nazorat” modeliga ko'ra, inson o'z ishida yuqori darajadagi mas'uliyatga ega bo'lgan holda, yetarlicha nazoratga ega bo'lmasa, kasbiy so'nish paydo bo'lishi mumkin. Bu model juda ko'p tadqiqotlarda mas'uliyatni o'rganish uchun qo'llanilgan. Bu olimlarning tadqiqotlari jamoatchilik va ijtimoiy sohalarida ishlovchilar, o'qituvchilar, shifokorlar kabi mas'uliyatni yuqori his etuvchi kasblarda so'nishning ko'proq kuzatilishini tasdiqlaydi. Ular mas'uliyat va kasbiy charchoq o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga katta hissa qo'shgan [5].

Kasbiy so'nish (burnout) va mas'uliyat hissi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etish hozirgi kunda juda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Burnout sindromi ish jarayonida uzoq vaqt davomida kuchli emotsional va jismoniy charchoqni boshdan kechirish orqali kelib chiqadi va kasbga bo'lgan qiziqishning

pasayishiga olib keladi. Bunday holatlarda xodimlarning mas’uliyat hissi ushbu jarayonga qanday ta’sir ko’rsatishi va uni qanday boshqarish mumkinligini tushunish muhimdir.

“Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislardagi kasbiy so’nishning psixologik asoslari” mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishi doirasida O.V.Muxlinina tomonidan taklif qilingan “Mas’uliyat-110” ning ko’p o’lchovli-funksional diagnostikasi metodikasidan foydalanildi. Biz olib borayotgan tadqiqot doirasida turli xil nuqsonli o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislardagi o’z kasbiga bo’lgan mas’uliyat hissini qanday darajada namoyon bo’lishini o’rganish maqsad qilingan. Tadqiqotga 416 nafar respondent jalb qilingan. Ulardagi mas’uliyat darajasini aniqlashga qaratilgan so’rovnomalar natijasida ko’ra 416 nafar respondentning o’z ishiga mas’uliyatli yondoshish ikki jihatda ko’rib chiqildi. Bular o’z vazifalarini bajarishdagi shaxsiy va operatsion qiyinchiliklar darajasiga ko’ra aniqlandi.

Shaxsiy va operatsion qiyinchiliklar darajasi bo’yicha 416 nafar respondentdan: bular o’qituvchilar va tarbiyachilar bo’lib, o’qituvchilarning 87 nafarida tarbiyachilarning 129 nafarida operatsion qiyinchiliklar kuzatildi. Shaxsiy qiyinchiliklar o’qituvchilarning 110 nafarida, tarbiyachilarning 90 nafarida kuzatildi (1-rasm)



1-rasm. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislardagi qiyinchiliklar darajasini o’rganish diagrammasi

Mas’uliyat hissining kasbiy so’nishga ta’sirini tahlil qiladigan bo’lsak, mas’uliyat hissi xodimning ishdagi samaradorligi, ishonchini saqlash va vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun asosiy omillardan biri sanaladi. Biroq yuqori mas’uliyat hissi doimiy ravishda kuchli zo’riqish va uzoq ishlashga sabab bo’lib, ortiqcha mas’uliyat tuyg’usini yuzaga keltiradi [7]. Bu esa, o’z navbatida, xodimning kuchini tezda tugatib, buornout holatiga tushishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, xodimlar ko’pincha yuqori mas’uliyat tuyg’usini ishga bog’langanlik sifatida tushunib, o’z vaqti va energiyasini cheksiz sarf qiladi.

Bu ularning sog’lig’iga ham zarar yetkazib, kasbdagi motivatsiyasini tushirishi mumkin. Shu bilan birga, bunday holatlarda xodimlarning ish unumdorligi pasayib, ularda ruhiy charchoq va tushkunlik holatlari paydo bo’ladi. Bu kabi vaziyatlarda xodimlarning mas’uliyat tuyg’usini to’g’ri boshqarish va ularning ish vaqti hamda ish hayoti muvozanatini saqlashga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Mas’uliyat tuyg’usini boshqarish strategiyalari ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlashda muhim. Kasbiy so’nishni oldini olish uchun xodimlarga ish va shaxsiy hayot o’rtasida muvozanatni saqlashda yordam berish zarur. Bu nafaqat ularning salomatligi, balki umumiy ish samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Relaksatsiya usullarini joriy qilish orqali har bir xodimning dam olish va o’zini tiklashga ehtiyoji bor. Shuning uchun jamoadagi har bir xodimga o’z vaqtini samarali boshqarish imkoniyatini yaratish kerak. Ortiqcha mas’uliyatni bir xodim zimmasiga yuklamang. Mas’uliyatlarni adolatli taqsimlash xodimlar o’rtasidagi o’zaro ishonch va hamkorlikni oshiradi. Buornout va mas’uliyat hissi o’rtasidagi bog’liqlikni tushunish va ushbu jarayonni to’g’ri boshqarish ish jarayonida samarali muhit yaratish uchun muhimdir. Xodimlarning mas’uliyat tuyg’usini qadrlash va ularga o’z qobiliyatlariga qarab mas’uliyat berish orqali ishlash jarayonini yengillashtirish va xodimlarning sog’lig’ini saqlash mumkin. Bu, o’z navbatida, uzoq muddatli samaradorlik va jamoadagi barqarorlikka olib keladi [8].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy so’nish muammosi o’qituvchilarning hayotiga, ularning ish sifatini va o’quvchilarning ta’lim olish darajasiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. O’qituvchilarning mehnatini qadrlash, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko’rsatish orqali kasbiy so’nish holatini kamaytirish mumkin. Bu nafaqat o’qituvchilar, balki butun ta’lim tizimi uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Бойко В. В. Синдром «эмоционального выгорания» в профессиональном общении. СПб.: Питер, 1999. 105 с.
2. Водопьянова Н.Е. Синдром «выгорания» в профессиях системы «человек-человек» //практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности/ Под ред. Г.С. Никифорова и др. СПб.:2001
3. Водопьянова Н.Е., Старченкова Е.С. Синдром выгорания:диагностика и профилактика. - СПб.: Питер, 2008. – 336.
4. Капитанец Е.Г Исследование формирования синдрома эмоционального выгорания педагогов// Концент. 2015.№ 2
5. Жуманиёзова Н.Р. Определение качества жизни специалистов, работающих с учениками с ограниченными возможностями здоровья // Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2024.-№ 33- С 214-220.
6. Jumaniyozova N.R. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarda mas’uliyat hissining namoyon bo’lishi //«Bola va zamon»-Toshkent, 2024. -№ 3 -B.8-9.
7. Jumaniyozova N.R. Imkoniyati cheklangan o’quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarga psixologik yordamni tashkil qilish masalalari// «Pedagogik mahorat»- Buxoro, 2024.-№ 8-B. 34-38.
8. Jumaniyozova N.R. Maxsus ta’lim mutaxassislarning stressga chidamlilik xususiyatlarini ilmiy tadqiqi etilishi// «Fan va jamiyat» - Nukus, 2024. - № 4/2- B.106-108.

OILAVIY NIZOLARNING FENOMENOLOGIYASI: MOHIYATI, ANIQLOVCHI XUSUSIYATLAR

*Narmuradova Rayhon Uktamovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi*

Mazkur maqolada oilaviy nizolarning kelib chiqish shart-sharoitlari, uni aniqlovchi xususiyatlar, oldini olish chora-tadbirlari hamda bartaraf etish masalalari muhokama etiladi. Maqolada nazariy qiyoslash hamda tizimli tahlil metodidan foydalaniladi.

Oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida tahlil qiluvchi olimlar nizolar chastotasini va oilada hissiy buzilish ehtimolini belgilovchi eng muhim omillardan biri undagi keskinlikning umumiy darajasi degan xulosaga keladilar. Muayyan hodisaning yuzaga kelishiga olib keluvchi nizolar ko'p jihatdan har bir oila a'zosining ruhiy zo'riqish darajasiga va umumiy ijtimoiy muhitning keskinligiga bog'liq bo'ladi

Kalit so'zlar: oilaviy nizo, psixologik yordam, metod, sulh, xususiyat.

ФЕНОМЕНОЛОГИЯ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ: СУЩНОСТЬ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

В данной статье рассматриваются условия возникновения семейных споров, определяющие их особенности, меры профилактики и вопросы устранения. В статье использован метод теоретического сравнения и системного анализа.

Учёные, анализирующие семью как малую социальную группу, приходят к выводу, что одним из важнейших факторов, определяющих частоту конфликтов и вероятность эмоционального срыва в семье, является общий уровень напряжённости в ней. Конфликты, приводящие к возникновению того или иного события, во многом зависят от уровня психического напряжения каждого члена семьи и напряжённости общей социальной среды.

Ключевые слова: семейный конфликт, психологическая помощь, метод, мир, характеристика.

PHENOMENOLOGY OF FAMILY CONFLICTS: ESSENCE, DETERMINING CHARACTERISTICS

This article discusses the conditions for the origin of family disputes, their defining features, preventive measures, and issues of elimination. The article uses the method of theoretical comparison and systematic analysis.

Scientists who analyze the family as a small social group come to the conclusion that one of the most important factors determining the frequency of conflicts and the likelihood of emotional breakdown in the family is the general level of tension in it. Conflicts leading to the occurrence of a particular event largely depend on the level of mental stress of each family member and the tension of the general social environment.

Keywords: family conflict, psychological help, method, peace, characteristics.

Kirish. Mustaqillikka erishilgan kundan boshlab O'zbekistonda oila va nikoh masalasiga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlagandek, "Oila bu muqaddasdir, bunga biz befarq emasmiz, chunki O'zbekistondagi har bir oila uchun biz g'amxo'rdirmiz" deb ta'kidlagan edilar. Hozirgi kunda "Oila ilmiy-tadqiqot instituti" faoliyati ishimizning dolzarbligini oshiradi. Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Shu munosabat bilan shu kabi muammoli holatlarni oldini olish va ijtimoiy hayotimizdagi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni ishlab chiqilishi jamiyatdagi turli xil salbiy holatlarni bartaraf etish va ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishni yanada jadallashtirdi. V.G.Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarak-atrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hech kimning ishi emas". Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu sababli oila ijtimoiy institutini har tomonlama rivojlantirish omillarini ishlab chiqish orqali jamiyat farovonligini ta'minlagan bo'lamiz.

«Oila - er, xotin va farzandlardai iborat. Ya'ni oila bir shaxs boshchiligidagi bir uyda yashovchilardir», - deydi Abdurauf Fitrat. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlariga ega O'zbekiston davlatining ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi doirasida, uning “Birlashgan psixologik tizimlar” haqidagi g'oyalari, turmush o'rtoqlar haqidagi g'oyalarining o'zaro ta'siri natijasida ularning dunyo qiyofasini qayta qurish, qadriyat yo'nalishlari va hayot nuqtayi nazarlarining o'zgarishi maxsus tizim shakllanishi deb tushunilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar natijasida nikoh munosabatlarini asrab-avaylash vazifalari oila farovonligi uchun, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. O'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqalarning his-tuyg'ularini farqlash qobiliyati, boshqacha qilib aytganda, emotsional intellekt nikohni qondirish uchun alohida ahamiyatga ega. Er-xotinning hissiy darajadagi samarali o'zaro munosabatlari ko'plab nizolarning oldini oladi va shuning uchun ham nikoh munosabatlarida yuqori darajada qoniqish hosil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Bugungi kunda ba'zi oilalarda janjallar ko'paygan. Bu janjallarning ildiziga ahamiyat beradigan bo'lsak, oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan muomalalaridagi kamchiliklarni ko'ramiz. Shunday ekan oila a'zolari bir-biri bilan muomala qilishni va o'zaro shaxslar-aro samimiy munosabatni o'rnatma, insoniy axloq-odob, milliy an'ana va qadriyatlarimiz asosida oilaviy hayotni tashkil etsa turli xil oilaviy nizolar oldi bartaraf etiladi deb aytishimiz mumkin. Shuningdek, oilaviy hayotni to'g'ri tashkil etish yuzasidan muqaddas dinimiz ko'rsatgan tavsiyalariga rioya qilish orqali ushbu ziddiyatli holatlar oldi olish mumkin.

Kuzatishlarimiz va o'rganilgan adabiyotlar tadqiqotimiz maqsadi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish shunday fikrga kelishimizga asos bo'ldiki, oilaviy turmushda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar o'zgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega, ya'ni bu munosabatlar dinamik jarayondir. Bu jarayonni shaxs tomonidan boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, bu jarayonda shakllantirish imkoni mavjudligini bildiradi.

Albatta, bu o'zgarishlar qator tashqi va ichki (subyektiv) omillarga bog'liq. Yana shuni ta'kidlash zarurki, bu munosabatlar dinamikasi ma'lum bir bosqichlarni o'z boshidan kechiradi hamda muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Mazkur qonuniyatlar bilish jarayonini boshqarish va unga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

“Odamning nikoh va oila qurishga tayyorligining boshlang'ich nuqtasi uning oilaviy munosabatlar ahamiyatini tushunishi, odamlarning bir-birlari oldidagi javobgarligini tushunishi, oilaviy hayotda muqarrar bo'lgan tashvishlar va shaxsiy erkinlikdagi cheklashlarni o'z xohishiga ko'ra qabul qilishi hisoblanadi”. Demak, shaxslararo munosabatlar xarakterining o'ziga xos tarzda shakllanib va o'zgarib borishi er-xotin munosabatlarida tabiiy bir holki, bu munosabatlarning oilaviy turmush staji ortib borishi bilan o'zgarib, o'ziga xos tarzda shakllanib borishiga ham ayni tarzda qarash maqsadga muvofiq.

Ko'pgina mutaxassislar, psixologlar va sotsiologlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda oilaga, uning jamiyatdagi va inson hayotidagi o'rniga ijtimoiy munosabatlarning kuzatilgan o'zgarishi nafaqat yoshlar, balki boshqa yosh darajasidagilar uchun zamonaviy yechimlar va modellarni yaratish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ijtimoiy fonning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy konturining keskin o'zgarishi, sivilizatsiyalashgan jamoalar deb ataladigan butun ijtimoiy tuzilmani larzaga keltiruvchi ma'naviy-axloqiy notinchlikning kuchayishi sharoitida oila va uning fenomenining intensiv qiymat-semantik eroziyasi sodir bo'ladi.

Bunday sharoitda bir vaqtlar bir-birini sevgan odamlar ba'zan bir-birlarini tushunishni to'xtatadilar, bir-birlarida qandaydir uzoq xatolarni topishga harakat qiladilar, o'zlarini aslida beparvo, mas'uliyatsiz ekanligiga ishontirishga harakat qilishadi, e'tiborsiz, xudbin, qo'pol va boshqalar. Har qadamda ular o'rtasida nizolar paydo bo'la boshlaydi. Bir-biriga nisbatan bunday munosabat oddiy psixologik nomuvofiqlik bilan izohlanadi ko'p hollarda. Shu bilan birga ushbu vaziyatlardagi yana bir noto'g'ri tushuncha, o'z kamchilik va xatolarini tan olishni, boshqa odamni tushunishni yoki hech bo'lmaganda tushunishga harakat qilishni istamaslikni yashiradi.

Oilaviy nizolar sotsial jamiyatda nizolarning eng keng tarqalgan, o'tkir va surunkali shakllardan biridir. Mutaxassislarining fikricha, oilalarning 80-85 foizida aniq nizolar, qolgan 15-20 foizida esa turli sabablarga ko'ra janjal kelib chiqadi.

Bugungi kunda **konflikt** (nizo xususan oilaviy nizolar,) ijtimoiy va individual-shaxsiy hodisa sifatida tushunish, uning inson tabiatiga asoslangan determinant asoslarini tushunish uchun bir qator juda konstruktiv yondashuvlarni nomlash mumkin. Ko'rinib turibdiki, ularning ko'pchiligini inson hayoti va xatti-harakatlaridagi ma'lum global va maqsadli belgilarning mohiyatini tushunish orqali aniqlash mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra bu turdagi nizolar aslida hej qayerdan, ya‘ni to‘satdan yo‘q joydan, asossiz vaziyatlar va arzimas sabablar evaziga kelib chiqadi.

Oila psixologiyasi sohasidagi tadqiqotchilarning fikricha, oilada kuzatiladigan shaxslararo munosabatlarni psixologiyasini tushunib, uni transformatsiyasini amalga oshirish, ya‘ni o‘zgartirishga qaratilgan xizmat ko‘rsatish oila uchun muhimdir. Shu ma‘noda O‘zbekiston uchun oila ijtimoiy institut sifatida oliy qadriyat bo‘lsada, bevosita oilalarning ichki ilmiy va umummadaniy bilish darajasi va oilaviy munosabatlarga bo‘lgan psixologik layoqati talab darajasida emas va bu boradagi ishlar, xizmatlar ham yetarlicha tashkil etilmagan.

Shu bilan birga oilaviy munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishga amaliy yordam beruvchi psixolog mutaxassislar xususiy holatda xizmat olib borish amaliyoti mavjud, lekin murojaatlarning aksariyati shu omilga bog‘liq bo‘lib yechilmay qoladi. Natijada oilada hal qilinmay qolgan ijtimoiy-psixologik xarakterdagi muammolarda nosog‘lom muhitni o‘rnashib qolishi, insonlarning oilasidan norozi bo‘lib yashashi, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olmasligi kabi bir qator salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Oilaga psixologik yordam berish eng muhim ijtimoiy muammo bo‘lsada, biroq bu borada oilalar bilan ishlaydigan psixolog-mutaxassis kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilmagan, oliy ta‘lim muassasalarida shu yo‘nalish joriy etilmagan [6]. Bu ham oilaviy munosabatlarga endi qadam qo‘yayotgan yoshlarga, yosh oilalarga va umuman olganda oilaviy nizolarga duch kelayotgan er-xotinlarga mediatsion murosaviy immunitetning yetarlicha singdirilmay qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Dastlab deyarli har bir oila a‘zosining o‘zini namoyon qilish va xulq-atvor qoidalarini (u yoki bu kuch va ularning namoyon bo‘lishining o‘zgarishi bilan) oldindan belgilab beradigan va aniqlaydigan global konflikt belgilarining faqat bir qismini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, oilaviy mojaro, har qanday ijtimoiy ziddiyat (ya‘ni, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar tizimidagi ziddiyat) kabi – shunchaki janjal yoki qarama-qarshi maqsadlar to‘qnashuvining natijasi va shakli bo‘lgan munosabatlarning u yoki bu qarama-qarshiligi, manfaatlar, pozitsiyalar, rollar, fikrlar, qadriyatlar yoki oilaviy o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining qarashlaridagi nomutanosiblikdir.

Natijalar. Muayyan strategiya va xulq-atvor taktikalarida ifodalangan bunday ziddiyatli o‘zaro ta‘sir ular ko‘zlagan maqsadlarga erishishga qaratilgan maqsadni oldingi o‘ringa qo‘yish orqali ko‘rinadi. Shunga ko‘ra, yuqorida aytib o‘tilgan jihatlariga ko‘ra, oila a‘zolarining xatti-harakati va farovonligida qayd etilgan mojaroning yetakchi belgilari (u yoki bu darajada ularning namoyon bo‘lishi, mojaroning og‘irligiga, tomonlarning shaxsiy xususiyatlariga, masalan, temperament, xarakter, shuningdek, ta‘sirchanlik, shubha, hasad, tajovuzkorlik va boshqalar kabi fazilatlar) ko‘pincha quyidagilar bo‘lib hisoblanadi:

- oila a‘zosi bilan bilan kognitiv, hissiy va boshqa aloqalarning uzilishi;
- xatti-harakatlardagi namoyishkorona mustaqillik, muammoni payqash va muhokama qilishni qat‘iy istamaslik, “bularning barchasini sizziz hal qila olishimni ko‘rsataman” qabilidagi g‘oyalar;
- bir-biridan uzoqlashish istagi, turli zamon va makonda ikki tomon roziligi bilan qo‘llab quvvatlanadigan yolg‘izlik;
- vaqtinchalik yoki doimiy ruhiy zo‘riqish va noqulaylik;
- biror narsa noto‘g‘ri ekanligini intuitiv his qilish, garchi uni so‘z bilan ifodalash juda qiyin bo‘lsa-da buning natijasidagi xafachilik, xo‘rlik hissining paydo bo‘lishi;
- munosabatlarni o‘rnatish va bir-biri bilan muammolarni hal qilishda zo‘ravonlik usulini ustun qo‘yish;
- bir-birini haqorat qilishga, his-tuyg‘ularni nazorat qilishni yo‘qotishga va hokazolarga imkon beradigan nizolarda asossiz jahldorlik, g‘azab, achchiqlik va murosasizlik;
- fikrlar va hukmlardagi nomutanosiblik, konfliktning predmeti bo‘lgan barcha narsalar bo‘yicha adekvat baho va bashorat qilish qiyinligi;
- oila a‘zolar o‘rtasida bir-birining shaxsiyati va harakatlariga va zaifligiga nisbatan noxolis fikrlar va salbiy munosabatlardan kelib chiqadigan og‘ir shafqatsiz xarakterdagi tashvish;

Nizoli vaziyatni tahlil qilishda yuqoridagi barcha yondashuvlar bir-birini mantiqiy ravishda to‘ldiradi va rivojlantiradi va oiladagi nizolarni o‘rganish, uni tavsiflash va hal qilish tartibi to‘g‘risidagi konkret qaror qabul qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Shuni yodda saqlash lozimki, oilaviy munosabatlarning o‘ziga xosligi va shunga mos ravishda oilaviy nizolar istisnosiz barcha oila a‘zolarining ijtimoiy va ruhiy salomatligiga alohida ta‘sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ziddiyat nafaqat o‘zlariga, balki bolalarning farovonligiga va ota-onalari bilan munosabatlariga ham ta‘sir qiladi.

Xulosa va munozara. Oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida tahlil qiluvchi olimlar nizolar chastotasini va oilada hissiy buzilish ehtimolini belgilovchi eng muhim omillardan biri undagi keskinlikning umumiy

darajasi degan xulosaga keladilar. Muayyan hodisaning yuzaga kelishiga olib keluvchi nizolar ko‘p jihatdan har bir oila a‘zosining ruhiy zo‘riqish darajasiga va umumiy ijtimoiy muhitning keskinligiga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Антонюк Е.В. Представления супругов о распределении ролей и становление ролевой структуры молодой семьи: Автореф.дисс.... канд.психол.наук. – Москва, 1999. – 24 с.
2. <http://www.gks.ru/wps/wcm/connect> (2020)
3. Андронникова О.О. Основы психологического консультирования. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. — 415 с.
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учеб. пос. – М.: Гардарики, 2005. – 320 с
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.; Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. - T.: “Yunaks – Print”, 2006. – 230 b.
6. Гришина Н.В. Психология конфликта. Спб. Питер. 2003.
7. S. Yuldashev, N. Norqulova “Nizoli oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish”, “Yoshlar nashriyot uyi” Toshkent – 2020 4-b
8. www.ziyonet.uz

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARI KOMPETENTLIGINI OSHIRISH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

*Abdullaeva Lobar Bazarbaevna,
Nukus innovatsion instituti assistent o‘qituvchisi*

Hozirgi kunda ta‘lim muassasasi pedagog xodimlarni ta‘lim sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri – kasbiy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondashuvni amalga oshirishdir. Maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf kadrlarida, ya‘ni talabalarda turli kompetensiyalarni shakllantirish negizida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini yuzaga chiqarish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, metod, o‘qituvchi, talaba, dars, innovatsiya, o‘qitish.

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В настоящее время одним из концептуально важных методов управления качеством образования педагогических кадров в образовательном учреждении является реализация компетентного подхода в модернизации содержания профессионального образования. В статье рассматриваются вопросы развития речевых компетенций учащихся на основе формирования различных компетенций у будущих кадров начальной школы, то есть учащихся.

Ключевые слова: речевая компетентность, метод, учитель, ученик, урок, инновация, обучение.

FORMING SPEAKING COMPETENCES OF STUDENTS THROUGH IMPROVING THE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Nowadays, one of the conceptually important methods of educational quality management of pedagogical staff in an educational institution is the implementation of a competent approach in the modernization of the content of professional education. In the article, the issues of developing students' speech competences on the basis of the formation of various competencies in future elementary school personnel, that is, students, are considered.

Keywords: speech competence, method, teacher, student, lesson, innovation, teaching.

Kirish. Muloqot, insonlarning asosiy faoliyat turlaridan biri bo‘lgan holda, odamning qobiliyatlari va kommunikativ ko‘nikma, malakalarini takomillashtiradi. Muloqot bola shaxsining umuman shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Insonlar faoliyatidagi mutanosiblikning samaradorligi ularning muomala layoqati darajasiga ham bog‘liqdir. Aynan shu sabab individ ijtimoiylashuvining kechishidagi muvaffaqiyat o‘z vaqtida muloqotga ko‘nikmasining yetarli darajada rivojlanganiga bog‘liq hisoblanadi.

Muloqot vositasi sifatida nutqdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning nomukammalligi eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning, ikkilamchi nuqsoniga aylanib, o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi.

Kompetentlik (lotincha “competens” – layoqatli, qobiliyatli) deganda shaxs kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarning professional mavqeyi va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy munosiblik darajasi tushuniladi. Bunday layoqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘qimishlilik darajasi, ya‘ni katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, balki o‘z bilimlarini amalda samarali qo‘llay olish qobiliyatini bildiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyidagilar asosida ta‘minlab beradi:

- Media materiallar: audio jamlanmalar: videoteka. Videolavhalar.
- Didaktik materiallar: elektron didaktik materiallar (slaydlar va posterlar); aniq jarayonni ko‘rsatish uchun tayyorlangan animatsiyali roliklar; real dasturning imitatori yoki stimulyatori.
- Qo‘shimcha materiallar: o‘rganilayotgan o‘quv predmeti yoki mavzu bo‘yicha huquqiy-me‘yoriy hujjatlar; o‘rganilayotgan o‘quv predmeti yoki mavzu bo‘yicha mutaxassislar, hamkasblar maslahatlari.
- Axborot materiallari: o‘rganilayotgan o‘quv predmeti bo‘yicha lug‘atlar; axborot resurs markazi(ARM) materiallari.

– Baholash materiallari: o‘rganilayotgan o‘quv predmeti yoki mavzuni o‘zlashtirilishi darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan me‘yor hamda mezonlar tizimi, elektron baza ko‘rinishidagi dasturlar.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining kasbiy kompetenligi undagi mavjud qobiliyat orqali rivojlanadi, albatta, amalga oshirilgan faoliyatga bog‘liq tarzda. Bunday fikrlarni psixolog fikrlarida ham ko‘rib o‘tamiz, jumladan: M.G.Davletshinning ishlarida o‘qituvchida quyidagi qobiliyatlar bo‘lishi zarurligi ta’kidlangan:

– didaktik (fanga qiziqtirish, aniq va oson anglatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish); akademik (matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va shu kabi fanlarga xos); perseptiv (o‘quvchi ichki dunyosi, ruhiy holati nozik holatlarni tushunish); nutq (kechinmalarni nutq, yuz ifodasi (mimika) va pantomimika yordamida ifodalash); tashkilotchilik (o‘z va o‘quvchilarning bir-biriga hamkorlik ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish hamda o‘quvchilarni jipslashtirish); avtoritar (o‘quvchilarga hissiy-irodaviy ta‘sir o‘tkazib, ular orasida obro‘ orttira bilish); kommunikativ (bolalar bilan pedagogik maqsadga mos muloqotga kirishish, me‘yorni unutmashlik); pedagogik mulohaza (o‘quvchini ta‘limiy va tarbiyaviy shakllantirish borasidagi urinishlari natijasini bashorateta olish); diqqatni taqsimlay olish (bir vaqtning o‘zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olish) kabilar.

O‘yinli faoliyatda bola o‘zining shaxsiy sifatlarini ochadi, ko‘nikmalarini takomillashtiradi. O‘yinlarning ham kommunikativ malakaning rivojlanishidagi, ham ta‘limdagi imkoniyatlarining ahamiyati, uning boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsiyati rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganish masalalari L.C. Vigotskiy [6], R.I. Jukovskaya [5], A.N. Leontev [8], D.B. Elkonin tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ya.L. Kolomenskiy [7], T.P. Avdulova [4], V.S. Muxina [9] mazkur tadqiqotlarga tayangan holda o‘yinlarni tashkil etish metodikasi, ularning bolalar ta‘limi va tarbiyasidagi muammolarni hal qilish yo‘llarini ochib berganlar. Biz ushbu tadqiqotlarni o‘rganish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kommunikativ malakalarini shakllantiruvchi vositalar orasida o‘yinli faoliyat eng samarali hamda zaruriy vosita ekanligini aniqladik.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf kadrlarida, ya‘ni talabalarda turli kompetensiyalarni shakllantirish negizida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini yuzaga chiqarish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha pedagogik adabiyotlar o‘rganiladi va olimlarning fikrlari tahlil qilinib, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. O‘yin maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan, psixologik-fiziologik energiyani sarflashga yo‘nalgan, bolalar faoliyatining erkin, mustaqil ko‘rinishi bo‘lib, ushbu jarayonda bolaning shaxsiy xislatlari, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallash uchun asos solinadi. U bolalarning asosiy muloqot vositasi, unda shaxslararo munosabatlardagi muammolar hal etiladi, insonlararo munosabat tajribasi ortadi. O‘yin faoliyati mukammal ta‘limiy shakl bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun tushunarli va aniq hisoblanib, bolaning ilg‘or faoliyati sanaladi. Tadqiqotchilar o‘yinni insonning bolalik davridagi faol, rivojlantiruvchi faoliyati bo‘lib, avvalo, bolani inson hayotiga, uning ijtimoiy funksiyalari va munosabatlariga yo‘naltirilishi kechadigan jarayon ekanligini ta’kidlaydilar [6, 8, 10].

Ilg‘or o‘yin faoliyati asosida bola shaxsida quyidagi o‘zgarishlar yuzaga keladi:

- o‘yin faoliyati boshqa faoliyat turlarining shakllanishi uchun, ya‘ni ta‘lim olish uchun mustahkam po‘ydevor bo‘ladi;

- ilg‘or faoliyat psixik jarayonlarni shakllantiradi, takomillashtiradi, sifatli o‘zgartirib, o‘yinda birinchi tasavvurlar shakllanadi;

- ilg‘or faoliyat natijasida bola shaxsiyatidagi asosiy o‘zgarishlar yuzaga keladi;

- o‘yinli faoliyat asosida bolada ramzli funksiyalar va tasavurning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kuzatiladi;

- o‘yinda boladagi o‘yin harakatlari takomillashadi, ya‘ni o‘yinlar tarkibi va tashkil etilishiga ko‘ra murakkablashadi [8].

O‘yin faoliyatining mohiyati haqidagi quyidagi yaxlit tushunchaga kelish mumkin:

- o‘yin kelib chiqishi va tarkibiga ko‘ra o‘ziga xos ijtimoiy faoliyatdir;

- o‘yin boshqa turdagi faoliyatlarda o‘z o‘rniga ega va bolalar uchun asosiysi hisoblanadi;

- o‘yinning rivojlanishi tartibsiz bo‘lmay, shaxsning psixologik, fiziologik rivojlanishi uchun kerakli ijtimoiy sharoitlar va tarbiyaga bog‘liq holda amalga oshadi.

Bolaning muloqoti va ijtimoiy kompetentligining rivojlanishi umumiy psixologik rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanib, bolalarni birlashtiruvchi do‘stona o‘yin birdaniga paydo bo‘lmay, shakllanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tadi, bunda bolalar o‘rtasida tushunmovchiliklar va ziddiyatlar paydo bo‘ladi. Bolada tengdoshlari va kattalar bilan muloqot jarayonida ijtimoiy muhit qabul qilgan odob modellari shakllanadi. Maktab yoshi boshqa insonlar bilan munosabatning muntazam rivojlanishi asosida o‘tadi. Bu munosabatlar

shaxsning kelgusidagi shakllanishida zamin, poydevor vazifasini bajarib, bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonini belgilaydi. Y.L. Kolomenskiy [7], T.P. Avdulova [4], V.S. Muxina [9] tadqiqotlarida bolalarning emotsional ravnaqi ko‘p hollarda bolaning tengdoshlari bilan munosabatining xarakteriga bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Bolalarning tengdoshlari bilan o‘yindagi muloqoti o‘sayotgan ijtimoiy ongning asosiy qismi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘yinlari faqat shaxslararo muloqotni rivojlantiruvchi katta potensialga ega bo‘lmay, balki bolalar jamoasini rivojlantiruvchi potensialga ham ega. Agar uy sharoitida bolalarning asosiy sherigi sifatida munosabatlarni modellashtirishni ancha cheklovchi o‘yinchoqni bilsak, unda tengdoshlari guruhida bola qarshisida turli munosabatlarni o‘zlashtirishning ulkan imkoniyatlari ochiladi hamda ular o‘yin vaziyatlarida hamda o‘yinga asoslangan munosabatlarda shakllanadi.

O‘quvchi uchun o‘yin jarayonida tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlariga kirishar ekan, bunda u o‘zining quvonch, kayfiyatlari bilan bo‘lishadi, erkin o‘yinlarda qatnashadi va nimadir yangilik topadi, shu bilan o‘yindagi hamkorlikning mukammal imkoniyatlarini topadi. Bolaning faolligi, uning ijtimoiy boradagi rivojlanishga ehtiyoji, e‘tibori va o‘zini aniqlab olishi uchun uni jamoada bo‘lishi, ya‘ni jamiyatni talab qiladi.

Ijtimoiylashuv manbasi bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyatlari bo‘lib, ularning asosiy predmetlari sifatida yaqin kattalar, ijtimoiy katta yoshli va tengdoshlari bilan o‘zaro muloqoti, shuningdek, bolaning o‘zaro harakatlarga munosabati, muloqotning tarkibi va shaklini keltirish mumkin. Ijtimoiylashuv jarayoni harakatlantiruvchi kuch, ilg‘or faoliyat hisoblanadi. Bolalik yoshida shaxsdagi ijtimoiy tomonlama prinsipial o‘zgarishlar o‘yin faoliyati mobaynida amalga oshib, u rol o‘ynash, ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish, bolalar jamoasiga kirish, talablarga bo‘ysunish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali amashga oshadi. Ijtimoiylashuv shaxsning asosiy xususiyati sifatida tug‘ilgandan boshlab hayotining har davr va sohalarida butun umr davomida rivojlanadi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki shakli – identifikatsiya bo‘lib, u bola tomonidan guruhga kirish va shaxsiy “MEN” ning rivojlanishida ijtimoiy rolni qabul qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Identifikatsiya asosida ijtimoiylashuvning boshqa ikki shakli rivojlanadi: individualizatsiya va personalizatsiya. Individualizatsiyaning tarkibi deb bolaning ijtimoiy takrorlanmasligi va faoliyati individual uslubining paydo bo‘lishiga aytiladi. Personalizatsiyaning mohiyati insonning o‘zi yaratgan dunyodagi narsalardan o‘zini rivojlantirish va o‘zining mavjudligini isbotlash uchun foydalana olish qobiliyatida aks etadi. Ijtimoiylashuv identifikatsiyasi, ya‘ni tengdoshlari guruhiga kirish, guruh munosabatlarga yo‘nalish va boshqalar bilan munosabatlar tizimida o‘z ichki o‘rnini shakllantirish bilan bog‘liqdir. O‘yinli faoliyatda bola o‘z individualligini tushungan holda, o‘zini boshqalardan ajratishga, boshqalardan indentifikatsiya, hamdardlik orqali yaxlitlay olishga o‘rganadi. Bola o‘ynash mobaynida ijtimoiy munosabatlarni modellashtiradi. Shu bilan birga, emotsional hamdardlik, syujetga munosabat orqali ularni qabul qiladi, emotsional kirishish natijasida o‘sayotgan o‘ziga ishonch kommunikativ vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini yaxshilaydi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, o‘yin faoliyati boshlang‘ich sinf yoshida asosiy faoliyat hisoblanadi. O‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘yin faoliyati kommunikativ malakani shakllantirish vositasi hisoblanib, uning asosida o‘zaro harakat qilish hamda o‘z fikrlarini verbal va noverbal usullarda ifodalash mahorati shakllanadi.

Bunday mahoratlar insonning yaxlitligini, kamolotini, individualligini va ko‘p qirraligini tavsiflab, ularning rivojlanishiga insonning ijtimoiy faolligi bog‘lanib, aynan hayot faoliyati tarzini belgilaydi.

Biz izlanishimizning dastlabki bosqichida o‘yin, o‘yin faoliyatining asoslari, uning boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kommunikativ malakasini shakllantirish vositasi ekanligini ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganib chiqdik.

Adabiyotlar:

1. Kibanov A.Ya. Xodimlarni boshqarish asoslari. M., 2003 yil.
2. Oxotnikova V.V., Surtaeva N.N. Universitetda mutaxassislar tayyorlashda kommunikativ kompetensiya masalalari. Sankt-Peterburg, 2002-yil.
3. Xutorskoy A.V. Asosiy kompetensiyalar va ta‘lim standartlari: Rossiya ta‘lim akademiyasining "Ta‘lim falsafasi va pedagogika nazariyasi" kafedrasi ma‘ruzasi. 2002 yil 23 aprel. Eidos markazi. [URL]: www.eidos.ru/news/compet.htm
4. Avdulova T.P. O‘smirlik psixologiyasi: Oliy kasbiy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik / T.P. Avdulova. – M.: IC akademiyasi, 2012 yil.
5. Jukovskaya R.I. O‘yin va uning pedagogik ahamiyati. M.: Aspect Press, 2008 yil.

6. Vygotskiy, L. S. Bolalar psixologiyasining savollari / L. S. Vygotskiy. Sankt-Peterburg: SOYUZ, 2017 yil.
Olimlarning fikriga ko‘ra, o‘qituvchilarning pedagogik strategiyalari ta‘lim va o‘qitishda AKTdan foydalanishning hal qiluvchi tarkibiy qismidir. Muammo o‘qituvchilarni nafaqat imkoniyatlarga ishonishda, balki, talabalarining bilimni yaxshilash uchun ushbu vositalardan ularning o‘zlari ham rejalashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Imkoniyatlar talabalarining ta‘lim ehtiyojlariga mos kelishi va talabalar ularni idrok etishi va ulardan foydalanishi uchun ushbu o‘quv muhitini boshqaradi. Ushbu vositalardan foydalanish natijasida o‘qituvchi va talabalar uchun yangi rollar paydo bo‘ladi. Talabalarni faolroq ishtirok etishga jalb qilish mumkin. Ta‘lim va o‘qituvchilarning roli asosiy tashkiliy va boshqaruv vazifalariga vaqt sarflashdan

ko‘ra, o‘zaro ta‘sir o‘rganish imkonini berishga ko‘proq e‘tibor qaratiladi.

Kasbga yo‘naltirish-yoshlarni xohish moyilligi va shakllangan qobiliyatlariga yarasha hamda xalq xo‘jaligini, umuman jamiyatning mutaxassislariga ehtiyojlarini hisobga olib ishga joylashtirish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan psixologik pedagogik, tibbiy tadbirlar kompleksi. O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish – yoshlarga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam qaratilgan ijtimoiy- iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish- texnik tadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi. Ta‘kidlash joizki, Jahon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishni o‘rta umumta‘limni yangilashning muhim omili sifatida tan oldi. Maktab o‘quvchilarida kasb-hunar tanlashga ko‘malashishning asosiy maqsadi — umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish. Maktab amaliyotchi psixologi, sinf rahbarlari va texnologiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga mas‘uldir. Jumladan, maktab psixologining vazifasi quyidagilar: — o‘quvchilarni kasblar haqidagi fikrlarini kengaytirish, ularni qobiliyat va imkoniyatlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish; — o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ota-onalarni va keng jamoatchilikni jalb qilgan holda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish. O‘quvchilarning kasb-hunarga layoqatini o‘rganish uchun ularning aqliy,jismoniy qobiliyatlarini bilish,malaka va ko‘nikmalarini o‘rganish lozim. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Kasb tanlash- jiddiy va mas‘uliyatli ishdir. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining, psixologningmahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlar yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘g‘rak va qo‘shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur.Mehnat ta‘limini turmush bilan bog‘lash, uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo‘naltirishda quyidagilarga e‘tibor berish lozim bo‘ladi: - o‘quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari,motivlari, ezgu niyatlari xususan kasb-korga bo‘lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash; -o‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash; -ota onalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatish;

O‘quvchilarni texnologiya fanini o‘zlashtirishga psixologik tayyorlash. Ushbu jarayon murakkab, uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u butun texnologiya fani va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga psixologik tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Texnologiya fani tamoyillari - o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Texnologiya fani tamoyillari o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo‘sinda tashkil etiladigan texnologiya fanining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun texnologiya fani tamoyillari mehnatdan ta‘lim berishning ma‘lum obyektiv qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Texnologiya fani tamoyillari tizimiga: texnologiya fanining milliy yo‘nalganligi, texnologiya fani va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, mehnat bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta‘limga tegishli bu qonun-qoidalar, texnologiya fanini o‘qitish, bilim berish, ya‘ni texnologiya fani jarayoniga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnat ta‘lim tamoyillari maktab, o‘quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o‘zaro bir-biri bilan mustahkam bog‘liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular texnologiya fani oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o‘z hissasini qo‘shadi. Ta‘lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o‘quvchilarga mehnat texnologiya fanidan mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta‘lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir. Mehnat sohasida nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog‘lab olib borish mehnat ta‘limining yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Texnologiya fani va tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariya bilan amaliy ishlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Shundagina o‘quvchi o‘rganayotgan o‘quv materiallarning tub mohiyatini tushunib yetadi va mustaqil faoliyatda, amaliy ishlarda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o‘qituvchi ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o‘zlashtirishga olib keladi.

Talabalarning ma‘naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va

uygʻunligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini oʻstirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion gʻoyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga oʻrgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

“Texnologiya va dizayn” fani talabalarga yogʻoch, metallar va polimer materiallarining xususiyatlari toʻgʻrisida boshlangʻich bilimlar, yogʻochdan buyumlar tayyorlashda rejalash, yoʻnish, arralash, teshish, pardozlash ishlari, qoʻl va elektr asboblarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilgʻor texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni oʻrgatadi.

Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olgʻa harakatlantiruvchi asosiy omil boʻlib kelgan. Yosh avlodni ijodiy mehnatga oʻrgatish, uni zamonasining eng ilgʻor bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Texnologiya dars jarayonlarida nazariy va amaliy mashgʻulotlarning ketma-ket tashkil qilinganligi ham fanimizning oʻquvchilarni kasb egallashlari uchun qay darajada muhim fan ekanligini yaqqol isbotidir.

Oʻquvchilarning ing mazkur fanni oʻzlashtirishlari uchun oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Texnologiya fani tamoyillari - oʻqituvchining faoliyatini va oʻquvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Texnologiya fani tamoyillari oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yoʻsinda tashkil etiladigan texnologiya fanining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun texnologiya fani tamoyillari mehnatdan taʼlim berishning maʼlum obyektiv qonuniyatlarini oʻzida aks ettiradi. Texnologiya fani tamoyillari tizimiga: texnologiya fanining milliy yoʻnalganligi, texnologiya fani va tarbiyaning uzviy bogʻliqligi, mehnat boʻyicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz taʼlimga tegishli bu qonun-qoidalar, texnologiya fanini oʻqitish, bilim berish, yaʼni texnologiya fani jarayoniga samarali taʼsir koʻrsatadi. Mehnat taʼlim tamoyillari maktab, oʻquv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular oʻzaro bir-biri bilan mustahkam bogʻliq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular texnologiya fani oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga oʻz hissasini qoʻshadi. Taʼlim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda oʻquvchilarga mehnat texnologiya fanidan mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, taʼlim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir. Mehnat sohasida nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bogʻlab olib borish mehnat taʼlimining yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Texnologiya fani va tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariya bilan amaliy ishlarning oʻzaro bogʻliqligiga asoslanadi. Shundagina oʻquvchi oʻrganayotgan oʻquv materiallarning tub mohiyatini tushunib yetadi va mustaqil faoliyatda, amaliy ishlarda ulardan foydalana oladi. Buning uchun oʻqituvchi taʼlim jarayonida oʻquvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib oʻzlashtirishga olib keladi.

Texnologiya fanini oʻrganish jarayonida oʻquvchilar xalqimiz ruhiyatini, yashash tarzini, anʼanalarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining koʻp qirralari boy merosini oʻrganish, oʻzlashtirish va amaliy faoliyatlariga qoʻllash vazifasini hal etadilar. Texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi anʼanaviy sinf-dars mashgʻulotlariga nisbatan shogirdustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, boʻlgʻusi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy taʼminlanishida hamda tarixiy qadriyatlarining yanada boyishida ijobiy taʼsir koʻrsatadi. “Ustoz-shogird” tizimi mashgʻulotlarini tashkil etishni oliy oʻquv yurtlaridagi musiqa taʼlimida talabalar bilan oʻqituvchilarning yakka tartibdagi mashgʻulotlar oʻtkazishi bilan taqqoslash mumkin. Texnologiya fanida elektron hisoblash texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qoʻllanilishini oʻrganish, oʻquvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini taʼlimning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda oʻrganilishini taʼminlaydi. Keyingi vaqtlarda kam eʼtibor berilayotgan, hatto yoʻqolib borayotgan turli xildagi taʼlim-tarbiyaviy tadbirlar: oʻquvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo oʻquv ishlab chiqarish markazlari, oʻquvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otaliq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta koʻrib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va taʼlim tizimi amaliyotiga qoʻllanilishi, texnologiya fanining maqsad, vazifalarini amalga oshirishda asosiy shartsharoitlardan hisoblanadi. Texnologiya fanini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda oʻzaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, oʻquv jarayonida foydali mahsulot–tovar moddiy neʼmatlar yetishtirilib, taʼlim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga

oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Texnologiya fanini amalga oshirishda ta’limning quyidagi tamoyillariga rioya etish talab etiladi:

Ta’limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- nazariy ta’limni unumli mehnat bilan qo‘shib olib borilishi;
- ta’limning politexnizm asosida qurilishi;
- ta’limning kasbiy yo‘naltirilganligi;
- ijodiy rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

Umumdidaktik tamoyillar:

- amaliyligi; ilmiyligi; tarbiyaviyligi;
- ijodiyligi;
- ko‘rgazmaliligi;
- moddiy-texnika jihozlari bilan ta’minlanganligi;
- izchilligi;
- uzviyligi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim jarayonida natijaviylikka erishish bo‘yicha o‘quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurini o‘stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Ta’lim tizimida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologiya fanini puxta o‘rgatish uchun axborot ta’lim resurslari, ijodiy 139 materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida foydalanish va uni darslarda joriy etishda quyidagi bir qator muammolar o‘z yechimini topishi kerakligi ta’kidlanadi: 1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini texnologiyani o‘rgatishda o‘ziga xos innovatsion texnologiya turi bu - axborot texnologiyasi ekanligi; Boshlang‘ich sinf texnologiya darslari jarayonida har bir innovatsion texnologiyalarning o‘z o‘rni bor. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarning bir turi sanalgan axborot texnologiyasi - o‘quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini o‘stirish uchun xizmat qiladi. Axborot texnologiyasi interfaol metodlar, didaktik o‘yinlardan farqli o‘laroq, barcha tushuncha va mavzularni ekranda ko‘rib, fikr yuritishda va amaliy uchun yaxshi samara beradi. Texnologiya darslari axborot texnologiyalari va ularning turlaridan foydalanish eng yaxshi vosita ekanligi qayd etildi. 2. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslaridan axborot texnologiyalari orqali o‘tishda ehtiyoj seziladigan mavzular bazasini shakllantirish lozim; Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish belgilangan mavzu yuzasidan chuqur bilim olish, tasavvur, tushuncha hosil qilish uchun zamin yaratadi. 3. Axborot texnologiyalaridan boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida foydalanish uchun uni didaktik vositalari tizimini ishlab chiqish zarur; 4. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslari jarayonida yaxshi samara bera oladigan axborot texnologiya turlarini ajrata olish va undan foydalanishni tashkillashtirish. O‘qituvchi boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan qo‘llashda didaktik vositalardan foydalanish uchun maxsus ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur: 1. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallarni tanlash va ularni o‘qitish samaradordigini oshirishda saralangan materiallardan nazariy 140 (ma’ruza) va amaliy mashg‘ulotlarda qanday an’anaviy, noan’anaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanishni aniqlash. 2. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallar o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashlarini, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni, mantiqiy mulohaza yuritishlarini, amaliy ishlarni bajarishni hisobga olish. 3. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarni bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga samarali usulda o‘qitish metodikasini ishlab chiqish.

Axborot texnologiyasi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta’lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta’minlash, faollikni oshirish, o‘zo‘zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. Hozirgi vaqtda ta’limda quyidagi asosiy axborot texnologiyalardan keng foydalanilmoqda va o‘rganilmoqda: O‘qitishning elektron vositalari. O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zaro ta’siridan iborat. Hozirgi zamon kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari imkoniyatlari o‘qitish vositalariga o‘qituvchi va ta’lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi. Elektron o‘quv-metodik majmualar- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topgan va o‘quv materiallarini kompyuter texnologiyalari, audio-video vositalar asosida taqdim etadigan o‘quv-metodik majmuasi. Elektron shakldagi o‘quv-uslubiy materiallar- elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron ma’ruza

materiallari, elektron kutubxonalar, mos(GD, Flesh va h.k.) sig‘imdagi audio vizual materiallar, interfaol o‘quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o‘tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o‘tkazish tizimlari. Elektron darslik- kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llash, mustaqil ta‘lim olish, muayyan fanga oid o‘quv materiallari, ilmiy ma‘lumotlarni har tomonlama samarali o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv adabiyoti yoki kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qish vositasi. Elektron o‘quv adabiyot- zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma‘lumotlarni to‘plash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv manbalari. Multimedia- kompyuter uchun mo‘ljallangan tovush, video va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy majmua. Tovush, video, animatsiyalarni “multimedia elementlari” - deyish mumkin. Multimedia texnologiyalari axborotning ko‘pgina turlarini o‘zida integratsiyalaydi. Masalan: a) skanerdan olingan tasvirlar; b) yozib olingan ovoz, musiqiy effektlar va musiqa; d) murakkab videoeffektli videolar e) turli animatsiyalar Qolaversa, multimedion vositalarga qo‘shimcha qilib, proyektor, interaktiv doskani ham kiritish mumkin. Yana shu narsani ta‘kidlash joizki, multimedia orqali olingan bilimlar kishi xotirasiga uzoq saqlanib, kerak paytda amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Umuman olganda, multimediani qo‘llash orqali quyidagi o‘qitish effektivligiga erishiladi: . bilimlarni o‘zlashtirish majburan emas, balki o‘quvchi ixtiyori bilan amalga oshadi; . multimedia o‘quvchi tomonidan xursandlik bilan qabul qilinadi, xursandlik esa o‘z navbatida uni o‘quv faniga munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi; . o‘quvchini boshqalarga nisbatan o‘zini namoyon qilish imkoniyati paydo bo‘ladi; . o‘quvchida o‘z faoliyatini baholash uchun yangi obyektiv mezon paydo bo‘ladi: kim ko‘p bilsa va undan muvaffaqiyatli foydalana olsa, o‘sha yutib chiqadi; . o‘z fantaziyalariga erk berish imkoniyati tug‘iladi, qo‘rquv hissi, boshqalarga kulgi bo‘lish hissi, yomon baho olishdan qo‘rqish hissi chekinadi; . jamoada sog‘lom raqobat va musobaqa muhiti tashkil topadi; . o‘quvchilar mavjud qiyinchiliklarni mustaqil yengib o‘tishga intiladilar; fanlararo bog‘lanishni haqiqiy amalga oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Fanni o‘qitishda plakatlari, chizmalar, namunalar, yo‘riq-noma texnologik xaritalar, ko‘rgazmali texnik vositalardan, kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va dasturlashtirilgan elektron didaktik vositalardan foydalanib, talabalarining bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ko‘zda tutiladi. Bugungi kunda ta‘lim sohasida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg‘ulotlarda ularni qo‘llashni o‘rganish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Multimedia texnologiyalarini ta‘lim jarayonlariga joriy etish ta‘limni axborotlashtirishning asosiy nuqtalaridan biridir. Hozirgi vaqtda multimedia texnologiyalari jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbliigi ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida jamiyatni axborotlashtirish va Internet global kompyuter tarmog‘idan keng foydalanish bilan bog‘liq. Kompyuter texnologiyalari bugungi kunda ko‘plab talabalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular ko‘pincha ularni oddiy maktab darsligidan ko‘ra ko‘proq qiziqish bilan qabul qilishadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar tomonidan materialni katta darajada o‘zlashtirishni ta‘minlaydi.

Interaktivlik multimedaning juda muhim qismidir. Odamlar ko‘rgan narsalarining atigi 20 foizini va eshitganlarining 30 foizini eslab qolishadi. Bundan tashqari, ular ko‘rgan va eshitgan narsalarining 50 foizini va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan, eshitgan va qiladigan narsalarining 80 foizini eslab qolishadi. Zamonaviy jamiyatda bilim tobora tovarga aylanib bormoqda va har qanday tovar kabi yaxshi qadoqlash va tegishli tarqatish usullarini talab qiladi. Multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterlashtirilgan ta‘lim inson o‘qituvchisining o‘rnini bosa olmaydi, lekin u o‘qituvchi faoliyatini, ayniqsa, mustaqillik, ijodiy fikrlash rivojlanadigan sohalarida to‘ldirishi va takomillashtirishi mumkin.[2]

Texnologik ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha (Elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, talabalarni tasavur qilish imkonini bo‘lmagan mavzular bo‘yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo‘lmagan laboratoriya mavzulari bo‘yicha tayyorlangan virtual laboratoriyalar, talabalarni mustaqil ta‘lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar) virtual reallikni loyihalash, matematik modellashtirish, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, virtual reallik xususiyatlari, didaktikaning asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot asosida o‘rganiladi

Xulosa. Bugungi kunda ta‘lim sohasida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video ishlanmalar, telekommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va

mashg‘ulotlarda ularni qo‘llashni o‘rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg‘a harakatlantiruvchi asosiy omil bo‘lib kelgan. Yosh avlodni ijodiy mehnatga o‘rgatish, uni zamonasining eng ilg‘or bilimlar bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha xalqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan.

Adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022- 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-241-son «Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Tashxis markazi “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish” o‘quv qo‘llanmasi.

**BO‘LG‘USI RASSOM-PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIK
FENOMEN SIFATIDA**

*Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligi, zamonaviy tendensiyalar, ijtimoiylik, kreativlik, ijodiy kompetentlik, kompetentlik turlari va vazifalari, pedagogik qobiliyat, pedagogik yondashuv kasbiy fenomen sifatida ekanligi, kasbiy tayyorgarlik turlari, pedagogik kompetensiya, kompetentlik tarkibiy qismlari, kompetensiyalar ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** fenomen, kompetentlik, integratsiya, konsepsiya, dunyoqarash, bilim, ehtiyoj, kompetensiya turlari, maxsus pedagogika, mutaxassis, ijtimoiy talab.*

**ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-
ХУДОЖНИКОВ В КАЧЕСТВЕ ФЕНОМЕНА**

В данной статье рассматриваются профессиональная компетентность будущих художников-педагогов, современные тенденции, коммуникабельность, творчество, творческая компетентность, виды и задачи компетентности, педагогические способности, педагогический подход, как профессиональное явление, виды профессиональной подготовки, педагогическая компетентность, компоненты, обсуждается важность компетенций, их специфические характеристики и роль.

***Ключевые слова:** явление, компетентность, интеграция, понятие, мировоззрение, знание, потребность, виды компетенций, специальная педагогика, специалист, социальный спрос.*

**PROFESSIONAL COMPETENCE AS A PHENOMENON IN FUTURE
ARTIST-EDUCATORS**

In this article, the professional competence of future artists-pedagogues, modern trends, sociability, creativity, creative competence, types and tasks of competence, pedagogical ability, pedagogical approach, being a professional phenomenon, types of professional training, pedagogical competence, components of competence, the importance of competencies, their specific characteristics, and their role are discussed.

***Keywords:** phenomenon, competence, integration, concept, worldview, knowledge, need, types of competence, special pedagogy, specialist, social demand.*

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar innovatsion ta’limga berilayotgan e’tiborning yaqqol namunasidir. Shu qatorda, zamonaviy talablarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash har qanday ta’lim jabhasining asosiy ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Darhaqiqat, kasbiy, ijtimoiy kompetentlikka ega bo‘lgan, yuqori kreativ fikrlaydigan pedagoglar pedagogik fenomen ya’ni kamdan-kam uchraydigan hodisa, shaxs hisoblanadi. Bu jarayonda, bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning uchun kasbiy-tayyorgarlik qanday zamonaviy tendensiya talabiga jabob bera olishini mezonlarga ajratish mumkin. Ushbu mezonlar asosida tub mohiyatini anglash uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangiliklarni izlab topishni, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar ajralmas qismi sifatida negizlanadi:

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bkmni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bkmni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik[1].

Darhaqiqat, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot taraqqiyoti sharoitida bilimlar boshqa xarakterga ega bo‘la boshladi: o‘qituvchining kasbiy faoliyati ko‘proq harakatchanlikni, moslashuvchanlikni, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni, umumiy va kasbiy madaniyat darajasini doimiy ravishda oshirib borishni talab qilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda kasb-hunar va pedagogik ta‘limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida olimlarning «o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi» atamasiga diqqat, e‘tibor qarotishi, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jahon standartlarining yuqori darajasiga erishish uchun zamonaviylikni milliy mentaletimizga moslashtirish zarurati bilan bog‘liq.

Bizga ma‘lumki, kompetentlik atamasi «samaradorlik», «erishish», «muvaffaqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo‘lish», «sifat», «miqdor» so‘zlari yordamida ta‘riflanadi, shu bilan birga ko‘pgina mualliflar uni turlicha ta‘riflaganlar. Masalan:

L. Spenser va M. Spenserning ta‘kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o‘lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi haqidagi g‘oyani ilgari surganlar.

Dj. Raven eas kompetentlikni biror bir obyekt yoki obyektlar sinfiga ko‘ra biror sohaga tegishlilik bilan baholash mumkinligini qayd etgan. Natijada ma‘lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo‘ladi. Bu esa shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan natijani berishini aniqlanish ma‘nosiga ega bo‘ladi deb tushuntiradi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o‘qituvchisidan yuqori saviyadagi madaniyat, chuqur ma‘nodagi ma‘naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas‘uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo‘lishi, o‘z talabalarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o‘z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya‘ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya‘ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi[2].

“Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan, kompetentlik noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Kasbiy kompetentli o‘qituvchi, birinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta‘lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ikkinchidan, o‘z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Tahlil va natijalar. Demak, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish, umuman olganda, dunyodagi va mahalliy ta‘lim makonidagi mavjud tendensiyalar sharoitida tahlil qilinayotgan hodisaning mazmuni, protsessual va texnologik jihatlaridagi progressiv dinamik o‘zgarish sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu tendensiyalardan biri bu davlat siyosati va fanni rivojlantirishning umumiy va kasb-hunar ta‘limi sifatini oshirishga yo‘naltirilganligidir va o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi hozirgi kunda kasbiy mahoratning yetakchi xususiyatidir. Shu bilan birga, kasbiy ma‘noda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda uzluksiz o‘qitish uchun asos sifatida butun hayot davomida o‘rganish qobiliyati zamonaviy o‘qituvchining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omilga aylanadi.

Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o‘qituvchining pedagogik qobiliyatiga egaligiga bog‘liq. Manbalardan birida qobiliyat tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning

osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyatdir. Qobiliyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyatlar ko’zga tashlanadi:

-bir vaqtning o’zida bir necha faoliyatni bajara olish (eshitish, ko’rish, o’qish,yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);

-atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish(bir talabning ma’ruzasini eshitgani holda , boshqa talabalarning faoliyatini kuzata olish);

-o’ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko’p savollarga javob topishga intilish);

-miya faoliyatining boikimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to’xtovsiz faoliyat ko’rsatib, nihoyatda kam vaqt dam oladi, bilish jarayonida noaniqliklar ko’zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas);

-nutqi va fantaziasining boyligi(qobiliyatli o’qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli).

Pedagogning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

➤ har bir o’quvchi uchun dolzarb bo’lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, o’quvchining shu rivojlanish kesmasida harakat qila olishida, uning hayot mazmunining ochilishi va amalga oshishida o’qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko’rsata olishini «ko’ra olish» qobiliyati;

➤ ayrim o’qituvchilar rivojlanishi mazmuni va kesmasi integratsiyasi hisoblangan hamda jonli organizm sifatida talabalar guruhini uning rivojlanish va mazmun kasb eta borish jarayonida «ko’ra olish» qobiliyati;

➤ guruhning integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini «ko’rish» va idrok etish malakasi;

➤ o’zining organizmini yuksak darajada anglash, guruh, talaba o’z istaklari, motivlari, afzal ko’rishi jihatidan ular uchun zarur bo’lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;

➤ shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chalg’itish;

➤ o’z sezgilarining nozik farqlanishi imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish;

➤ keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»,ovozi, xatti-harakat, mimika va boshqalarni egallash;

➤ kasbiy usullar va metodlarning keng jamg’armasi;

➤ metodologiyani egallash.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta’lim muassasasi tayyor holdagi kompetentli pedagogni yetkazib bera olmaydi.

Kompetentlikka erishishning eng samarali va to’g’ri yo’li-o’z-o’zini tarbiyalashdir. O’z-o’zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko’p, qolaversa o’qituvchining o’zi ijodiy soha hisoblanadi, izlanishni talab etadi. Demak, kasbiy kompetentlik – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati bo’lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo’lish, ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish asosida tarkib topadi.

Ta’lim tizimida tom ma’noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o’qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o’quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqq olishi zarur. Bu esa o’qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Demak, kasbiy kompetentlikning asosiy poydevori - kasbiy bilimlardir. O’qituvchining bilimlari, bir tomondan, o’zi o’qitadigan predmetlarga qaratilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, ularni o’zlashtiradigan o’quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmunini o’zi o’qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi. Demak, pedagogning kasbiy kompetentligi - bilimlarni «insoniylashtirish»dadir, ularni auditoriyaga oddiy kitobdangina emas, balki o’zining dunyoqarashi sifatida bayon etadi. Pedagogning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakllanadi, uning harakatlari asosida yotuvchi prinsiplar va qoidalar bu psixologik jarayonda kechadigan xususiyat bo’lib, pedagogik faoliyat samarasiga ta’sir etadi.

O’qituvchi shaxsiy xususiyatlari ichida motiv yetakchi o’rinda turadi. Motiv - o’qituvchining hayotda jamiyatda tutgan roli, intilishlarini belgilab beradi. Ijobiy motivga ega bo’lgan o’qituvchi jamiyat oldida turgan o’z vazifasi va fuqarolik burchini chuqur his etadi, o’z kasbi va o’quvchilarni sevadi, o’zi ustida tinmay ishlaydi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, rassom-pedagogning kasbiy kompetentligiga xos shaxsiy sifat va xususiyatlariga qo’yidagilarni kiritish mumkin:

1. Gumanistik va demokratik his-tuyg‘uga ega bo‘lish;
2. Jamiyatda o‘z fuqarolik burchini anglab yetish;
3. O‘quvchilarni sevish;
4. Pedagogik odob va ma‘naviy yetuklikga ega bo‘lish,
5. Bilimga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj,
6. Tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish,
7. O‘zini tuta bilish,
8. O‘z ma‘lumotini oshirish ustida ishlash[3].

Bular o‘qituvchining yani bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini eng muhim sifat va fazilatlarini desak ham bo‘ladi. Aslida, bu sifat va xususiyatlarning soni, miqdori nihoyatda ko‘p.

Professionalizmning ko‘p qirrali mohiyatini E.F.Zeyer - kasb-hunar mahoratini «bu o‘qituvchining integrallashgan fundamental bilimlari, umumlashtirilgan ko‘nikma va qobiliyatlari, uning kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarini, yuqori darajadagi texnologik samaradorligi, madaniyati va mahorati, pedagogik faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish va doimiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorlik» deb hisoblaydi[3].

Shuni esdan chiqarish kerakki, o‘qituvchining nazariy tayyorgarligining mazmuni ko‘p hollarda psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. Ammo, maqsad - faqat bilimlarni shakllantirishdan iborat emas. O‘qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo‘lib hisoblangan va bir tizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo‘lmagan narsa bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham bo‘lajak rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e‘tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o‘qituvchida analitik, bashorat qilish, loyihalash va reflektiv ko‘nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo‘luvchi faoliyatdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, xatti - harakatini rivojlantirishi va ta‘sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta‘minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta‘limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart. Inson qaysi kasb sohibi bo‘lmasin o‘z ishiga, mashg‘ulotiga mehr bilan yondashsa, uning sirlarini mukammal egallaydi. O‘z-o‘zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. Pedagog ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o‘zi ham ulg‘ayadi, pedagogga oid sifatlar kasb etib boradi. Kelajak yoshlarning qo‘lida deyapmiz, demak biz xalqning ertangi kunimiz. Biz interfaol darslar tashkil etilishini xohlaymiz. Bunda o‘qituvchining notiqlik san‘ati, chiroqli so‘zlash mahorati bizning diqqatimizni jalb qiladi. O‘qituvchi pedagoglarni hurmat qilamiz, chunki, nihoyatda mas‘uliyatli va sharaflil kasb. O‘qituvchilik kasbi ulug‘ va sharaflil, murakkab, o‘z o‘rnida mas‘uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo‘lib yetishishiga o‘qituvchi sababchi bo‘ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmi, olim-u-fuzalolar o‘qituvchining mehnati samarasidir. O‘qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. O‘qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o‘zida ,avvalo, iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o‘qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallashi lozimdir.

Bu kasbda kompetentlik muhim ahamiyatga ega. Kompetentlikni shakllantirish bilan bir qatorda hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri talabalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil holda fanga tegishli kerakli axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda tutilmagan noaniq, muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarini kundalik turmushi jarayonida qo‘llay oladigan xususiyatlarni egallagan holda tarbiyalashdan iboratdir. Bo‘lajak pedagoglarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda o‘z sohalariga doir barcha fanlarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni dars jarayonlarida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni fenomenal jihatdan shakllantirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Quchqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. Darlik. – Toshkent. - 2022. 50-bet.
2. Fazilat Bo‘riyeva Xudayqulovna. Pedagogik ta‘lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения. Chirchik, Uzbekistan 1668 International Conference.
3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent-2014. 112b.

4. Aslanova D.X., Salamov F.F., Xalikov Y.M.. Kasbiy kompetentlik. - O‘quv qo‘llanma.2020.40-bet.
5. Hasanboev J. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Toshkent-2008. 149 b.
6. Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o‘quv amaliyotining o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2016 yil. 30-b.
7. Aslanova D.X., Salamov F.F., Xalikov Y.M. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand-2020.17-b.

YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA RUHIY CHIDAMLILIK AHAMIYATI

*Hamidov Amirxon Ahmadjonovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqodchisi
amirxonhamidov@internet.ru
<https://orcid.org/0009-0009-5293-0051>*

Ushbu maqolada yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda ruhiy chidamlilik ahamiyati, qanday qilib yoshlardagi ruhiy holatni aniqlash va uni chiniqtirish to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritiladi. SWEMWBS o‘lchovidan foydalangan holda harbiy xizmatga tayyorlanayotgan o‘smirlardagi ruhiy holat darajasi o‘lchanadi va tahlil qilinadi. Yoshlar ruhiyatining ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga tashqi omillar inobatga olingan holda bo‘lajak askarlarning ruhiy darajasini ijobiy tarafdagi o‘zgartiradigan ayrim takliflar berib o‘tiladi.

***Kalit so‘zlar:** SWEMWBS o‘lchovi, ruhiy chidamlilik, fikr-g‘oyalarga qaramlik, ruhiy farovonlik, milliy mentalitet, harbiy ta‘lim*

ЗНАЧЕНИЕ ПСИХИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ В ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЁЖИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ

В данной статье рассматривается значение психической устойчивости при подготовке молодёжи к военной службе, способы выявления и тренировки психического состояния молодёжи. С помощью шкалы SWEMWBS измеряется и анализируется уровень психического здоровья подростков, готовящихся к военной службе. С учётом внешних факторов, влияющих на моральное состояние молодёжи в положительную или отрицательную сторону, даются некоторые предложения, которые изменят психический уровень будущих солдат в положительную сторону.

***Ключевые слова:** шкала SWEMWBS, психическая стойкость, идейная склонность, психическое благополучие, национальный менталитет, военное образование.*

THE IMPORTANCE OF MENTAL STRENGTH IN PREPARING YOUTHS FOR MILITARY SERVICE

This article discusses the importance of mental resilience in the preparation of young people for military service, how to identify and train the mental state of young people. Using the SWEMWBS scale, the level of mental health in adolescents preparing for military service is measured and analyzed. Taking into account the external factors that affect the morale of young people in a positive or negative direction, some suggestions are given that will change the mental level of future soldiers in a positive way.

***Keywords:** SWEMWBS scale, mental toughness, addiction to ideas, mental well-being, national mentality, military education.*

Kirish. Hozirgi zamon yoshlarini ma‘lum foydali maqsadga yo‘naltirish, ular ruhiyatidagi internet, ijtimoiy tarmoqlarga mutelik orqali hosil bo‘lgan kemtiklikni yo‘qotib har taraflama ham ma‘naviy ham jismonan baquvvat avlod qilib tarbiyalash, ayrim yoshlardagi milliy mentalitetimizga yod fikr-g‘oyalarga qaramlikni yo‘qotish faqat ota-onalarning emas, butun bir jamiyatning muammosiga aylanmoqda. Vatan umidi bo‘lgan, bo‘lajak harbiy xizmatchilarni armiyaga tayyorlashda yuqoridagi muammo zalvori yanada ortadi. Shunday ekan, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda dastlab ularning ruhiyatini, ongidagi mavjud g‘oyalarni tarbiyalash, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozim.

Yoshlar ruhiyatining ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga tashqi omillar, shuningdek, shaxsiyat ham ta‘sir qiladi. O‘qituvchilar oldidagi muhim vazifa – bu harbiy sohadagi yoshlarda stressni keltirib chiqaradigan stimullarga qarshilik va stress bilan kurashishning moslashuvchan usullaridan foydalanish qobiliyatini shakllantirishdir. Shularni inobatga olgan holda yigirmanchi asrda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida davom etayotgan o‘zgarishlar, shuningdek, mavjud ta‘lim yechimlari asosida Yevropa Ittifoqining bir qator mamlakatlarida yoshlarning mudofaa ta‘limi bo‘yicha tizimli yechimlar ishlab chiqilgan.[6]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko‘pgina ekspertlarning fikriga ko‘ra, ruhiy chidamlilik yuqori darajadagi maqsadlarga erishish va ularga erishish uchun asosiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari ruhiy chidamlilik hayotimizdagi eng og‘ir damlarni boshdan kechirishda ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositadir. Har qanday narsaning "elita" versiyasi bo‘lishni xohlasangiz - biznes egasi, sportchi va boshqalar - siz ruhiy

jihatdan bardoshli bo‘lishingiz kerak. Ruhiiy jihatdan chidamli odamlar ko‘proq shuhratparast bo‘lishadi, stressdan yaxshiroq o‘tishadi, jamiyatda ko‘proq namoyon bo‘lishadi va yaxshiroq ishlashadi. Ruhiiyati mustahkam bo‘lganlar maqsadni ko‘radi va o‘z maqsadiga yetgunga qadar unga intiladi. Ammo aytaylik, siz fojiani boshdan kechirdingiz. Bu maqsad yoki manzil emas. Aksincha - bu siz bo‘lishini istamaydigan narsa. Ruhiiy qat‘iyatlilik odamlarni sevgan insoni vafot etgan, biznesi muvaffaqiyatsizlikka uchragan yoki yengish qiyin bo‘lgan kasallikka duchor bo‘lgan kunga tayyorlashi mumkin. Ruhiiy jihatdan chidamli bo‘lish bizni tinchlantirishga, vaziyatni haqiqatda nima ekanligini baholashga, nima bo‘layotganini to‘liq qabul qilishga va oldinga intilishga yordam beradi.

Ruhiiy chidamlilik ko‘pincha omma tarafidan kuchli aql va muvaffaqiyatga olib keladigan shaxsiy xususiyat sifatida qaraladi va ko‘pincha jismoniy chidamlilik bilan almashtiriladi. Chidamlilik va ruhiiy bardoshlilik o‘rtasidagi munosabatlar munozarali, ammo Cowden va boshqalar tomonidan qayd etilgan o‘xshashliklarga, ya‘ni, salbiy natijalardan himoya qiluvchi omil o‘rniga ijobiy yutuqlarga e‘tibor qaratish muhimdir.

Harbiy sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, har kuni 12 daqiqalik ruhiiyatni rivojlantirish amaliyoti ish xotirasini yaxshilaydi, ijobiy ta‘sirni oshiradi va salbiy ta‘sirni kamaytiradi.[3]

Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda ruhiiy chidamlilik mashg‘ulotlarini asosiy harbiy tayyorgarlik bilan birlashtiradigan dasturni ishlab chiqish haqida tushuncha beradi, ammo samaradorlik va izchillikni ko‘rsatish uchun uni takrorlash kerak.[4]

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi o‘n yillikda ruhiiy chidamlilik, aqliy immunitet haqida ko‘p gapirildi, ammo bularning hammasi ham samarali bo‘lmadi. Shuning uchun ham quyida ruhiiy chidamlilik nima ekanligini, nima uchun harbiy soha vakillari uchun ruhiiy mustahkamlikni rivojlantirish muhimligini ko‘rib chiqamiz.

Biz ruhiiy mustahkamlikni ikkita kalitda ko‘rishimiz mumkin: g‘oya va o‘lchov shakli sifatida. Ruhiiy sog‘lomlik hozirgi salbiy tuyg‘u yoki vaziyatni progressiv va samarali harakatlar foydasiga yengishga imkon beradigan g‘oyalarni chaqiradi. Ruhiiy qat‘iyatlilik, shuningdek, bizda qancha iroda borligini ko‘rish uchun qiyin bo‘lganda taslim bo‘lish ehtimoli qanchalik kattaligini aniqlaydigan o‘lchov tayoqchasi sifatida ishlatilishi mumkin. Shuning uchun ham harbiy sohaga yoshlarni tayyorlashda ruhiiy chidamlilik ko‘proq o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda ulardagi jismoniy holatni tekshiradigan topshiriqlar, amaliy testlar dasturi mavjud bo‘lib, ulardagi asosiy tekshirilishi kerak bo‘lgan domen - ruhiiyatning chidamlilik darajalarini tekshirish uchun hech qanaqa dastur mavjud emas. Faqatgina psixologik testlar har doim ham yoshlarning haqiqiy ruhiiy holatini ko‘rsatib bera olmaydi. Shuning uchun ham biz bu domenni o‘lchash uchun rivojlangan mamlakatlar o‘lchov usullaridan foydalanganmiz.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki harbiy tayyorgarlikda o‘smirlar ruhiiyati jiddiy ishlanishga muhtoj. Negaki askar jismonan qanchalik baquvvat bo‘lmasin agarda uning ruhiiyati nosog‘lom bo‘lsa, eng muhim paytda birinchilardan bo‘lib taslim bo‘ladigan askarlar aynan shu turdagi askarlardir. Ruhiiyati sog‘lom ammo jismonan u darajada sog‘lom bo‘lmagan askarda esa qo‘rquv hissi kamroq bo‘ladi va oxirigacha kurashishga harakat qiladi. Shu sababli ham izlanishlarimiz yoshlarni harbiy sohaga tayyorlashda ularning ruhiiyatini o‘rganish va ulardagi ruhiiy chidamlilikni oshirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda odatda yosh, shu paytgacha fuqaro bo‘lib kelgan o‘smir harbiy qismda mashg‘ulotlarni boshlashi kerak bo‘ladi. U boshidanoq ruhiiyatini harbiy intizomga, kapitanlarning baqirishiga, individuallikni olib tashlashga o‘zini tayyorlash kerak. Bundan tashqari, deyarli har bir faoliyat jismoniy va ruhiiy kuchni o‘z ichiga oladi. Askarlik paytida kun erta tongda bir necha kilometr yugurish bilan boshlanadi va kechki payt tozalash ishlari bilan tugaydi. Yosh askarning bo‘sh vaqti bo‘lmaydi - hatto ovqatlanish va gigiyena shoshilinch ravishda amalga oshiriladi. Askarlar jismoniy va ruhiiy jihatdan charchatadigan takroriy mashqlarni bajaradilar. Har bir harakat qichqirayotgan qo‘mondonlarning hushyor ko‘zlari ostida mukammal tarzda bajarilishi kerak. Bunday muhitda askar harbiy xizmatni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan xatti-harakatlar namunasini o‘rganishi kerak. Ushbu asosiy mashg‘ulot rejimi tasodif yoki qo‘mondonlarning o‘zlari tomonidan yaratilgan ixtiro emas. Ming yillar davomida yig‘ilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki "Fuqaroni" askarga aylantirish oson jarayon emas. U harakat erkinligidan, shaxsiy narsalaridan, individualligidan (bir xil kiyim-kechak, soch turmagi) mahrum qilinadi va buning o‘rniga unga og‘ir taqiq va buyruqlar tizimi beriladi. Bu kabi tartiblar askarlarga ruhiiyatini chiniqtirishga, individual xarakter xususiyatlarini, vaziyatga moslashishni o‘rganishga imkon beradi. Bir xil harakatlarni ko‘p marta bajarish orqali askar xavf tug‘ilganda o‘z samarasini beradigan shartsiz xatti-harakatlarni rivojlantiradi.

Asosiy tayyorgarlik jarayonida askar kelajakdagi harbiy xizmatga moslashishi kerak, bu murakkab jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- moddiy va jismoniy muhitga moslashish, masalan. uydan uzoqda mashq qilish, turli xil ob-havo sharoitida mashqlarda qatnashish, jarohat olish xavfi, sog‘lig‘ini yo‘qotish, umumiy yotoqxonada yashash, o‘zgaruvchan sharoitlar va boshqalar;

- bajarilgan vazifalarning mazmuniga moslashish - boshliqlar tomonidan berilgan buyruqlarni bajarish zarurati, ko‘plab harbiy ko‘nikmalarni o‘rganish, jismoniy va intellektual kuchlarni oshirish, bajarilgan vazifalarni oqilona bajarish, - ijtimoiy muhitga moslashish - turli guruhlarga moslashish; e’tirof etilgan normalar va qadriyatlarini, harbiy tartibni va boshliqlarning buyruqlarini qabul qilish.

Asosiy tayyorgarlik harbiy qasamyod bilan yakunlanadi. Ishga chaqirilganlar to‘laqonli askarlar bo‘lishadi. Qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadli harakat tuyg‘usini kuchaytiradi, irodani mustahkamlaydi va askarning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Shuning uchun ham harbiy ta’limda o‘quvchilarning birinchi navbatda yangi muhitga moslashishi zarur shartdir. Tayyorgarlikning keyingi bosqichlari, bo‘ljak askarlar ruhiyatni chiniqtirish va qiyin vaziyatlarda stressni yengish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Biz harbiy sohaga tayyorlanayotgan yoshlarning ruhiy holatini o‘lchash uchun SWEMWBS o‘lchov birligidan foydalandik. SWEMWBS - bu yoshlarning ruhiyati va psixologik faoliyatini o‘lchaydigan tasdiqlangan, 7 bandli shkala. O‘lchov ijobiy yondashuvga e’tibor qaratish uchun tuzilgan va farovonlikning keng konsepsiyasini, jumladan, hissiy, kognitiv va psixologik komponentlarni qamrab oladi. Bayonotlar ruhiy farovonlikka hayotni yaxshi his qilish, ijobiy ta’sir qilish va og‘riq yoki salbiy ta’sirdan qochish bilan bog‘liq ijobiy nuqtayi nazardan yondashadi. Garchi ushbu chora ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar uchun klinik tashxis qo‘ymasa ham, SWEMWBS-da ruhiy farovonlikning pastligi klinik ruhiy salomatlik muammolarini o‘lchaydigan boshqa tasdiqlangan asboblardan solishtirganda depressiya belgilarida o‘xshashlik kuzatilgan. WEMWBS umumiy aholining ruhiy farovonligini kuzatish va aqliy farovonlikni yaxshilashga qaratilgan loyihalar, dasturlar va siyosatlarini baholash imkonini berish uchun ishlab chiqilgan. SWEMWBS WEMWBS-ning fikr va his-tuyg‘ular haqidagi 14 ta bayonotidan ettitasini ishlatadi, ular his-tuyg‘ulardan ko‘ra ko‘proq ishlashga bog‘liq bo‘lgan ruhiy farovonlikka biroz boshqacha nuqtayi nazarni taklif qiladi. Yetti bayonot "hech qachon" dan "hamma vaqt" gacha bo‘lgan beshta javob toifasi bilan ijobiy ifodalangan. Bolalar va yoshlardan so‘nggi ikki hafta davomida o‘z tajribalarini tasvirlash so‘raladi. WEMWBS individual darajada ruhiy farovonlikni kuzatish uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, tadqiqot (kattalarda) WEMWBS klinik jihatdan mazmunli o‘zgarishlarni aniqlashi mumkinligini ko‘rsatadi. [2]

SWEMWBS 15-21 yoshdagi yoshlar auditoriyasi uchun tasdiqlangan.[5] SWEMWBS birinchi navbatda 1 dan 5 gacha baholangan yettita elementning har biri uchun ballarni yig‘ish yo‘li bilan baholanadi. Keyin umumiy xom ballar SWEMWBS konvertatsiya jadvali yordamida metrik ballarga aylantiriladi. Ballar 7 dan 35 gacha va undan yuqori ball ijobiy ruhiy farovonlikning yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Harbiy o‘smirlar qandayligini miqdoriy jihatdan tasvirlash uchun tavsiflovchi, tasavvurlar bo‘yicha tadqiqot dizayni ishlatilgan

Harbiy o‘smirlar tajribasi so‘rovini o‘tkazish orqali harbiy yoshlardan ma’lumotlar to‘plandi: Harbiy o‘smirni elektron pochta, ijtimoiy media va veb-marketing orqali kuchaytirish. So‘rov 7 ta savoldan iborat bo‘lib, har bir harbiy o‘smirga 5 daqiqa vaqt ajratilgan. Respondentlar savollarga javoblarni anonym tarzda berishdi, ularning javoblari tahlildan oldin elektron pochta manzillaridan ajratildi.

SWEMWBS savollari quyidagicha:

1-jadval.

Savollar	Hech qachon	Juda kam holatlarda	Ba’zi vaqtlarda	Tez-tez	Har doim
Men kelajakka optimistik munosabatda bo‘laman	9	10	20	16	45
Men o‘zimni foydali his qilaman	25	11	29	25	10
Men o‘zimni xotirjam his qilaman	20	25	17	18	20
Men muammolarni yaxshi hal qilaman	18	21	22	20	19
Men aniq va mantiqiy o‘ylayman	7	16	23	30	24
Men o‘zimni boshqa odamlarga yaqin his qilaman	27	24	29	11	9
Men ko‘p narsalar haqida o‘z fikrimga egaman	16	21	14	20	29

2024-yil mart-aprel oylarida Xorazm Temurbeklar harbiy maktabida biz 100 dan ortiq respondentlarni eshitdik. Jami respondentlarning aksariyati harbiy o‘smirlar (n= 80) 13-19 yoshdagilar edi. Umuman olganda, ushbu namunadagi harbiy o‘smirlar o‘zlarining ruhiy farovonligini odatda yuqori deb bilishar ekan. O‘smirlar o‘rtacha 294 ball to‘plashdi, bu ruhiy farovonlikning o‘rtacha darajasidan biroz kam hisoblanadi. O‘smirlarning 22.3% ga yaqini yuqori ruhiy farovonlikka ega, 35.7% esa o‘rtacha ruhiy holatga ega, 42% esa ruhiy farovonlik bo‘yicha past ball olgan.

Faol navbatchi yoshlar - Ruhiy farovonlik		Chastotasi	Foizi
VALID	Past	250	35.7
	O‘rtacha	294	42
	Yuqori	156	22.3
	Umumiy	700	100.0

SWEMWBS-da berilgan savollarga asosan, yuqori ruhiy farovonlik haqida xabar bergan o‘smirlar odatda optimizm, dam olish va boshqalar bilan yaqinlik hissini boshdan kechirdilar. Bundan tashqari, ular muammolarni yaxshi hal qilishni, holatlar to‘g‘risida o‘z qarorlarini qabul qilishlarini, aniq fikr yuritishlarini his qilishlarini ta’kidlashdi. Ruhiiy farovonligi pastligi haqida xabar bergan o‘smirlar, odatda, aniq fikrlash va o‘z qarorlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular, shuningdek, kamdan-kam hollarda o‘zlarini optimistik his qilishlarini, o‘zlarini erkin his qilishmasligini va boshqalar bilan aloqasi yaxshi emasligini ham ta’kidlab o‘tishdi. Ushbu tajribalar depressiya belgilarining tavsiflari bilan mos keladi, shuning uchun bu o‘smirlarning tajribalarini va ular qanday manbalarga kirishlari mumkinligini tushunish muhimdir.

O‘smirlarning 42 foizi ruhiy farovonlik darajasi o‘rtachaligini bildirganligini hisobga olsak, ularning tashqi ta’sirga muhtojliklari anglashiladi. Garchi o‘smirlarning ba’zilar (22,3%) ruhiy yoki xulq-atvor sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar uchun g‘amxo‘rlikka muhtoj emasligini bildirgan bo‘lsa-da, o‘smirlarning deyarli yarmi ma’lum darajada aqliy yoki xulq-atvor sog‘lig‘iga muhtoj edi, lekin ularning bu holati harbiy tayyorgarlik paytida inobatga olinmagan. G‘amxo‘rlikka muhtoj bo‘lgan, ammo uni tashqi muhitdan topa olmagan o‘smirlarning ko‘pchilik qismi (35,7%), bu ularning ruhiy yoki xatti-harakatlari haqidagi tashvishlarini ota-onalari yoki o‘qituvchilariga oshkor etmasliklari bilan bog‘liqligini aytdi. Ota-ona yoki o‘qituvchi bilan ruhiy salomatlik haqida suhbatlashish bizning mentalitetimizga biroz yod bo‘lganligi sababli ular o‘zlarini noqulay his qilishi mumkin va o‘smirlar ota-onalari bilan bu borada gaplashishdan o‘zlarini chetga olishlari mumkin. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarda xavfsizlik va ishonchni shakllantirish o‘smirlarning hayotida kattalarga o‘z ehtiyojlarini yetkazishi va shu tariqa ularga zarur bo‘lgan ruhiy yoki xulq-atvor sog‘lig‘i yordamini olishlari uchun asos bo‘lishi mumkin.[1]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, harbiy xizmatga tayyorlash amaliyoti natijalarini yaxshilash uchun kelajakdagi mashg‘ulotlarda ruhiyat bilan ishlash psixologiyasi usullarini amaliyotga ko‘proq taqdim etishi kerak. Negaki bugungi zamon talabi hozirda ko‘proq yoshlarning jismoniy holati bilan emas, aqliy va ruhiy tomonlari bilan ishlashni taqozo etadi. Ruhiiy chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar asosan sport ko‘rsatkichlariga qaratilgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha, hech bo‘lmaganda, maqsad qo‘yish, harakatga undash, vizualizatsiya va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan. Bu ko‘nikmalarni o‘zida mukammal darajada rivojlantirgan askar har doim yurt xizmatiga shay ruhan sog‘lom inson hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Dr. Crystal Lewis, Aspen Bergmann Research, Dr. Meredith Farnsworth. The military teen experience survey 2022 findings and insights. 1-36 pp. <http://www.militaryfamily.org/>
2. Collins, J., Gibson, A., Parkin, S., Parkinson, R., Shave, D., & Dyer, C. (2012). Counselling in the workplace: How time-limited counselling can effect change in well-being. *Counselling and Psychotherapy Research*, 12(2), 84-92, doi:10.1080/14733145.2011.638080
3. Gucciardi, D. F., Lines, R. L. J., Ducker, K. J., Peeling, P., Chapman, M. T., & Temby, P. (2021). Mental toughness and a psychological determinant of behavioral perseverance in special forces selection. *Sport, Exercise, and Performance Psychology*, 10(1), 164–175. 10.1037/spy0000208 [DOI] [Google Scholar]
4. Kathleen M Saul, Michael D Young, Jenny M Siddiqi, Dale A Hirsch. Developing a mental toughness program for basic military training. *Mil Psychol.* 2023 Jan 23;36(2):203–213.
5. McKay, MT. & Andretta, JR. (2017) Evidence for the Psychometric Validity, Internal consistency and measurement invariance of Warwick Edinburgh Mental Wellbeing Scale Scores in Scottish and Irish Adolescents. *Psychiatry Research*, 255: 382-386.
6. Marzena Netczuk-Gwozdziowicz. Psychological preparation of soldiers for military service. *Scientific Journal of the Military University of Land Forces* ISSN: 2544-7122 (print), 2545-0719 (online) 2023, Volume 55, Number 2(208), Pages 104-111.

TALABALARNING O‘QUV MUVAFFAQIYATIGA PERFEKTSIONIZMNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

*Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna,
Ma'mun universiteti dotsenti, p.f.f.d
temperament88@mail.ru*

Ushbu maqolada perfektsionizmning o‘quv faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda talabalar perfektsionizmning uch asosiy turi - o‘ziga nisbatan, boshqalarga nisbatan va ijtimoiy ta’sirga nisbatan - o‘quvchilarni qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, perfektsionizmning har bir turi o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirishi bilan birga, stress, xavotir va o‘ziga nisbatan shubha kabi salbiy psixologik holatlar bilan bog‘liq hisoblangan.

Kalit so‘zlar: o‘quv faoliyati, o‘ziga nisbatan, boshqalarga nisbatan, ijtimoiy ta’sirga nisbatan perfektsionizm, motivatsiya, stress va xavotir.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ПЕРФЕКЦИОНИЗМА НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматривается влияние перфекционизма на успеваемость. В исследовании проанализировано, как три основных типа перфекционизма – по отношению к себе, по отношению к другим и по отношению к социальному влиянию – влияют на студентов. По результатам исследования, каждый тип перфекционизма был связан с негативными психологическими состояниями, такими как стресс, тревога и неуверенность в себе, а также с повышением мотивации студентов.

Ключевые слова: перфекционизм, мотивация, стресс и тревожность по отношению к учебной деятельности, по отношению к себе, по отношению к другим, по отношению к социальному влиянию.

PSYCHOLOGICAL IMPACT OF PERFECTIONISM ON STUDENTS' ACADEMIC PERFORMANCE

This article examines the impact of perfectionism on academic performance. The study analyzed how students perceive three main types of perfectionism —self-related, others-related, and social influence — to affect students. The study found that each type of perfectionism, while increasing students' motivation, was associated with negative psychological states such as stress, anxiety, and self-doubt.

Keywords: academic performance, perfectionism towards oneself, towards others, towards social influence, motivation, stress and anxiety.

Kirish. Talabalarning o‘quv muvaffaqiyatiga perfektsionizmning psixologik ta’siri turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, perfektsionizm ikki asosiy shaklda uchraydi: adaptiv va maladaptiv. Adaptiv perfektsionizm talabalar yuqori standartlarga ega bo‘lib, xatolaridan o‘rganib, akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular ko‘pincha samarali muammolarni hal qilish, vaqtni boshqarish va o‘qish jarayoniga ijodiy yondashuvlarni qo‘llaydilar [7].

Perfektsionistlar odatda o‘zlariga yuqori standartlar va kutishlar qo‘yadilar, bu esa doimiy stress va xavotirga olib kelishi mumkin, chunki ular mukammallikka erishish uchun ko‘proq harakat qilishadi. Natijada, ko‘plab perfektsionist talabalar o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular odatda mukammal natijalarga erishishga intilishadi, bu esa o‘z yutuqlaridan norozi bo‘lish va o‘quv jarayonidan qoniqmaslikka olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Perfektsionizm talabalarning akademik motivatsiyasiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Birinchidan, mukammallikka intilish talabalarga yuqori maqsadlar qo‘yishga yordam berishi va ularga erishish uchun ko‘proq mehnat qilishga undashi mumkin. Bu o‘qish motivatsiyasining oshishiga va o‘qish natijalarining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Katta ambitsiyalar va o‘ziga bo‘lgan talablar o‘quv faoliyatini yaxshilash va muvaffaqiyatlarni oshirish uchun rag‘bat bo‘lishi mumkin [1,2].

Ikkinchidan, perfektsionizm ko‘pincha ortiqcha o‘z-o‘zini tanqid qilish, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va past o‘zini baholash bilan birga keladi. Bu esa ortiqcha stress, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va psixologik bosimga olib kelishi mumkin.

Perfektsionizm akademik yutuqlarga ikki tomonlama ta‘sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, aniq mukammallikka ega bo‘lgan talabalar muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo‘lishlari, o‘qishlarida mukammallikka intilishlari va o‘z ishlarining sifati uchun faqat yuqori standartlarni qabul qilishlari mumkin. Bu ajoyib akademik natijalarga va yuqori baholarga erishishga olib kelishi mumkin.

Biroq, boshqa tomondan, perfektsionizm keraksiz stressga, o‘z-o‘zini tanqid qilishga va o‘z-o‘zidan haddan tashqari yuqori umidlarga olib kelishi mumkin, bu esa oxir-oqibat charchash va yomon ruhiy salomatlikka olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, sezilarli darajada perfektsionizmga ega bo‘lgan talabalarning muvaffaqiyati, ular o‘zlarining yuqori standartlarini qanday boshqarishlariga va mukammalliklari tufayli boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan stressni qanday engishlariga bog‘liq. Ilmiy maqsadlaringizga muvaffaqiyatli erishish uchun yuqori ishlash standartlarini sog‘lom stress darajalari bilan muvozanatlashni o‘rganishingiz juda muhimdir.

Perfektsionistlar odatda o‘zlariga yuqori standartlar va kutishlar qo‘yadilar, bu esa doimiy stress va xavotirga olib kelishi mumkin, chunki ular mukammallikka erishish uchun ko‘proq harakat qilishadi. Natijada, ko‘plab perfektsionist talabalar o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular odatda mukammal natijalarga erishishga intilishadi, bu esa o‘z yutuqlaridan norozi bo‘lish va o‘quv jarayonidan qoniqmaslikka olib kelishi mumkin.

Lekin perfektsionizm talabalarning akademik motivatsiyasiga ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Birinchi, perfektsionizmni intilish talabalarga yuqori maqsadlar qo‘yishga yordam berishi va ularga erishish uchun ko‘proq mehnat qilishga undashi mumkin. Bu o‘qish motivatsiyasining oshishiga va o‘qish natijalarining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Katta ambitsiyalar va o‘ziga bo‘lgan talablar o‘quv faoliyatini yaxshilash va muvaffaqiyatlarni oshirish uchun rag‘bat bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi, perfektsionizm ko‘pincha ortiqcha o‘z-o‘zini tanqid qilish, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va past o‘zini baholash bilan birga keladi. Bu esa ortiqcha stress, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va psixologik bosimga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida talabalar o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Perfektsionizm talabalarning o‘quv muvaffaqiyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan psixologik omillardan biridir. Bu xususiyat talabalarni mukammallikka intilishga undashi bilan birga, ularning ruhiy holatiga va akademik faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Perfektsionizm o‘quv jarayoniga ikki xil: adaptiv (ijobiy) va maladaptiv (salbiy) shaklda ta‘sir ko‘rsatadi.

Adaptiv perfektsionizm talabalarni yuqori maqsadlar qo‘yishga va ularga erishishga intilishga undaydi. Bunday talabalar o‘z vaqtini samarali boshqaradi, o‘qishga motivatsiyasi yuqori bo‘ladi va aniq rejalashtirishga intiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, adaptiv perfektsionizmga ega talabalar o‘z o‘qish jarayonida yuqori natijalarga erishishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga doimiy e‘tibor qaratishi mumkin [4]. Ushbu turdagi perfektsionizmning afzalliklari:

- Yuqori darajadagi intizom va javobgarlik hissi;
- Yangi bilimlarni o‘zlashtirishga ijobiy munosabat;
- Muammolarni hal qilishda ijodkorlik va qat‘iyatlilik.

Perfektsionizmning salbiy ta‘siri

Maladaptiv perfektsionizm esa talabalarning o‘zlariga haddan tashqari talabchan bo‘lishlari, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishlari va o‘zini tanqid qilishlari bilan ifodalanadi. Bunday talabalar mukammallikka erisha olmaganida o‘zlarining muvaffaqiyatsiz ekanligini his qiladi va bu ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, ular:

- Stress va xavotir darajasi yuqori bo‘lgan holatga tushadi;
- O‘quv jarayonida konsentratsiyani yo‘qotadi;
- Akademik charchoq va depressiyaga duch keladi [3].

Perfektsionizmning talabalarda rivojlanishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Oilaning yuqori talablar qo‘yishi yoki tanqidiy munosabatda bo‘lishi talabada perfektsionizmni shakllantiradi [6].

Akademik muhit: talabalarning o‘qituvchilar tomonidan yuqori standartlarga moslashishi ularning mukammallikka intilishini kuchaytiradi.

Ichki motivatsiya: o‘zini mukammal ko‘rsatish istagi va o‘zini namoyon qilish ehtiyoji ham perfektsionizmni rivojlantiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Quyidagi jadvalda perfeksionizmning o‘quv faoliyatiga ta’sirini ko‘rsatish uchun 112 nafar sinaluvchi ishtirokida o‘tkazilgan “perfeksionizm va o‘quv faoliyati” nomli so‘rovnoma natijalari keltirilgan. Jadvalda perfeksionizmning turli shakllari talabalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini foizlar orqali aks ettiradi.

1-jadval.

№	Perfeksionizm turi	O‘quv faoliyatiga ta’siri	%
1.	O‘ziga nisbatan perfeksionizm	Talabalar ning o‘zini yuqori baholash va muvaffaqiyatga intilishlari, lekin stress va bezovtalikni oshirishi mumkin.	70%
2.	Boshqalarga nisbatan perfeksionizm	Talabalar da boshqalar bilan raqobat, past o‘zini hurmat qilish va doimiy qo‘rquv hissi.	60%
3.	Ijtimoiy ta’sirga nisbatan perfeksionizm	Ijtimoiy ta’sir va norma bo‘yicha talabalar ni o‘z faoliyatini doimo tekshirish va yuqori darajadagi mukammallikka erishishga majbur qiladi.	75%
4.	O‘quvda mukammallikka Intilish	Talabalar ning o‘qish va ilm olishga yuqori motivatsiyasi, ammo ko‘pincha juda yuqori talablarga javob berishga urinish, bu esa his-tuyg‘u bilan bog‘liq buzilishlarga olib kelishi mumkin.	80%
5.	Stress va xavotir	Perfeksionizm darajasi ortgan sayin, talabalar da stress, xavotir va o‘ziga nisbatan shubha shakllanadi.	65%

Yuqorida keltirilgan jadvalda “Perfeksionizm va o‘quv faoliyati” nomli so‘rovnoma asosida talabalardan iborat bo‘lgan 112 sinaluvchi ishtirokida perfeksionizmning turli shakllarining o‘quv faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Jadvalda har bir perfeksionizm turi uchun talabalar ning faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani va bu ta’sirning foizdagi ifodasi keltirilgan.

O‘ziga nisbatan perfeksionizm (70%): Talabalarda o‘zini yuqori baholash va muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi mavjud. Biroq, bu holat stress va bezovtalikni oshirishi mumkin. Perfeksionizmning bu shakli talabalarining o‘zlariga qo‘ygan yuqori talablari va ularga erishishdagi muvaffaqiyatsizlikdan kelib chiqadigan psixologik yukni ko‘rsatadi. Bu talabalar da ishontirish va o‘zini qoniqtirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Boshqalarga nisbatan perfeksionizm (60%): Talabalar boshqalar bilan raqobatlashish va ularning muvaffaqiyatlariga ta’sir qilishga intilishadi. Bu o‘zini past baholash, qo‘rquv va boshqalar oldida doimiy ravishda o‘zini isbotlash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Boshqalarga nisbatan yuqori talablar qo‘yish, talabalar da o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va qayg‘ularni kuchaytirishi mumkin.

Ijtimoiy ta’sirga nisbatan perfeksionizm (75%): Ijtimoiy ta’sir va norma asosida talabalar o‘z faoliyatini doimo tekshiradilar va mukammallikka erishishga intilishadi. Bu, albatta, yuqori natijalarga olib kelishi mumkin, lekin doimiy tashqi baho olish va mukammallikni izlash xavotir va stressni kuchaytirishi mumkin. Talabalarda ijtimoiy ta’sirga katta e’tibor qaratish, ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvda perfeksionizmga intilish (80%): Perfeksionizmning bu shakli talabalar ning yuqori bilim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini bildiradi. Ammo, doimiy perfeksionizmni izlash ularni ruhiy tushkunlikka olib kelishi, ortiqcha yuk yaratishi va o‘zlarini qadrlashdagi muammolarga olib kelishi mumkin. Bunday talabalar ko‘pincha o‘zlarini muvaffaqiyatsiz deb hisoblashadi, agar ular yuqori darajadagi mukammallikka erisha olmasalar.

Stress va xavotir (65%): Perfeksionizmning umumiy darajasi ortgan sayin, talabalar da stress, xavotir va o‘ziga nisbatan shubha paydo bo‘ladi. Bu, talabalar ning natijalaridan yuqori darajada xursand bo‘lmashliklariga va doimiy ravishda yuqori talablarni bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi. Ularning psixologik holati o‘zgargan bo‘lib, o‘quv jarayonida ular o‘zini qoniqtirishi qiyinlashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi tahlillar asosida keltirilgan foizlar perfeksionizmning talabalarining psixologik holati, motivatsiyasi va umumiy o‘quv faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aks ettiradi. Perfeksionizmning turli shakllari talabalarda yuqori natijalarga erishish istagini kuchaytirishi mumkin, ammo bu ular uchun psixologik xavf va stressning ortishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Биктина Н.Н., Дикарева Ю.Н. К вопросу проявления перфекционизма в студенческом возрасте // Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2017.
2. Гаранян Н.Г., Низовцева А.А. Структура мотива достижения у студентов с разным уровнем перфекционизма [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование: электрон. науч. журн. – 2012.
3. Burns, D. D. (1980). The perfectionist’s script for self-defeat. *Psychology Today*, 14(6), 34–52.
4. Flett, G. L., & Hewitt, P. L. (2002). *Perfectionism: Theory, research, and treatment*. American Psychological Association.
5. Hamachek, D. E. (1978). Psychodynamics of normal and neurotic perfectionism. *Psychology: A Journal of Human Behavior*, 15(1), 27–33.
6. Stoeber, J., & Otto, K. (2006). Positive conceptions of perfectionism: Approaches, evidence, challenges.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Hotamova Dildora Komilovna,

*Buxoro davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti
edu.uz1991@gmail.com*

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Xususan, video konferensiya, onlayn ma‘ruza, audio konferensiya va kompyuter telekonferensiyasi kabi vositalar pedagogik jarayonni interaktiv va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega ekani tahlil qilingan. Video konferensiya va onlayn ma‘ruzalar o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini mustahkamlashda va ular orasida fikr almashishga imkon yaratadi. Audio konferensiya va ma‘ruzalar esa qulay va ko‘chma shaklda bilim olishni ta‘minlaydi. Kompyuter telekonferensiyalari esa bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishga, innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga o‘rgatishda katta rol o‘ynaydi. Shu tariqa, ushbu texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga keng joriy etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so‘zlar: *video konferensiya, masofaviy ta‘lim, onlayn ma‘ruza, audio konferensiya, kompyuter telekonferensiyasi, pedagogik tayyorgarlik, interaktiv ta‘lim, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiyalar.*

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье описывается эффективность использования современных информационных технологий при подготовке будущих учителей к педагогической деятельности. В частности, было проанализировано, что такие средства, как видеоконференция, онлайн-лекция, аудиоконференция и компьютерная телеконференция, важны для того, чтобы сделать педагогический процесс интерактивным и эффективным. Видеоконференции и онлайн-лекции позволяют преподавателям развивать свои профессиональные навыки, закреплять теоретические знания и обмениваться идеями между собой. Аудиоконференции и лекции обеспечивают удобное и портативное обучение. Компьютерные телеконференции играют важную роль в обучении будущих учителей эффективному использованию современных технологий и освоению инновационных подходов. Таким образом, будет создана возможность повышения конкурентоспособности будущих учителей за счёт широкого внедрения этих технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: *видеоконференция, онлайн-лекция, аудиоконференция, компьютерная телеконференция, педагогическая подготовка, дистанционное обучение, интерактивное обучение, инновационные технологии, профессиональные компетенции.*

MODERN FORMS OF TRAINING FUTURE TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY

This article describes the effectiveness of using modern information technologies in preparing future teachers for pedagogical activities. In particular, it was analyzed that tools such as video conference, online lecture, audio conference and computer teleconference are important in making the pedagogical process interactive and effective. Video conference and online lectures allow teachers to develop their professional skills, strengthen their theoretical knowledge, and exchange ideas between them. And audio conferences and lectures provide convenient and portable learning. And computer teleconferences play a major role in training future teachers to effectively use modern technologies and master innovative approaches. Thus, by widely introducing these technologies into the educational process, an opportunity to increase the competitiveness of future teachers will be created.

Keywords: *video conference, online lecture, audio conference, computer teleconference, pedagogical preparation, distance learning, interactive learning, innovative technologies, professional competencies.*

Kirish. *Zamonaviy ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi pedagogik faoliyat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrning globallashtirilgan jamiyatida bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat an‘anaviy pedagogik metodlarni mukammal o‘zlashtirish, balki yangi*

texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish malakalari ham talab qilinmoqda. Shu bois, ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xususan, video va audio konferensiyalar, onlayn ma‘ruzalar va kompyuter telekonferensiyalari orqali bo‘ljak o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi dolzarbdir.

Ma‘lumki, an‘anaviy ta‘lim shakllari o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yuzma-yuz muloqotga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonni sezilarli darajada kengaytirib, vaqt va makondan qat‘i nazar interaktiv o‘qitishni tashkil qilish imkonini beradi. Video konferensiyalar va onlayn ma‘ruzalar orqali talabalarga ta‘lim berish nafaqat ularning nazariy bilimlarini oshirishda, balki o‘zaro fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, audio konferensiyalar va ma‘ruzalar ta‘lim oluvchilarga masofaviy sharoitlarda ham bilim olish imkoniyatini taqdim etib, ularning bilim olish jarayonini yanada qulay qiladi. Kompyuter telekonferensiyalari esa ta‘lim jarayonini global tarmoq orqali olib borishga, talabalarning muloqot doirasini kengaytirishga va ularga zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini singdirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda video va audio konferensiyalar, onlayn ma‘ruzalar hamda kompyuter telekonferensiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Bu texnologiyalar bo‘ljak o‘qituvchilarga nafaqat kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish, balki zamonaviy o‘qitish uslublarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini ham beradi. Mazkur vositalardan foydalanish o‘qituvchilar tayyorgarlik jarayonini boyitib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va ularni innovatsion o‘quv jarayoniga yanada faol jalb etadi.

Asosiy qism. Ta‘limda videokonferensiya, videoma‘ruza, audiokonferensiya va audioma‘ruza ta‘limda raqamli texnologiyalarning rolini oshiruvchi muhim vositadir. Bunday vositalarning zamonaviy shakllarining kelib chiqishi kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Videokonferensiya, videoma‘ruza, audiokonferensiya va audioma‘ruza o‘tkazishning rivojlanish bosqichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. 1980-yillar: Ilk videokonferensaloqa tizimlari juda qimmatligi va mavjudlikning cheklanganligi sababli odatda korporativ yoki akademik sharoitlarda ishlatilgan.

2. 1990-yillar: Internetning rivojlanishi va keng polosali ulanishlarning keng qo‘llanilishi bilan videokonferensaloqa va raqamli aloqa texnologiyalari yanada qulayroq bo‘ldi.

3. 2000-yillar: Biznes va ta‘lim sohasida videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanish ko‘paydi. Bu davrda Skype kabi mashhur platformalar jismoniy shaxslar va tashkilotlarga internet orqali bepul video konferensiya o‘tkazish imkonini berdi.

4. 2010-yillar: Mobil texnologiyalarning rivojlanishi va tezkor internet aloqalarining keng tarqalishi bilan videokonferensaloqa va shunga o‘xshash vositalardan foydalanish yanada oshdi.

Bugungi kunda videokonferensaloqa va boshqa raqamli aloqa vositalari biznes, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi masofaviy ishlash va masofaviy ta‘lim kabi ilovalarning tarqalishini tezlashtirdi, bu esa raqamli aloqa vositalarining ahamiyatini yanada oshirdi.

1. Videokonferensiya va videodarslar.

- Videokonferensaloqa masofaviy aloqa va hamkorlik uchun ishlatiladigan texnologiyadir. Ayniqsa, ta‘lim sohasida, bu turli jug‘rofiy joylardan bo‘lgan ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilarga virtual sinf muhitida darslarni tomosha qilish, muhokama qilish va o‘zaro muloqot qilish uchun birlashishga imkon beradi. Ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilar bir-birlari bilan videokonferensaloqa orqali audio va video orqali muloqot qilishlari mumkin.

- Videodarslar o‘quvchilarga ma‘lum bir mavzu yoki tushuncha bo‘yicha o‘quv materiallarini taqdim etish uchun yozib olingan video kontentdir. Ushbu ma‘ruzalar ko‘pincha oldindan yozib olinadi, bu talabalarga o‘z tezligida va xohlagan vaqtda tomosha qilish imkonini beradi. Video darslar o‘quvchilarga vizual va audio o‘rganish tajribasini taqdim etish orqali mavzularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi

2. Audiokonferensiya va audio darslar:

- Audio konferensiyalar ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilarga ovoqli jonli muloqot qilish imkonini beradi. Ular odatda video konferensiyalarga qaraganda engilroq ma‘lumotlardan foydalanishni ta‘minlaydi.

- Audio darslarga oldindan yozib olingan audio fayllar kiradi. Ta‘lim oluvchilar istalgan vaqtda ushbu fayllarga kirishlari va ma‘ruzalarni tinglashlari mumkin.

Ushbu texnologiyalar, ayniqsa masofaviy ta‘lim jarayonida muloqot va o‘rganishni osonlashtiradi. Biroq, axborot texnologiyadan samarali foydalanish uchun yaxshi internet aloqasi va tegishli texnologik infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchilar ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun o‘rganishlari va texnologiyani dars mazmuniga integratsiya qilishga harakat qilishlari mumkin.

Ta’limda videokonferensiya va videoma’ruzalar, audiokonferensiyalar va audioma’ruzalar kabi raqamli dars shakllaridan maqsad ta’lim jarayonini yanada qulay, samarali va interaktiv qilishdir. Ushbu vositalar o’quvchilar va o’qituvchilarga jismonan bir yerda bo’lmagan turib muloqot qilish, ma’lumot almashish va o’rganishni qo’llab-quvvatlash imkonini beradi.

Bu dars shaklining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Masofaviy ta’lim uchun ideal va geografik cheklolarni olib tashlash orqali kengroq auditoriyaga kirish.

- Ta’lim oluvchilar va o’qituvchilar o’rtasida samarali muloqotni ta’minlash. Jonli yoki yozib olingan audio va video aloqa vizual va eshitish orqali o’rganishni qo’llab-quvvatlash.

- ta’lim oluvchilarga o’z tezligida va o’z vaqtida o’rganish imkoniyatini berish. Ular oldindan yozib olingan ma’ruzalarni tomosha qilishlari yoki jonli ma’ruzalardan qatnashishlari mumkin.

Ba’zi platformalar ta’lim oluvchilarga o’qituvchilariga savollar berish, muhokamalarda va guruh mashg’ulotlarida qatnashish imkonini berish bilan, interaktiv ta’lim tajribasini taqdim etadi. Ushbu vositalar an’anaviy sinf muhitidagi kabi o’qitish va o’qitish jarayonlarini qo’llab-quvvatlashdan tashqari, o’z foydalanuvchilariga texnologiyaning afzalliklarini nomoyon qiladi.

Ushbu texnologiyalar o’qituvchilarga ma’lumotlarni talabalarga samaraliroq etkazish va talabalarni yanada samarali o’rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu talabalarining faolligini oshiradi, o’zaro ta’sirni rag’batlantiradi va o’rganish tajribasini yanada qiziqarli qiladi.

Ta’limda videokonferensiya, videoma’ruza, audiokonferensiya va audioma’ruza kabi o’qitishni tashkil qilish shaklidan foydalanishning tashkiliy bosqichlari quyidagicha:

1. Rejalashtirish bosqichi:

- Ta’limda raqamli o’qitish shaklidan foydalanishning maqsadi va natijalari belgilanadi.

- O’qitish mazmuni va metodlarni o’quv dasturining maqsadlariga muvofiq rejalashtiriladi.

- Darsda qatnashadigan ishtirokchilarning bilim darajalari, ehtiyojlari va texnologik kompetensiyalari baholanadi.

- Qaysi mavzular qaysi vositalar yordamida yoritilishi, dars rejalari va tashkil qilish vaqti belgilanadi.

2. Tayyorgarlik bosqichi:

- Ta’lim mazmuni, video darslar, taqdimotlar, audio darslar, interaktiv materiallar yaratiladi yoki moslashtiriladi.

- Foydalanish uchun platformalar aniqlanadi, zarur dasturiy ta’minot va jihozlar bilan ta’minlanadi, internetga ulanish va texnik nosozliklarni bartaraf etish tartiblari ko’rib chiqiladi.

- Ishtirokchilarni taklif qilish, ro’yxatga olish jarayonlari va platformaga kirish ma’lumotlarini uzatish kabi tashkiliy qismlar tartibga solinadi.

3. Ilova bosqichi:

- Rejalashtirilgan darslar, konferensiyalar yoki tadbirlar o’tkaziladi. O’qituvchilar va ishtirokchilar o’rtasida o’zaro aloqa ta’minlanadi.

- O’quv jarayonida texnik muammolar yuzaga kelganda tezkor yordam ko’rsatiladi va bartaraf qilinadi.

- Ta’lim oluvchilarning darslardagi ishtiroki nazorat qilinadi, fikr-mulohazalar yig’iladi, kerak bo’lganda dars rejalari va mazmuni qayta ko’rib chiqiladi.

4. Baholash bosqichi:

- O’quv jarayonining samaradorligi, o’quv maqsadlariga erishish darajasi va ishtirokchilarning qoniqish darajasi baholanadi.

- To’plangan ma’lumotlar tekshiriladi, o’quv jarayonidagi kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi va takomillashtirish jarayonlari boshlanadi.

- Ta’lim oluvchilar va o’qituvchilardan olingan fikr-mulohazalar inobatga olinadi va kelgusidagi o’quv dasturlari uchun takomillashtirish bo’yicha takliflar yaratiladi.

Ushbu bosqichlar ta’limda raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun asos bo’lib, muvaffaqiyatli ta’lim tajribasini ta’minlash uchun muhimdir.

Video konferensiya, video ma’ruza, audio konferensiya va audio ma’ruza kabi o’qitishning raqamli shakli birqancha darslar uchun mos keladi:

- Til darslari audio konferensiya va audio darslar uchun juda mos bo’lishi mumkin. O’quvchilarning talaffuzini yaxshilash uchun audio darslardan foydalanish mumkin bo’lsa, grammatika va lug’at bo’yicha interfaol video darslar samarali bo’lishi mumkin.

- San’at darslari video darslar orqali san’at asarlarini tekshirish, san’at tarixi va texnikasini o’rganish kabi mavzularni qamrab olishi mumkin. Videodarslar, ayniqsa, ko’rgazmali materiallar yordamida o’quvchilarga badiiy asarlar bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi.

3. Informatika va dasturlash darslarini amaliy jihatdan, ayniqsa, videoma’ruzalar va videokonferensiyalar orqali o’qitish mumkin. Jonli dasturlash jarayonlari ta’lim oluvchilarga fikr-mulohazalarini olish va interaktiv tarzda kodlash ko’nikmalarini oshirish imkonini beradi.

4. Matematika va tabiatshunoslik darslari interaktiv videoma’ruzalar va videokonferensiyalar orqali tushunchalarni tushuntirish va amaliyotda qo’llash uchun mos bo’lishi mumkin. Video darslar, ayniqsa vizual o’quv materiallari bilan qo’llab-quvvatlanadi, mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

5. Ijtimoiy fanlar, tarix, geografiya va shunga o’xshash fanlar interaktiv tarzda, ayniqsa, videoma’ruzalar va audio ma’ruzalar orqali o’qitilishi mumkin. Tarix darslari uchun hujjatli uslubdagi video kontent talabalarga tarixiy voqealar va tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Har bir darsning o’quv maqsadlari va mazmuni har xil bo’lgani uchun raqamli vositalardan qanday foydalanish dars ehtiyojlari va talim oluvchilar auditoriyasiga bog’liq bo’ladi. Ko’plab darslar uchun ushbu raqamli o’qitish shakllari ta’lim oluvchilarga interaktiv va vizual tarzda o’rganish imkonini beradigan manba bo’lishi mumkin.

Ta’limda kompyuter telekonferensiyasi, ayniqsa masofaviy ta’lim yoki onlayn ta’limda muhim rol o’ynaydi. Ta’limda kompyuter telekonferensiyasidan foydalanishga misollar:

1. Masofaviy ta’lim: Bu ta’lim oluvchilarga turli geografik joylarda joylashgan bo’lsa ham o’qituvchilarining darslarida qatnashish imkonini beradi. Ushbu usul orqali jonli ma’ruzalar, ta’lim oluvchilarning o’zaro munosabati, muhokamalar va taqdimotlarga erishish mumkin.

2. O’qituvchilarning hamkorligi: Turli maktablardagi o’qituvchilar o’rtasida hamkorlik va bilim almashishni osonlashtiradi. O’qituvchilar o’quv materiallarini almashishlari, dars rejalarini tuzishlari va malaka oshirishda ishtirok etishlari mumkin.

3. Mehmon ma’ruzachilar va tajriba almashish: Kompyuter telekonferensiyasi mutaxassislar yoki mehmon ma’ruzachilarni sinfga olib kirish narxini va vaqtini kamaytiradi. Ta’lim oluvchilar turli mutaxassislar bilan muloqot qilishlari va turli mavzularda bilim olishlari mumkin.

4. Loyiha ishi va guruh hamkorligi: Ta’lim oluvchilar birgalikda loyihalar ustida ishlashlari, hujjatlarni almashishlari, muhokama qilishlari va birgalikda taqdimotlar qilishlari mumkin. Bu talabalarga hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ota-onalar bilan muloqot: Kompyuter telekonferensiyasi ota-onalar bilan o’qituvchilarning muvaffaqiyati haqida muloqot qilish imkonini beradi. O’qituvchilar ota-onalar bilan yakkama-yakka uchrashuvlar o’tkazib, o’quvchining o’quv faoliyati yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin.

Kompyuter telekonferensiyasi ta’lim oluvchilar va o’qituvchilarga mahalliy yoki xalqaro miqyosda ta’limning keng ko’lamli aloqa tarmog’ini taklif etadi va shunda ta’lim qulay va samarali bo’ladi.

Xulosa. Bugungi kunda ta’lim sohasida global o’zgarishlar va texnologik yuksalishlar pedagogik jarayonni yanada innovatsion va samarali qilishni talab etmoqda. Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda video va audio konferensiyalar, onlayn ma’ruzalar va kompyuter telekonferensiyalar kabi texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega ekani isbotlanmoqda. Ushbu vositalar o’quv jarayonini interaktivlashtiradi, ta’lim beruvchilar va oluvchilar o’rtasidagi masofani qisqartiradi hamda ta’lim jarayonini yanada kengroq auditoriyaga etkazishga imkon beradi.

Bo’lajak o’qituvchilar uchun bunday texnologiyalardan foydalanish o’z kasbiy tayyorgarliklarini chuqurlashtirishda, pedagogik faoliyatlarida yangicha va kreativ usullarni qo’llashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Xususan, video konferensiyalar orqali o’qituvchilar nafaqat ma’ruzalar tinglash, balki ularda faol ishtirok etish, real vaqt rejimida savol-javob qilish va o’zaro tajriba almashish imkoniga ega bo’ladi. Audio konferensiyalar va onlayn ma’ruzalar esa ta’limni qulay va ko’p marta qayta eshitish imkoniyatini berib, talabalar uchun individual o’zlashtirish tempini yaratadi. Kompyuter telekonferensiyalari esa butun dunyo bo’ylab o’qituvchilar va ta’lim oluvchilar o’rtasida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu texnologiyalar bo’lajak o’qituvchilarga masofaviy ta’lim berish bo’yicha tajriba orttirish, masofaviy guruhlar bilan ishlash va onlayn pedagogik faoliyatni samarali tashkil qilish imkonini ham beradi. Kelajakdagi o’qituvchilar nafaqat pedagogika fanini o’zlashtirishlari, balki axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini innovatsion yondashuv bilan boyitishga tayyor bo’lishlari lozim.

Umuman olganda, video va audio konferensiyalar, onlayn ma’ruzalar hamda kompyuter telekonferensiyalar bo’lajak o’qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni oshirish, balki ularni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashishga ham yordam beradi. Ushbu texnologiyalardan foydalangan holda o’qituvchilar yanada samarali, ijodiy va raqobatbardosh mutaxassislar bo’lib yetishadi, bu esa zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim muassasalarida

mazkur texnologiyalarni keng joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etish kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga olib chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., Ta’limda innovatsion texnologiyalar. “Umumiy psixologiya” T., 2008.
2. Hotamova D.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zarurati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 77-79 b. 2024.
3. Hotamova D.K. The history of the development of psychology, the subject and its place in the activity of medical personnel // International Journal Of Literature And Languages 3 (02), 97-99, 2023
4. Орлова А.В. Проблемы мотивации дистанционного обучения на примере анализа онлайн-ресурсов для обучения школьников математике // Герценовские чтения: психологические исследования в образовании. 2018. С. 326–333.
5. Samiyeva S. Modern trends in the organization of the educational process in higher education institutions // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
6. Juraev, M. M. (2021). Pedagogical conditions for the development of vocational education through interdisciplinary integration into the vocational education system. In Наука, образование, общество: Актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 110-112).
7. Ломаско П.С., Симонова А.Л., // Лисман А.М. Возможности включения «перевернутых» учебных ресурсов в профессиональную подготовку будущих учителей математики и информатики // Открытое образование //Т. 26. № 5. 2022
8. www.egitimteknoloji.com

**ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA INSTITUTSIONAL YONDASHUV ASOSIDA
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI**

Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna,

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1- bosqich tayanch doktoranti
moneygood750@gmail.com*

Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinadi, tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, psixologik, pedagogik.

**ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА В УСЛОВИЯХ
СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

В данной статье рассматриваются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры учителей, процесс развития профессиональной культуры учителей школы, самоконтроля, самооценки, рефлексивно-творческого мышления, ценностно-гносеологического и деятельностного характера. Выделены творческий анализ, содержание структур и компонентов. Также в статье показаны психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры учителей.

Ключевые слова: профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическое, педагогическое.

**THE PROCESS OF FORMING THE PROFESSIONAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS
BASED ON AN INSTITUTIONAL APPROACH IN MODERN EDUCATIONAL CONDITIONS**

This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing teachers' professional culture, the process of developing school teachers' professional culture, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative, and highlights the content of the structures and components. The article also shows the psychological and pedagogical features and components of developing teachers' professional culture.

Keywords: professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

Kirish. Jahon pedagogik amaliyotida mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiya so'nggi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, “kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar” sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi[1]. Yana shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy ta'lim

tizimlarining rivojlanishi va globalizatsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirishga bo’lgan talabni kuchaytirmoqda. O’qituvchilar ta’lim jarayonining asosiy aktyorlari sifatida, o’z kasbiy madaniyatlari orqali o’quvchilarni tarbiyalash va ularning bilim olish jarayonini boshqarishda muhim rol o’ynaydilar. O’qituvchilarning kasbiy madaniyati, nafaqat ularning pedagogik bilimlari va ko’nikmalarini, balki ijtimoiy, etnik va madaniy kontekstlarga moslashuvchanliklarini ham o’z ichiga oladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida institutsional yondashuvning ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu yondashuv ta’lim muassasalari va ularning ichki strukturalarini, o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni o’z ichiga oladi. Ta’lim muassasalarida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni, institutsional yondashuv orqali amalga oshirilganda, o’qituvchilarning professional rivojlanishini ta’minlash va ularning pedagogik faoliyatini yanada samarali qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim sharoitida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni ko’plab omillarga bog’liq. Bunga o’qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning amaliy tajribalari, ta’lim muassasasining strategik yo’nalishlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar kiradi. Shuning uchun, ushbu maqolada institutsional yondashuv asosida bo’ladigan o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi va uning dolzarbligi asoslanadi. Natijada, ushbu tadqiqot o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonining ahamiyatini yanada ochib berishga, ta’lim tizimida sifatli o’qitishni ta’minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. O’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga ham hissa qo’shadi. Bu esa, o’z navbatida, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, talabalarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish masalalari mahalliy mualliflarning ishlarida deyarli kuzatilmadi. Talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish mavzusi T.M.Shamsuddinova, F.B.Xudoyqulova, Z.D.Rasulova, Sh.X.Kuliyeva kabi mahalliy mualliflarning maqolalarida aks ettirilgan. Turli kasblardagi bo’lajak mutaxassislarining kasbiy madaniyatini o’rganish G.A.Ball, M.G.Boyko, A.G.Vidri, A.V.Vineslavskaya, N.I.Voloshko, Y.A.Klimov, A.V.Prosvori, V.V.Ribalki va boshqa xorij olimlarining ishlarida kuzatiladi. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining xususiyatlari A.N.Averyanova, V.G.Afanasyev, Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.M.Nikitin, G.N.Serikov, V.A.Slastyonin kabi olimlarning ishlarida ko’zga tashlanadi. Bundan tashqari A.Giddens zamonaviy jamiyatda institutsional tizimlarning rolini tahlil qiladi va ularning ta’lim jarayonlariga qanday ta’sir etishini ko’rsatadi. E.H.Schein kasbiy madaniyatning tashkilotlar, shu jumladan ta’lim vaziyatiga qanday ta’sir qilishi haqida ko’plab tahlillar berilgan.

O’zbek tadqiqotchilaridan J.D.Alimov ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo’llash orqali o’qituvchilarni tayyorlash jarayonini o’rganadi[2]. M.M.Shodmonova kasbiy madaniyat va uning ta’lim jarayonidagi roli haqida tahlil berilgan[13]. E.Khamroev esa zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o’qituvchilarni tayyorlash jarayonining shakllanishi o’rganilgan. Seymour Novruzov zamonaviy ta’lim tizimida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish va tayyorlash usullarini tadqiq qilgan. U institutsional yondashuv asosida o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida malaka oshirish muhimligini ta’kidlagan. D.Kadyrova kasbiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarni qo’llashning ahamiyatini o’rganadi. U o’qituvchilarning shu yo’nalishda malakasini oshirish uchun yangi metodologiyalarni ishlab chiqmoqda. J.Khamrova o’qituvchilarning professional madaniyatini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rolini tadqiq qilgan. Uning ishlarida o’qituvchilarning kasbiy qo’llanmalari, etika va ta’lim jarayonidagi muloqotda kasbiy madaniyatni shakllantirish yo’llari ko’rib chiqilgan. M.Abdurashidova o’qituvchi kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonida pedagogik muloqot va bevosita ko’rish metodlaridan foydalanishni o’rganadi. U jamiyatda o’qituvchilarning o’rni va ta’lim tizimidagi o’zgarishlar haqida hamda ular ta’lim berish jarayonida qanday rol o’ynashlari kerakligini ko’rsatadi. I.Kasyanov kasbiy madaniyat va pedagogik kompetensiyalarni oshirishda institutsional innovatsiyalarni tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari o’qituvchilarni tayyorlash tizimidagi o’zgarishlar va ularning ta’sirini o’rganishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni yana ko’plab tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan. Masalan, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini o’rganish bo’yicha tadqiqotchilardan biri Elliot Eisner bo’lib, u ta’limda san’at va estetikani qo’llash orqali o’qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini rivojlantirishga e’tibor qaratgan[4]. Eisner o’z asarlarida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda ijodiy yondashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Institutsional yondashuvni ta’lim tizimida tatbiq etish bo’yicha Michael Fullan va Andy Hargreaves kabi olimlar muhim ishlar olib borgan[5]. Fullan ta’limda o’zgarishlarni amalga oshirish jarayonida institutsional kontekstning ahamiyatini o’rganib, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda

tashkilotlararo hamkorlik va tajriba almashishning muhimligini ta’kidlaydi. Hargreaves [6] esa, o’qituvchilarning professional rivojlanishida institutlararo aloqalar va jamoaviy ishning ahamiyatini ko’rsatadi. Patti Lather va Henry Giroux o’z asarlarida o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o’qituvchilar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan xabardor bo’lishlari va o’z pedagogik faoliyatlarini shu kontekstda olib borishlari zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy adabiyotlarda “kasbiy madaniyat” tushunchasiga juda ko’plab ta’riflar berilgan. Kasbiy madaniyat – bu shaxsning ma’lum bir dunyoqarashi va maxsus bilimlari, fazilatlarini, qobiliyatlari, ko’nikmalari, his-tuyg’ulari, qadriyat yo’nalishlari bo’lib, ular uning subyekt-mehnat faoliyatida namoyon bo’ladi va yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ya’ni kasbiy madaniyat deganda har qanday mehnat turiga nisbatan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog’liq madaniyat turi tushuniladi[8].

Shaxsning kasbiy madaniyati mutaxassisning kasbiy muhim fazilatlarini tizimlashtirish, shaxsning ideal kasbiy modellarini yaratish uchun asos bo’lib, mehnat va kasbiy faoliyat madaniyati uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariya va amaliyot esa bilim, ko’nikma va malakalar tizimi sifatida bo’lajak mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini darajasini tavsiflovchi kasbiy madaniyat hodisasidir.

A.I. Kapskayaning fikricha, kasbiy madaniyat zarur bilim, ko’nikma va malakalardan tashqari, ma’lum shaxsiy fazilatlarini, kasbiy faoliyatning turli tarkibiy qismlariga munosabat normalarini o’z ichiga oladi[10].

V.A.Semichenkoning fikriga ko’ra, kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonining mohiyati bo’lajak mutaxassisga tanlangan kasbning mohiyatini, uning ijrochiga qo’yadigan talablarini, kasbiy faoliyatning maqsadlari, mazmuni va funksiyalarini, kasbiy faoliyatning mumkin bo’lgan individual strategiyalarini tushunishga, kasbiy vazifalarni bajarish, kasbiy mahoratning o’ziga xos xususiyatlari va uni o’zlashtirish usullari, kasbiy faoliyat mazmuni va tuzilishiga ijodiy moslashish usullarini o’rganishga yordam berishdir[12].

L.S.Vygotskyning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi ta’lim jarayonida o’qituvchining rolini va o’quvchi bilan o’zaro aloqasini ta’kidlaydi. U o’qituvchining kasbiy madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko’rsatadi.

L.S.Shulman kasbiy bilim va pedagogik bilimlarni birlashtirgan holda, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda "pedagogik kontent bilim" tushunchasini kiritgan.

L.Darling-Hammond o’qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishi bilan bog’liq tadqiqotlar olib borgan[3]. Uning ishlari o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda amaliy tajribalar va hamkorlikka e’tibor qaratadi. Linda Darling-Hammond o’qituvchilarning professional rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ko’rsatadi. U ta’kidlaydiki, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda doimiy ta’lim va tayyorgarlik dasturlari muhim rol o’ynaydi. Uning fikricha, o’qituvchilarni tayyorlash jarayonida amaliy tajribalar va nazariy bilimlarning uyg’unligi muhimdir.

O’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, ta’lim tizimining muhim jihatlardan biridir. Bu jarayon nafaqat o’qituvchilarning professional ko’nikmalarini oshirish, balki ta’lim sifatini yaxshilash va o’quvchilarni sifatli bilim bilan ta’minlash uchun ham zarurdir. Ushbu muammoni hal qilishda institutsional yondashuvning ahamiyati katta. Xorij mamlakatlari va O’zbekiston misolida bu jarayonning qanday amalga oshirilayotganini ko’rib chiqamiz.

Ko’plab rivojlangan davlatlarda, masalan, AQSh, Kanada va Yevropa mamlakatlarida o’qituvchilar uchun doimiy professional rivojlanish dasturlari mavjud. Ushbu dasturlar o’qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va metodologiyalarni o’rganish imkonini beradi. O’qituvchilar seminarlar, treninglar va konferensiyalar orqali o’z bilimlarini yangilab boradilar. Xorijda o’qituvchilar uchun mentorlik tizimlari keng qo’llaniladi. Tajribali o’qituvchilar yangi o’qituvchilarga yo’l-yo’riq ko’rsatish va ularning professional rivojlanishiga yordam berishadi. Bu tizim orqali yangi o’qituvchilar kasbiy madaniyatni tezroq shakllantirishi mumkin. Ta’lim muassasalari o’rtasida hamkorlik va tajriba almashish uchun platformalar yaratilgan bo’lib, bu orqali o’qituvchilar bir-biridan o’rganish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Rivojlangan mamlakatlarning top reytinglardan joy olgan oliy ta’lim muassasalarida ham o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish bo’yicha bir qator aniq ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Garvard Universiteti o’qituvchilar uchun doimiy professional rivojlanish dasturlarini taklif etadi. Bu dasturlar seminarlar, treninglar va master-klasslardan iborat bo’lib, o’qituvchilar pedagogik metodologiyalarni yangilash va o’z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’qituvchilarning kasbiy madaniyatini baholash uchun maxsus tizimlar mavjud. Bu tizimlar o’qituvchilarning dars berish sifatini va o’quvchilar bilan muloqotini baholashga yordam beradi.

Oksford Universitetida yangi o’qituvchilar uchun mentorlik tizimi joriy etilgan bo’lib, tajribali o’qituvchilar yangi pedagoglarga yordam berishadi, ularni qo’llab-quvvatlaydilar va o’z bilimlarini

ulashadilar. Oksfordda yana o‘qituvchilar pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va ularni sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega. Bu jarayonda o‘qituvchilar ilmiy tadqiqotlar olib borishadi va yangi metodlarni ishlab chiqadilar.

Stanford Universitetida o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga qaratilgan treninglarda qatnashadilar. Bu treninglar orqali o‘qituvchilar onlayn ta’lim, interaktiv darslar va boshqa zamonaviy metodlarni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish uchun maxsus kurslarda ishtirok etadilar. Bu kurslar pedagogik madaniyatni oshirishga yordam beradi.

Kembrij Universiteti o‘qituvchilarga pedagogik ko‘nikmalarni oshirish uchun turli kurslar va sertifikatlar taklif qiladi. O‘qituvchilar ushbu kurslarda qatnashib, kasbiy madaniyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘qituvchilar ilmiy tadqiqotlar olib borish va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Yaponiyadagi Mitsubishi Gakuin universitetida xalqaro hamkorlik orqali o‘qituvchilar tajribalarini almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqaro konferensiyalar va seminarlar tashkil etiladi. O‘qituvchilarga ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar orqali o‘qituvchilar jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadilar.

Rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab innovatsion yondashuvlar va dasturlar mavjud. Bu jarayonlar orqali o‘qituvchilarning professional ko‘nikmalari oshiriladi, ta’lim sifatini yaxshilashga erishiladi va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keladi.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi qarorlari va dasturlari bu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy metodologiyalarni qo‘llashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekistonning pedagogika institutlarida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni davomida amaliy tajribalar va nazariy bilimlarning uyg‘unligi ta’minlanmoqda. O‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘qituvchilar uchun turli seminarlar va treninglar tashkil etilmoqda. Shu bilan birgalikda, ta’lim jarayonida ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish zarurligi ko‘zda tutilmoqda. O‘qituvchilar jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos ravishda pedagogik faoliyatlarini olib borishlari kerak. Bunda mintaqaviy xususiyatlar va milliy qadriyatlarini inobatga olish muhimdir.

Rivojlangan davlatlarda professional rivojlanish dasturlari, mentorlik tizimlari va institutlararo hamkorlik keng qo‘llanilsa, O‘zbekistonda esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, amaliy tajribalarni oshirish va ijtimoiy kontekstni hisobga olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar orqali o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Tahlil va natijalar. Yuqorida o‘rgangan barcha mualliflarning ilmiy izlanishlari va adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘qituvchilarning kasbiy madaniyati: O‘qituvchilarning kasbiy madaniyati ularning pedagogik yondoshuvlariga, ijodkorliklariga va amaliy tajribalariga bog‘liqdir. O‘qituvchilar o‘z kasbiy madaniyatlarini shakllantirishda ijodiy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashlari zarur.

2. Instituttsional yondashuv: O‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda institutlararo hamkorlik va tajriba almashish muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkilotlararo aloqalar mustahkam bo‘lishi lozim.

3. Professional rivojlanish: O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida doimiy ta’lim va amaliy tajribalar muhimdir. O‘qituvchilar uchun professional rivojlanish dasturlari, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

4. Ijtimoiy kontekst: O‘qituvchilar jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardan xabardor bo‘lishlari zarur. Ularning pedagogik faoliyatlari ijtimoiy kontekstga mos ravishda olib borilishi kerak.

Ushbu natijalar zamonaviy ta’lim sharoitida instituttsional yondashuv asosida bo‘lak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi va kelgusida bu sohada yangi tadqiqotlar olib borish uchun asos yaratadi.

Instituttsional yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatini shakllantirish mazmuni bir qator muhim jihatlardan iborat. Quyida ushbu mazmunning asosiy komponentlari keltirilgan:

1. Kasbiy etika va qoidalar:

- O‘qituvchilik kasbining etik qoidalari va professional me’yorlarni o‘rgatish.
- O‘qituvchilar uchun mas’uliyat, adolat va shaxsiy integritetni rivojlantirish.

2. Pedagogik ko‘nikmalar:

- Ta’lim metodologiyalari va pedagogik uslublarni o’zlashtirish.
- Talabalar bilan samarali muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini tushunish.

3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari:

- Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni o’rganish.
- Interaktiv darslar va onlayn resurslardan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirish.

4. Madaniyatlararo muloqot:

- Turli madaniyatlar va ularning ta’limga ta’siri haqida bilim olish.
- Madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish va inklyuziv ta’lim tamoyillarini qo’llash.

5. Tadqiqot va analitik fikrlash:

- O’qituvchilarni tadqiqot asosida qaror qabul qilishga o’rgatish.
- Ta’lim jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirish uchun analitik fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish.

6. Amaliy Tajriba:

- O’qituvchilarning amaliyot o’tkazishi va real ta’lim muhitida tajriba orttirishi.
- Mentorlik va hamkorlik orqali tajriba almashish.

7. Shaxsiy rivojlanish:

- O’z-o’zini rivojlantirish, o’qituvchi sifatida o’z salohiyatini oshirish.
- Kasbiy maqsadlarni belgilash va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqish.

8. Jamiyatga xizmat:

- O’qituvchilik kasbining ijtimoiy mas’uliyatini tushunish.
- Jamiyatdagi o’zgarishlarga moslashish va ijtimoiy loyiha va tashabbuslarda ishtirok etish.

Ushbu komponentlar bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi va ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo’lishlariga yordam beradi.

Biz tadqiqotimiz davomida o’rgangan materiallarimiz asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning taxminiy texnologik tizimini ishlab chiqdik, chunki bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda ta’lim jarayonidagi texnologik tizimlar muhim rol o’ynaydi, hamda ushbu tizim ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o’qituvchilarni tayyorlash va ularning professional rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Quyida institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun texnologik tizimning asosiy komponentlari keltiriladi.

1. Ta’lim platformalari.

- Onlayn ta’lim platformalari: Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali o’qituvchilar uchun kurslar, resurslar va amaliyotlarni taqdim etish.

- Interaktiv darslar: Zoom, Microsoft Teams kabi vositalar yordamida interaktiv darslar o’tkazish va talabalar bilan muloqot qilish.

2. O’qituvchilarni tayyorlash dasturlari.

- O’qituvchilar uchun treninglar: O’z-o’zini rivojlantirish, pedagogik ko’nikmalarni oshirish va zamonaviy ta’lim uslublarini o’rganish uchun onlayn va oflayn treninglar.

- Mentorlik dasturlari: Tajribali o’qituvchilar tomonidan yangi avlod o’qituvchilariga ko’mak beradigan dasturlar.

3. Amaliyot va tajriba.

- Simulyatsiya va rol o’yinlari: O’qituvchilarni real ta’lim muhitiga tayyorlash uchun simulyatsiya dasturlari va rol o’yinlari.

- Amaliyot darslari: Ta’lim muassasalarida amaliyot darslari orqali tajriba orttirish imkoniyatlari.

4. Baholash va monitoring.

- Baholash tizimlari: O’qituvchilarning kasbiy madaniyatini baholash uchun anketalar, testlar va boshqa baholash vositalaridan foydalanish.

- Monitoring mexanizmlari: O’qituvchilarning rivojlanishini kuzatish va baholash uchun monitoring tizimlarini joriy etish.

5. Resurslar va ma’lumotlar bazasi.

- Resurslar bazasi: Pedagogik materiallar, maqolalar, kitoblar va videolarni jamlaydigan onlayn resurslar bazasi yaratish.

- Ma’lumotlar analitikasi: O’qituvchilarning faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish yo’nalishlarini aniqlash uchun ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish.

Tadqiqotimiz natijasida aniqlangan va ishlab chiqilgan ma’lumotlarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin bo’ladi. Agar institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyati shakllantirilsa quyidagi imkoniyatlarga erishish mumkin:

- Samaradorlik: Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini tezroq rivojlantirish imkonini beradi.
- Moslashuvchanlik: O’qituvchilar va talabalar uchun moslashuvchan ta’lim sharoitlarini yaratadi.
- Innovatsion yondashuvlar: Zamonaviy texnologiyalarni qo’llash orqali ta’lim jarayonini yangilaydi va innovatsion yondashuvlarni joriy etadi.

Institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning texnologik tizimi ta’lim jarayonini yanada samarali va innovatsion tarzda tashkil etishga yordam beradi. Ushbu tizimning asosiy komponentlari o’qituvchilarni tayyorlash, amaliyot o’tkazish, baholash va monitoring qilishni o’z ichiga oladi. Natijada, bu tizim bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy ta’lim sharoitida institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi. O’qituvchilarning kasbiy madaniyati ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada ko’rsatilganidek, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda ijodkorlik, innovatsion yondashuvlar, doimiy professional rivojlanish va ijtimoiy kontekstga moslashuv zarurligi ta’kidlandi. Institutsional yondashuv esa o’qituvchilarning o’zaro hamkorlik va tajriba almashish orqali o’z kasbiy madaniyatlarini rivojlantirishlariga imkon yaratadi. Shuningdek, o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonida ta’lim tizimining struktura va funksiyalarining ahamiyati ko’rsatildi. O’qituvchilarni tayyorlash jarayonida amaliy tajribalar va nazariy bilimlarning uyg’unligi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy kontekstning ahamiyati muhim rol o’ynaydi.

Takliflarimiz quyidagilardan iborat:

1. O’qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish: O’qituvchilarni tayyorlashda amaliy tajribalarni ko’paytirish va ijodiy yondashuvlarni qo’llash muhimdir. Dasturlarni yangilab, o’qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’rganish imkonini berish lozim.
2. Institutlararo hamkorlikni rivojlantirish: O’qituvchilar o’rtasida tajriba almashish va hamkorlikni kuchaytirish uchun institutlararo tarmoq va platformalar tashkil etish zarur. Bu orqali o’qituvchilar bir-biridan o’rganish va professional rivojlanish imkoniyatiga ega bo’ladi.
3. Doimiy professional rivojlanish dasturlarini joriy etish: O’qituvchilar uchun doimiy ravishda professional rivojlanish dasturlarini tashkil etish, seminarlar, treninglar va master-klasslar o’tkazish orqali ularning kasbiy madaniyatini oshirishga yordam berishi mumkin.
4. Ijtimoiy kontekstni hisobga olish: Ta’lim jarayonida ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. O’qituvchilar jamiyatdagi o’zgarishlarga mos ravishda pedagogik faoliyatlarini olib borishlari kerak.
5. Innovatsion yondashuvlarni qo’llash: Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o’qituvchilarning ijodkorligini rag’batlantirish orqali ularning kasbiy madaniyatini yanada rivojlantirish mumkin.

Ushbu takliflar zamonaviy ta’lim sharoitida institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Alimov, J. D. (2021). Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash tizimida innovatsion yondashuvlar. Ta’lim va tarbiya, 2(1), 35-42.
3. Darling-Hammond, L. (2000). Teacher Quality and Student Achievement. Education Policy Analysis Archives.
4. Eisner, E. W. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press. 134-139.
5. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press. 352-355.
6. Hargreaves, A. (2003). Teaching in the Knowledge Society: Education in the Age of Insecurity. Open University Press.
7. Ibragimova, Sh.T. (2024). Pedagogical characteristics of professional culture formation in future teachers. In Solution of Social Problems in Management and Economy (Vol. 3, Issue 6, pp. 142–145). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12602816>
8. Ibragimova, Sh.T. Institutsional yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi // Inter education global study, 2024, №5. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/institutsional-yondashuv-asosida-bo-lajak-o-qituvchilarda-kasbiy-madaniyatni-shakllantirishning-dolzarbligi>

9. Johnson, R. (2018). Professional Culture and Teacher Education. *International Journal of Educational Research*, 91, 102-110. <https://www.ijern.com>

10. Капска, А.И. (2001). Социальная работа: Начально-методичный пособник. – К.: УДЦССМ.

11. Музалёв, А.А. (2014). Профессиональная культура и ее роль в формировании профессиональных качеств специалиста в условиях профессионально-технической школы. *Молодой ученый*, № 4 (63), 1040-1045.

12. Семиченко, В.А. (1997). Пути повышения изучения психологии. - К.: Магистр.

13. Shodmonova, M. M. Ta’lim jarayonida kasbiy madaniyatning ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim nazorati davlat inspeksiyasi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2019.

14. Smith, J. (2019). Fostering Professional Values in Teacher Education. *European Journal of Teacher Education*, 42(3), 334-348. <https://www.tandfonline.com>

15. Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (2024). Buxoro, 581-588.

16. Zhang, Y. (2020). The Role of Professional Culture in Teacher Development. *Journal of Education and Practice*, 11(6), 75-81. <https://www.iiste.org>

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV PEDAGOGIK TA'LIMNING ASOSI SIFATIDA

*Isroilova Ruhshona Sunnatovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta'limning asosi ekanligi yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv – ta'lim tizimining ijtimoiy buyurtmaga javoblaridan biridir. Kompetensiyalar ustida ishlash – butun dunyo ta'lim tizimlarining ta'limiy natijalari va hayotning zamonaviy talablari o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etishga urinayotgan yo'nalishdir. Shuningdek, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, bitta predmet (fan) bo'yicha kompetentlik tushunchalari mazmuni tahlil qilingan. Shu bilan birga kompetensiyaviy yondashuv muammosi bo'yicha tadqiqotlarni o'rganib chiqib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetentlik, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, kompetensiyaviy ta'lim, kasbiy kompetensiya.

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД КАК ОСНОВА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье освещается, что компетентностный подход является основой педагогического образования. Компетентностный подход - это один из ответов системы образования на социальный заказ. Работа над компетенциями - это направление, в рамках которого образовательные системы во всём мире стремятся преодолеть разрыв между результатами обучения и современными требованиями жизни. Также проанализировано содержание понятий компетентностного подхода в образовании, базовой компетентности, междисциплинарной компетентности и компетентности по отдельному предмету (дисциплине). Наряду с этим, на основе изучения исследований по проблеме компетентностного подхода, были представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, компетентность, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность, компетентностное образование, профессиональная компетенция.

COMPETENCY-BASED APPROACH AS THE FOUNDATION OF PEDAGOGICAL EDUCATION

This article highlights that a competency-based approach is the foundation of pedagogical education. The competency-based approach is one of the education system's responses to societal demands. Working on competencies is a direction in which educational systems worldwide are striving to bridge the gap between educational outcomes and the requirements of modern life. The content of concepts such as the competency-based approach in education, core competencies, interdisciplinary competencies, and subject-specific competencies has been analyzed. Additionally, research on the issue of the competency-based approach has been examined, and suggestions and recommendations have been provided.

Keywords: competence, competency-based approach, core competency, interdisciplinary competency, competency-based education, professional competency.

Kirish. Kompetensiyaviy ta'lim (“ta'limda kompetensiyaviy yondashuv”) – murakkab va ziddiyatli mavzu bo'lib, bugungi kunda muammoga doir nashr ishlarining o'sib borayotganligiga qaramay, yetarlicha o'rganilmagan hisoblanadi. Tushuncha AQShda taniqli o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish jarayonida yuzaga kelgan, uni tahlil qilish, konseptual asosini ishlab chiqish uchun ko'pgina urinishlarning natijasi bo'lgan.

Tadqiqotchi N.Muslimov tadqiqotida kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanishi yoritilgan. Mazkur o'rinda “kompetentlik” tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Ta’lim mazmunining o’quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to’plami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e’tirof etib o’tamiz:

- tayanch kompetentlik (ta’limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko’ra);
- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o’quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga ko’ra);
- bitta predmet(fan) bo’yicha kompetentligi (maxsus o’quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko’ra) [1].

Asosiy qism. Zamonaviy tadqiqotchilar xorijiy ta’lim nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuvning tarqalishida quyidagicha qator shart-sharoitlarni ajratadilar:

1) kompetensiyaviy ta’limning rivojlanishiga kompyuterlashtirish ko’maklashdi. Kompetensiyaviy ta’lim axborot portlashi deb nomlangan jarayonda ayniqsa dolzarblashdi. Axborot portlashi – an’anaviy, bilimlarni yetkazishga asoslangan ta’lim tizimi inqirozining sabablaridan biridir.

2) O’zbekistonda kompetensiyaviy ta’limga qiziqishlarning boshqa sababi - biznes-hamjamiyatning rivojlanishi va mehnat bozorida sodir bo’layotgan o’zgarishlar hisoblanadi. “Kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalari biznes-ta’lim, huquqshunoslik, boshquruv sohasida ko’p vaqtlardan beri foydalaniladi.

Jumladan, jamiyatda an’anaviy maktabning bolalar salomatligiga salbiy ta’sirining anglanganligi, yangi mazmuni ta’limning eski shakllariga kiritib bo’lmasligi, pedagoglarning qadriyatli asoslarining o’zgarishligi, bularning barchasi zamonaviy maktabning maqsadli doirasini qayta ko’rib chiqish, butun ta’lim tizimini tubdan isloh qilish zaruratini tushunish uchun kerakli sharoitlarni yaratdi.

Mazkur islohotlar respublika ta’limi va iqtisodiyotini mehnatni taqsimlashning xalqaro tizimiga integratsiyasining istiqbollari mazmunida aks etadi. Bunda ko’p yillardan buyon ta’limning barcha darajalarida kompetensiyaviy (modulli-kompetensiyaviy) yondashuvni ishlab chiqish va joriy etish faol ishlari olib borilmoqda.

2000-yildan boshlab kompetensiyaviy yondashuv O’zbekistonning ta’lim sohasidagi strategik hujjatlarida umumiy va kasbiy ta’lim mazmunini yangilashning ahamiyatli konseptual asoslaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bunda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning asosiy maqsadlari – ta’lim samaradorligi va sifatini ta’minlash ekanligi belgilangan. Shu tariqa, kompetensiyaviy yondashuv – ta’lim tizimining ijtimoiy buyurtmaga javoblaridan biridir. Kompetensiyalar ustida ishlash – butun dunyo ta’lim tizimlarining ta’limiy natijalari va hayotning zamonaviy talablari o’rtasidagi uzilishlarni bartaraf etishga urinayotgan yo’nalishdir.

Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv bilimlar bazasi, ko’nikmalar majmui, shuningdek, funksional savodxonlik elementlarini rivojlantirish zaruratini inkor etmaydi. Bu holatda integratsiyalangan natija, ya’ni kompetentlikni rivojlantirish nazarda tutiladi.

“Kompetentlik” toifasi yangi iqtisodiyot va insonning jadal sur’atlarda o’zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish ehtiyojidan yuzaga kelgan inson zaxiralariga yangicha yondashuvning natijasi hisoblanadi. “Kompetensiya” tushunchasini ta’lim amaliyotiga kiritish A.V.Xutorskoy ta’kidlaganidek, maktab uchun odatiy bo’lgan, o’quvchilar nazariy bilimlar majmuini egallab, ma’lum vazifalar yoki muammoli vaziyatlarni yechishda sezilarli qiyinchiliklarni his etishlari muammosini hal etish imkonini beradi [2].

I.A. Zimnyaya kompetensiyaviy yondashuv muammosi bo’yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, uning rivojlanishining uch bosqichlarini quyidagicha ajratgan:

birinchi bosqich (1960-1970-yillar) ilmiy apparatga “kompetensiya” toifasini kiritish bilan tavsiflanadi;

ikkinchi bosqich (1970-1990-yillar) ona tilini o’qitish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv sohasida “kompetentlik”, “kompetensiya” toifalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi;

uchinchi bosqich (1990-2001-yillar) ta’limda “kompetentlik”, “kompetensiya” toifalaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi [3].

O.E.Lebedev ta’riflaganidek, *ta’limda kompetensiyaviy yondashuv* - bu “ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholash umumiy prinsiplarining majmuidir” [4]. Kompetensiyaviy yondashuvning yetakchi g’oyasi – “natijadan” shakllantiriladigan ta’lim mazmunini tushunishdir.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim muassasasining (kengroq – ta’lim tizimining) uning buyurtmachilari, iste’molchilari bilan, avvalo keng tushuniladigan ish beruvchi bilan ijtimoiy o’zaro aloqasi yuzaga kelganida talab etiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvni ko’pincha u yoki bu mehnat, ko’pincha oddiy harakatlarni o’rgatish va bajarish bilan bog’liq bo’lgan amaliy-yo’naltirilgan mehnat tayyorgarligi bilan adashtiradilar.

Kompetensiyaviy yondashuv kengroq bo‘lib, masalan uni amalga oshirish chuqur bilim egallashsiz mumkin emas, mazkur yondashuvning muhim belgisi ta‘lim oluvchining keyinchalik mustaqil ta‘lim olishi hisoblanadi.

O.E.Lebedev kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltiradi:

o‘qitishning mazmuni ta‘lim oluvchilarda o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari elementi hisoblangan ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli faoliyat sohalari va ko‘rinishlaridagi muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat;

ta‘lim mazmuni bilishga oid, dunyoqarashga oid, axloqiy, siyosiy, kasbiy muammolarni yechishning didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajribasini aks ettiradi;

ta‘lim jarayonini tashkil etishning ma‘nosi ta‘lim oluvchilarda bilishga oid, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy, kasbiy va boshqa ta‘lim mazmunini tashkil etuvchi muammolarni mustaqil yechish tajribasini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat;

ta‘lim natijalarini baholash o‘quvchilar ta‘limning ma‘lum bosqichida erishgan ma‘lumotlilik darajalarining tahliliga asoslanadi [5].

Zamonaviy ta‘lim nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

asosiy kompetensiyalar shakllanishiga yo‘nalganlik fanda va ta‘lim amaliyotida istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi;

kompetensiyalar rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oya kasbiy ta‘lim tizimida jadal rivojlanmoqda;

kompetensiyaviy yondashuv ta‘lim mazmunini qurishda «bilimlar»dan «faoliyat usullari»ga o‘tishni nazarda tutadi, bu, avvalo davlat ta‘lim standartlarida o‘z ifodasini topmoqda;

kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish mazkur yondashuv doirasida ishlay oladigan kadrlarni tayyorlashga ahamiyatli resurslar ajratilishini talab etadi.

Hozirgi vaqtga qadar ta‘limda kompetensiyaviy yondashuv murakkab va ziddiyatli, yetarlicha tadqiq etilmagan va nazariy ishlab chiqilmagan mavzu bo‘lib qolmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosiy tushunchalarining umumqabul qilingan ta‘riflari mavjud emasligi ham bu bilan bog‘liq bo‘lib, bizni ishchi ta‘riflardan foydalanishga majbur etadi. Bundan tashqari jahon va milliy ta‘lim amaliyotida kompetensiyaviy (modulli-kompetensiyaviy) yondashuvning rivojlanishi muammoni nazariy anglashdan ko‘ra oldinda bormoqda.

Asosan standart kasbiy vazifalarni (ko‘pincha nostandart vaziyatlarda) amalga oshirishga xizmat qiluvchi mutaxassislarni an‘anaviy funksional tayyorlashga yo‘naltirilgan kasbiy ta‘limda esa kompetensiyaviy yondashuv bugun modulli-kompetensiyaviy shaklda xizmat qilmoqda. Modulli-kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta‘lim tizimiga nisbatan kompetensiyaviy yondashuvni chuqurroq texnologik ishlab chiqishning natijasi hisoblanishini ta‘kidlash mumkin.

Samarali kasb ta‘limi jarayonida (kompetensiyaviy yo‘naltirilgan) ta‘limning kognitiv natijalari - bilim, ko‘nikma va malakalar –umumiylikda mutaxassisning kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi, integral natijalarga (kognitiv-shaxsiy) – turli kasbiy kompetensiyalarga aylanadi.


Kasbiy kompetentlilik mutaxassis faoliyatini va uning ichki tuzilishi muhim xarakteristikalarini aks ettirishga tayanadi deb tushunishga asoslangan holda, kasbiy kompetentlilik struktura-sini uning asosiy komponentlarini tavsiflash nuqtayi nazaridan oydinlashtirish mumkin [5].

Kasbiy kompetensiyalardan tashqari *universal (umumiy) kompetensiyalar* - kasbiy hamda nokasbiy sohalardagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalar ajratiladi. Mazkur kompetensiyalar ba‘zan asosiy deb ham ataladi.

Umumiy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi mualliflari, xorijiy tajribalarga asoslanib, quyidagi universal kompetentliklarni ajratadilar, ularni rivojlantirish pedagogik nuqtayi nazardan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga olib kelishi kerak:

- turli axborot, jumladan, maktabdan tashqari manbalaridan bilimlarni egallash usullarini o‘zlashtirishga asoslangan mustaqil bilishga oid faoliyat sohasidagi kompetentlik;
- fuqarolik-ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetentlik (fuqaro, saylovchi, iste‘molchi rollarini bajarish);
- ijtimoiy-mehnat faoliyati sohasidagi kompetentlik (jumladan, mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini baholash, mehnat o‘zaro munosabatlari me‘yorlari va axloqini tushunish, o‘z-o‘zini tashkil etish malakalari);
- maishiy sohadagi kompetentlik (jumladan, shaxsiy salomatligi, oilaviy xo‘jalik va boshqalar);
- madaniy-xordiq faoliyati sohasidagi kompetentlik (jumladan, shaxsni madaniy va ma‘naviy boyituvchi bo‘sh vaqtdan foydalanish yo‘llari va usullarini tanlash).

Kompetensiyaviy yo‘nalgan pedagogik ta‘lim jarayonida mutaxassis kasbiy faoliyati tuzilishi va mutaxassis kasbiy kompetentligi tuzilishi o‘rtasida umumiy muvofiqlik tuzilishi kerak.



1-rasm. Mutaxassisning kasbiy faoliyati va kasbiy kompetentligi tuzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Birinchidan, kompetensiyalarning integral xususiyati ularning tarkibida nafaqat kognitiv, balki shaxsiy komponentning mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadi. Faoliyatning biror-bir usulini (bilim va ko‘nikmalar asosida) egallab, ta‘lim oluvchi faoliyatni egallashning shaxsiy tajribasini o‘zlashtiradi. Bunda «xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyati» to‘g‘risida emas, balki “faoliyat usuli” to‘g‘risida so‘z yuritib, biz quyidagilar sodir bo‘lishi kerakligini nazarda tutamiz:


a) ta‘lim oluvchilarga faoliyat maqsadini shaxsiy tayinlash, bunda o‘z faoliyatini boshqarish jarayonini anglashga imkon beruvchi vaziyat yuzaga keladi;

b) nafaqat bilim, ko‘nikma, malakalarning, balki qadriyatlarining integratsiyasi, chunki yaxlit faoliyatni (alohida hatti-harakatdan farqli ravishda) taqlid qilish orqali o‘zlashtirish mumkin emas.

Shu tariqa, ta‘lim oluvchida kasbiy «resursli paket» shakllanadi, u o‘z-o‘zini boshqarishdan so‘ng, kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun ikkinchi, zaruriy qatlamni tashkil etadi.


Ikkinchidan, kompetensiyalar ta‘lim natijalari sifatida o‘z-o‘zidan ahamiyatli – o‘zlashtiriladigan faoliyat usullari majmui ijtimoiy talab etilgan bo‘lishi va bitiruvchiga odatiy vaziyatlarga muvofiq bo‘lishiga imkon berishi lozim. Umuman olganda, o‘zlashtiriladigan faoliyat usullarining bunday majmui ish beruvchilar talablarining predmeti hisoblanadi (umumiy holda, kasbiy faoliyatning), u muayyan vaqt davomida dolzarb bo‘lishi, so‘ngra ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o‘zgarishi, texnika va texnologiya rivojlanishi kabilar tufayli tuzatish kiritilishi mumkin.

Uchinchidan, foydalanish uchun doim tayyor holda “saqlanadigan” bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli ravishda, kompetensiyalar faqatgina uni amalga oshirish vaqtida, ya‘ni vaziyatga javoban “jamlanadi”:



2-rasm. Kompetensiyaning talab etilgan vaqtidagi tuzilmasi

Qolgan vaqtda kompetensiyaning elementlari “qismlarga ajratilgan” ko‘rinishda saqlanadi, kompetensiyaning o‘zi esa faqat potensial ravishda mavjud bo‘ladi (3-rasmga qarang):



3-rasm. Kompetensiyaning talab etilmagan vaqtidagi tuzilmasi

Ichki resurslar – bu fan, fanlararo va hayotiy xususiyatdagi bilim, ko'nikma va malakalar, munosabatlar, shuningdek, faoliyat tajribasi (o'zlashtirilgan faoliyat turlarining “resurs paketlari” to'plami). Bilimlar bilishga oid faoliyat davomida o'zlashtiriladi. Bilimlar faoliyatni amalga oshirish hamda uzluksiz ta'lim jarayonida kelgusi ta'lim olish uchun zarur hisoblanadi. Ko'nikma xatti-harakatni (topshiriqni) maqsadga muvofiq bajarishni nazarda tutadi. *Munosabatlar* ostida faoliyat ob'ekti va predmetiga munosabatlar, shuningdek, ta'lim oluvchining o'z-o'ziga, shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga munosabati tushuniladi. Inson tomonidan anglangan va ishlab chiqilgan hamda uning ichki olamining qismiga aylangan hayotiy va kasbiy mazmun *tajribaga* aylanadi. Ta'lim oluvchi o'z faoliyati natijalarini tahlil qila boshlaganida va to'g'ri xulosalar chiqarganida, ya'ni refleksiv vaziyatda (ekspert) bo'lganida u kasbiy tajribaga ega bo'la boshlaydi [6].

Tashqi resurslar – bu inson oldida yuzaga kelgan muammoni hal etishi uchun barcha jalb eta oladiganlari:

axborot resurslari (ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, Internet, ekspertlar, ya'ni maxsus axborotning jonli tashuvchilari va h.k.);

ijtimoiy resurslar (tashkilotlar va shaxslar, ya'ni ijtimoiy hamkorlar, «shaxsiy aloqalar»);

moliyaviy, moddiy-texnik, texnologik va boshqa resurslar.

O'z-o'zini boshqarish – “resursli paket” ni maqsadga muvofiq boshqarish: ma'lum vaziyatda samarali faoliyat uchun resurslar tarkibini belgilash; zarur ichki va tashqi resurslarni izlash va faollashtirish; ularni “yig'ish” va o'zaro muvofiqlashtirish.

O'z-o'zini boshqarish ta'lim jarayonida, ko'pgina turli-tuman muammoli vaziyatlarni (o'quv va hayotiy) hal etish tajribasi asosida shakllanadi. Muammoli vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish – yangi elementlardan biri bo'lib, ular kompetensiyaviy yondashuvni o'quv jarayoniga olib kiradi.

Mobilik – muammoli vaziyatga javoban kompetensiyani «ishga tushirishga» tayyorlik hisoblanadi. Mobilik ma'lum yo'nalishda aqliy va jismoniy urinishlarni ongli amalga oshirishni nazarda tutadi. Urinishsiz inson bilim, ko'nikma va qobiliyatlar bilan to'ldirilgan, ammo relslarda qo'zg'almasdan turgan lokomotiv vagonlarini eslatadi. Mobilik odatga o'xshash (mobillashish), qiyinchiliklarni yengish odati kabi shakllanadi. Mobillashish – insonning alohida sifati, zarur bo'lganida urinishlarni amalga oshirishga doimiy tayyorlik hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mobilik motivatsiya bilan bevosita bog'langan.

Faqatgina o'z-o'zini undashga asoslangan faoliyat, ijobiy ichki motivlar tizimiga asoslangan faoliyatdek samarali bo'lmaydi. Ta'lim oluvchining mobiligini, uning faoliyatga tayyorligini rivojlantirish – bu kompetensiyaviy yondashuvning o'quv jarayoniga kiritadigan yana bir yangi jihatidir. Mazkur jihat ta'limni tarbiya bilan bevosita bog'laydi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan “tarbiyaviy ta'lim”, o'quv masalalarida uchraydigan, shaxsiy va hayotiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan qiyinchiliklarni tizimli yengish orqali o'quvchining mobiligini (irodasini) rivojlantirish sifatida tushuniladi.

Ta'limning an'anaviy “bilim, ko'nikma, malakalar” natijalaridan farqli ravishda kompetentlik: birinchidan, integratsiyalangan hisoblanadi; ikkinchidan, faqat sun'iy yaratiladigan test vaziyatida (nazorat ishi, imtihon, kurs ishining himoyasi va h.k.) emas, balki vaziyatli va haqiqiy zarurat vaziyatlarida ifodalanadi; uchinchidan, vaqtning asosiy qismida ma'lum mazmunga kirib va ma'lum vaziyatda mos elementlardan “jamlanib”, imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi [8;9].

Funksional savodxonlik elementidan farqli ravishda kompetentlik vazifalarning qator guruhlarini yechish imkonini beradi; malakadan farqli ravishda – anglangan bo'ladi; ko'nikmadan farqli ravishda – ko'chiriladi (ta'sir etish predmetlarining butun guruhi bilan bog'liq), avtomatizm va malakaga aylantirish yo'li bo'yicha emas, balki boshqa kompetentliklar bilan integratsiyalash yo'li bo'yicha takomillashadi: faoliyatning umumiy asosini anglash orqali kompetentlikning o'zi rivojlantiriladi, xatti-harakat usuli esa ichki resurslar bazasiga kiritiladi; bilimdan farqli ravishda, faoliyat ko'rinishida (haqiqiy yoki aqliy) mavjud bo'ladi.

M.R.Tabatabaning tadqiqotida oliy ta'lim ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarida universal kompetensiyalarni rivojlantirish ishlari olib borilgan. Tadqiqotchi tomonidan quyidagilar amalga oshirilgan:

ta'lim oluvchilarning universal (asosiy) kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining modeli ishlab chiqilgan va tajriba-sinovda tekshirilgan;

ta’lim natijalari sifatida kompetensiyalarni baholashga uchta yondashuvlar aniqlangan: kompetensiyalarni faoliyat metodini egallaganlik sifatida baholash; kompetensiyalarni baholash uchun ekspert baholashdan foydalanish;

ta’lim oluvchilarning o’z kompetensiyalarini o’z-o’zlari baholashlarining yetakchi rolini tan olish, bu oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoni amaliyotida asosiy kompetensiyalarni baholash jarayonida foydalanilishi mumkin;

oliy ta’lim muassasalarida mutaxassisning universal kompetensiyalarini samarali rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalar majmui aniqlangan: loyihalar metodi, ta’lim oluvchining portfoliosi, ta’lim oluvchilarning kichik korxonalari; ta’lim oluvchilarning loyihaviy faoliyatlari texnologiyasi tizim hosil qiluvchi element sifatida ikki boshqa ta’lim texnologiyalari tizimida foydalanilishi mumkinligi ko’rsatilgan bo’lib, bu muassasalar amaliyotining protsessual komponentini takomillashtirish uchun ahamiyatli hisoblanadi [7].

Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi bosqichiga nisbatan mazkur tavsiyalarni qisqacha keltirib o’tamiz:

1. *Pedagogika fanlarini amalga oshirish maqsadlarini o’zgartirish.* Pedagogika kursining maqsadi talabning o’z pedagogik faoliyati va ijtimoiy-huquqiy, axborot-texnologik, tilga oid sohalarida asosiy kompetentliklar to’g’risidagi bilimlar asosida kasbiy shakllanishi bilan bog’liq bo’lgan kasbiy vazifani yechish tajribasini egallashida ko’maklashishdan iborat.

2. *Pedagogika fanlarining mazmunini o’zgartirish.* “Pedagogik faoliyatga kirish” mavjud kursga o’zgartirishlar kiritish: jumladan, kursga “Kasbiy faoliyat va o’qituvchining kasbiy kompetentligi” kirish modulini kiritish; kursni amalga oshirishda talabada boshqa kasbiy vazifalarni yechish zarurati kontekstida uning kasbiy mustaqil ta’limni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati bilan bog’liq bo’lgan kasbiy vazifalarni yechish tajribasi shakllanishiga ko’maklashishga e’tibor qaratish.

3. *Pedagogika va boshqa fanlar o’qituvchilarining o’zaro aloqalarini o’zgartirish.* “Jamoaviy” ish prinsipidan foydalanish. Mazkur prinsip mazmunining asosi pedagogika o’qituvchisi tomonidan belgilanib, u tayyorgarlikning; o’quv kurslarini rejalashtirishdan integratsiyalangan attestatsiyagacha bo’lgan barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

4. *Kutiladigan natijalar hamda ularni baholash shakllari va usullarini o’zgartirish.* Pedagogika fanlarini o’zlashtirishning kutiladigan natijasi talabning ijtimoiy-huquqiy, axborot-texnologik, tilga oid sohalarida asosiy kompetentliklari rivojlanishi asosida kasbiy mustaqil ta’limni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati (malakasi) bilan bog’liq bo’lgan kasbiy vazifalarni yechish tajribasini egallashi hisoblanadi. Talaba mazkur guruh vazifalarini yechish tajribasini egallashi jarayonini barcha fanlar uchun umumiy bo’lgan *portfolioda* aks ettiradi. [10; 11;12;]

Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi bosqichining yakunida ikki shaklda (talabning tanlovi asosida) *integratsiyalangan attestatsiya* (pedagogika, yo’nalish fanlari) o’tkaziladi: talaba kasbiy mustaqil ta’limni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati (malakasi) bilan bog’liq bo’lgan kasbiy vazifalarni yechishda ijtimoiy-huquqiy, axborot-texnologik, tilga oid sohalaridagi asosiy kompetentliklarini ifodalaydigan ishlanmalarning himoyasi; imtihon birliklarining kredit tizimi asosidagi attestatsiya [7].

Ammo kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta’limda avvalgidek noaniq bo’lib qolmoqda va undan qator pedagogik ta’lim muassasalari o’z ish amaliyotida foydalanishni katta ehtiyotkorlik bilan amalga oshiradilar.

Amaliy tayyorgarlikni fundamental ta’lim bilan qarama-qarshi qo’yib bo’lmaydi. Jadal o’zgarib borayotgan ijtimoiy-madaniy muhit sharoitlarida faqatgina mukammal ilmiy tayyorgarlik pedagogning kasbiy mobilligini ta’minlashi mumkin [8].

Kompetentlik faqatgina inson fundamental bilimlarga ega bo’lganida va ularni turli-tuman kasbiy vazifalarni yechishda amaliyotda qo’llashni bilganida namoyon bo’ladi.

Xulosa. Ifodalangan qoidadan kelib chiqqan holda kompetensiyaviy yondashuv an’naviy ravishda amaliy yo’nalganlikka ega bo’lgan oliy ta’lim hisoblanadi. Bu mazkur yondashuvdan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan oliy ta’lim muassasalarida boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish modelining konseptual asosi sifatida foydalanishga imkon berdi va o’z navbatida, dastlab boshlang’ich ta’lim o’qituvchisining kasbiy kompetentligi modelini ishlab chiqishni talab etdi.

Adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Психология обучения родному языку (на материале: Русский язык в качестве иностранного). – Москва: Русский язык, 1989. – 219 с.
2. Егорова А.С. Психофизиология умственного труда. – Ленинград: Наука, 1973. – 131 с.

3. Есипов Б.П. Самостоятельная работа учащихся на уроках. – Москва, 1961. –240 с.
4. Машарипова У. Инновацион таълим шароитида бошлангич синф ўқувчиларининг нутк маданиятини ривожлантириш методикаси: Дис. ... пед. фан. ном. – Т., 2017. – 163 б.
5. Машарипова У. Формирование коммуникативных компетенций младших школьников на основе развития связной речи // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития: 13-я международ. конф. – Санкт-Петербург: ЛГУ, 2015. – С.116-117.
6. Махмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 12-31 б.
7. Нуруллаева Ш.У. Бошлангич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш методикаси: Дис. ... пед. фан. ном. – Т.:ТДПУ, 2008. – 145 б.
8. Огородников И.Т. Вопросы повышения эффективности урока. Сборник статей. – М., 1959. – 262 с.
9. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. Теоретико-экспериментальное исследование. – Москва: Педагогика, 1980. – 240 с.
10. Подласый И.П. Педагогика: учебник для бакалавров. 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2012. – 574 с. Электронный ресурс: <https://urait.ru/bcode/361824>. Дата обращения: 16.01.2021.
11. Пискунов А.И. и др. История педагогики и образования: учебник для бакалавров. – Москва: Издательство Юрайт, 2013. – 575 с. Электронный ресурс: <https://urait.ru/bcode/368456>. Дата обращения: 16.01.2020.
12. Пронина А.А. Лингвистический анализ текста как средство развития речи учащихся: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 1998. – 146 с.

TALABALARNI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONI

Jabborova Dilafruz Furqatovna,
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, PhD
jabborovadilafruz389@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan ma'ruzalar, pedagogik texnologiyalar, kontekstual ta'lim, yangi texnologik qurilmalar, faol o'rganish to'g'risida fikr yuritilgan. Bundan tashqari hikoya qilish, guruhli ish, individual topshiriqlar, o'yinlar, taqdimotlar va boshqa ko'plab metodlardan foydalanish to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, konstruktiv qobiliyat, istak metodi, Vak o'qitish, o'zaro hamkorlik, faol o'rganish, video konferensiyalar yoki jonli suhbatlar, vizual, audio va kinestetik.*

ПРОЦЕСС ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются лекции, организованные на основе современных педагогических технологий, педагогических технологий, контекстного обучения, новых технологических устройств и активного обучения. Она также охватывает использование рассказа историй, групповой работы, индивидуальных заданий, игр, презентаций и многих других методов.

Ключевые слова: *педагогическая технология, конструктивные умения, метод желания, интерактивное обучение, взаимодействие, активное обучение, видеоконференции или живые беседы, визуальное, аудио- и кинестетическое.*

THE PROCESS OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS

This article discusses lectures organized on the basis of modern pedagogical technologies, pedagogical technologies, contextual education, new technological devices, and active learning. It also covers the use of storytelling, group work, individual assignments, games, presentations and many other methods.

Keywords: *pedagogical technology, constructive skills, desire method, interactive teaching, interaction, active learning, video conferences or live conversations, visual, audio and kinesthetic.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni ko'p elementli jarayon bo'lib, u o'qituvchilar tayyorlash tizimining mazmuni, shakli, vositalari, metodlari, o'qituvchi-talaba munosabatlari, ularni subyekt-subyekt darajasida tashkil etish yo'llari, o'qituvchi mahorati va shaxsiy sifatlarini qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida o'qituvchining mahorati va kasbiy ko'nikmalari alohida o'rin egallab, uni shakllantirish uchun pedagogik ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida talabalarni o'rganishga yordam beradigan dialog shaklida ulardan o'z fikrlaringizni mustaqil bildirishni, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni va ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni talab etadi. Bu usullar ta'lim jarayonini nostandart tashkil etish imkonini beradi, ta'lim darajasi, talabalarni rivojlantirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan ma'ruzalar ma'ruza-suhbat shaklida o'tkaziladi, muhokama elementlari, fikr almashish, aqliy hujum talabalarni suhbat, jamoaviy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga imkon beradi. O'quv munozaralari ma'ruzalar afzalliklari shundaki, ular materialni mustahkamlash uchungina emas, talabalarning o'z tajribasidan foydalanish, bilimlarni uzatish qobiliyati, bir sohadan boshqasiga o'tish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Asosiy qism. Har qanday pedagogik texnologiyani qo‘llash samaradorligi uning variativligi, o‘quv-tarbiya jarayonining loyihalashtirilishi, uning andozasi, tashkil etish tamoyillari, metod va usullari, vositalari, shart-sharoitlari, tashkil etish shakllariga bog‘liq.

Bu borada Rigadagi Stokgolm iqtisodiyot maktabi professori Lourens Staut ta‘lim samaradorligini oshirishning yettita asosiy tamoyilini keltiradi:

1. Ta‘lim o‘zaro hamkorlikka asoslanadi. O‘zaro hamkorlikda o‘qituvchi va o‘quvchining bir-birlariga ishonchi katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchi bu borada o‘z bilimi, mahorati bilan o‘z o‘quvchisida ishonch tuyg‘usini uyg‘ota olishi zarur.

2. O‘quv-biluv jarayoni tabiiy jarayon bo‘lib, axborotlar qabul qilinib, idrok etiladi. O‘quv jarayoni tabiiy sharoitda amalga oshirilib, o‘quvchi o‘quv jarayoniga majburiy emas, tabiiy holda yo‘naltirilishi kerak.

3. Bilim olish eng zarur tuyg‘u. Bilish har bir kishining ichki talabidir. Inson uchun eng zarur talablar oziq-ovqat, xavfsizlik, sevgi-muhabbat, zarur ashyolar bo‘lsa, eng muhimi, o‘z-o‘zini namoyon etishidir. Lekin tushunish va bilish zaruriyati ana shu beshta talabning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, o‘qish va o‘rganish har bir inson uchun hayot zaruriyati bo‘lib, u buning uchun kurashga intilib yashaydi.

4. Har bir inson o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega. Shunga ko‘ra eng mahoratli o‘qituvchi ham ta‘lim samaradorligini to‘liq amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Chunki har bir o‘quvchi bilimlarni turli darajada o‘zlashtiradi.

Ta‘lim samarasi o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan individual, yakkama-yakka bilim berishiga, u bilan ish olib borishiga ham bog‘liq.

5. O‘qish – bu uzluksiz mehnat. Faqat ongli va faol mehnat va faoliyat tufayli chuqur va mustahkam bilim olish mumkin. Lekin o‘quvchining faol mehnat qilishga o‘rganishi, harakat qilishi natijasida muvaffaqiyatga erishishi mumkinligiga ishonirish zarur. O‘quvchi o‘z mehnatidan bezillab qolib, o‘qishga befarq qarashga emas, balki o‘qish unga quvonch baxsh etishi uchun uzluksiz mehnat qilishga o‘rganishi zarur.

6. Ma‘lumki har bir inson ijtimoiy sanaladi. U yaxshi yashashi va ishlashi uchun boshqa kishilarga ehtiyoj sezadi. O‘qish ham ana shunday holatdir. Agar o‘quvchi o‘qishga o‘zida ehtiyoj sezadigan sharoitda yashasa va o‘qisa, unga ham o‘qish qadrli va zavqli bo‘ladi.

7. Ta‘lim amaliyot bilan mustahkam aloqada bo‘lishi kerak. Bu barcha tamoyillar ichida eng muhimidir. To‘g‘ri, ta‘limda, albatta, nazariy ma‘lumotlar ham mavjud. Lekin har bir nazariy qoida amaliyotda qo‘llanishi zarur.

Yuqoridagi tamoyillar o‘qituvchidan ta‘lim jarayonida turli vositalardan foydalanishni, berilayotgan bilim aniq, tushunarli bo‘lishi, o‘quvchi bilim olish jarayonida faol qatnashishi, o‘z muvaffaqiyatlaridan qanoat hosil qilishi, o‘qituvchi ham o‘quvchining e‘tiboriga kirib, har ikkalasi faollikda bir-biriga ishonch bilan munosabatda bo‘lishi zarur.

Bu o‘zaro hamkorlik ta‘lim samaradorligini oshirib, istiqbolda ham davom etishi mumkin.

Zamonaviy o‘qituvchi bo‘lish uchun muhim ko‘nikmalarni, tajribali bo‘lish uchun ko‘plab hayotiy ko‘nikmalarni egallashi kerak. Biz tadqiqot ishimizda mana shunday ko‘nikmalardan bir nechtasini keltirib o‘tmoqchimiz:

1. O‘z ishiga sodiq bo‘lishi. Agar o‘qituvchi o‘zini ishiga sodiq bo‘lsa, demak, u o‘z hayot tanloviga muhabbat qo‘ygan va o‘qitishga bag‘ishlagan.

2. Endi sizning sohangizda fidoiy bo‘lish kifoya emas, chunki maxsus ilmiy tayyorgarliksiz bundan tashqari, psixologiya yoki metodologiya haqida qo‘shimcha ma‘lumotlarsiz, masalan, siz ta‘lim berish bilan shug‘ullana olmaysiz.

3. Konstruktiv qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘quv yili uchun batafsil o‘quv rejasini va sifatli dars rejalashtirish ancha samarali bo‘ladi.

4. Bardoshli, sabr-toqatli va bag‘rikenglik bo‘lish. Faqat tajribali va mahoratli o‘qituvchi barcha talabalarga hech qanday e‘tirozsiz bir xilda muomala qila oladi. Bundan tashqari, bunday o‘qituvchi talabalarga o‘z nuqtayi nazarini qo‘yish o‘rniga o‘z qarorlarini qabul qilishni topshiradi.

5. Talabalar tomonidan beriladigan savollarni tinglashga, balki ularga javob berishga har doim vaqt topishga tayyor bo‘lishi kerak.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat jamiyatda o‘zgarayotgan barcha yangiliklarni kuzatib borishlari kerak, balki ularni shaxsan qabul qilish istagi ham bo‘lishi kerak.

7. O‘qituvchi va talabaning ijtimoiy va do‘stona muloqoti faqat auditoriya devori bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy talabalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzma-yuz bo‘lishdan ko‘ra, ba‘zi shaxsiy savollarni berishni afzal ko‘rishadi. Talabalarga yaqinroq bo‘lishning yana bir usuli-qiziqarli mavzularni muhokama

qilishingiz yoki o‘rganishingiz uchun ko‘proq interaktiv onlayn vazifalarni yoki ba’zi favqulotda topshiriqlarni berishingiz mumkin bo‘lgan guruhni tashkil qilishdir. Bu zamonaviy yoshlarga ta’limni yanada jozibador qilishni mukammal yo‘lidir.

8. Qiziquvchan bo‘lish va o‘zini kasbiy fazilatlarini rivojlantirish. Qiziquvchanlik-insonni rivojlantiruvchi vosita.

Biz tadqiqot ishini bajarish jarayonida tajribadan kelib chiqib quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqdik va ta’lim jarayoniga tadbiiq qilishga harakat qildik.

Pedagogik texnologiyalar	Tavsifi
Kontekstual ta’lim	Talabalar mavzuni tahlil qilish kerak, ijobiy va salbiy tomonlari topish, xulosalar qilish va dalil topish va xulosa qilishi kerak.
Turli xil yondashuvlar	Ma’ruzadan tashqari o‘qituvchilar bir dars doirasida hikoya qilish, guruhli ish, individual topshiriqlar, o‘yinlar, taqdimotlar va boshqa ko‘plab metodlardan foydalanadilar
Yangi texnologik qurilmalar	albatta, ta’lim tizimini rivojlantiradi va uni zamonaviy qiladi. Video konferensiyalar yoki jonli suhbatlar orqali o‘rganish mumkin. O‘qituvchi darsda onlayn video, interfaol doska, vizualizator, proyektor, ta’limiy dasturiy ta’minot, CD pleyer kabi o‘qitish qurilmalaridan foydalanishi mumkin
Faol o‘rganish	talabani o‘ylashga, suhbatlashishga va axborot almashishga undaydi. Talabaga mustaqil topshiriq beriladi, ya’ni loyiha tayyorlash va semestr davomida taqdimotni namoyish etish
Istak metodi	o‘qituvchi darsni boshlash uchun bugungi mavzu bilan tanishtiradi va nimani o‘rganishlarini aytadi. Lekin bu bayonotlar talabalarni e’tiborini qaratish uchun kamlik qiladi. Bayon qilishni butunlay boshqacha yo‘lini shakllantirish kerak. O‘qituvchi o‘z talabalarga dars mazmunidan qanday foyda olishlari mumkinligini ko‘rsatadi va natijada talabalarning o‘qituvchini tinglashga bo‘lgan intilishi ortadi.
Vak o‘qitish	talabalarda ma’lumotni qabul qilish jarayoni uch asosiy turga bo‘linadi: vizual, audio va kinestetik. Albatta, o‘qituvchi bu haqiqatni ma’lumotlarni taqdim etishda hisobga olishi kerak. Ba’zi talabalar yangi ma’lumotlarni ko‘rishlari, ikkinchisi – eshitishlari va uchinchisi - sezishlari kerak. Demak, bir xil ma’lumotni turli yo‘llar bilan taqdim etilishi kerak.

Tabiiy fanlarga xos metodlar gumanitar fanlarda qo‘llaniladi, tillarni o‘rganishga doir ko‘pgina yondashuvlar esa matematika yoki fizikaga ham tatbiq etilishi mumkin. Bu jarayonlarni boshqaradigan yagona asosiy shaxs bir xil bo‘lib qoladi – bu o‘qituvchi. O‘quvchilar muvaffaqiyatining katta qismi esa o‘zining qo‘lida. Shuning uchun ham zamonaviy yondashuvlardan tashqari, o‘zini o‘qituvchi deb atashga jur’at etgan har bir inson ta’lim samaradorligiga hissa qo‘shadigan bir qator ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish va eng yaxshi innovatsion usullardan foydalanish muvaffaqiyatli va samarali ta’limning asosiy tarkibiy qismidir va bu ikki tarkibiy qism uchun faqat o‘qituvchi javobgardir.

Talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida uning pedagogik mahorati va kasbiy ko‘nikmalari alohida o‘rin egallab, uni shakllantirish uchun ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarni kasbiy tayyorlashda ta’lim-tarbiya jarayoni, auditoriyadan tashqari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlash tizimida pedagogik-psixologik turkumidagi o‘quv fanlarni oqilona o‘qitish jarayonini tashkil etish, har bir fanni o‘qitishda hamkorlikda ishlash, loyihalashni tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Talabalarning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlarida o‘qitishning samarali shakl, metod va vositalar bilan tanishtirish va ulardan foydalanish bo‘yicha mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni kafolatli tayyorlashni ta’minlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish har bir talabani qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, o‘qishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir talabaning ta’lim olishdagi ijobiy guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglash,

muntazam va qunt bilan aqliy mehnat qilishga, ijodiy topshiriqlarni sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishga va o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam berishiga zamin hozirlaydi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘rinli va mohirona qo‘llash talabalarining o‘zlarini mavjud imkoniyat va qobiliyatlarini, intellektual salohiyatlarini o‘stiribgina qolmay, ijtimoiy faolligini oshishi, ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilashiga yordam beradi.

O‘quv mashg‘ulotlarida didaktik o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi talabalar bilish faoliyatini kuchaytirish bilan birga ularni bevosita ta’lim-tarbiya, kasb o‘rganish holatiga qo‘yadi. Chunki bunda dars (bilim o‘rganish kasbiy mahoratni oshirish) didaktik o‘yin tarzida tashkil qilinadi. Didaktik o‘yin texnologiyasiga asoslangan mashg‘ulotlar mazmunli - rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yin, ishbilarmonlik o‘yini, konferensiya mashqlar tarzida o‘tkazilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Олимов Ш.Ш., Ҳасанова З.Д. Педагогик технологияларни ўқув – тарбия жараёнига қўллаш. –Т.: «Fan va texnologiya», 2014. - 184 б.

2.Олимов Қ.Т., Сайидахмедова М.С., Жалолова Д.Ф., Бозорова М.Қ., Болтаева М.Л., Алимов А.А. Педагогик технологиялар. //Ўқув қўлланма. –Т.: «Fan va texnologiya», 2011. - 300 б.

3. Jabborova D. (2019). Object and subject of educational technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

4. Жабборова Д. Ф. (2020). Национальные основы педагогических технологий и применение их в образовательном процессе. In Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога (pp. 50-54).

5. Жабборова Д. Ф. (2022). Бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёрлашда “касбий фаолият портфолиоси” технологиясидан фойдаланиш: Жабборова Дилафруз Фурқатовна, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Навоий давлат педагогика институти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6.2. Махсус сон).

6. Jabborova D. F. (2021). Use of Modern Pedagogical Technologies in Professional Training of Students. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(3).

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

*Kamolova Dilobar Tairovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayoni pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Kasbiy sifatlarni – bu talabalarni o‘z kasbida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar yig‘indisi bo‘lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Maqolada kasbiy sifatlarni shakllantirishning dolzarb pedagogik muammolari, talabalarni kasbga yo‘naltirishdagi qiyinchiliklar va o‘qituvchilarning roli haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bu sifatlarni rivojlantirishning samarali usullari, jumladan, amaliy mashg‘ulotlar, jamoaviy ish, refleksiya va ustoz-shogird tizimi yoritilgan. Maqola ta‘lim jarayonida kasbiy sifatlarni shakllantirishning muhimligini ta‘kidlaydi va zamonaviy ta‘lim tizimi oldida turgan pedagogik vazifalarning ahamiyatini ochib beradi.

***Kalit so‘zlar:** talabalar, kasbiy sifatlarni, pedagogik muammo, kasbiy rivojlanish, ta‘lim jarayoni, refleksiya, ustoz-shogird tizimi, jamoaviy ish.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

В данной статье процесс формирования профессиональных качеств у студентов рассматривается как педагогическая проблема. Профессиональные качества — это совокупность личных и социальных характеристик, необходимых студентам для успешного достижения в своей профессии, которые оказывают значительное влияние на их будущую профессиональную деятельность. В статье обсуждаются актуальные педагогические проблемы формирования профессиональных качеств, сложности в профориентации студентов и роль преподавателей в этом процессе. Также рассматриваются эффективные методы развития этих качеств, такие как практические занятия, командная работа, рефлексия и система наставничества. Статья подчёркивает важность формирования профессиональных качеств в образовательном процессе и раскрывает значимость педагогических задач, стоящих перед современной образовательной системой.

***Ключевые слова:** студенты, профессиональные качества, педагогическая проблема, профессиональное развитие, образовательный процесс, рефлексия, система наставничества, командная работа.*

FORMATION OF PROFESSIONAL QUALITIES IN FUTURE TEACHERS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

This article examines the process of developing professional qualities in students as a pedagogical issue. Professional qualities are a set of personal and social characteristics necessary for students to succeed in their profession, significantly influencing their future professional activities. The article discusses pressing pedagogical challenges in shaping these professional qualities, the difficulties in students' career guidance, and the role of teachers in this process. It also explores effective methods for developing these qualities, including practical training, teamwork, reflection, and mentorship systems. The article emphasizes the importance of cultivating professional qualities in the educational process and highlights the significance of the pedagogical tasks faced by the modern educational system.

***Keywords:** students, professional qualities, pedagogical issue, professional development, educational process, reflection, mentorship system, teamwork.*

Kirish. Hozirgi kunda ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - kelajakda jamiyatga foydali bo‘ladigan kasbiy malakaga ega kadrlarni tayyorlashdir. Ta‘lim jarayonida talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta‘minlash, balki ularda kasbiy sifatlarni shakllantirish ham muhimdir. Bu jarayon pedagogika oldida turgan murakkab vazifalardan biri bo‘lib, u talabalarning kasbga bo‘lgan munosabatlarini, ularning ma‘naviy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta’minlashni, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishlari uchun zarur bo’lgan kasbiy sifatlarni ham shakllantirishni maqsad qilgan. Kasbiy sifatlarni — bu talabalarning o’z kasbida raqobatbardosh, mas’uliyatli va muvaffaqiyatli bo’lishi uchun zarur bo’lgan individual va ijtimoiy ko’nikmalar, xulq-atvor me’yorlari va shaxsiy xususiyatlar yig’indisidir. Bu sifatlarni o’quv jarayonida shakllanib, talabning kelajakdagi kasbiy yo’nalishini, shuningdek, ta’limning umumiy sifatini belgilab beradi.

Biroq talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirish ko’plab pedagogik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, an’anaviy ta’lim usullari talabalarni faqat nazariy bilim olishga yo’naltirgan bo’lib, kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor bermaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim metodikasi va texnologiyalari ko’nikma va xulq-atvorni shakllantirish uchun zarur bo’lgan muhit yaratishni talab qiladi, bu esa pedagogik vazifalarni murakkablashtiradi.

Asosiy qism. Shuning uchun ushbu maqolada kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayonida uchraydigan pedagogik qiyinchiliklar, ularga ta’sir etuvchi omillar va bu sifatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun samarali yondashuvlar o’rganiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishda hamda talabalarni kelajak kasbiy hayotiga tayyorlashda muhim o’rin tutadi.

Kasbiy sifatlarni - bu insonning muayyan kasbiy faoliyat bilan shug’ullanishi uchun zarur bo’lgan shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar yig’indisi. Ushbu sifatlarni shaxsning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritishi va jamiyatga xizmat qilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar uchun kasbiy sifatlarni o’z kasbini to’g’ri anglash, javobgarlik, mas’uliyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik va o’z faoliyatini rejalashtirish qobiliyatlarini o’z ichiga oladi.

Bu sifatlarni shakllantirish talabning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi mehnat bozorida talab qilingan malakali mutaxassislar, nafaqat yaxshi bilimlarga ega bo’lishi, balki kasbiy sifatlarni mukammal egallagan bo’lishi ham talab qilinadi.

Kasbiy sifatlarning ahamiyati ularning talabning kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam berishidir. Bugungi kunda ish beruvchilar o’z sohasidagi mutaxassislarni nafaqat bilim va ko’nikmalari bilan, balki ularning shaxsiy sifatlari bilan ham baholaydilar. Bu kasbiy sifatlarni insonga nafaqat o’z kasbida yuqori natijalarga erishishga, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, o’z-o’zini boshqarish va boshqalar bilan samarali ishlashga yordam beradi.

Shu sababli, kasbiy sifatlarni shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Pedagogik yondashuvlar va amaliy mashg’ulotlar orqali talabalarning kasbiy sifatlarni rivojlantirish nafaqat ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini kafolatlaydi, balki mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy sifatlarni shakllantirish pedagogik jarayonning eng qiyin qirralaridan biri bo’lib, talabalarning faqat nazariy bilimlarini oshirish bilan chegaralanmaydi. Talabalarning kasbiy sifatlari to’g’ridan to’g’ri ularning kasbga bo’lgan munosabatlari, shaxsiy fazilatlarini va ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki bilan bog’liq. Bu sifatlarni shakllantirishda quyidagi pedagogik muammolar ko’zga tashlanadi:

1. **Motivatsiya yetishmasligi:** Talabalarda o’z kasbga nisbatan yetarlicha qiziqish va motivatsiya yetishmovchiligi kasbiy sifatlarning rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy qiziqishlarini oshirishning samarali usullarini topish pedagogik jamoa uchun muhimdir.

2. **Kasbiy amaliyotning cheklanganligi:** Talabalar nazariy bilimlarga ega bo’lishsa-da, kasbiy amaliyot etarli darajada rivojlanmagan bo’lishi mumkin. Amaliy tajriba yetishmasligi ularda kerakli kasbiy sifatlarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

3. **Pedagoglar va mutaxassislar tayyorligi:** Talabalarga kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayonida o’qituvchilarning o’zlari ham katta rol o’ynaydi. O’qituvchilar zamonaviy kasbiy talablardan xabardor bo’lishlari, talabalarni o’rgatishning interaktiv usullarini qo’llay olishlari kerak.

Kasbiy sifatlarni shakllantirish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi, biroq ushbu jarayon bir qator pedagogik muammolar bilan bog’liq. Asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ko’rib chiqishimiz zarur:

1. **An’anaviy ta’lim usullarining cheklovlari:** Ko’plab ta’lim muassasalarida hali ham an’anaviy o’qitish metodlariga tayaniladi. Bu usullar asosan nazariy bilimlarni berishga yo’naltirilgan bo’lib, talabalarni kasbiy jihatdan shakllantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Nazariy bilim berishning o’zi, ko’pincha, talabalarni real ish muhitiga tayyorlay olmaydi, bu esa ularning amaliy ko’nikmalari va kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qiyinchilik tug’diradi.

2. **Pedagogik yondashuvlarning kamligi:** Kasbiy sifatlarni shakllantirish uchun o’qituvchi o’quv jarayonini interaktiv, ko’rgazmali va amaliy mashg’ulotlar bilan boyitishi kerak. Aksariyat hollarda bunday pedagogik yondashuvlarning yetarlicha qo’llanmasligi sababli talabalar nazariy bilimlarni o’zlashtirsalar-da, ularni amalda qo’llash qiyin kechadi.

3. Amaliyot va nazariyaning nomutanosibliği: Ta’lim jarayonida nazariy va amaliyotning o’zaro muvozanatlashmasligi talabalar kasbiy sifatlarni shakllantirishda to’siq bo’lishi mumkin. Kasbiy sifatlarning faqat nazariy bilim orqali shakllanmaydi; amaliy mashg’ulotlar va tajriba orttirish bu jarayonda asosiy o’rin tutadi.

4. O’qituvchilarning malaka darajasi va tayyorgarligi: Kasbiy sifatlarni shakllantirishda o’qituvchilarning malakasi va pedagogik mahorati ham katta ahamiyatga ega. O’qituvchi talabalarga nafaqat bilim berishi, balki ularda kerakli kasbiy xususiyatlarni shakllantiruvchi metodlardan foydalanishi lozim. Biroq, ba’zi pedagoglar bu borada yetarlicha tayyorgarlikka ega bo’lmagani mumkin.

5. Motivatsiya va talabalar faoliyatining kamligi: Talabalar kasbiy sifatlarni rivojlantirishga doim ham yuqori darajada motivatsiyaga ega bo’lavermaydilar. Bu o’quv jarayonida passiv ishtirok etishlariga, o’z ustida ishlashni to’xtatishlariga olib kelishi mumkin. Motivatsiya darajasini oshirish uchun o’qituvchilarning innovatsion yondashuvlardan foydalanishi va talabalarni qiziqtirish bo’yicha ishlashi zarur.

6. Individual yondashuvning yetishmasligi: Har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy qobiliyatlari o’ziga xosdir. Shuning uchun kasbiy sifatlarni shakllantirishda individual yondashuv qo’llash muhim, biroq guruh bilan ishlashda bu yondashuv yetarlicha amalga oshirilmay qolishi mumkin.

Ushbu pedagogik muammolarni hal etish ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va talabalar ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu sababli, kasbiy sifatlarni shakllantirishda amaliyot, motivatsiya, o’qituvchi malakasi va interaktiv metodlarni kengroq joriy qilish, shuningdek, individual yondashuvdan foydalanish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy sifatlarni shakllantirish pedagogik jarayonda turli usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon talabalar bilan doimiy pedagogik hamkorlikni, amaliy mashg’ulotlar va ijodiy faoliyatni talab qiladi. Quyidagi usullar bu borada samarali hisoblanadi:

1. Amaliy mashg’ulotlar va kasbiy loyihalar: Amaliy mashg’ulotlar talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashda muhim rol o’ynaydi. Loyihalar orqali talabalar kasbda duch keladigan muammolarni hal qilishni o’rganadilar va amaliy ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

2. O’zaro hamkorlik va jamoaviy ish: Jamoaviy ish kasbiy sifatlarni, xususan, muloqot qobiliyatlarini, mas’uliyatni va ijodkorlikni shakllantirishga yordam beradi. Talabalarning birgalikda ishlashlari, muammolarni jamoa bo’lib hal qilishlari ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

3. Refleksiya va o’z-o’zini baholash: Talabalar o’z kasbiy faoliyatlarini muntazam tahlil qilishlari, o’z xatolarini ko’rishlari va o’z ustida ishlashlari zarur. Refleksiya jarayoni kasbiy o’sish va rivojlanish uchun muhimdir.

4. Ustoz-shogird tizimi: Talabalarga kasbiy mahoratni yuqori darajadagi mutaxassislar orqali o’rgatish ham samarali hisoblanadi. Shogirdlik orqali talabalar nafaqat kasbiy bilim va ko’nikmalarni o’rganadilar, balki ustozlarining kasbiy fazilatlarini ham o’zlashtiradilar.

5. Muammoli vaziyatli o’qitish: Muammoli vaziyatlarni taqdim etish orqali o’qitish talabalarga tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu usul talabalarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash sifatlarini mustahkamlaydi va ularni amaliyotda qanday holatlar yuz berishi mumkinligi bilan tanishtiradi.

6. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kasbiy sifatlarni shakllantirishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, simulyatsiya, virtual laboratoriyalar, onlayn dasturlar va vizual vositalar orqali talabalar o’z kasbiga yaqin sharoitlarda ishlash imkoniyatiga ega bo’ladilar.

7. Kurs ishlari va individual loyiha topshiriqlari: Talabalarga individual topshiriqlar berish ularning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Kurs ishlari yoki loyihalar orqali talaba o’ziga berilgan vazifani mustaqil rejalashtirishi, bajarishi va natijalarini baholashi talab qilinadi. Bu jarayonda mas’uliyat va o’z-o’zini boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi.

8. Rol o’ynash va o’quv o’yinlari: Rol o’ynash va ta’limiy o’yinlar orqali talabalar kasbiy hayotda duch keladigan vaziyatlarni modellashtiradilar. Bu usul ularning muomala ko’nikmalarini, muammoli vaziyatlarda o’zini tutishni va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Xulosa. Bu usullarni ta’lim jarayonida qo’llash talabalarning kasbiy sifatlarni keng qamrovli rivojlantirishga yordam beradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun tayyorlaydi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar talabalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularning shaxsiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shadi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo’jaeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Tashkent.:2006. Ilm Ziyoy.

2. Sayfullaev A. Pedagogik mahoratni oshirish va kasbiy sifatlarni shakllantirish. Tashkent:2010. O‘qituvchi nashriyoti.
3. Hasanboeva, M. Kasb ta’limi: nazariya va amaliyot. Tashkent: 2015.Fan va texnologiya.
4. Jalolov J. Talabalarda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish: muammolar va yechimlar. Tashkent:2018. Innovatsiya markazi.
5. Ne’matov Oybek. "Ta’limda muammoli ta’lim texnologiyalari." " Science Shine" International scientific journal 3.3 (2023).
6. Ismoilov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning talabalarga ta’siri. Tashkent:2019 Yangi asr avlodi.
7. Dewey J. Experience and Education. New York:1938. Macmillan.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: 1978.The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ:1984 Prentice Hall.
10. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. London: Temple Smith.
11. Khomidov Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
12. Homidov H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo‘llari." Экономика и социум 5-1 (108) (2023): 83-87.
13. Khomidov Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).
14. Купайсинович Хомидов Хусниддин. "Таълим-тарбия сифатини таъминлашда жамоат ташкилотларнинг роли." Наманган давлат университети-2021 1: 561.

O‘QITUVCHI AKMEOGRAMMASIDA IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

Mamatxanova Nargiza Toxirovna,

Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Mazkur maqolada pedagogika va psixologiya ilmda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash muammosi bilan bog‘liqlikda professiografik hamda akmeografik yondashuvlar alohida o‘rni tutishi, o‘qituvchi akmeogrammasi uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etishi borasida fikr yuritilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ijtimoiy-pedagogik bilimlar, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarning o‘ziga xos “meyoriy o‘lchovi” aniq belgilanishi zarur hisoblanib, uning shakllanishi pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olishning dastlabki yillaridan boshlanishi kerak. Birinchi blokda keltirilgan xususiyatlarning shakllanishi o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini, uning kasbiy rivojlanishini ifodalaydi, o‘qituvchilardagi tarbiyaviy ta‘sir kuchi barqarorligini ta‘minlaydi. Ushbu sifatlar demokratik tarzda tashkil etilgan pedagogik tizimda rivojlantiruvchi ta‘lim va insonparvar tarbiyani amalga oshirishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-pedagogik mohiyat, kasbiy tayyorgarlik, bo‘lajak o‘qituvchi, professiogramma, akmeogramma, kasbiy rivojlanish, pedagogik vazifalar, ijtimoiy-pedagogik funksiyalar, ijtimoiy-pedagogik tashxis.*

ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ К СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В АКМЕОГРАММЕ ПЕДАГОГА

В данной статье в связи с проблемой профессиональной подготовки будущих учителей в науке педагогика и психология особое место занимают профессиональный и акмеографический подходы, а также важное значение имеет подготовка к социально-педагогической деятельности акмеограммы учителя. Считается необходимым четко определить конкретную «нормативную меру» социально-педагогических знаний, умений, квалификации и умений будущих учителей, а её формирование должно начинаться с первых лет обучения в высших педагогических учебных заведениях. Формирование характеристик, представленных в первом блоке, отражает социально-педагогическую природу личности педагога, его профессиональное развитие, обеспечивает стабильность воспитательного воздействия педагогов. Эти качества помогают в реализации развивающего образования и гуманного образования в демократически организованной педагогической системе.

Ключевые слова: *социально-педагогическая сущность, профессиональная подготовка, будущий учитель, профессинограмма, акмеограмма, профессиональное развитие, педагогические задачи, социально-педагогические функции, социально-педагогический диагноз.*

THE IMPORTANCE OF PREPARATION FOR SOCIAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES IN THE TEACHER’S ACMEOGRAM

In this article, in connection with the problem of professional training of future teachers in the science of pedagogy and psychology, professional and acmeographic approaches occupy a special place, and preparation for social and pedagogical activities of the teacher’s acmeogram is also important. It is considered necessary to clearly define a specific “normative measure” of socio-pedagogical knowledge, skills, qualifications and abilities of future teachers, and its formation should begin from the first years of study in higher pedagogical educational institutions. The formation of the characteristics presented in the first block reflects the socio-pedagogical nature of the teacher’s personality, his professional development, and ensures the stability of the educational influence of teachers. These qualities help in the implementation of developmental education and humane education in a democratically organized pedagogical system.

Keywords: *socio-pedagogical essence, professional training, future teacher, professionogram, acmeogram, professional development, pedagogical tasks, socio-pedagogical functions, socio-pedagogical diagnosis.*

Kirish. *Pedagogika va psixologiya ilmda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash muammosi bilan bog‘liqlikda professiografik hamda akmeografik yondashuvlar alohida o‘rni tutadi. Bu albatta, pedagogika*

oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish jarayonlarini modernizatsiyalashni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Y.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin, M.G.Davletshin, N.A.Muslimov, Z.K.Kurbaniyazova, N.J.Abdullayeva singari olimlarning fikriga ko‘ra, professiografik yondashuv o‘qituvchining rolli xarakteristikasidan tashqari, uning mehnatining sub’yektiv tomonlarini, ya’ni professional pozitsiyalari, faoliyatning individual xususiyatlarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Professiografik tadqiqotlar natijasida kasbiy faoliyatni va insonning individual-psixologik va psixologik-fiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni har tomonlama tavsiflovchi professiogramma tuzib chiqiladi.

Jumladan, V.A.Slastenin rahbarligida ishlab chiqilgan professiogramma quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: shaxsiy va kasbiy sifatlar; psixologik-pedagogik tayyorgarlikka qo‘yiladigan asosiy talablar; mutaxassislik bo‘yicha metodik tayyorgarlik mazmuni; maxsus tayyorgarlik ko‘lami va mazmuni [5].

L.F.Spirin esa, umumpedagogik professiogrammani “Har qanday pedagogik tizimda (har qanday ta’lim muassasasida) ta’lim va tarbiya masalalarini hal qilish uchun kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan eng muhim jihatlarni kompleks ravishda umumlashtiradigan (birlashtiradigan) o‘qituvchi shaxsining ideal modeli” deya ta’riflagan.

L.F.Spirin tasnifiga muvofiq, umumpedagogik professiogramma tarkibida to‘rtta o‘zaro bog‘liq bloklar mavjud: o‘qituvchi shaxsining xarakterli xususiyatlari, kasbiy-pedagogik bilimlari, umumpedagogik ko‘nikmalari va umumpedagogik malakalari [6].

Birinchi blokda keltirilgan xususiyatlarning shakllanishi o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-pedagogik mohiyatini, uning kasbiy rivojlanishini ifodalaydi, o‘qituvchilardagi tarbiyaviy ta’sir kuchi barqarorligini ta’minlaydi. Ushbu sifatlar demokratik tarzda tashkil etilgan pedagogik tizimda rivojlantiruvchi ta’lim va insonparvar tarbiyani amalga oshirishda yordam beradi.

Kasbiy-pedagogik bilimlar muhim ilmiy-pedagogik ma’lumotlarni o‘z ichiga olib, uning asosida umumpedagogik ko‘nikmalar shakllanadi. Umumpedagogik ko‘nikma va malakalar – keng ko‘lamli pedagogik vazifalarini hal qilishning muvaffaqiyatini ta’minlovchi sub’yektning integrativ sifatlaridir. Pedagogik faoliyat ko‘nikmalarning shakllanganlik ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik vazifalarni hal qilishga doir ko‘nikma va malakalarning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, quyidagilar xizmat qilish mumkin: faoliyatning insonparvar yo‘nalganligi, kasbiy yetukligi, maqsadga muvofiqligi, novatorligi va originalligi, o‘zlashtirilganligi va o‘z vaqtida bajarilishi.

Z.K.Kurbaniyazova haqli ravishda ta’kidlab o‘tganidek, pedagoglarga qo‘yiladigan talablar to‘plami sifatida professiogrammadan foydalanish qulay, ammo faqat operatsional kompetentliklarni tavsiflashda maqsadga muvofiqlik kasb etadi. Shu sababli bugungi kunda ideal pedagog modelini o‘rganishga bo‘lgan professiografik yondashuvning yetarli emas [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ana shu sababli, akmeografik tadqiqotlar natijalariga bugungi kunda katta ahamiyat qaratilmoqda. Bunday tadqiqotlar natijalari sifatida tuzilgan akmeogrammalar birinchi navbatda, shaxsning professionalizmi va konkret mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Yanada aniq qilib aytganda, akmeogramma – professiogramma va psixogrammaga nisbatan umumlashtiruvchi kategoriya bo‘lib hisoblanadi.

O‘qituvchi akmeogrammasi pedagogik mehnatning barcha jihatlari va tomonlarini (yaxlit pedagogik faoliyat, shaxslararo munosabatlar, shaxsiy va kasbiy o‘shish, mehnat samaradorligi) hamda pedagogning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi.

O‘qituvchi akmeogrammasi uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. N.Y.Klimenko va Z.K.Kurbaniyazovalarning tadqiqotlari natijalari ijtimoiy-pedagogik faoliyat kasbiy tayyorgarlikning sifati va o‘qituvchining kasbiy o‘shish darajasini aks ettiruvchi arxitektonikasi (yaxlit jarayon tarkibiy qismlari uyg‘unligini ta’minlash instrumenti)dir, degan xulosaga kelish imkonini beradi [2]. Ayniqsa, N.Y.Klimenko tomonidan taklif etilgan “Pedagog nimani bilishi kerak? Nimani qila olishi kerak? Qanday shaxsiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?” triadasiga asoslangan tuzilma bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ham andoza bo‘lib xizmat qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning quyi tizimlarini bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi va o‘shishi jarayonida bir-birini to‘ldirib boruvchi ijtimoiy-pedagogik bilimlar, axloqiy-shaxsiy sifatlar va kasbiy xususiyatlar tashkil etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ijtimoiy-pedagogik bilimlar, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarining o‘ziga xos “me’yoriy o‘lchovi” aniq belgilanishi zarur hisoblanib, uning shakllanishi pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishning dastlabki yillaridan boshlanishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash arxitektonikasi (N.Y.Klimenko va Z.K.Kurbaniyazovalar tasnifiga o‘zgartirishlar kiritish asosida)

Nimani bilishi kerak?	Nimani qila olishi kerak?	Qanday shaxsiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
Ijtimoiy-gumanitar, aniq-tabiyy fanlarni	Shaxslararo munosabatlarga kirishish, norasmiy kommunikatsiyaga kirishish, axborotlar bilan ishlash, risklarni boshqarish qobiliyati	Gumanistik, algoritmik, sanogen, radiant (yorqin) fikrlash
Ijtimoiy-pedagogik faoliyatga doir milliy va xorijiy tajribani	Kooperatsiya (hamkorlikda ishlash), kollaboratsiya (zaruriyat bo‘yicha tegishli mutaxassislar bilan maxsus hamkorlikni o‘rnatish)	Fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat hissi
Ijtimoiy pedagogikani	Shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun muhim hisoblangan ziddiyatlarning oldini olish qobiliyati	Xayrixohlik, muruvvatlilik
Ijtimoiy-pedagogik modellashtirishni	Ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq vaziyatlarni boshqarish qobiliyati	Tolerantlik
Ijtimoiy-pedagogik loyihalashtirishni	Turli favqulodda hayotiy vaziyatlarda kishilarni qo‘llab-quvvatlay olish qobiliyati	Empatiya, sheriklik, hamdardlik
Konfliktlar tabiatini	O‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish	Kasbiy madaniyat
Yoshg davrlar psixologiyasini	Mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati	Mas’uliyat
Ijtimoiy psixologiyani	Turli kichik guruhlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyati	Tashabbuskorlik
Oila psixologiyasini	Axborotlarga mo‘ljalni to‘g‘ri olish, munosabatlar tizimini o‘rnatish	Jo‘shqinlik, hayotsevarlik
Shaxs psixologiyasini	Siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish sohalaridagi bilimlar	Ma’naviy-axloqiy salohiyatga bo‘lgan ehtiyoj
Muloqot psixologiyasini	Kasbiy faoliyatga jamoatchilik qiziqishini oshirish qobiliyati	Emotsional barqarorlik
Oila sotsiologiyasini	Professional mikromuhit, jamiyatning shaxsga oid imkoniyatlari va salohiyatidan foydalana olish qobiliyati	Individual va guruh farqlariga hurmat
Jamoatchilik munosabatlari sotsiologiyasini	Odamlar bilan faol munosabatlarga kirishish sharoitida ishchanlik qobiliyatini saqlab qola olish	Hamjihatlik, ochiqlik
Kasbiy madaniyat va etikani	Munosabatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish	Intellektual va umumiy madaniyat, axloq
Self (shaxsiy) menejment asoslarini	Shaxsiy salohiyati samaradorligiga erishish (kasbiy mobillik)	Raqobatbardoshlik
Fuqarolik, oilaviy va mehnat qonunchiligi asoslari	Odamlarning ishonchini uyg‘otish qobiliyati	Hozirjavoblik, boshqalarga yordam berishga tayyorlik

Ta’limning ijtimoiy funksiyasini kuchaytirish nafaqat zamonaviy o‘qituvchining shaxsiga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartiradi, balki uning kasbiy faoliyatining mohiyati va tuzilmasini ham muayyan darajada qayta shakllantiradi. Aniqroq qilib aytganda, zamonaviy sharoitda o‘qituvchi pedagogik jarayonida qator ijtimoiy-pedagogik funksiyalarni o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshiradi. O‘qituvchi ijtimoiy va biologik omillarni hisobga olgan holda qulay “shaxs rivojlanishining ijtimoiy holati” uchun sharoit yaratadi, bolani “atrofdagi ijtimoiy-pedagogik mikromuhitning faol o‘zgartiruvchisi va o‘z shaxsini tarbiyachisiga aylantiradi, ehtiyojli-motivatsion sohadagi ijtimoiy-qadriyatli o‘zgarishlarni, ongni va o‘z-o‘zini anglashni rag‘batlantiradi”. Buning uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyat ob’yektlariga muvofiq ravishda mazkur jarayonga taalluqli vazifalar taksonomiyasini tuzib olish zarur hisoblanadi (2-jadvalga qarang).

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik vazifalari taksonomiyasi

Ta‘lim tashkilotlarida	Oilada	Mikrsotsiumda	Ijtimoiy himoya sohasida
Bolani ta‘lim tashkilotiga moslashuvini ta‘minlash; bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash; qo‘shimcha ta‘lim va tarbiya tizimiga jalb qilish; ijtimoiy muammolarini o‘z vaqtida anglash va yordam berish; maqsadli kasbga yo‘naltirish, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish	Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish; oilaning ta‘limiy salohiyatini oshirish; “xatar guruhi”dagi oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam berish; oila tarbiyasiga jamoat tashkilotlarini jalb qilish; kollaborativ guruhlarni bilan hamkorlikda mobil maslahatlar berib borish	Bolalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri rejalashtirishiga yordam berish; bolalar va ularning oilalari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; norasmiy qo‘shnichilik – do‘stona muhitda bolalarning ijtimoiy tajribasini tashkil etish; mahalla hayotida faol ishtirok etish (ijtimoiy-pedagogik mobillik)	Ijtimoiy holati og‘ir bolalar bilan ishlash; dezadaptatsiya va ijtimoiy qarovsizlikning oldini olish; iqtidorli bolalar bilan ishlash, bolalarning bilishga qiziqishlari va ijodiy faoliyatini rivojlantirish; uyushmagan yoshlar bilan ishlashda hamkorlik qilish; bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish


2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlik deganda faqat tajribaga ega bo‘lishni emas, ushbu yo‘nalishga doir aniq bilimlarga egalik, maxsus maqsadga yo‘naltirilgan ishni amalga oshirish layoqatiga ega va turli vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatli o‘qituvchi shaxsi tushuniladi. Pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning barcha jihatlarini hisobga olgan holda bolaning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq murakkab muammolarni hal qilish bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik faoliyatga yuqori darajada tayyor mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi mumkin [4]. Yuqori darajadagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ega bo‘lish o‘qituvchiga insonparvarlik yo‘nalishidagi keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun real sharoitlarni yaratish, bu orqali esa o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirish, oila, ta‘lim tashkilotlari, boshqa ijtimoiy institut va xizmatlarning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga ko‘mak beradi.

Yuqoridagi fikrlar bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tuzilmasi va komponentlariga yanada aniqliklar kiritishni talab etadi. Bizningcha, bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv kompetentligi, kasbiy-faoliyatli, kasbiy-shaxsiy ko‘nima va malakalari majmui ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Buning sababi shundaki, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchi shaxsini ijtimoiy jihatdan shakllantirishning fundamental asoslarini yaratishadi, buning asosida bola ta‘lim tashkilotida o‘qishining keyingi bosqichlarida rivojlanib boradi. Pedagogning bolalarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlari, ya‘ni yaqindan aloqa o‘rnatish, ko‘pchilik ota-onalarning pedagog bilan hamkorligi, unga ishonchi, o‘qituvchi bilan aksariyat hollarda o‘zaro bir-birini tushunishga asoslangan harakati bu jarayon uchun yana bir muhim jihat hisoblanadi. Aynan shu xususiyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarga ta‘lim jarayoni bilan bog‘liqlikda ota-onalarning nuqtayi nazarini shakllantirish, ularni qiziqtirish, ta‘lim tashkilotining faol ishtirokchilariga aylantirishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida “ijtimoiy-pedagogik jarayon”, “ijtimoiy-pedagogik ta‘lim”, “ijtimoiy-pedagogik kompetentlik” tushunchalarini tahlil qilish, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyati xususiyatlari, uning ijtimoiy-pedagogik funksiyalarining o‘ziga xosliklarini hisobga olish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang). Taklif etilayotgan tuzilmani tavsiflashda darajaviy yondashuv qo‘llanildi, chunki ijtimoiy-pedagogik faoliyat mutaxassisning sohaviy yo‘nalishlari majmui bo‘lib, o‘zaro bog‘liq parametrlar to‘plamini qo‘llashni talab qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning kognitiv komponenti umummadaniy, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-pedagogik bilimlarni o‘z ichiga oladi [3]. Ushbu ko‘rsatkichlar shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-pedagogik nazariyalar, ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari haqidagi bilimlarni tavsiflaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsning ijtimoiylashuv muammosi bilan bog‘liq yondashuvlar, ijtimoiylashtirish bosqichlari va xususiyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Ushbu komponent ijtimoiy tarbiya jarayoni, uning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy tarbiyani amalga oshiradigan asosiy

institutlar to‘g‘risidagi bilimlar, oila tarbiyasi asoslari, bolalarga nisbatan oila va davlatning ijtimoiy siyosati mazmuni to‘g‘risidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning meyoriy-huquqiy asoslarini, bola huquqlarini himoya qilish texnologiyasini bilishi kerak. Bilimlar tizimi pedagogik fikrlash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan yuqori darajadagi ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirish, shuningdek, pedagogik maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish maqsadida ularni samarali qo‘llash uchun shart-sharoitlarni yaratadi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tuzilmasi

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ikkinchi komponenti sifatida kasbiy-faoliyatli jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu komponentni ajratib ko‘rsatish faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nazariyasiga asoslanadi va kasbiy-faoliyatli komponentni o‘qituvchi malakasining yig‘indisi sifatida namoyon etishga imkon beradi. Mazkur holatda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha ko‘nikmalarni to‘rt guruhga birlashtiradigan V.A.Slastenin tomonidan taklif etilgan qobiliyatlar tasnifiga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

1. Ijtimoiy-pedagogik vazifalarni aniqlay olish qobiliyati: boshlang‘ich vaziyatni tahlil qilish (muammoning murakkabligi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, uni hal qilishda o‘z kompetensiyalari, kechinmalar darajasi, mijozning bundan xabardorligi va mijozning uni hal qilishga tayyorligini aniqlash); muammoni hal qilishda yordam beradigan shaxslar doirasini aniqlash; shu asosda ijtimoiy-pedagogik faoliyatning vazifalarini belgilash.

2. Ijtimoiy-pedagogik harakatlar dasturini ishlab chiqish: ijtimoiy pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini kompleks rejalashtirish; mazmun, shakl, metod, uni tashkil etish vositalarini tanlab olish.

3. Ijtimoiy-pedagogik harakatlarni amalga oshirish qobiliyati: zarur sharoitlarni yaratish (moddiy, ma‘naviy-psixologik, tashkiliy, gigiyenik va boshqalar); mijozning obyektidan ijtimoiy-pedagogik faoliyat subyektiga aylantiradigan shaxsini faollashtirish; hamkorlikda tadbirlarni tashkil etish va rivojlantirish; ijtimoiy-pedagogik faoliyat masalalarini hal qilishda va dasturlashga imkon bermaydigan muammolarni bartaraf etishda institutlararo aloqalarni ta‘minlash.

4. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash qobiliyati: o‘z-o‘zini tahlil qilish va ijtimoiy-pedagogik faoliyat, pedagog faoliyati natijalarini tahlil qilish; yangi ijtimoiy-pedagogik vazifalar majmuini aniqlash [5].

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni guruhlash tamoyilini asos qilib olgan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning quyidagi ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalari aniqlashtirildi: diagnostik, kommunikativ, tashkiliy.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik diagnostikaga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini tashxisning turli metod va usullarini o‘rgatish orqali amalga oshirish mumkin: kuzatish, suhbat, test, so‘rovnoma,

hujjatlarni tahlil qilish. Ijtimoiy-pedagogik diagnostikaning maqsadi o'quvchining sanogen fikrlashi, qadriyatli yo'nalganligi to'g'risidagi ilmiy asoslangan xulosani qo'lga kiritishdir. Qoidaga muvofiq, ijtimoiy-pedagogik diagnostika bolani ma'lum ijtimoiy meyorlar va standartlar bilan taqqoslab baholaydi [4]. Bolaga nisbatan beg'araz munosabatni shakllantirish va uni so'zsiz qabul qilish uchun o'qituvchi ijtimoiy-pedagogik diagnostikani tashkil etishning quyidagi talablarini bilishi kerak:

1. O'rganish bola shaxsi resurslarini, uning hali ochilmagan imkoniyatlarini topishga qaratilgan bo'lishi kerak.
2. Shaxsni o'rganish faoliyat va kommunikatsiya jarayonida amalga oshiriladi.
3. Bolaning shaxsi alohida tarzda emas, balki ijtimoiy munosabatlar doirasida o'rganiladi.
4. Rivojlanish jarayonida bola shaxsini o'rganish va uning yutuqlarini nafaqat boshqa bolalarning muvaffaqiyati bilan, balki, avvalambor, o'z ko'rsatkichlari bilan ham taqqoslash kerak.

O'qituvchi uchun bolaning oila va o'zi ishtirok etadigan boshqa ijtimoiy guruhlar bilan munosabatlarini tushunishi muhimdir. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika jarayonida o'qituvchi quyidagilarni aniqlab olishi kerak: oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga qanday qiyinchiliklar xos, oiladagi kommunikatsiya shakllari qanchalik samarali (samarasiz), oila a'zolarining xatti-harakatlarini qanday qadriyatlar va meyorlar belgilaydi, qanday ijtimoiy-madaniy aloqalar va oilaviy munosabatlar bola shaxsini shakllanishiga ta'sir qiladi (diniy, milliy-etnik mansubligi va h.k.). Ijtimoiy-pedagogik tashxisda u yoki bu o'rganilayotgan nazariy g'oyalarga tayanmaslikning imkoni yo'q. Bunday holda, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning kognitiv va diagnostik komponentlari o'zaro uyg'unlashadi.

Mutaxassisning kasbiy-shaxsiy sifati bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning yana bir muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy-ahamiyatli sifatlarini to'g'ri tushunish va mosligini bilish uchun ushbu xususiyatlarning rivojlanishini baholashga imkon beradigan mezon va ko'rsatkichlarni aniqlashtirib olish zarur [4].

Xulosa va takliflar. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagi kasbiy-zaruriy va maxsus-kasbiy sifatlarni rivojlantirish lozim, degan xulosaga kelindi:

- kasbiy-zaruriy sifatlari: empatiya, adolatparvarlik, tolerantlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash, o'z nuqtayi nazarini saqlay olish, bahsli vaziyatlardan chiqish yo'lini topa olish;
- maxsus-kasbiy sifatlari: kuzatuvchanlik, vaziyatga tezda moslashish, intuitsiya, refleksiya qobiliyatli va o'z-o'zini nazorat qilish.

Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning yuqorida bayon etilgan mazkur tuzilmasi qator o'ziga xosliklarga ega: kognitiv, kasbiy-faoliyatli va kasbiy-shaxsiy komponentlari o'zaro bir-biri bilan mustahkam aloqadorlikka ega bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. Tuzilma komponentlarning qaysi darajalari insonning psixik va shaxsiy rivojlanishi va qaysilari kasbiy pedagogik faoliyatni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlari asosida shakllanishini belgilab beradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik tuzilmasi nimani maxsus topshiriqlar orqali va nimani bevosita o'quv jarayonida shakllantirish zarurligini ham belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Клименко Н.Ю. Социально-педагогические условия профессионального становления социального работника: Автореф. ...дисс.канд. пед. наук. – М., 1997. – 26 с.
2. Курбаниязова З.К. Аралаш таълим шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг ижтимоий-педагогик компетентлигини ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022. – 254 б.
3. Mamatxanova N.T. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda “ijtimoiy pedagogika” fanining o'rni. Pedagogika va psixologiya: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021. – 14b.
4. Mamatxanova N. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini tayyorlash takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Namangan, 2023. – 21 b.
5. Слостенин В.А. Профессиональное саморазвитие учителя // Сибирский педагогический журнал. Сибирь, 2005. – № 2. – С.3-12.
6. Спирин Л.Ф. Профессиограмма общепедагогическая. – М.: Российское педагогическое агентство, 1997. – 34 с.

TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH BILAN TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Mamayusupova Muattar Qosimjonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Mazkur maqolada takomillashtirilgan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bilan ta'lim samaradorligini oshirish hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim texnologiyalari, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, ulardan foydalanishning pedagogik zarurati, imkoniyatlari va samaradorlik xususiyati haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, amaliyot, vosita, rivojlanish, ta'lim jarayoni, pedagogik sharoit, pedagog.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ПУТЁМ ВНЕДРЕНИЯ В ПРАКТИКУ УСОВЕРШЕНСТВОВАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье представлены некоторые мнения по поводу повышения эффективности образования за счёт внедрения усовершенствованных технологий. Также в статье содержатся комментарии об образовательных технологиях, их значении в образовательном процессе и особенностях их эффективности.

Ключевые слова. образовательные технологии, практика, средства, развитие, образовательный процесс, педагогические условия, учитель.

INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY THROUGH THE APPLICATION OF IMPROVED TECHNOLOGIES

This article presents some ideas on increasing educational efficiency through the application of improved technologies. The article also presents considerations on educational technologies, their importance in the educational process and their effectiveness.

Keywords: educational technologies, practice, tools, development, educational process, pedagogical conditions, teacher.

Kirish. So'nggi yillarda ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora ortib bormoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangi yondashuv. AKTni pedagogik jarayonga kiritish o'qituvchining jamoadagi obro'sini oshiradi, chunki o'qitish zamonaviy, yuqori darajada olib boriladi. Bundan tashqari, o'qituvchining o'zini o'zi qadrlashi o'sib bormoqda, uning kasbiy vakolatlarini rivojlantiradi. XX asrning 60-yillarning boshlarida talimni dasturlash asosida talim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy talim bolalarga muayyan bilimlarning alohida qism hoida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Talim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSH da faoliyat yurita boshlagan. “Dasturiy talim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy talim o'zida talim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda talim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. AKTdan foydalanish ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadiga erishishga yordam beradi-ta'lim sifatini yaxshilash, axborot makoniga yo'naltirilgan, zamonaviy texnologiyalarning axborot-kommunikatsiya imkoniyatlari bilan bog'langan va axborot madaniyatiga ega bo'lgan shaxsning uyg'un rivojlanishini ta'minlash, shuningdek mavjud tajribani taqdim etish va uning samaradorligini aniqlash. XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (goyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini taminlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va manaviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini tamin etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Davlat ta’lim standarti talablarini amalga oshirish sharoitida texnologiyalar eng dolzarb bo‘lib qolmoqda:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi
3. Dizayn texnologiyasi
4. Ta’limni rivojlantirish texnologiyasi
5. Sog‘liqni saqlash texnologiyalari
6. Muammoli ta’lim texnologiyasi
7. O‘yin texnologiyalari
8. Modulli texnologiya
9. Seminar texnologiyasi
10. Case texnologiyasi
11. Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi
12. Hamkorlik pedagogikasi.
13. Darajani farqlash texnologiyalari
14. Guruh texnologiyasi.
15. An’anaviy texnologiyalar (sinf tizimi)

Ijtimoiy zaruriyat mahsuli bo‘lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oraligida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, hom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar)da maxsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv ananasi yuzaga keldi. Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom-ashyoni tanlash (dastlabki bosqich)dan mahsulotni iste’molchiga etkazib berishga bo‘lgan (so‘nggi bosqich) davrni o‘z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida etirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarida islohotlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini taminlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalariga zamonaviy, ilgor, yuksak texnologiyalarning tatbiq etilishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan, ilm-fan hamda texnikaning so‘ngi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaviy mablaglar va yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxassislarning mavjudligi bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilgor texnologiyalarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligini ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida etakchi o‘rin tutgan goya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish va rivojiga o‘z tasirini o‘tkazsa, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sinh aholining madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga talim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib talim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to‘laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro‘y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj talim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu bois, ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda.

Ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun o‘quvchilarda ongli faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Chunki umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari murakkab, ruhiy inqirozlar vujudga keladigan, yuqori quvvatga ega bo‘lgan, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o‘zlashtirishga intiluvchan, mustaqillik va moslashuvchanlikka moyil, xulq-atvorida ijtimoiy me‘yorlarning shakllanishi jadal sur‘at bilan kechadigan yoshda bo‘ladilar. Shunga ko‘ra quyidagilarning muhimligi kuzatilmoqda:

- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligini boshlang‘ich sinflardayoq yo‘lga qo‘yishning zarurligi;
- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligini ta‘minlashga xizmat qiladigan metodlarni qo‘llashning muhimligi;
- o‘quvchilarga taqdim etiladigan axborotlar hajmining kengligi va ularni o‘zlashtirish o‘zaro hamkorlik va fikr almashinish muhitini taqozo qilishi;
- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida do‘stona hamkorlikka asoslangan muhitning vujudga kelishi o‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarurligi;

- o‘quvchilar va o‘qituvchilar munosabatlarida an’anaviy pedagogik yondashuvlarning saqlanib qolayotganligi va uni bartaraf etish ehtiyojining kuchayayotganligi;
- ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligining muhimligi;
- o‘qituvchining muomala odobi, nazokati, shaxslararo muomala maromi, o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatni o‘rnatuvchi muhim omil ekanligi va boshqalar.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hamkorlikka asoslangan ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun axborotli mahsullarni tayyorlash va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda sun’iy intellekt yoki mantiqiy-lingvistik modeldan unumli foydalanish mumkin. Bilimlarni modellashtirish turli ilmiy yo‘nalishlarda turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Ekspert tizimlar nazariyasida bu metoddan intellektual vazifalarni kompyuter vositasida echishda foydalaniladi. O‘quv muhitida o‘qituvchi ham jismoniy, ham virtual ekspert model sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogika fani uchun umumlashgan quvvatlarni qo‘lga kiritish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u yangi bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Umumlashgan quvvatlarni sarflash o‘quv jarayonida juda zarur hisoblanadi. Jumladan,

1) o‘quvchilarni aniq ilmiy, amaliy muammolarni echishga jalb etish, bu jarayonda ularda muayyan qiziqishlarni hosil qilish;

2) o‘quvchilarning o‘quv ishlarini shunday tashkillashtiriladiki, mantiqiy-lingvistik modeldan topshiriqlarni echish vositasi va ularning echimlarini tekshirish usuli sifatida foydalanish imkoniyati vujudga kelishi;

3) qo‘lga kiritilgan natijalar aksariyat hollarda elektron ko‘rinishlarda ifodalanishi lozim.

Buning natijasida o‘quvchilarda kompyuterdan foydalanishga oid dastlabki ko‘nikmalar tarkib topadi va har bir o‘quvchida o‘zlari uchun zarur bo‘lgan axborotlar bazasini yaratishga bo‘lgan intilish vujudga keladi. Bu jarayonda guruh a‘zolari birgalikda harakat qila boshlaydilar, har bir o‘quvchi o‘z bilim zahirasini guruhdoshlari egallagan bilimlar yordamida boyitish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Bunda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan o‘quv materiallari yaqindan yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchi intellektual xarakterdagi o‘quv topshiriqlaridan kengroq foydalangan holda hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitini vujudga keltirishi lozim. Ta’lim-tarbiya tizimiga bunday yodashuvni tatbiq qilish natijasida maktab ta’limida yangi yo‘nalish vujudga keladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘qituvchini o‘quv faoliyatini tashkil etishning bunday harakatlari, usullari va shakllaridan foydalanishga yo‘naltiradi, bunda asosiy e’tibor o‘quvchining majburiy kognitiv faoliyatiga, tizimli fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilishda g‘oyalarni shakllantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ayni vaqtda, Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni taxlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda bolaga etkazib berishni yo‘lga qo‘yish talim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Talim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga hizmat qiladi.

Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish goyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa hamda AQSH talim tizimini isloh qilish, talim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini taminlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. Mazkur goya 30-yillarda talim jarayoniga “pedagogik texnika” (“talim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (talim texnika)”si tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarni aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rgazmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholanadi.

Pedagogik mahorat fan, texnologiya va ularning mahsuloti - axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladigan bilim va ko‘nikmalarining birligiga asoslanadi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda turli manbalardan ma’lumot olish, undan foydalanish va uni yaratish qobiliyati zarur. AKTdan keng foydalanish o‘qituvchi uchun o‘z fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek uning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, o‘qitish samaradorligini oshiradi va o‘qitish sifatini yaxshilaydi. Hozirgi kungacha ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etiladi, asosiy e’tibor bolalar auditoriyasini kengaytirish, texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarining imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sigimini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obykti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O‘zbekiston. 2017-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 24- sentabr.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonxo‘jayeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” T-“FAN” 2006-yil.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. “Interfaol talim-sifat kafolati” Toshkent-2008-y.
5. Choriev A., Choriev N. Pedagogika tarixi metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2010. – 173 b.
6. Shermuhammedova N.A. Gneseologiya – bilish nazariyasi. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Noshir”, 2011. – 464 b.

O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI

Matkarimova Muqaddas Komilovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi II kurs magistranti,

Chirchiq shahar 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

matkarimovamukaddas2@gmail.com

Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati chuqur yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Birinchi bo‘limda kreativlikning nazariy asoslari tahlil qilingan bo‘lib, u insonning muammolarni hal qilishdagi o‘ziga xos fikrlash uslubini anglatishi bilan tavsiflangan. Shuningdek, kreativlikning bilish jarayonlari, qobiliyat va ijodiy yondashuvlar bilan bog‘liqligi muhokama qilingan. Keyingi qismda umumta’lim maktab o‘quvchilarining kreativlik qobiliyati darajalarini aniqlash bo‘yicha zamonaviy diagnostika metodikalari batafsil yoritilgan. Ushbu metodikalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajalarini aniqlashda va ularni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada kreativlikni rivojlantirish usullari, ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish va o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, diagnostika metodikalari, ijodiy, kreativ fikrlash, qobiliyat, bilish jarayonlari.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ

В данной статье освещается понятие креативности и её содержательная сущность. Показана актуальность развития креативных способностей учащихся в процессе современного образования. В первом разделе рассмотрены теоретические основы креативности, подчёркивается её значимость как способности к нестандартному мышлению в решении проблем. Также обсуждаются взаимосвязь креативности с познавательными процессами, способностями и творческими подходами. Во второй части статьи подробно описаны современные диагностические методики, используемые для определения уровня креативности учащихся общеобразовательной школы. Указывается важность этих методик в процессе выявления и развития креативного мышления. Кроме того, статья посвящена методам развития креативности, использованию инновационных подходов в образовательном процессе и поддержке творческой деятельности учащихся. Настоящая статья может служить важным практическим руководством для педагогов в области применения креативных подходов, разработки инновационных методик и обучения учащихся креативному мышлению.

Ключевые слова: *креативность, диагностические методики, креативность, креативное мышление, способности, познавательные процессы.*

METHODS OF DEVELOPING CREATIVE SKILLS OF STUDENTS

This article explores the concept of creativity and its essence. The relevance of developing students' creative abilities in the modern educational process is highlighted. The first section examines the theoretical foundations of creativity, emphasizing its significance as the ability to think unconventionally in problem-solving. Additionally, the connection of creativity with cognitive processes, abilities, and creative approaches is discussed. The second section provides a detailed description of modern diagnostic methodologies used to determine the level of creativity in comprehensive school students. The importance of these methodologies in identifying and enhancing creative thinking is underscored. Furthermore, the article focuses on methods for developing creativity, utilizing innovative approaches in the educational process, and supporting students' creative activities. This article serves as an essential practical guide for educators in implementing creative approaches, developing innovative methods, and teaching students to think creatively.

Keywords: *creativity, diagnostic methodologies, creative, creative thinking, abilities, cognitive processes.*

Kirish. *O‘quvchi shaxsining intellekti va kreativlik darajasini rivojlantirish innovatsion ta’lim muhitining yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning ta’lim tizimida nechog‘lik muhim ekanligi yillar*

davomida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yosh shaxs shaxsini rivojlantirishga yangi talablar qo‘yadi: yangi va ko‘pincha noaniq vaziyatlarda harakatlana olish, mustaqil ravishda qaror qabul qila olish va o‘z qobiliyatingizni aniqlay olish, maqsadlar, ijtimoiy faol bo‘lish, ya‘ni. ijodiy shaxs bo‘lish lozimligini anglatadi. Shu munosabat bilan ijodiy shaxsni rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish vazifalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Jamiyat rivoji uchun ta‘lim jarayonida eng so‘nggi, samarali innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish har qachongidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada jahon miqyosida o‘quvchi shaxsi, uning kreativligi va intellekti, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlarga olib borilmoqda. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining o‘qish, matematika, tabiiy fanlar va kompyuter savodxonligi kabi yo‘nalishlarda o‘tkaziladigan PISA (Programme for International Student Assessment) dasturida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlari, ijodiy va tanqidiy fikrlash mezonlari bilan uyg‘unlashgani bu borada ushbu turdagi testlar bilan ishlash va muntazam o‘quvchilar bilimini oshirib borish lozimligini anglatadi. O‘quvchilar ijodkorligini psixodiagnostika qilishda asosan ikkita qiyinchilikka duch kelinadi.

Birinchi, ijodiy qobiliyatlarni faqat diagnostika sharoitida mahsulotga erishgandan so‘ng obyektiv baholash mumkin emas. Ikkinchi, ijodkorlik jarayoni paydo bo‘lish paytining spontanligi va oldindan aytib bo‘lmasligi bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. Kreativlikni o‘ziga xos qobiliyat turi sifatida ajratib ko‘rsatish tendensiyasi XX asrning 50-yillarida paydo bo‘lib, birinchi navbatda taniqli amerikalik psixologlar L.Turston va J.Guilford tomonidan ishlab chiqilgan. Shaxs kreativligi va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu muammolar asosan Torrence, Dj. Guilford, Z.Freyd, C.Yung, A.Maslou kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Har bir inson aslida tabiatan ijodkor hisoblansada, bu qobiliyat tog‘ri psixodiagnostika qilinib, muntazam o‘qituvchilar tomonidan rivojlantirib borilishi juda ahamiyatlidir. Fan o‘qituvchilari har kungi darslarini kreativ yondashuvlar asosida tashkil etishi lozim. Kreativ fikrlash uchun o‘quvchilar muammo yuzasidan har tomonlama fikrlashlari va bir tomonlama fikrlash faqatgina bitta tog‘ri g‘oyaga asoslanishini ajrata olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.


O‘quvchilar berilgan topshiriq yoki masalaning yechimini topishda bitta variant izlaydilar va bu ularga bitta javob bilan cheklanish yetarlidek tuyulsa-da masalaga har tomonlama fikrlash intellekt va ijodkorlikning uyg‘unlashishi orqali orginal yechimlar topish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘quvchilar ijodkorligini aniqlash bo‘yicha Yevropada xususan, Angliya, Shotlandiya, Germaniyadan 1156 nafar maktab o‘quvchilarini o‘rganish, ijodkorlik ko‘rsatkichlari ijtimoiy-iqtisodiy funktsiya ekanini ko‘rsatadi.

Barcha mamlakatlarda a‘lo o‘qiydigan o‘quvchilar kreativlik darajasining o‘rta va quyi o‘qiydigan tengdoshlariga qaraganda yuqori darajada ekanligi tadqiqotlarda aniqlandi. Ijodkorlikning rivojlanishi madaniyat xususiyatlariga, jamiyat tomonidan qo‘llab –quvvatlanishiga ham bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi. Shu bois, ham AQSHda ijodkorlik muhim sanaladi va Amerika maktablari maxsus o‘quv dasturlaridan foydalangan holda o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga intilishadi va bu amerikalik maktab o‘quvchilarin ijodkorlik darajasining sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

Torrence ijodiy fikrlashni baholash testlari, ijodkorlikning murakkab psixodiagnostikasining klassik vositasi bo‘lib, ular murakkab vazifalarda yechimlarni topishni va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishni biladigan shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ochib beradi va o‘rganadi. E.P.Torrence og‘zaki, tasviriy va og‘zaki-ovozli ijodiy fikrlashni tashxislaydigan og‘zaki batareya, majoziy batareya va ovozli batareyaga birlashtirilgan 12 ta testni ishlab chiqdi. Sinovlarda ijodkorlik, ravonlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, mukammallik, parametrlari bo‘yicha baholanadi. Bunday testlar o‘quvchilarning ijodkorligini aniqlashda va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga yangi g‘oyalar shakllantirish jarayonida ilhom bera olsa, ular o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish uchun o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarining yarmiga yetgan bo‘ladilar. Bu vaziyatda ishlash uchun ongostiga murajaat qilishimiz va u bilan birga ishlashimiz kerak. Kreativlik voqelikni o‘zida aks ettiruvchi tafakkur shakli sifatida psixologiyada aks etadi. O‘quvchi shaxsining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘quvchi shaxsi iqtidorining muhim omili sifatida aks etadi. Maktab o‘quvchilarining ijodkorlik darajasini aniqlashda bir nechta turdagi testlar mavjud bo‘lib, quyida ulardan namunalar keltiramiz. Ijodkorlik-muammolarni hal qilishda nostandart yondashish qobiliyati, ijodkorlikni darajasini aniqlash, hissiy intellekt va aqldan farqli o‘laroq, bu testlarda ijodkorlik subyektiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi. Psixologlar ushbu parametrlarni tekshirish uchun maxsus ishlab chiqqan usullar mavjud.


Torrence “Rasm chizish” testi mavzuning karton figurasini namunasi bo‘yicha rasm chizishga asoslanadi. Bundan tashqari, o‘quvchi ushbu rasm uchun nom topishi kerak. Ushbu testni o‘tkazish uchun har xil shakl va rangdagi karton shakllarni oldindan tayyorlash kerak. Ular oval, to‘rtburchaklar, yoki

yumaloq bo‘lishi mumkin. Odatda biroz cho‘zilgan tovuq tuxumining shakli ishlatiladi. Ushbu test ham o‘quvchilarning kreativlik darajalarini aniqlashga yordam beradi.



Kartonning asl figurasi

Torrence tomonidan “Shaklni to‘ldirish” testida o‘nta tugallanmagan raqamlar taklif etiladi va vazifa esa ularning har birini tugatishdir. Bundan tashqari, olingan chizmalar uchun ham siz asl nomni topishingiz kerak. Testni o‘tkazish jarayonida 10 ta shaklli varaqlarni chop etib, mavzuni tugatishga va nomini topish taklif etiladi. Bunday sinovlarning vazifasi odamning nostandart fikrlash qobiliyatini o‘rganish, bo‘shliqlarni qanday to‘ldirishni tushunish, muammoni hal qilish uchun taxminlarning nostandart ekanligini tekshirishdir va sinovlar ijodkorlik va ichki potentsialni aniqlashga yordam beradi. Ravonlik, aslida bu ijodiy mahsuldorlikdir.



“Predmetlardan foydalanish testi”. Ushbu testda sinaluvchiga bir nechta real predmetlar ko‘rsatiladi va ulardan foydalanish usullari haqida yozma javob berish so‘raladi. Masalan:

- 1) bo‘sh shisha idish; 2) katta mix ; 3) daraxt apilkasi.

Havola etilgan predmetlarning har bir guruhining tavsifi uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. Sinaluvchi berilgan vaqt davomida imkon boricha predmetlardan foydalanish usullarini ko‘proq keltirishga harakat qilishi lozim.

1) Bo‘sh shisha idish: sindirib lupa qilishda, uyning devorini ko‘tarishda, xamir yoyishda, pul yoki tanga saqlashda ,gul uchun vaza, qurol, musiqa chiqaruvchi asbob sifatida va hokazo.

2) Mix-uchli predmet sifatida, ildirg‘ich yasash maqsadida, shifer qoqishda, qalin yog‘ochlarni birlashtirishda va hokazo.

3) Daraxt apilkasi(qirindi)-yonilg‘i, uy pechkasi uchun o‘tin, spirt uchun xom-ashyo, polni tozalash maqsadida, o‘yinchoq yasashda, dengiz yuzidagi neftni yo‘qotishda, sport o‘yinlarida, sirkda va hokazolar. Sinovning vazifasi-odamning nostandart fikrlash qobiliyatini o‘rganish, bo‘shliqlarni qanday to‘ldirishini tushunish, muammoni hal qilish uchun taxminlarning nostandart ekanligini tekshirishbo‘lib, sinov ijodkorlik va ichki potentsialni aniqlashga yordam beradi.

Pavel Borodin, "Avvalo, testlar o‘zingizni baholashga yordam beradi: ijodiy fikrlash qanchalik rivojlangan, qaysi ko‘rsatkich ustida ishlashga arziydi. Masalan, siz asl g‘oyalarni o‘ylab topishingiz mumkin, ammo bu uzoq jarayon bo‘lib, u diqqatni jamlashni talab qiladi — bu yerda siz ravonlikni, qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantirishingiz kerak. Yoki hayotning turli sohalari uchun moslashuvchan yechimlarni ishlab chiqish uchun hushyorlikni rivojlantiring."

So‘nggi paytlarda testning turli xil moslashtirilgan modifikatsiyalari paydo bo‘ldi. (A. M. Matyushkin, E. E. Tunik, A. E. Simanovskiy, T. A. Barisheva, E. M. Bazilevich) (Ilyin. 2012). Shaxsni o‘rganishga yo‘naltirilgan ijodkorlikni o‘rganish usullari ma‘lum bo‘lib, F. Barron va J. Uels murakkab va oddiy obyektarning afzalliklaridagi farqlarni o‘rganish uchun test ishlab chiqdi (Barron–Welsh Art Scale). Getsels va F. Jekson testlar batareyasini ishlab chiqdilar, ular yordamida ular yuqori ijodiy va yuqori

intellektual bolalarni farqladilar, o‘qituvchilarning ularga bo‘lgan munosabatini aniqladilar. A. I. Savenkov (Barisheva. 2002) shaxsiy rivojlanish sohasi (D. B. Bogoyavlenskayaning "Ijodiy maydon" uslubi keng qo‘llaniladi, uning yordamida intellektual ijodiy faoliyat tashxislanadi (Barisheva. 2002). Insonning ijodiy qobiliyatlarini baholash juda qiyin: TKTDAN foydalanish uchun foydalanuvchining maxsus tayyorgarligi va professionalligi talab qilinadi, bu baholashning asosiy mezonlari va qoidalarini aniq tushunishni talab qiladi. Bolalar bog‘chasida yoki boshlang‘ich maktabda yosh bolalar bilan ishlashda psixolog testlarni o‘tkazish uchun yordamchilarni talab qiladi. Test natijalari tahlil qilinib, eng original va qimmatli fikr egalari aniqlanadi va eng asosiysi o‘quvchilarda kreativlik shakllanishiga asos bo‘ladi.

Xulosa. Ijodiy shaxs xususiyatlari, tajriba tahlilidan ko‘rinib turibdiki, o‘qishning barcha yillari davomida uzluksiz, tizimli ijodiy faoliyat, shubhasiz, ijodiy mehnatga barqaror qiziqishning rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda turli darajadagi ta‘lim muassasalari – universitetlar, kollejlari, texnikumlar va boshqalar adabiyotlari, ilmiy tadqiqot va amaliyotlarida til ta‘limida uzluksizlikni ta‘minlashning asosi bo‘lgan rivojlanishning intellektual darajasini hisobga olishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda, tajriba tadqiqotlari o‘rta maktab o‘quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirishda chuqur shaxsiy mexanizm mavjudligini taklif qilish imkonini berdi. Bu, birinchi navbatda, yoshlarning kasbni o‘zlashtirishda ijodiy rivojlanish jarayoniga faol munosabatda bo‘lishlari bilan bog‘liq. O‘quv jarayoniga ijodiy munosabatning namoyon bo‘lishining yetakchi parametri bo‘lgan ijodiy faoliyat, o‘quvchilarning bilim va rivojlanish faoliyatini tashkil etishda doimo hisobga olinishi kerak bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Ijodkorlikni bir vaqtning o‘zida bir necha usul bilan o‘lchash mumkin — Torrens testi, J. Bruner va Gilford. Qobiliyatlaringizni har tomonlama baholash uchun hamma narsani sinab ko‘rishingizni tavsiya qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Guilford J.P. (Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454.
2. Shcheblanova, E. I. P. Torrensning ijodiy fikrlash testining shaklli shakli. Test bilan ishlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar / E. I. Shcheblanova, N. P. Shcherbo, N. B. Shumakova.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - p.4.
4. Abdurasulov J., & Pardabayeva, M. (2024). Musobaqadan oldin sportchilarni psixologik tayyorlash. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>
5. Abdurasulov J. (2024). Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
6. Abduqodirova D., Pardaboyeva M. The role of emotional creativity in students' decision-making // International conference of natural and social-humanitarian sciences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 27-30.
7. Xusanova N. (2024). Factors influencing the psychological characteristics of preschool children with different temperaments. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
8. Amangeldiyev S. (2024). The importance of social activity in old age: a key factor for psychological well-being. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 12–16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
9. Ozodqulov O. (2024). Vatanparvarlik ruhini talabalarda rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Центральноеазиатский журнал академических исследований, 2(10 Part 2), 37–41. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/38469>
10. Burieva K. E., & Kamilova Z. A. (2022). The psychology of adolescence. Scientific progress, 3(4), 923-929.
11. Zukhra Mirzotillovayeva Radjabova. (2023). Features of adolescent and teacher cooperation in the current period in choosing a profession. Diversity research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 210–215. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/131>
12. Burkhonova Mavjuda Bekbutaevna. (2022). Improvement of innovative mechanisms of the organization of social education in families. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 7, 36–39. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/233>

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Шарипова Ситора Хайдаровна,

*преподаватель кафедры «Педагогика» Бухарского государственного университета
s.x.sharipova@buxdu.uz*

В данной статье рассматривается направление повышения качества подготовки профессиональных кадров с использованием технологий проблемного обучения при проведении занятий по гуманитарным дисциплинам, а также предлагаются особенности и средства реализации логико-эвристического метода при изучении гуманитарных дисциплин. Кроме того, представлен широкий спектр технологий проблемного обучения для профессионального образования будущих учителей. Обращается внимание на создание процесса технологий проблемного обучения, его отличие от традиционных и других форм обучения, на то, что студенты приобретают знания в процессе разрешения проблемных ситуаций на основе ранее усвоенного учебного материала, посредством анализа, сравнения, обобщения и конкретизации фактического материала. Показаны пути формирования у студентов интеллектуальных умений: восприятие объектов, наблюдение, воображение, анализ, классификация, доказательство и т. д., а также творческих умений: умение видеть проблемы, задавать вопросы, искать решения.

Ключевые слова: *интерактивные формы обучения, проблемное обучение, логико-эвристические методы, нетрадиционные методы, интенсификация, принцип проблемности, повышение качества подготовки специалистов.*

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolada gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda professional kadrlar tayyorlash sifatini oshirish yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan, shuningdek, gumanitar fanlarni o‘qitishda mantiqiy-evristik metodlarni amalga oshirishning xususiyatlari va vositalarini taklif qilingan. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional ta’limi uchun muammoli ta’lim texnologiyalarining keng doirasi taqdim etilgan. Muammoli ta’lim texnologiyalari jarayonini yaratishga, uning an’anaviy va boshqa ta’lim shakllaridan farqiga, o‘quvchilarning avval o‘rganilgan o‘quv materialini asosida muammoli vaziyatlarni yechish jarayonida bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, faktik materialni solishtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish orqali egallashiga e’tibor qaratilgan. O‘quvchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan: obyektlarni idrok etish, kuzatish, tasavvur qilish, tahlil qilish, tasniflash, isbotlash va boshqalar, shuningdek, ijodiy qobiliyatlar: muammolarni ko‘rish, savol berish, yechimlarni izlash kabilar izohlangan.

Калит so‘zlar: *o‘qitishning interfaol shakllari, muammoli ta’lim, mantiqiy-evristik usullar, noan’anaviy metodlar, intensivlashtirish, muammoni hal qilish tamoyili, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.*

FEATURES OF USING PROBLEM-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SOCIAL AND HUMANITIES

This article considers the direction of improving the quality of training professional personnel using problem-based learning technologies in conducting classes on humanitarian disciplines, and also offers features and means of implementing the logical-heuristic method in studying humanitarian disciplines. In addition, a wide range of problem-based learning technologies for the professional education of future teachers is presented. Attention is drawn to the creation of the process of problem-based learning technologies, its difference from traditional and other forms of training, the fact that students acquire knowledge in the process of resolving problem situations on the basis of previously learned educational material, through analysis, comparison, generalization and concretization of factual material. The ways of forming intellectual skills in students are shown: perception of objects, observation, imagination, analysis, classification, proof, etc., as well as creative skills: the ability to see problems, ask questions, look for solutions.

Keywords: *interactive forms of learning, problem-based learning, logical-heuristic methods, non-traditional methods, intensification, problem-based principle, improving the quality of training specialists.*

Введение. Реформирование системы образования обуславливает необходимость уточнения имеющихся положений и рекомендаций, а по целому их ряду — формирования нового подхода к решению задач подготовки специальных кадров. Многообразие и сложность этих задач делают проблемы образования особенно актуальными для современной теории и практики всех направлений. Нашему народу требуются профессионалы, владеющие методами и приёмами рационального, творческого, оперативного мышления, организаторы и руководители повседневной деятельности, ориентирующиеся на перспективный уровень развития науки, средств и способов педагогических направлений.

В современных условиях развития гуманитарного образования в Узбекистане первостепенной задачей является подготовка профессиональных специалистов, способных справиться с любой поставленной задачей в максимально короткие сроки, при этом эффективно применять развивающие современные технологии и использовать имеющиеся средства.

Многообразие и сложность этих задач делают проблемы образования особенно актуальными для современной теории и практики сегодняшних требований. Нашему обществу требуются профессионалы, владеющие методами и приёмами рационального, творческого оперативного мышления, организаторы и руководители повседневной деятельности, ориентирующиеся на перспективный уровень развития науки, средств и способов профессиональных направлений.

Таким образом, говоря о том, что мы готовим высококвалифицированного профессионального специалиста, мы должны также подразумевать, что результатом подготовки такого специалиста должно стать формирование ориентированной личности, обладающей творческим системным мышлением, способной не только к критическому осмыслению учебного материала, но и сотворению нового научного знания.

Основная часть. В связи с этим актуальным для нас остаётся вопрос выбора технологии обучения студентов по дисциплинам профессионального профиля. В учебнике «Технологии профессионально ориентированного обучения», в современной дидактике высшей школы ещё не выработаны общие подходы к единой трактовке понятия «технология обучения», не существует и однозначно признанной сегодня их классификации, но большинство авторов выделяют традиционные и инновационные технологии обучения.

Вместе с тем предлагается классифицировать существующие технологии обучения по направленности целей обучения на уровень обученности, а именно:

- традиционные — репродуктивные, репродуктивно-алгоритмические. Репродуктивный метод обучения — это метод учебной деятельности, осуществляемой по определённой инструкции, с воспроизведением знаний и практических умений, приобретённых учащимися ранее. Что же касается алгоритмического метода, то основными функциями его являются: формирование у учащихся умений работать по определённым правилам и предписаниям; организация лабораторных и практических работ по инструкциям; формирование умения самостоятельно составлять новые алгоритмы деятельности;

- нетрадиционные — эвристические, творческие.

В последние годы был разработан целый ряд нетрадиционных активных форм и методов обучения, позволяющих существенно повысить результативность обучения. Их классификация представлена на схеме 1.

Однако качественно решить все проблемы, связанные с управляемостью процессом обучения, сложностью методического обеспечения, не удаётся. Их разрешению во многом способствует применение технологий и методик обучения, разработанных на основе теории поэтапного формирования умственных действий, проблемного обучения и инновационного подхода, особенно при проведении занятий практической направленности.

Процесс подготовки кадров, в том числе и в учебных центрах, в настоящее время характеризуется, с одной стороны, возрастанием объёма и сложности необходимых профессионально ориентированных знаний, навыков, умений (компетенций), а с другой — невозможностью увеличения сроков обучения в образовательных учреждениях. Отмечается несоответствие уровня подготовки выпускников вузов возросшим к ним требованиям и считается, что одним из путей разрешения противоречия между растущим объёмом необходимых выпускникам знаний, умений и навыков (компетенций) и ограниченным учебным временем является интенсификация.

Интенсификация в педагогике — это поиск новых, более эффективных путей разрешения противоречий между резким возрастанием объёма информации, необходимой специалистам, и объективной невозможностью увеличивать продолжительность их подготовки в учебных заведениях.

Интенсификация обучения — это усиление, увеличение его интеллектуальной напряжённости, ведущие к повышению действенности в достижении учебно-воспитательных целей за счёт внедрения новых прогрессивных средств, методов (приёмов) обучения и воспитания, а также повышения квалификации преподавательского состава. Основная цель интенсификации обучения в вузе с пособствовать формированию профессиональных качеств, упреждающих потребности практики кадров.



Классификация активных форм и методов обучения

Har bir yondashuvda pedagogik haqiqatni bilish yoki o‘zgartirish jarayonida asosiy g‘oya mujassamlangan. Tadqiqot jarayonida har bir olim tanlagan ilmiy yondashuv qoidalariga qat‘iy rioya qiladi

Ekologik ta‘limning tarixiy jihatdan dastlabki yondashuvlaridan biri antropoekologik yondashuv bo‘lib, uni birinchi bo‘lib K.D.Ushinkey ishlab chiqqan va asoslagan. Ushbu yondashuv keyinchalik L.V.Ishkova, N.V.Kovalenko, S.V.Krivix, V.I.Flori tadqiqotlarida rivojlantirilgan [7]. Antropoekologik yondashuv ekologiya ma‘lumotlaridan foydalanib, inson fenomenini chuqur o‘rganish va bu bilimlarni ekologik ta‘lim jarayonini tashkil etishda qo‘llashni nazarda tutadi.

Bugungi kunda bu yondashuv biologik va gumanitar fanlarning keng doirasi, jumladan, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa, ekologiya, iqtisodiyot va tarix (dinlar tarixi, sivilizatsiya va falsafiy tizimlar tarixi, adabiyot va san‘atlar) orqali boyitilmoqda. Ushbu yondashuvning dolzarbligi ekologiyani insondan ajratishning oldini olishda va jamiyatni rivojlantirish qonuniyatlarini asoslashda, shuningdek, bu qonuniyatlarni ekologik ta‘lim amaliyoti orqali integratsiyalash mexanizmlarini yaratishda yotadi.

Antropoekologik yondashuv tarafdorlari ta‘kidlashicha, ob‘yekt va mavzu sifatida tabiat haqida yetarli bilimga ega bo‘lmagan ekologik ta‘lim nazariyasi tadqiq etilayotgan jarayonlarni samarali boshqarish vazifasini bajara olmaydi. Ushbu yondashuv ekologik ta‘lim amaliyotini psixologiya, sotsiologiya, madaniy va falsafiy antropologiya, inson ekologiyasi kabi fanlar bilan integratsiya qilish sharoitini yaratadi.

Aksiologik yondashuv inson faoliyatining har bir turi maqsadli, motivatsiyalangan va madaniy jihatdan tashkil etilgan bo‘lgani uchun uning asoslari, mezonlari va baholash usullari mavjud ekanligi bilan bog‘liqdir. Ushbu yondashuv ekologik ta‘limni shunday tashkil qilishni talab etadiki, bu ta‘lim jarayoni

shaxsda qadriyatga yo‘naltirilgan orientatsiyalarni shakllantirish va uning tabiat bilan munosabatlarini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilishi kerak.

Bu qadriyat orientatsiyalari ekologik ongning barqaror va o‘zgarmas tarkibiy qismlarini, ya‘ni asosiy g‘oyalar va tushunchalarni, shuningdek, insonning tabiiy muhitda (biosferada) mavjudligining ma‘naviy mazmunini ifoda etuvchi "qadriyatlar"ni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu orientatsiyalar jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishning umumiy ijtimoiy-ekologik shartlari va istiqbollari belgilaydi.

Aksiologik yondashuv tarafdorlari fikriga ko‘ra, bu qadriyat orientatsiyalari sivilizatsiyaning noosfera bosqichiga o‘tishi bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

Texnologik yondashuv ekologik madaniyatni ekologik ta‘limning amaliy faoliyat natijasi sifatida tushunishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tabiatni o‘rganish va uni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy faoliyat orqali ekologik ta‘lim shakllanadi. Aynan ekologik faoliyat madaniyatda universal shaklga ega bo‘ladi, chunki u turli sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy va ilmiy-amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqdir.

Ekologik ta‘lim natijalarini baholashda inson faoliyatining tabiatga ta‘sirini, bu ta‘sirning evolyutsiyasi, differentsiatsiyasi va integratsiyasini tahlil qilish muhimdir. Ana shu jarayon orqali insoniyatning ekologik madaniyati yetarli darajada rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. Ekologik madaniyat esa ekologik faoliyatning umumiy va barqaror xususiyatlarini belgilaydi va turli faoliyat turlarining yo‘nalishlarini, ularning qadriyatli va tipologik xususiyatlarini aniqlaydi.

Shaxsning madaniyatni o‘zlashtirishi uning amaliy faoliyat usullarini egallashi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda ekologik madaniyatni o‘zlashtirish insonning o‘zini ijodiy shaxs sifatida shakllantirishini taqozo qiladi. I.A.Jernosenko, R.V.Oparin va A.P.Valitskaya fikricha, inson tabiat va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqada nafaqat mavjud madaniyatni o‘zlashtiradi, balki unga yangi elementlar kiritib, ekologik madaniyatni boyitadi, ya‘ni u ekologik ijodkorlikning sub‘yektiga aylanadi [8].

Madaniyatshunoslik yondashuvi shaxsning ekologik madaniyatga bog‘lanishi orqali shaxsning ijodiy rivojlanishini talab etadi. L.S.Vygotskiy ta‘kidlashicha, ijodiy jarayon va shaxsning rivojlanishi yagona kommunikativ tarmoqda uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ekologik ta‘lim jarayonida bir-birini to‘ldirishi zarur.

Ijod insoniy faoliyatning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u rivojlanayotgan madaniyat talablaridan kelib chiqadi va ayni paytda o‘sha madaniyatni shakllantiradi. Shuning uchun ekologik ta‘lim va amaliyotda shaxsning ijodiy o‘rishini qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

So‘nggi yillarda milliy madaniyatning ekologik ta‘limdagi ahamiyati yetarlicha baholanmagan. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha milliy madaniy an‘analar va boy meros ko‘pincha e‘tibordan chetda qolgan. Hozirgi vaqtda xalq pedagogikasi va milliy madaniyatda mavjud bo‘lgan katta ta‘limiy imkoniyatlar bilan ulardan yetarli darajada foydalanilmayotgani o‘rtasida jiddiy qarama-qarshilik yuzaga kelgan. Buning sababi — ilmiy asoslangan tavsiyalarning yetishmasligi va milliy an‘analarni ta‘limga qo‘shish imkoniyatlarining ochib berilmaganidir.

Madaniyat yaratishga yo‘naltirilgan yondashuv ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali talabalar bir vaqtning o‘zida jahon ekologik madaniyatini o‘rganishlari va o‘z xalqining ekologik an‘analarini o‘zlashtirishlari lozim. Bu quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Tabiatga hurmat bilan bog‘liq marosim va urf-odatlar bilan tanishish.
- Tabiat bilan uyg‘unlikda yashash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- O‘quv jarayonini tashkil etishda milliy madaniy muhitni ta‘lim mazmuniga singdirish.

Shunday qilib, pedagoglarning vazifasi — madaniy muhitni o‘rganish, shakllantirish va uni ta‘lim jarayonida to‘liq qo‘llashdir. Milliy madaniyat ta‘lim jarayonini yanada mazmunli va talabalar uchun yaqinroq qiluvchi o‘ziga xos muhit yaratishga xizmat qiladi.

Ekologik ta‘limga oid metodologik yondashuvlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Muammolarni aniqlash va ularni hal etish strategiyasini ishlab chiqish.
2. Muammolarni yaxlit va o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish hamda ularning ustuvorligini aniqlash.
3. Ilmiy bilishning ishonchli yo‘nalishlarini prognoz qilish va eski pedagogik paradigmalardan voz kechish.

Biroq ekologik ta‘lim bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish uchun mavjud yondashuvlarni tahlil qilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Masalaning mohiyatini aniqlash va chuqur tahlil qilish talab etiladi, chunki bu barcha metodologik muammolarni hal etishning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi sifatida qaraladi. U ko‘plab pedagogik va madaniy faoliyat turlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy gumanitar adabiyotda “metodologiya” atamasi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biriga aylangan. Har qanday ilmiy tadqiqot metodologik asoslarni belgilash va tushuntirishsiz mukammal bo‘la olmaydi.

Biroq ko‘plab tadqiqotchilar metodologiyani faqat umumiy vazifalarini tilga olish bilan cheklanadi va uning chuqur tahliliga kamdan-kam murojaat qiladilar. Shuning uchun biz tanlagan ilmiy sohaga oid asosiy vazifalardan biri metodologiyani aniqlanishi, metodologik bilim tarkibi va nazariyaning asosiy tushunchalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Metodologiya tushunchasi murakkab bo‘lib, har doim bir xil tushunilmaydi. Bu atama asosan ilmiy metodologiya ma‘nosida keng qamrovda ishlatiladi. Bu holatda, metodologiya ilmiy bilishning umumiy falsafiy pozitsiyasini anglatadi, bu esa barcha ilmiy fanlarga xosdir.

Metodologiya tushunchasi tor ma‘noda esa muayyan ilmiy fanlarda ilmiy bilishni nazariy jihatdan o‘rganish ma‘nosini anglatadi. V.A.Shtoff uni quyidagicha ta‘riflaydi: “Keng falsafiy ma‘nodagi metodologiyadan farqli o‘laroq, metodologiya, asosan, onkologik prinsiplar, qonunlar va kategoriyalarni tahlil qilishda metodologik rolini va evristik ahamiyatini ta‘kidlaydi, tor ma‘nodagi ilmiy metodologiya esa gnozeologiya bo‘limidir; bu ilmiy bilish nazariyasini ifodalaydi va bilish jarayonining murakkab qonuniyatlarini o‘rganadi”.

Pedagogik ilmining metodologiyasi pedagogik nazariyaning asoslari va tuzilishi, pedagogik hodisalar va jarayonlarni tadqiq etish yondashuvlari va o‘zgaruvchan pedagogik haqiqiyatni aks ettiruvchi bilimlarni olish usullari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini ifodalaydi.

U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Pedagogik bilimning tuzilishi va funksiyalari to‘g‘risidagi o‘qitish;
- Umumiy ilmiy mazmunga ega bo‘lgan asosiy, kalit, fundamental pedagogik asoslar (nazariyalar, konsepsiyalar, gipotezalar);
- Pedagogik tadqiqotlar mantiqi va usullari to‘g‘risidagi o‘qitish;
- Olingan bilimlardan foydalanish usullari to‘g‘risidagi o‘qitish.

Xulosa. Shunday qilib, ilm metodologiyasi — bu bilishning asosiy pozitsiyalari, prinsiplari va usullari, hamda haqiqatni o‘zgartirish uchun tushuntirish sxemalari to‘g‘risidagi o‘qitishdir. Pedagogika metodologiyasi esa pedagogik bilim, uni olish jarayoni, tushuntirish (konsepsiyani yaratish) va ta‘lim va tarbiyani o‘zgartirish yoki takomillashtirish maqsadida amaliy qo‘llanish usullari to‘g‘risidagi o‘qitishdir. Ushbu sxema pedagogika ilmiga ham, uning bo‘limlariga ham qo‘llanilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Кельбас Р.В. Деятельностный подход в формировании культурно-экологических стремлений школьников в системе дополнительного образования: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.02. – Екатеринбург, 2007. – 255 с.
2. Грибанова Е.С. Информационно-педагогический потенциал природной среды в формировании экологического сознания личности: авторефер дис. ... кандидата педагогических наук [Текст] / Грибанова Е.С. – Вологод. гос. пед. ун-т. – Вологда, 2006. – 44 с.
3. Дагбаева Н.Ж. Экологическое образование школьников в условиях изменения социоприродной среды: дис. ... доктора педагогических наук [Текст] / Н.Ж. Дагбаева. – Улан-Удэ, 2004. – 430 с.
4. Узденова З.К. Этнорегиональный компонент в экологическом воспитании младшего школьника : дис. ... кандидата пед. наук [Текст] / З.К. Узденова. – Карачаевск, 2005. – 140 с.
5. Тарантина С.А. Экологическое просвещение, воспитание и пропаганда [Текст] / С.А. Тарантина // Состояние и охрана окружающей среды г. Перми в 2007 г.: справ.-информ. материалы / Управление по экологии и природопользованию администрации города Перми. – Пермь, 2007.
6. Аргунова М.В. Экологическое образование в интересах устойчивого развития как надпредметное направление модернизации школьного образования: автореферат дис. ... доктора педагогических наук [Текст] / М.В. Аргунова; [Место защиты: Моск. гос. обл. ун-т] – Москва, 2010. – 391 с.
7. Кривых С.В. Антропоэкологический подход в образовании: монография [Текст] / Кривых С.В., А.А. Макареня – СПб.: НОУ «Экспресс», 2007. – 184 с.
8. Валицкая А.П. Культуротворческая концепция экологического образования – теория и практика [Текст] / Валицкая А.П., Жерносенко И.А., Опарин Р.В. // Мир науки, культуры, образования. – № 6 ч.1(25), 2010. – С. 223-226.

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA AXBOROT TA’SIRLARINING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI

Ramazonov Jahongir Djalolovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Nematova Maftuna Ismatovna,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Ushbu maqolada axborot globallashuvi sharoitida yoshlar dunyoqarashidagi salbiy ta’sirlarning psixologik xususiyatlari, axborot madaniyatining o’rni, axborot iste’moli madaniyati shakllanishining psixologik xususiyatlari, axborot madaniyatining zaruriy xususiyatlari, global zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarga axborot iste’moli madaniyati va ko’nikmalarini shakllantirish va yoshlardan talab etiladigan psixologik shartlar haqida fikir mulohazalar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: axborot, globallashuv, axborot madaniyati, axborot tahdidlari, ma’naviyat, axborot dunyoqarashi, axborot savodxonligi, madaniyat.

СОЦИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИНФОРМАЦИОННОГО ВЛИЯНИЯ НА МИРОВОЗЗРЕНИЕ МОЛОДЁЖИ

В данной статье приводятся размышления о психологических особенностях негативных воздействий на молодёжное мировоззрение в условиях информационной глобализации, роли информационной культуры, психологических особенностях формирования культуры информационного потребления, необходимых особенностях информационной культуры, формировании культуры и навыков информационного потребления у молодёжи в соответствии с требованиями глобального времени и психологических условиях, требуемых от молодёжи.

Ключевые слова: информация, глобализация, информационная культура, информационные угрозы, духовность, информационное мировоззрение, информационная грамотность, культура.

SOCIAL CHARACTERISTICS OF INFORMATION INFLUENCES ON THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

This article provides reflections on the psychological features of negative impacts on the youth worldview in the context of information globalization, the role of information culture, the psychological features of the formation of a culture of information consumption, the necessary features of information culture, the formation of culture and skills of information consumption among young people in accordance with the requirements of global time and the psychological conditions required of youth.

Keywords: information, globalization, information culture, information threats, spirituality, information worldview, information literacy, culture.

Kirish. Dunyoda integrativ yondashuv asosida yoshlarni zararli axborotlar ta’siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, axborotlar globallashuvi sharoitida o’quvchi-yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvorida namoyon bo’layotgan salbiy jihatlarining psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tizimli-strukturali yondashuv asosida yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan axborotlarning ko’rinishlari, manbalari va oqibatlarini tahlil etish, zararli axborotlarning yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta’sirini baholash imkonini beruvchi psixodiagnostik metodlarning modifikatsiyalashgan variantlarini ishlab chiqish, axborotlarning salbiy ta’sirini bartaraf etishning psixoprofilaktik tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda yoshlarni zararli axborotlar ta’siridan himoya qilishning huquqiy asoslari takomillashtirilib, yoshlarni maqsadli kasb-hunarga tayyorlash, ularni Internet va kompyuter o’yinlariga addiktligini psixodiagnostik vositalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu ma’noda «Jismonan sog’lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash»[1] muhim vazifa sifatida belgilab berildi. Bu esa, yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan axborotlarning tuzilishi, ko’rinishlari va manbalarini aniqlashtirish, mazkur jarayonda psixodiagnostik vositalar va psixoprofilaktik usullardan foydalanishning amaliy jihatlarini ochib berishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Axborot tushunchasi bugungi kunda global mohiyat kasb etib, u inson tafakkuriga turli yoʻnalishlarda taʼsir oʻtkazuvchi, yaxlit insoniyat hayotini, uning taqdirini, u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy taʼsir etuvchi qudratli vositaga aylandi. Aslini olganda, mazkur atama inson dunyoqarashini ifodalaydigan barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud. Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bogʻlab qoʻydi. Axborot olish, uni qayta ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib boʻlmaydigan darajadagi taraqqiyoti butun insoniyat uchun jiddiy tashvishlar tugʻdirmoqda.

Yangicha mazmun bilan eʼtibor bersak, XXI asr sivilizatsiyasi axborot xuruji, informatsion-psixologik urush qiyofasida oʻzini namoyon etmoqda. Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli haqida oʻylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiyoti, insoniyat hayotiga taʼsir oʻtkazish imkoniyatlarini chuqur oʻrganishni taqozo etadi.

Axborot globallashuvi jarayonining metodologik xarakteri va ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilishda avvalo “axborot”, “bilim” va “axborot globallashuvi” tushunchalarining mazmun-mohiyati, genezisi va uning ijtimoiy-falsafiy talqini xususida fikr yuritishimizga toʻgʻri keladi. Axborot (lotincha “informatio” – tanishtirmoq, tushuntirmoq, bayon etmoq, sharq tillarida esa xabar, axborot degan maʼnoga ega) zamonaviy fan, falsafa va siyosatning asosiy tushunchalaridan boʻlib, dastlab kishilar tomonidan ogʻzaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan maʼlumot sifatida taʼrif va tasnif etilgan. Yaʼni, axborotni turli koʻrinishlarda masalan, ogʻzaki (tovushlar yordamida), yozma ravishda (matn orqali), harakatdagi rasmlar koʻrinishida (kino, video, animatsiya va boshq.) ifodalash mumkin. Shu sababdan, ajdodlarimiz axborotni har xil toshlarni turli shaklda joylashtirish yoki ularga chizish yordamida, soʻngra taxtachalarga, ishlov berilgan hayvonlar terisiga, papirus yaproqlariga axborotlarni yozish orqali saqlashgan. Keyinchalik axborot qogʻoz, kitoblarda nashr etiladigan boʻldi. Undan keyin esa, mos qurilmalar kashf etilgan, axborotni saqlash uchun fototasmali, gramplastinka, magnittasmali, hozirgi vaqtda turli disklar (egiluvchan, qattiq, kompakt va h.k.) qoʻllanila boshlandi.

“Axborot” tushunchasi birinchi bor jurnalistika sohasida, yaʼni xabarlarini, yangiliklarni uzatish vositasi sifatida qoʻllanilgan. Hozirgi paytda zamonaviy ilmiy adabiyotlarda axborotning koʻplab taʼriflari mavjud, ammo ularning barchasi munozarali tomonlarga ega. Axborotni tadqiq etishning ilmiy jihatlariga qarab, uning koʻplab taʼriflari mavjudligini koʻrish mumkin. Masalan, “axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingan maʼlumot, signalning mazmunini ifodalash”; “rang-baranglikni ifodalash”, “oʻziga xoslik, yangilik, tuzilmalarning murakkabligi mezoni”, “tanlash ehtimolligi”, “xilma-xillikni aks ettirish”, axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan toʻplangan belgilar boʻlib, bilimlarning qayta ifodalanishidir. Bu taʼriflarning har biri “axborot” tushunchasining u yoki bu qirrasini ochib bersada, lekin ushbu tushunchaning tub mohiyatini yetarlicha ochib berishga yoʻnalgan taʼrif yoʻq.

“Axborot” tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilgan S.B.Lukovkinning fikricha, “zamonaviy bosqichda materiya atributi sifatida axborotning umumfalsafiy muammosi uzil-kesil yechim topgan emas”. [2] Bu masala, oʻz navbatida, atributiv va funksional yondashuvlar oʻrtasidagi bahslar mavzusini tashkil qiladi. Demak, axborotning mohiyati toʻgʻrisidagi turli-tuman nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, axborot atributiv va funksional xususiyatlarga egaligini taʼkidlash mumkin. Baʼzi mualliflar (B.V.Axlibinskiy, K.E.Morozov, I.B.Novik, L.A.Petrushenko, A.D.Ursul, O.F.Fayzullaev, M.N.Abdullaeva, R.M.Imomalieva, S.S.Sanginov, B.O.Toʻraev, B.R.Karimov, N.A.Shermuhamedova va boshqalar) axborotning atributivligini tan olib, uni materiyaning barcha moddiy obʼektlariga taalluqli xususiyat sifatida taʼriflashgan. [3]

Boshqa mualliflar (V.V.Verjbutskiy, I.I.Grishkin, D.I.Dubrovskiy, N.I.Jukov, A.M.Korshunov, M.I.Setrov, G.I.Saregorodsev, SH.S.Qoʻshoqov va boshqalar) atributiv qarashlar nazariy jihatdan gʻayriqonuniy funksional xususiyatga egaligini taʼkidlaydilar. Ular oʻz-oʻzini tashkillashtiruvchi tizimlarni avvalgi evolyusiyadan ajratgan holda koʻrib chiqishadi, oʻzini-oʻzi tashkillashtiruvchi tizimlar “Yerda hayot shakllangan tarixiy davrda vujudga keladi”, deya izoh berishadi, ammo ular qanday qilib vujudga kelishi, hayot nimaning hisobiga shakllanishini tushuntirib bermoqdilar.

Globalashuv jarayoni bugungi kunga kelib, mamlakatlarning iqtisodiyot va moliyaviy hayot doirasidan chiqib ijtimoiy, siyosiy va maʼnaviy hayotlarini ham qamrab olishga erishdi. Natijada, fan, texnika va texnologiya sohasida qoʻlga kiritilgan yutuqlar – kompyuter, internet, televideniya va boshqa vositalar butun dunyo xalqlarining mulkiga aylandi. Dunyoning globallashuvi bir tomondan umumiy taraqqiyotga xizmat qilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, milliy oʻziga xoslikning barbod boʻlishiga, mamlakatlar maʼnaviy hayotini bir qolipga solishga, dunyodagi barcha millatlar uchun yagona “ommaviy” maʼnaviyatni shakllantirishga kuchli taʼsir oʻtkaza boshladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotimiz ob’ekti yoshlar bo’lganligi uchun ularni ta’lim va tarbiya jarayonida axborot globallashuvi va axborot psixologik xafsizlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatiga doir axborot tahdidlari va milliy- madaniy an’analar bo’yicha ularning bilim, malaka va mahoratlarini ham o’rganishimizga to’g’ri keldi.

14-jadval.

Yoshlarning axborot psixologik xavsizlikni ta’minlash maqsadida o’zbek xalqi milliy madaniy an’analarini bilishi va ularni o’z amaliy hayotiga tatbiq qilishi (n=72)

№	Axborot globallashuvi jarayonida axborot tahdidlari va milliy madaniy an’analar bo’yicha yoshlarning bilim, malaka, va mahoratlarini baholash parametrlari	Sifatlarni baholash		
		Yoshlar	Tengdoshlari	O’rtacha
1	Yoshlarning axborot psixologik xavsizlikni ta’minlashga qaratilgan Prezident farmonlari, amaldagi qonunlar va qarorlarni bilishi hamda amaliy faoliyatida qo’llashi.	4,2	3,6	3,9
2	Yoshlarning axborot globallashuvi ta’siri, zamonaviy axborot tahdidlarining ko’rinishlari, maqsadi, xususiyatlari va manbalari haqidagi bilimlari	3,8	3,4	3,6
3	Milliy madaniyat va uni tashkil etgan urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’analar, axloqiy me’yorlar va diniy marosimlarni nazariy jihatdan bilish	4,0	3,6	3,8
4	Milliy-madaniy muhitda amaldagi odob-axloq me’yorlari, qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarga amal qilishi va diniy marosimlarga shaxsan qatnashishi	3,8	3,4	3,6
5	O’z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari hamda buyuk olim va mutafakkirlari ijodi aks etgan manbalardan yoshlar orasida targ’ib qilinishi	4,2	3,8	4,0
6	Yoshlarning o’zligini anglashi va milliy psixologiyasining namoyon bo’lishi	4,1	3,9	4,0
	O’rtacha	4,02	3,62	3,82

Yoshlar axborot globallashuvi jarayoni ta’siri, zamonaviy axborot tahdidlarining ko’rinishlari, maqsadi, xususiyatlari va manbalari haqidagi bilimlarini 3,8 ball bilan baholagan bo’lsalar, ularning tengdoshlari esa ularni shu sohadagi bilimlarini 3,4 ball bilan baholadilar. Bu holat yoshlarning ommaviy axborot vositalari xabarlaridan to’liq xabardor emasliklarini, ularni o’rganish, tahlil qilish, ularga ilmiy asosli yondashib munosabat bildirishi yetarli darajada emasligini ifodalaydi.

Axborot globallashuvi ta’siri bilan ochiq axborot tizimida axborot tahdidlarining asl ko’rinishlarini ularning maqsadini, xususiyatlarini va manbalari haqidagi to’liq bilim va tasavvurga ega emasliklarini ko’rsatdi. (5 baho imkoniyatidan 3,6 baho bilan baholandi). Yoshlarning milliy – madaniyat va uni tashkil etgan urf – odatlar, rasm – rusumlar, an’ana – qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va diniy marosimlar mohiyatini nazariy jihatdan bilishi o’zlari tomonidan 4,0 baho bilan baholangan bo’lsa, ularning shu sohadagi bilimi tengdoshlari tomonidan 3,6 baho bilan baholandi.

Yoshlarning milliy – madaniy muhitda amaldagi odob – axloq me’yorlari, qadriyatlar, urf – odatlar, an’analarga amal qilishi va diniy marosimlarga shaxsan qatnashishlari baholaganda, yoshlar o’zlarini 3,8 ball bilan baholadilar, tengdoshlari esa shu yoshlarni 3,4 ball bilan baholadilar.

Lekin, so’nggi yillarda ana shu borada katta va ibratli ishlar qilinayotganligini alohida qayd etish mumkin. Hozirgacha saqlangan nodir qo’lyozmalar tiklanmoqda, o’zbek millatining tarixiy-madaniy ildizlariga daxldor mashhur mutafakkirlar, olimlar va shoiru-yozuvchilarning hayoti va ijodiga daxldor adabiyotlar arab, fors tillaridan va eski o’zbek yozuvidan tarjima qilinmoqda.

Tadqiqotimizda kuzatilgan yoshlarning shaxslilik sifatlari, tipologik xususiyatlari, motivatsion yo’nalganligi ko’rsatkichlari darajasini mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarni har tomonlama barkamol tarbiyalash uchun, hususan ularni kamol topishi, kasb-kor egallashi, xalqiga, vataniga munosib farzand sifatida shiddat bilan o’zgarib borayotgan jamiyat taraqqiyotida o’rin topishi va uyg’un faoliyat ko’rsatishi uchun to’liq yetarli deb baholab bo’lmaydi.

Xulosa. Yoshlar dunyoqarashida salbiy o’zgarishlar yuzaga kelishining muhim omillari o’rganilganda, yoshlar ongi va dunyoqarashini belgilaydigan bilimlari, ularda qaror topgan intellektual taraqqiyot darajalari har doim ham ilmiy-metodologik yo’nalishga mos kelavermasligi aniqlandi. Yoshlarning teng yarmi-dunyoqarashida mifologik (7,4 %), diniy (23,3 %), turmush bilan bog’liq (kundalik) (25 %) dunyoqarash

tamoyillari yetakchilik qiladigan yoshlar butun borliqni o‘zaro mushtarakligini, ya’ni -tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri o‘rtasida kechadigan eng umumiy qonuniyatlarni ilmiy-falsafiy jihatdan to‘g‘ri baholay olmaydilar. Mazkur omillar (ulardagi mavjud tushuncha va tasavvurlar) yoshlar dunyoqarashida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida xizmat qilayotganligi aniqlandi. Axborot globallashuvining salbiy ta’sirida xavfli tahdid manbalari sifatida shakllangan- diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “Ommaviy madaniyat”, kiberterrorizm, korrupsiya o‘z oldiga qo‘ygan qabih maqsad-muddaolari bilan odamlarning asrlar davomida amal qilib kelayotgan e’tiqodlari, oilaviy qadriyatlari va axloqiy-ma’naviy me’yorlariga putur yetkazib, odamlar qalbi va ongiga ta’siri bilan ular hayotini, taqdirini izdan chiqarib, dunyoqarashini salbiy tomonga keskin o‘zgartirib yubora oladigan qudratli omillar ekanligi e’tirof etildi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Луковкин С. Б. Проблемы становления информационного общества в современной философии. Автореф. дисс. канд. филос. наук. –Мурманск, 2006, -С.18.
3. G‘afforova G. Axborot tushunchasi va uning falsafiy tahlili. “Falsafa va huquq” 2010 yil 2-son, B. 59-61.
4. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общества и культура. М.: 2000. Ст 39.
5. Саидов У. “Оммавий маданият” кўринишидаги мафкуравий тазйиклар. “Жамият ва бошқарув” 2007 йил 4-сон, 44-46 бет.
6. Жўраев Н. Аxborot-психологик хавфсизлик: тажриба ва муаммолар. “Жамият ва бошқарув” 2007 йил 1-сон, 16-19 бет.
7. Информационно-психологическая и психотронная война. Хрестоматия под.ред. Е. А. Тараса Минск “Харвест” 2003. -432с.

**BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI
DASTURLASH TILLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH MODELI**

Raxmatov Mirzo Mukimovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish zaruriyatiga e’tibor qaratilgan, hamda ushbu tadqiqot ishida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini dasturlash tillari yordamida rivojlantirish modeli, uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov natijalari tahlili, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini raqamli dunyoga tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan dasturlash tillarini markaziy komponent sifatida ta’kidlab, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini dasturlash tillari yordamida oshirish uchun kompleks yondashuvlar va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, kompetensiya, dasturlash tillari, model, tajriba-sinov.*

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ**

В данной статье обращается внимание на необходимость повышения профессиональной компетентности будущих учителей информатики в вузах. В работе представлена модель развития профессиональных компетенций будущих учителей информатики с использованием языков программирования, анализируются результаты экспериментально-исследовательской работы, направленной на определение её эффективности. Также подчёркивается центральная роль языков программирования в подготовке будущих учителей информатики к цифровому миру. В статье приводятся комплексные подходы и рекомендации по повышению профессиональной компетентности будущих учителей информатики с помощью языков программирования.

Ключевые слова: *информационные технологии, компетенция, языки программирования, модель, эксперимент.*

**MODEL FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE
COMPUTER SCIENCE TEACHERS THROUGH PROGRAMMING LANGUAGES**

This article highlights the necessity of enhancing the professional competence of future computer science teachers in higher education institutions. This research presents a model for developing the professional competencies of future computer science teachers through programming languages, along with an analysis of the results from experimental trials aimed at assessing its effectiveness. Emphasizing programming languages as a central component, this model demonstrates their decisive role in preparing future computer science teachers for the digital world. The article also provides comprehensive approaches and recommendations for enhancing the professional competence of future computer science teachers through programming languages.

Keywords: *information technology, competence, programming languages, model, experiment.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini jumladan dasturlash tillari orqali joriy etishning natijali mexanizmini ishlab chiqish ta’limning muhim muammolaridan hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli farmonida «Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish. Dars mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni bajarishda bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari fanlarini, xususan, dasturlash tillari orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining kompetensiyalarini tegishli (pedagogik, psixologik va texnik) muammolarni hal qilishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy obyekt dasturlash tillari bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchi buni mukammal bilishi hamda uni o‘quvchilarga yetkaza olishidir. Ushbu tadqiqotning

maqsadi oliy ta’limni isloh qilishning istiqbolli yo’nalishlaridan biri bo’lgan bo’lajak informatika o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishni dasturlash tillari yordamida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ilgari surishdir [2-5].

Asosiy qism. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv deganda ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini kelajakdagi mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan vakolatlarni egallashga yo’naltirish tushuniladi. O’z navbatida, kompetensiyalar mahsuldor kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish samaradorligini belgilaydigan shaxsning o’zaro bog’liq individual fazilatlarini (bilimlar, ko’nikmalar, faoliyat usullari, qobiliyatlar) majmuini o’z ichiga oladi [4].

Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan tadqiqotlar bo’yicha V.A. Bolotova, I.A. Zimnyaya, D.A. Ivanova, I.D. Frumin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ayrim nazariy yondashuvlar ilgari surilgan bo’lsada, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yetarlicha o’rganilmaganligicha qolmoqda.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti sharoitida yosh mutaxassisning kasbga tez kirisha oladigan, yuqori darajadagi kasbiy malakali, balki mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradigan muayyan kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan shaxsiy fazilatlarini ham muhimdir. Yangi texnologik vositalarni, mutaxassisliklarni o’zlashtirish va o’z kasbiy mahoratini oshirish fazilatlarini informatika fani o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishida ayniqsa muhimdir. Binobarin, ushbu sohadagi mutaxassislarning muhim vakolatlardan biri o’z-o’zini tarbiyalash, o’z-o’zini rivojlantirish va innovatsiyalarni mustaqil ravishda o’zlashtirish qobiliyati bo’lishi kerak [6,7,8].

Bugungi kunda asosan, informatika va AKT sohasida professor-o’qituvchilarni tayyorlashni ta’minlash uchun ilmiy baza ishlab chiqilgan.

Bu borada T.A.Boronenko, S.A.Jdanov, A.A.Kuznetsov, V.V.Laptev, M.P.Lapchik, D.S.Matros, B.E.Starichenko, M.V. Shvetskiy, E.K. larning tadqiqot ishlarida asosan vakolatga asoslangan yondashuvni izchil amalga oshirishga yo’naltirilgan amaldagi ta’lim standartlari sharoitida o’qitish mazmuni va metodologiyasini asoslashga bag’ishlangan. O’rganilayotgan fanlar ko’p jihatdan alohida va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini aniqlamasdan ko’rib chiqiladi.

Bo’lajak informatika o’qituvchisini tayyorlashning asosiy yo’nalishlaridan biri uning texnologiya va dasturlash tillarini puxta egallashidir. Oliy ta’lim muassasalarida algoritmlashtirish va dasturlashni o’qitish masalalari bo’yicha A.V. Mogileva, D.A. Slinkina, A.L. Smetannikova, M.V. Shvetskiy larning ishlarida bo’lajak informatika o’qituvchilariga dasturlashni o’rgatishning mazmuni va uslubiy jihatlari juda chuqur muhokama qilingan, ammo dasturlash va boshqa ixtisoslashtirilgan ta’lim fanlari o’rtasidagi bog’liqlikka, shuningdek, muammolarga kamroq e’tibor qaratilgan. Dasturlashni o’rgatish jarayonida informatika o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uslubiy, ilmiy-uslubiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar va oliy ta’lim muassasalarida dasturlashni o’qitish amaliyotini tahlil qilish natijalarini umumlashtirish quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi: [9-10]

- Oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning potensial imkoniyatlari va uni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy ta’minotining yetarli emasligi;

- o’qituvchilar uchun fan tayyorgarligini ta’minlovchi fanlarning xilma-xilligi va ularning bo’lajak o’qituvchining aniq kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qo’shgan hissasini aniqlashga yondashuvlarning yo’qligi;

- uslubiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida oliy ta’lim muassasalarida informatika o’qituvchisini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlovchi nazariy va uslubiy yondashuvlarni belgilash;


- bo’lajak informatika o’qituvchilarining dasturlashni o’rgatish jarayonida kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash;

Sanab o’tilgan qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va uning muammosini ko’rsatadi: oliy ta’lim muassasalarida informatika o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun qanday fanlarni o’rganish kerak? Ushbu muammoni hal qilish doirasida tadqiqotimiz mavzusi bo’yicha quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Talabning kasbiy tayyorgarligining vakolatlarning belgilangan tuzilmasiga muvofiqligi darajasini baholash imkonini beruvchi kompetensiyalarning rivojlanishi modelini ishlab chiqish;

- kompetensiyalarni rivojlantirish bo’yicha taklif etilayotgan metodik tizimni qo’llash samaradorligini tekshirish bo’yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish;

Ushbu vazifalarni bajarishda tadqiqot doirasida bo’lajak informatika o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini dasturlash tillari asosida rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (1- chizma).



1-chizma. Bo'lajak informatika o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini dasturlash tillari orqali rivojlantirish modeli

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarni dasturlash tillari orqali shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan model samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi

1-bosqich. Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarning nazariy tahlili o'tkazildi, kuzatish materiallari to'plandi, oliy ta'lim muassasalarida dasturlashni o'qitish tajribasi tahlil qilindi.

2-bosqich. Tadqiqotimiz uchun asos bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishning uslubiy tizim konsepsiyasi shakllantirildi. Tarkibiy qismlar ishlab chiqildi. Ushbu tizim asosidagi tamoyillar shakllantirildi va kadrlar tayyorlashning uslubiy tizimi bilan aloqasi aniqlandi. Shu bilan birga, informatika o'qituvchisi uchun kompetensiyalar tuzilmasi ishlab chiqildi va kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalarga qo'yiladigan talablar belgilandi. Eksperimentning ushbu bosqichi o'z vaqtida gipoteza va tadqiqot maqsadlarini shakllantirishga olib keldi. Kompetensiyani shakllantirish bosqichlari va kompetensiyani rivojlantirish darajalari aniqlanadi. Dasturlash fanining batafsil mazmuni ishlab chiqildi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlariga to'g'ri javob beradigan o'qitish usullari aniqlandi.

3-bosqich. Ishlab chiqilgan model ta’lim jarayonida qo’llanildi. Bunda zaruriy kuzatishlar va pedagogik o’lchovlarni amalga oshirish, ularning natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish, natijalarni tadqiqot gipotezasi bilan bog’lash va xulosalarni shakllantirish imkonini mavjud bo’ldi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi dastlabki nazariy tamoyillarning ilmiy asosligi, tadqiqot mantig’ining ichki izchilligi, qo’llaniladigan usullarning tadqiqot maqsad va vazifalariga muvofiqligi, natijalarni qayta ishlashda matematik statistik usullardan foydalanish bilan ta’minlandi.

Ishlab chiqilgan model asosida bo’lajak informatika o’qituvchisi uchun kompetensiyalar tuzilmasi ishlab chiqildi va ularning asosiy guruhlari aniqlandi: asosiy (qadriyat-semantik, umumiy madaniy, axborot, kommunikativ, ijtimoiy va mehnat, o’z-o’zini tarbiyalash), pedagogik (texnologik, kognitiv, psixologik, tartibga soluvchi, tadqiqot) va fan (matematik, foydalanuvchi, axborot tizimi, texnik va dasturlash) [11-12].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda dasturlash tillari fanini o’qitishning bir qator kasbiy kompetensiyalarini (axborot, aloqa, tadqiqot, uslubiy, o’z-o’zini tarbiyalash va dasturlash kompetensiyalari) shakllantirishga ijobiy ta’siri aniqlandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Navoiy davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda Chirchiq davlat pedagogika universiteti tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlariga jami 327 talaba va anketa so’rovnomalari 30 dan ortiq professor-o’qituvchilar ishtirok etdilar. Shuningdek tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model asosida tashkil etilgan tajriba-sinov natijalarining statistik tahlil quyidagicha: Talabalarning tajriba-sinov oxiridagi natijalari 1- jadvalda keltirib o’tilgan.

1-tanlanma						
Tajriba guruhining ko’rsatkichlari	X_i	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Talabalar-ning umumiy soni $n=158$
	n_i	78	55	17	8	
2-tanlanma						
Nazorat guruhining ko’rsatkichlari	Y_j	5 (a’lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	Talabalar-ning umumiy soni $m=169$
	m_j	56	55	41	17	

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining tajriba oxiridagi umumiy ko’rsatkichlari

O’rta qiymatni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i = \frac{1}{158} (78 \cdot 5 + 55 \cdot 4 + 17 \cdot 3 + 8 \cdot 2) \approx 4,28$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^4 m_j Y_j = \frac{1}{169} (56 \cdot 5 + 55 \cdot 4 + 41 \cdot 3 + 17 \cdot 2) \approx 3,88$$

Ushbu qiymatdan ko’rinadiki: $\bar{X} > \bar{Y}$.

Ikki guruhning dispersiyalarini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\overline{X^2} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i x_i^2 = \frac{1}{158} (78 \cdot 5^2 + 55 \cdot 4^2 + 17 \cdot 3^2 + 8 \cdot 2^2) \approx 19,08$$

$$\overline{Y^2} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^4 m_j y_j^2 = \frac{1}{169} (56 \cdot 5^2 + 55 \cdot 4^2 + 41 \cdot 3^2 + 17 \cdot 2^2) \approx 16,07$$

$$D_n = \overline{X^2} - (\bar{X})^2 \approx 0,72$$

$$D_m = \overline{Y^2} - (\bar{Y})^2 \approx 0,96.$$

$$D_n < D_m$$

Natijalarni Xi kvadrat kriteriyasi asosida quyidagi gipotezalarni tekshiramiz:

H_0 : tajriba va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan model samarali natija bermadi.

H_1 : Tajriba guruhida bilim darajalari sezilarli darajada ortdi.

$$\chi^2 = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{j=1}^4 \frac{(n_{1j} n_2 - n_{2j} n_1)^2}{n_{1j} + n_{2j}} \approx 16,43$$

$$\chi_{kuz}^2 = 16,43 > \chi_{kr}^2 = 7,815$$

H_0 gipoteza rat etiladi.

Ushbu ko'rsatkichlarni foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\bar{X}}{4} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{4} \cdot 100\% = \frac{4,28}{4} \cdot 100\% - \frac{3,88}{4} \cdot 100\% = \frac{0,4}{4} = 10 \%$$

Tajriba guruhining ko'rsatkichi 10% oshganlini ko'rish mumkin.

Xulosa. Model asosida bo'lajak informatika o'qituvchisining bir qator kasbiy kompetensiyalari (axborot, muloqot, tadqiqot, uslubiy, o'z-o'zini o'qitish, shuningdek, dasturlash sohasidagi kompetensiyalarni) samarali rivojlanishini ta'minladi. Ishlab chiqilgan model asosida o'tkazilgan tajribasinoiv ishlari bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini dasturlash tillari orqali shakllantirishda samaradorligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони.
2. Байденко В.И., Джерри ван Зантворт, Бианка Енеке Формирование социального диалога и партнерских связей образования, органов управления и саморазвития, профессиональных объединений и предприятий. ТАСИС, проект ДЕЛ ФИ. Доклад 4, апрель, 2001.
3. Слинкин Д.А. Программирование. Часть 2. Методы программирования на Турбо-Паскале: Учебное пособие для студентов вузов. Шадринск: Изд-во Шадринского пединститута, 2000. — 141 с.
4. Лапчик М.П. Информатика и информационные технологии в системе общего и педагогического образования: Монография. Омск: Изд-во Омского госпедуниверситета, 1999. 276 с.
5. Кнут Д. Искусство программирования для ЭВМ. Т.1: Основные алгоритмы. М.: Мир, 1976. - 736 с.
6. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход //Образование и наука. 2004. - № 3 (27). — С. 24-33.
7. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование как средство модернизации образования в открытом информационном сообществе //Стандарты и мониторинг в образовании. 2004.-№4.-С.46-60.
8. Внукова Л. А. Дифференциация обучения информатике на основе использования элементов дистанционной формы обучения в классно-урочной системе: Дис. . канд. пед. наук. Омск, 2003.-160 с.
9. Бороненко Т.А. Теоретическая модель системы методической подготовки учителя информатики: Дис. . докт. пед. наук. СПб., 1998. -316 с.
10. Башкирский А.И. Развитие компетентности в педагогическом общении у преподавателей учебных заведений МВД России: Дис. . канд. пед. наук. -Челябинск, 2002. 148 с.
11. Баранова Е.В. Теория и практика объектно-ориентированного проектирования содержания обучения средствами информационных технологий: Дис. . докт. пед. наук. Санкт-Петербург, 2000. — 326 с.
12. Андреев В.И. Опыт компьютерной педагогической диагностики творческих способностей. Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. - 142 с.

KEKSALIK DAVRIDA INSONNING KOGNITIV SOHASI NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

*Razakova Rayxan Saylaubekovna,
Ma'mun universiteti “Psixologiya va tibbiyot” kafedrası
prof.v.b., mustaqil izlanuvchi*

Ushbu maqolada keksalik davrida insonning kognitiv sohasi namoyon bo‘lish xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Keksalik va qarishni tadqiq etishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish borasida dastlab organizm faoliyatining sekin-asta susayishi holati kuzatiladi. Bu yoshdagi insonlarning jismoniy kuchi, energiyaning umumiy zaxirasi yoshlik davriga nisbatan ancha kamayganligini kuzatish mumkin, tabiiyki bu holat insonning kognitiv sohasida ham namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *xotira, yosh, moslashish, individuallik, “keksalik” tushunchasi, keksalik hodisasi, intellekt, ruhiy salomatlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОГНИТИВНОЙ СФЕРЫ В СТАРЧЕСКОМ ПЕРИОДЕ

В данной статье подробно рассмотрены особенности проявления познавательной сферы человека в пожилом возрасте. Что касается изучения теоретико-методических основ исследования взросления и старения, то вначале наблюдается состояние постепенного угасания деятельности организма. Можно наблюдать, что физическая сила, общий запас энергии у людей этого возраста значительно уменьшается по сравнению с периодом молодости, естественно, это состояние проявляется и в познавательной сфере человека.

Ключевые слова: *память, возраст, адаптация, индивидуальность, понятие “старость”, феномен старости, интеллект, психическое здоровье, эмоциональная поддержка.*

FEATURES OF PERFORMANCE OF HUMAN COGNITIVE AREA IN OLD AGE

This article examines in detail the features of the manifestation of the cognitive sphere of a person in old age. In the study of the theoretical and methodological foundations of the study of old age and aging, a gradual decline in the activity of the organism is initially observed. It can be observed that the physical strength and general energy reserves of people of this age are significantly reduced compared to their youth, and naturally this situation is also reflected in the cognitive sphere of a person.

Keywords: *memory, age, adaptation, individuality, the concept of “old age”, the phenomenon of old age, intelligence, mental health, emotional support.*

Kirish. Keksalik davri inson hayoti va ontogenezining asosiy bosqichlaridan biridir. Hozirgi vaqtda bu yosh davrida inson umrining o‘rtacha davomiyligi sezilarli darajada oshgan. Natijada ko‘plab mamlakatlarda aholining qarishi bilan bog‘liq muammolari tadqiqotchilarning tobora ko‘proq e‘tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Keksalarni hurmat qilish, ularga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish jamiyatimizning o‘ziga xos yuksak. O‘zbek xalqiga azaldan ma‘naviy va madaniy belgisidir. O‘zbek xalqiga azaldan xos bo‘lgan fazilatlar istiqlolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda yoshi ulug‘ insonlarning munosib hayot kechirishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Zero, ular yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, Vatanimizning iqtisodiy salohiyati yuksalishiga katta hissa qo‘shgan [1].

Inson jasoratini esga olish va uni qadrlash bebaho ma‘naviy boylik, hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan qadriyatlarimizdan biridir. Davlatning kuch-qudrati nafaqat uning armiyasi bilan, balki mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, fuqarolarning ahilligi, hamjihatligi, vatanparvarligi, yoshi ulug‘ insonlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rligida ham namoyon bo‘ladi. Zero, bu muqaddas zamin - O‘zbekistonda inson azizdir.

Mamlakatimizda keksalarni har tomonlama rag‘batlantirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ular uchun nafaqat moddiy, ayni paytda katta ma‘naviy-ruhiy madaddir. Yurtimizda bunday hurmat, e‘tibor va g‘amxo‘rlik uchun chuqur minnatdorlik tuyg‘usi fuqarolarimizning tinch va osuda hayoti, ertangi

kunga boʻlgan mustahkam ishonchida, yosh avlodni Vatanga, mustaqillikning buyuk gʻoyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda oʻz ifodasini topmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bugungi kunga qadar psixologik gerontologiyaga oid turli masalalarga bagʻishlangan bir qator tadqiqotlar oʻtkazildi. Avvalo, bu yerda M.D. Aleksandrova, B.G. Ananyev, A.A. Bogomolets, I.V. Davydovskiy, I.I. Mechnikov, V.V. Frolkis va boshqalarning ilmiy ishlari nomini tilga olish lozim, ular milliy gerontologiya va qarilik psixologiyasining asoslarini yaratganlar. Zamonaviy psixogerontologiyada L.I. Antsyferova, T.V. Karsaevskaya, O.V. Krasnova, A.G. Lider, T.N. Martsinkovskaya, O.N. Molchanova, S.G. Maksimova, U.B. Podnebennaya, M.M. Tulchinskiy, I.V. Shapovalenko, A.T. Shatalova, N.F. Shaxmatov, N.A. Korotchik va boshqa olimlar tomonidan eng faol tadqiqotlar olib borilmoqda [2].

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda keksa yoshdagi odamlar ulushining oshishi tendensiyasi bilan belgilanadi, shunga mos ravishda, keksalarning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishi bilan bogʻliq. Shu sababli, keksalikni qabul qilish va unga boʻlgan munosabatni oʻrganish, shaxsiy xususiyatlarning yangi hayot davrida individual moslashuv strategiyasi va hayot faoliyati uslublarini shakllantirishga taʼsiri, shuningdek, insonning nafaqa oldi va nafaqa davrlarida oʻzini identifikatsiya qilishini tadqiq qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Bizning asosiy maqsadimiz keksalik davrida insonning kognitiv sohasi, yani uning hotirasi, intellekti namoyon boʻlish xususiyatlarini oʻrganishdir. Psixik tonusning pasayishi, kuch va harakatchanlikning pasayishi qarilik davridagi psixik reaksiyaning pasayishi asosiyusbu yoshga yosh xususiyatlarni tashkil etadi.

Gerontolog E.Y. Shtenbergning xulosasiga koʻra, qarishni xarakterlovchi asosiy omil - bu psixik faollikning pasayishi boʻlib, u idrok hajmining qisqarishi, eʼtiborni jamlashning qiyinlashishi va psixomotor reaksiyalarning sekinlashuvida namoyon boʻladi. Keks odamlarda reaksiyaga boʻlgan javob qaytarish davomiyligi vaqti oshadi, idrok maʼlumotlarini qayta ishlash sekinlashadi va kognitiv jarayonlarning tezligi pasayadi.

Kuch va harakatchanlikdagi oʻzgarishlarga qaramay, aqliy funksiyalarning oʻzi sifat jihatidan oʻzgarishsiz qoladi va deyarli saqlanib qoladi. Keksalikda aqliy jarayonlarning kuchi va harakatchanligining oʻzgarishi mutlaqo individualdir. P.Baltes keksa odamning intellektual sohasi selektiv optimallashtirish va kompensatsiya mexanizmi orqali toʻldiriladi degan gʻoyani ishlab chiqqan. Selektivlik optimallashtirish faoliyatning bosqichma-bosqich pasayishida namoyon boʻladi, bunda faqat eng mukammallari tanlanadi va barcha ichki resurslar ularga sarflanadi. Baʼzi yoʻqolgan xususiyatlar, masalan, jismoniy kuch tezligi, harakatlarni amalga oshirishning yangi koʻrinishlari bilan kompensatsiya qilinadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Keksalik davrida insonning hotirasida xam oʻzgarishlar sodir boʻla boshlaydi. Aqliy keksayishning asosiy yoshga bogʻliq alomati sifatida xotira buzilishi tushunchasi maydonga chiqadi. Xotira buzilishlarini namoyon boʻlishi keksalik davrining oʻziga xosligidir. Qarishning xotiraga taʼsiri boʻyicha soʻnggi yillardagi koʻplab tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundaki, xotira haqiqatan ham keksalik davrida yomonlashadi, lekin bu bir hil yoki bir tomonlama jarayon emas. Yoshga bevosita bogʻliq boʻlmagan koʻplab omillar (idrok hajmi, diqqatning selektivligi, motivatsiyaning pasayishi, taʼlim darajasi) mnemonik vazifalarni bajarish sifatiga taʼsir qiladi.

Xotiraning har xil turlari - hissiy, qisqa muddatli, uzoq muddatli - turli xil darajada aziyat chekadi. Uzoq muddatli xotiraning " asosiy " hajmi saqlanib qoladi. 70 yosdan keyingi davrda mexanik xotira asosan zaifadi va mantiqiy xotira eng yaxshi xotira shakli sifatida ishlaydi. Avtobiografik xotira muntazam boʻy koʻrsatadi va keksalar oʻzi bilan bogʻliq avtobiografik xotirasi bilan oʻrtoqlashgisi keladi. Qariyalarda bilish jarayonlaridagi farqlar boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlarga koʻra, xotirani tekshirishda standart topshiriqlarni bajarishda 30 yoshli va 70 yoshli kishilar turli tezlikda bajaradi. Sodda kognitiv topshiriqlar, yaʼni turli predmetlarni kattaligi boʻyicha xotirada taqqoslashda qariyalarga yoshlarga qaraganda 50% koʻp vaqt talab etilgan. Topshiriq murakkablashtirilganda yoshlarga qaraganda qariyalarga 2 barobar koʻp vaqt talab etilgan[3].

Uzoq muddatli xotirani oʻrganishga bagʻishlangan test natijalarida yosh farqlari kuzatiladi. Qator tadqiqotlarda qariyalar soʻzlar qatorini qayta esga tushirishga qaraganda tanishga boʻlgan topshiriqlarni yaxshiroq bajarishi aniqlandi. Ular materialni xotirada saqlash uchun koʻproq tanlovchanlikni namoyon qiladi. Qariyalarda foydasiz soʻzlar roʻyxatini eslab qolish ichki isyonni keltirib chiqaradi. Shu bilan bogʻliq ravishda maʼnosiz soʻzlarni eslab qolishga bagʻishlangan tadqiqotlarda ular quyi natijalarni namoyon etishgan, maʼnoli soʻzlarni, qiziqarli iboralarni eslashda keksalar yoshlarga qaraganda yaxshi natija koʻrsatishgan.

Shunday qilib, qator olimlar tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, qariyalar ular uchun muhim hisoblangan va hayotda kerak boʻladi, deb oʻylangan materialni yaxshiroq eslab qoladilar.

Uchlamchi xotira bu ilgari bo‘lib o‘tgan voqeani eslashdir. Xotiraning bu turi keksalarda to‘liq eslab qolinadi.

Qarilik kognitiv muammo sifatida. Bu yondashuv asosida keksalarda intellektual va emotsional qobiliyatlarining pasayishi yoki yo‘qotilishi jarayoni yotadi. “Foydalanmaslik” nazariyasiga ko‘ra intellektual ko‘nikmalar yetarlicha foydalanmaslik natijasida keksalarda yomonlashadi. Kognitiv nazariyaning boshqa variantida keksa inson o‘zidagi o‘zgarishlarni qanday talqin qilishiga bog‘liqligi nazarda tutiladi. Bunda uch soha asosiy rol o‘ynaydi: shaxsiy kechinmalar (sog‘liqning yomonlashuvi, jozibadorlikning kamayishi), ijtimoiy mavqe xususiyatlari (kirishimlilik, integratsiya yoki ajralib qolish), shaxsiy hayotining tugayotganligini anglash).

Keksalik davrida insonning intellektida xam o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. Keksalik davridagi kognitiv o‘zgarishlarni tavsiflashda intellektni ko‘rib chiqishda ierarxik yondashuv doirasida "kristallangan intellekt" va "xarakatchan intellekt" kabi shakllari ajralib turadi.

Kristallangan intellekt hayot davomida olingan vazifalar soni, mavjud ma‘lumotlarga asoslanib muammolarni hal qilish, tushunchalarni aniqlash qobiliyati bilan belgilanadi; nima uchun bunday qilish kerakligini tushuntiring, yoki aksincha.

Mobil intellekt -tanish usullar mavjud bo‘lmagan yangi muammolarni hal qilish qobiliyati.

Umumiy intellektni baholash (Q - faktor) kristallangan va harakatchan intellektni baholash yig‘indisidan iborat. Ta‘kidlanishicha, test bo‘yicha to‘g‘ri javoblar soni bilan belgilanadigan aqlni baholash qarilikda kamayadi, ammo intellektual koeffitsient (IQ) yoshga qarab deyarli o‘zgarmaydi, ya‘ni, inson o‘z yosh guruhining boshqa a‘zolari bilan taqqoslaganda, hayoti davomida taxminan bir xil darajadagi intellektni saqlab qoladi. Kristallangan intellektning harakatchan intellektga nisbatan ancha chidamli ekanligi haqida dalillar mavjud, ularning pasayishi odatda keskinroq va erta davrlarda namoyon bo‘ladi. "Keksalarga maslahat va amaliy yordam ko‘rsatish nuqtayi nazaridan, normal keksayishda quyidagi xarakterli psixofiziologik o‘zgarishlarni hisobga olish muhimdir:

1. Ko‘proq va tezroq charchoq bilan reaksiyalarning sekinlashishi.
2. Idrok etish qobiliyatining yomonlashishi.
3. Diqqat maydonining torayishi.
4. Diqqatning davomiyligining kamayishi.
5. Diqqatni taqsimlash va ko‘chichidagi qiyinchiliklar.
6. Konsentratsiya va diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi.
7. Tashqi shovqinlarga yuqori sezuvchanlik.
8. Xotira qobiliyatining biroz pasayishi.
9. Yodlanganlarni "avtomatik" tashkil etish tendensiyasining zaiflashishi.
10. Sonlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar[4].

Intellektual funksiyalar pasayishining sabablari. Keksalarda intellektual funksiyalarning pasayishiga turli sabablar: bevosita va bavoosita sabablar bo‘lishi mumkin. Intellektual funksiyalar pasayishining bevosita sabablariga miya kasalligi, masalan Altsgeymer kasalligi va miya qon-tomirlarining kasallanishini keltirish mumkin. Bavoosita sabablariga esa bosh miya funksiyalari bilan bog‘liq emas, lekin intellektual funksiyalarni amalga oshirish uchun ta‘sir ko‘rsatadigan sabablar kiradi. Ularga: inson sog‘lig‘ining umumiy yomonlashuvi, ma‘lumot darajasining quyiligi, bilish faoliyati motivatsiyasining mavjud emasligi va boshqalar kiradi.

Keksalarda intellektual funksiyalarning buzilishi barchada bir xil emas. Ayrim olimlar 70 yoshdan keyin ham ishchanlik qobiliyatlarini saqlab qolgan: P. La-mark, M. Eyler, K. Laplas, Im. Kant, I. P. Pavlov «Yigirma yillik tajriba» asarini 73 yoshda yaratgan.

Xulosa va takliflar. Shunday ekan, keksalarning hayotiy tajribasi, ibrati, sabog‘i orqali oilada shaxslararo munosabatlarni tashkil etish insonni komillik, odob-axloq sari yetaklashi shubhasizdir. Keksalar hayot maktabidir. Bu maktabda yoshlar tafakkuri, ongi, tarbiyasi, bilimi, odob-axloqi shakllanadi. Keksalik to‘playdi, tarqatadi va yana o‘zi ham oladi. Keksalik o‘lmaydi u yangi-yangi shaklga aylanib boradi. Keksalik kelajak nihollarini tarbiyalaydi, parvarish qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, yoshlikni mazmunsiz o‘tkazish musibatga yetaklaydi. Keksalarning tajriba va tarbiya resurslaridan samarali foydalangan, anglay bilgan, shunga ergashgan insongina o‘zining taraqqiyot yo‘lini to‘g‘ri tanlay oladi.

Keksavlod, avvalo, jamiyatdagi me‘yorlarga amal qilishi, zimmasidagi burch va vazifani qonun doirasida, adolat tamoyillariga rioya qilgan holda bajarishi, oila boshqarishni bilishi, yoshlarni o‘z ortidan ergashtira oladigan, turli ishlarga chiroyli tarzda safarbar eta oladigan salohiyatga ega bo‘lishi, nafaqat oila a‘zolariga, balki jamiyatning barcha a‘zolariga ibrat bo‘lishi zarur. Shu bois ham katta avlod ma‘naviyati masalasi g‘oyat nozik va o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki u el-yurt, eng asosiysi, kelajak avlod egalari – yoshlar uchun ibrat ko‘zguisidir.

Adabiyotlar:

1. Keksalari e'zoz topgan yurt: metodik-bibliografik. qo'llanma Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015. – 90 b.
2. Чавычалова В.В. Индивидуально-психологические особенности адаптации человека к старости. М.2007.
3. Балтес П. Б. Всевозрастной подход в психологии развития: исследование динамики подъемов и спадов на протяжении жизни // Психол. журнал. - 1994.-Т.15-№1.
4. Шаповаленко И. В. Возрастная психология. - М.: Изд-во Гардарики, 2004.
5. Urazbaeva, D. (2023). Psixosomatik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik tadbirlar olib borish zarurati. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 1(2), 189-192.
6. Сайлаубековна Р.Р. и др. Сущность концепции семейной жизни в современной психологии // Excellencia: Международный мультидисциплинарный журнал образования (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 339-342.

STEM TA'LIM BO'YICHA JAHON VA MAHALLIY TAJRIBANI O'RGANISH

*Sadikova Yulduz Kamolovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
yulduzsadikova2305@gmail.com*

Ushbu maqolada STEAM, qo'shimcha sifatida STEM asosiy ta'lim dasturining majburiy qismi talabalarni o'qitishning yangi usuli va ta'limning yangi tendensiyasi ekanligi haqida fikr yuritilgan. Biroq hozirgi vaqtda STEM mutaxassislarini tayyorlash faqat Fransiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar. Ta'limdagi STEM texnologiyalari nafaqat materialni nazariy o'rganishni, balki amaliy qo'llashni ham nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: STEM, STEAM, texnologiya, PISA tadqiqotlari, Stem ta'limi, AQSH, Angliya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya.

ИЗУЧЕНИЕ МИРОВОГО И ОТЕЧЕСТВЕННОГО ОПЫТА В ОБЛАСТИ STEM-ОБРАЗОВАНИЯ

В этой статье речь идёт о том, что STEAM, как дополнение, являясь обязательной частью основной образовательной программы STEM, представляет собой новый способ обучения студентов и новую тенденцию в образовании. Однако в настоящее время обучение специалистов Stem осуществляется только во Франции, Великобритании, Австралии, Израиле, Китае, Канаде, Турции и ряде других стран. STEM-технологии в образовании предполагают не только теоретическое изучение материала, но и практическое применение.

Ключевые слова: STEM, STEAM, технологии, исследования PISA, STEM-образование, США, Англия, Китай, Юж. Корея, Сингапур, Турция.

OVERVIEW OF GLOBAL AND LOCAL EXPERIENCE IN STEM EDUCATION

This article discusses the fact that STEAM, as a supplement, being a compulsory part of the main STEM education programme, represents a new way of teaching students and a new trend in education. However, Stem education is currently only available in France, Great Britain, Australia, Israel, China, Canada, Turkey, Israel and a number of other countries. STEM-technologies in education assume not only theoretical study of the material, but also practical application.

Keywords: STEM, technology, PISA research, STEM education, USA, England, China, South Korea, Singapore, Turkey.

Kirish. Yaqin kelajakda insoniyat texnogen va ekologik ofatlarga duch kelishi mumkinligini anglagan davlatlar muammolarni hal qilishda yangi ijodiy yondashuvlar va ilmiy-texnik bilimlarga ega bo'lgan mutahassislarni tayyorlashga e'tibor qaratmoqdalar. Aholining keskin ko'payishi iqtisodiyotni raqamlashtirish va robotlashtirishni talab etadi bu esa o'z navbatida muhandis va dasturchilarga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. Bugungi kunda ta'limning eng zamonaviy va istiqbolli yondashuvi sifatida STEAM (STEM) ta'limi qaraladi. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati ta'limini ushbu yondashuv asosida olib boradi. YUNESKO bu masalalar va ehtiyojlarni tabiiy dunyo bilan munosabatlarga, shaxsiy va jamoaviy farovonlikka, adolatli va muvozanatli iqtisodiyotga hamda adolatli jamiyat uchun ta'limga asoslangan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlarini o'z ichiga olgan taklif atrofida birlashtirdi [6]. STEM/STEAM ta'limi Singapur va Yaponiya, Xitoy va Finlyandiya, AQSh va Kanadada milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Asosiy qism. Davlat rivojlanishining hozirgi bosqichidagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqchi. Ushbu o'zgarish ta'lim uchun qiyin vazifalarni qo'yadi yosh avlodni kelajakdagi jamiyatda yashashga tayyorlash, XXI asrda shakllangan asosiy vakolat va ko'nikmalarni talab qiladi, mutaxassislar uchun zarur bo'lgan noyob intellektual qobiliyatlar yuqori texnologiyali ishlab chiqarish. Zamonamizning o'ziga xos xususiyati o'zgarish sur'atlarining oshishi hisoblanadi. Biz maktablardan mutlaqo farq qiladigan dunyoda yashayapmiz va 15-20 yil o'qigan universitetlar. Dunyo o'zgarishi sur'atlari o'sib bormoqda. Bugungi maktab o'quvchilari hali ham mavjud bo'lgan kasblar bo'yicha ishlash yo'q, hali yaratilmagan texnologiyalardan foydalanish, biz taxmin qilishimiz mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish. O'quvchilarimiz ertaga muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun maktab ta'limi

ilg‘or rivojlanish maqsadlariga mos kelishi kerak. Bugungi kunda STEM ta‘limi kontseptsiyasi mamlakatning ko‘plab ta‘lim dasturlarida keng qo‘llaniladi, STEM markazlari tashkil etiladi, xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi va tarmoq uyushmalari tashkil etiladi. Bugungi kunga kelib, o‘qituvchilar Steamdan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar-bu o‘quv jarayonida afzalliklarga ega bo‘lgan ta‘lim qisqartmasi.

Biroq, “STEAM-Education” tushunchasini aniqlashga yagona yondashuv yo‘q. Steam ta‘limi, shu jumladan tarixiy nuqtayi nazardan. “Stem ta‘limi” atamasi qiyosiy fanlarda qo‘llanilgan, dastlab AQShda 1990-yillarda paydo bo‘lgan. Beshta integratsiya asosida talabalarni o‘qitish g‘oyasiga asoslanadi fan yo‘nalishlari (S-Science-nau ka, T-Technology-Technology, e- Engineering-in generiya, A-Art-Art, M-Math-matematika) va ularni atrofda dunyoning haqiqiy muammolariga asoslangan yaxlit ta‘lim paradigmasi.

Qozog‘iston ta‘lim sohasida so‘nggi yillarga qadar tabiiy-matematik va ijtimoiy maktablarda ixtisoslashtirilgan ta‘lim ustunlik qildi-gumanitar yo‘nalishlar. Muhandislik texnologik yo‘nalishi alohida fanlarda ko‘rib chiqilgan. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash sifatli transformatsiyaning asosi ekanligini hisobga olsak o‘quv jarayoni, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, uni samarali boshqarish, Stem ta‘limi o‘z rivojlanish yo‘lini topish, har bir o‘qituvchi uchun o‘z uslubiy tizimini yaratish imkonini berdi. Shuning uchun hozirgi bosqichda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini faol joriy etish ta‘lim muassasalari amaliyoti jamiyatning talabidir. STEM texnologiyalari asosida o‘rta ta‘lim mazmunini qayta qurishning ahamiyati ortib bormoqda. PISA tadqiqotlari asosida talabalarning savodxonligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning o‘quv dasturlari va kontseptsiyalari ko‘rib chiqildi. Tahlil davomida MDH mamlakatlarida STEM ta‘lim kontseptsiyasini ta‘lim standartlariga joriy etish bo‘yicha tizimli yondashuv hali ham mavjud emasligi aniqlandi, bu tendensiya uni federal davlat ta‘lim standartlariga kiritish orqali ayniqsa faol amalga oshirilmoqda. 2014-yildan boshlab Rossiya Federatsiyasida muhandislik ta‘limiga ustuvor ahamiyat berildi.

2019-yilda STEM yondashuvi talablarini hisobga olgan holda “Texnologiya” fan yo‘nalishi bo‘yicha yangi konsepsiya ishlab chiqildi. Qozog‘istonda STEM ta‘lim g‘oyalarini amalga oshirishda yagona yondashuv mavjud emas. Ba’zi xususiy maktablar va o‘rta ta‘lim maktablarida, asosan, “robotexnika” va laboratoriya ishlarining boshlang‘ich asoslarini o‘rganish bilan tavsiflangan yondashuvning STEM elementlari joriy etilmoqda.

AKTdan foydalanish va dizayn va tadqiqot usullarini o‘quv jarayonida qo‘llash. STEM sohasidagi ta‘lim birinchi marta yuqori texnologiyali va texnologik ishlab chiqarish sohasida mutaxassislarini tayyorlash uchun asos bo‘ldi, natijada AQSh, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil, Koreya kabi ko‘plab mamlakatlar, Singapur davlat o‘tkazmoqda. STEM ta‘lim sohasidagi dasturlar. 2016-yilda Amerikada u “Sun‘iy intellekt, avtomatlashtirish va Iqtisodiyot” (Sun‘iy intellekt, avtomatlashtirish va iqtisod) hisobot mazmunida keng qamrovli tahlil va aniq tavsiyalar federal hokimiyat va tarmoqlararo faoliyatni muvofiqlashtirishni yaxshilashga va sun‘iy intellekt, siyosat bilan bog‘liq masalalar, kibermakonni himoya qilishning muhim masalalari va takomillashtirilgan aniqlash tizimiga katta e‘tibor tufayli dastur hayotiy bo‘ldi. Zarur moliyaviy resurslar bilan ta‘minlangan. Ushbu strategik yondashuv Qo‘shma Shtatlardagi sun‘iy intellektning hozirgi holati, uning mavjud va potensial qo‘llanilishi hamda sun‘iy intellektidagi yutuqlar jamiyat, hukumat va uning siyosatiga ta‘sir qiladimi yoki yo‘qligi haqidagi savollarni o‘rganib chiqdi. Hukumatning ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish, turli mutaxassisliklar bo‘yicha malakali kadrlar va ishchi kuchini ko‘paytirish siyosati jadal kengayish bilan ijobiy natijalarga olib keldi.

Sun‘iy intellektidan foydalanish va uni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zarurati tegishli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan odamlarga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Sun‘iy intellekt jamiyati faollashtirilgan ma‘lumotlarni o‘qish, foydalanish, talqin qilish va uzatish qobiliyatiga ega bo‘lgan savodli aholini talab qiladi. Sun‘iy intellekt – ta‘lim va sun‘iy intellekt - federal ta‘limda o‘rin egallaydi, tabiiy fanlar kompleksidagi dasturlar. Fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematik (STEM) - bu bolalar bog‘chasidan tortib, barcha bolalar uchun ta‘limdir o‘rta maktab o‘quvchilari, informatika va texnologiyaga asoslangan dunyoda zarur bo‘lgan hisoblash fikrlash qobiliyatlari. Ushbu dastur o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun yangi standartlar, kurslar va investitsiyalar yaratishni qo‘llab-quvvatladi, shuningdek, talab qilinadi voqelikni yaratish uchun qo‘shimcha dasturlar va resurslar. Kompyuter fanini barcha bolalar uchun ochiq qilish qo‘shimcha kuch va mablag‘ talab qiladi.

Qo‘shma Shtatlarda STEM ta‘limining dolzarbligi 2013-yilda qabul qilingan STEM ta‘lim strategik rejasi bilan belgilanadi. Reja doirasida 2020-yilga qadar 100 ming yangi samarali mutaxassis tayyorlash rejalashtirilgan STEM o‘qituvchilari va mavjud o‘qituvchilar ishchi kuchini qo‘llab-quvvatlash. Yana bir maqsad – har yili o‘rta maktabga qabul qilingan o‘quvchilar ulushini 50 foizga yetkazish. Bundan tashqari, tomonidan kollej va universitet bitiruvchilari soni STEM mutaxassisliklarida 1 milliondan ortiq odam bor. Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasini o‘rganib, iqtisodiyoti rivojlangan ayrim mamlakatlar o‘zlarining

ta’lim sohalariga ushbu tendensiyani joriy qila boshladilar. Shunday qilib, ta’limga STEM yondashuvini joriy etish uchun asos bo’lgan omillar quyidagilardir:

1) AQSH Milliy fan fondining 2001-yildagi qarori;

2) 2011 yilda K. Shvab asos solgan 4-sanoat inqilobining boshlanishi. Hozirda AQSH, Angliya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya va boshqa rivojlangan davlatlar qabul qilingan davlat dasturlari asosida STEM ta’limini tizimli ravishda amalga oshirish. Germaniyada MINT dasturi (matematika, informatika, fan, texnologiya) mamlakat kansleri rahbarligida amalga oshirilmoqda. Malayziya va Avstraliya uchun hukumat dasturlari qabul qilingan STEM ta’limini rivojlantirish. Asosiy vazifalar – pedagog kadrlar tayyorlash, o’quvchilar qiziqishini oshirish, ta’lim muassasalari bilan biznes va ishlab chiqarish o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni ta’minlash. Talabalar ko’pincha nima uchun ma’lum bir formula yoki qonunlarni o’rganishlari kerakligini va bu ularga hayotda qanday yordam berishini tushunmaydilar. Ta’limga statsionar texnologiyalarni joriy etish tufayli maktab o’quvchilari nafaqat nazariyani o’rganishni, balki uni real loyihalarda sinab ko’rishni boshladilar.

Bu talabalarning qiziqishini oshirdi va o’zlashtirgan bilimlarini STEM zamonaviy texnologiyalar bilan uyg’un holda mustahkamladi interaktiv usullar va GIS AKTdan foydalanish. Fanlarni yaxlit o’qitish tamoyillarining asosiy maqsadi o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdir. Ta’lim jarayonining integratsiyalashuvini ta’minlashga imkon beradi o’quvchilarni o’qitish va tarbiyalash muammolarini sifatli hal qiladi, predmet ichidagi aloqalardan ko’p predmetli bog’lanishlarga olib boradi.

Mavjud yondashuvlarning xilma-xilligi bilan barcha tadqiqotchilar STEM ta’limi zamonaviy ta’limning hodisasi ekanligini ta’kidlaydilar, bu talabalarning tushunish sifatini oshirishni nazarda tutadi. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan bog’liq fanlar ham bu haqda turlicha qarashlar mavjud. Ba’zilar uning maqsadi talabalarni kasbiy muammolar va muammolarni hal qilish uchun olingan bilimlardan samaraliroq foydalanishga tayyorlashdir, deb ta’kidlaydilar. Yuqori darajada tashkil etilgan fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish, ikkinchisi rivojlanishda to’xtaydi STEM savodxonligini oshirishga qaratilgan STEM bo’yicha vakolatlar. STEM ta’limi bo’yicha muhokamalar asosan ma’lum fanlarni o’qitishni takomillashtirish zarurligini ko’rsatishga qaratilgan. Talabalarning xalqaro test sinovlari, ayniqsa, fan va matematika sohasida.

STEM yondashuvining ilgari nashr etilgan va amalga oshirilgan uslubiy paradigmalardan farqi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning shaxsiy-faoliyat va funksional-kompetentlik yondashuvlarini har tomonlama ko’rib chiqishdadir. STEM ta’limi tizimining barcha bosqichlarida alohida e’tibor talab qiladigan muhim va dolzarb masaladir. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, tayyor ma’lumotni tinglash eng samarasiz hisoblanadi o’rganish usullari. Bilimni boshdan boshqa mexanik usulda uzatish mumkin emas (o’rganishga o’xshaydi). O’qituvchining vazifasi talabani o’quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Talabalar o’rganishlari mumkin faqat sizni qiziqtirgan mavzudagi ma’lumotlar. Shuning uchun o’qituvchi ma’lumot berishda tashkiliy rol o’ynashi kerak.

STEM ta’limi - bu ifodalovchi innovatsion metodologiya tabiiy fanlarni texnika, texnologiya va matematika bilan uyg’unlashtirib o’qitishni o’z ichiga olgan to’laqonli tizimli ta’limdir. STEM ta’limining afzalliklari tanqidiy fikrlash, ilmiy va texnik bilimlardan kundalik hayotda foydalanish, faol muloqot va jamoaviy ish, texnik fanlarga qiziqishning ortishi, loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuv, ta’lim va martaba uyg’unligi. STEM ta’limining asosiy maqsadi talabalarning ixtirochilik yechimlari, tadqiqot xizmatlari va amaliy formatlardagi qobiliyatlarini namoyish etishdir. Kutilayotgan natija - talabalarning funksional savodxonligi, ularning hayoti va kasbiy istiqbollari, ishonchlari o’z kuchingiz bilan. Eng yaxshi STEM o’qituvchilari maqsadni nafaqat malakali ishchi kuchini shakllantirishda, balki o’quvchilarda “qattiq” va “yumshoq” ko’nikmalarni rivojlantirishda ham ko’rishadi [6].

STEM yondashuvi ta’limni o’zgartirishning eng muhim vositalaridan biridir. Ko’pgina davlat va xususiy ta’lim muassasalari ushbu konsepsiyani qabul qilmoqdalar va uning o’zi ta’lim standartlariga javob beradi. STEAM - STEMning tabiiy rivojlanishi-texnologiya va gumanitar fanlarni birlashtirgan yondashuv. STEM yondashuvi nafaqat o’qitish usuli, balki fikrlash usulidir. STEM ta’lim muhitida bolalar nafaqat bilim oladi, balki undan foydalanishni ham o’rganadi. Shunday qilib, ular ulg’ayganlarida va hayotda muammolarga duch kelishganda, Bu ifloslanish yoki global iqlim o’zgarishi, ular bunday murakkab muammolarni faqat birgalikda ishlash, turli sohalaridagi bilimlarga tayanish orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat bitta fan bo’yicha bilimga tayanish etarli emas. STEM bizni o’rganish va bilim haqida boshqacha fikr yuritishga o’rgatadi. Amaliy ko’nikmalarni o’z ichiga olgan holda, talabalar iroda, ijodkorlik, moslashuvchanlikni rivojlantiradilar va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o’rganadilar. STEM ta’limining afzalliklari:

- fanlar bo’yicha emas, balki fanlar bo’yicha integratsiyalashgan ta’lim;
- amaliy ilmiy-texnik bilimlar real hayot

-tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'ziga ishonchni shakllantirish

- faol muloqot va jamoada ishlash;

- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.

- loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar

- texnik motivatsiyani rivojlantirish har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali ijodkorlik;

- dastlabki bosqichlarda kasbga yo'naltirish;

- bolalarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash;

- STEAM, qo'shimcha sifatida STEM asosiy ta'lim dasturining majburiy qismi talabalarni o'qitishning yangi usuli va ta'limning yangi tendensiyasidir. Biroq, hozirgi vaqtda STEM mutaxassislarini tayyorlash faqat Frantsiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar. Ta'limdagi STEM texnologiyalari nafaqat materialni nazariy o'rganishni, balki amaliy qo'llashni ham nazarda tutadi. Finlyandiya STEM mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha Yevropada yetakchilardan biri hisoblanadi. Mamlakat maktablar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiradi, universitetlar, sanoat va biznes, maktab o'quvchilari uchun tadbirlar ishlab chiqish va o'qituvchilar tayyorlash.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, STEAM texnologiyasini ta'limda qo'llash, o'quvchilarni faolroq, qiziqarli va interaktiv tarzda ta'lim olishga undaydi. Bu STEAM texnologiyasini ma'lumotlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki ijodiy fikrlash, xotira va motivatsiyani rivojlantirishga ham yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida hikoya qilish jarayoni yanada boyitib, o'quvchilarga haqiqiy dunyo bilan bog'lanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham innovatsion va samarali ta'lim metodlarini qo'llash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Реструктуризация содержания среднего образования на основе STEM-технологии Национальная академия образования имени И. Алтынсарина. Алтынсарин, 2022. - 120 С.

2. Technology for Industry 4.0 //Scientific Dialogue. -2018. - No. 11. -P.322-332.

3. Modern technological education. Collection of articles and reports of the XXVI International Scientific and Practical conference, Moscow, 2020. 290 p.

4. Бейсембаев Г., Караев Ж. Актуальные проблемы трансформации системы среднего образования на основе STEM-похода, Білім-Образование. – № 3. – 2021 г. С. 33–61.

5. Рамазанов Р.Г., Годунова Е.А., STEM-образование: возможности и перспективы; // Открытая школа №1, 2021г., с.14-17.

6. Y.K.Sadikova Ta'limda STEAM yondashuv Илимий-методикалык журнал ISSN 2181-7138 3/3-сан 2024 июнь.

TURLI TA'LIM BOSQICHLARIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALAR KASBIY IDENTIFIKATSIYASINING XUSUSIYATLARI

Sadiyeva Sadoqat Alijonovna,

*University of business and science Nodavlat oliy ta'lim muassasasi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
sadiyeva91@list.ru*

Maqolada turli ta'lim sohalarida tahsil oluvchi talabalar kasbiy identifikatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu muammoning Oliy ta'lim muassasi talabalarining kasbiy faoliyatini rag'batlantirish kabi jihatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: *kasbiy faoliyat, kasbiy identifikatsiya, shaxsning kasbiy sohasi, kasbiy identifikatsiyasining tuzilishi, turli ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy identifikatsiya faoliyati.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА РАЗНЫХ ЭТАПАХ ОБУЧЕНИЯ

Статья посвящена изучению особенностей профессиональной идентификации студентов, обучающихся на разных этапах обучения. Особое внимание уделяется такому аспекту данной проблемы, как стимулирование профессиональной деятельности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: *профессиональная деятельность, профессиональная идентификация, профессиональная сфера личности, структура профессиональной идентичности, профессиональная идентификация учащихся на разных этапах обучения.*

FEATURES OF THE PROFESSIONAL IDENTITY OF STUDENTS AT DIFFERENT STAGES OF TRAINING

The article is devoted to the study of the features of the professional identity of students studying at different stages of education. Special attention is paid to such an aspect of this problem as stimulating the professional activity of students of higher educational institutions.

Keywords: *professional activity, professional identity, professional sphere of personality, structure of professional identity, professional identity of students at different stages of education.*

Kirish. Mamlakatimiz hayotining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ta'limning butun tizimini isloh qilish insonda shaxsiy printsiptni ozod qilish zarurligini tushunishga olib keldi. Shu munosabat bilan mehnat jarayoniga katta e'tibor qaraila boshlandi, ya'ni xodimning kasbiy tayyorgarligi – uni o'qishi, texnik va texnologik savodxonligi darajasini oshirishi, rag'batlantirishi, motivatsiya olishi va ijtimoiy nazoratda bo'lishidir. Hozirgi vaqtda kasbiy identifikatsiya yanada yaqinroq o'rganishni talab qiladi, chunki bir tomondan u kasbiy rivojlanish jarayonida shakllanadi, boshqa tomondan u professional shaxsni shakllantirishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Amaliy nuqtayi nazardan, bu shuni anglatadiki, yangi dinamik ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda "omon qolish", raqobatga dosh berish, yaqinlarining farovonligini va kelajakda o'zlarining barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy mutaxassis ijtimoiy va kasbiy muhitda o'z o'rnini doimiy ravishda rivojlantirish va tahlil qilishga qodir bo'lishi kerak.

Kasbiy identifikatsiya insonning kasbiy evolyutsiyasining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, shuningdek, o'zini professional va professional hamjamiyatning muhim a'zosi sifatida qabul qilish darajasini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda kasbiy identiklik bilan bog'liq masalalar o'rganish uchun ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki uni universitet ta'limi davrida rivojlantirish zarur bo'ladi.

Insonning kasbiy o'zini anglashi va o'zini o'zi faollashtirishi, uning eng muhim bosqichi talabalik yoshiga to'g'ri keladi, insonning o'ziga bo'lgan munosabatini rivojlantirishning uzoq jarayoni shaklida tavsiflanishi mumkin. Inson kasbiy mehnat subyekti sifatida faoliyatning maqsadlarini o'zi belgilaydi, ularga erishish yo'llari va vositalarini belgilaydi, uni amalga oshirish oqibatlarini uchun javobgardir. Talaba o'quv jarayoni, nazariy fanlarni o'rganish va amaliyot jarayoni subyekti pozitsiyasida bo'lishi kerak.

Asosiy qism. Kasb dunyosi va kasbiy o'ziga xoslikni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bu kasbning me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish, ularni shaxsning semantik sohasiga kiritishdir.

Shunday qilib, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash shaxsning semantik makonini rivojlantirish, kasbiy mavjudotning semantikasini to‘ldirish bilan chambarchas bog‘liq. Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash jarayonida shaxs kasbiy rivojlanishning keyingi yo‘llarini belgilaydi, uning o‘quv va kasbiy faoliyati natijalarini taxmin qiladi, kelajakdagi kasbga nisbatan maqsad va munosabatlarni shakllantiradi.

N. L. Ivanovanning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy o‘ziga xoslikni o‘rganishda bir qator qiyinchiliklar mavjud, ular quyidagilardan iborat: bir tomondan, kasbiy o‘ziga xoslik — bu shaxsiy ta‘lim, boshqa tomondan — ma‘lum bir odamlar guruhiga a‘zolik bilan bevosita bog‘liq, ya‘ni professional guruh, jamoa va boshqalar. [1]. Identifikatsiya jarayonida ma‘lum bir ijtimoiy toifaga mansubligini idrok etish ma‘lum bir qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan birga keladi. Kasbiy rivojlanish jarayonida odam o‘ziga oxshash, ko‘pincha o‘z kasbining ma‘lum kasbiy fazilatlariga ega bo‘lgan vakillari bilan o‘zini taqqoslasdi. Bundan tashqari, odam rivojlanishning muayyan bosqichlarida o‘zini professional deb bilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, “shaxsiy — ijtimoiy” davomiyligidagi kasbiy identiklik ko‘proq ijtimoiy qutbga yaqin va ijtimoiy o‘ziga xoslik xususiyatlariga ega, masalan, ijtimoiy guruhdagi o‘z taqdirini o‘zi belgilash, guruh a‘ziligini qabul qilish, shaxsni topish va o‘zgartirishda toifalarga ajratish va taqqoslash va boshqalar. Aksenova G. I. [2], talaba yoshini o‘rganib, talabalarining o‘quv va kasbiy faoliyatiga munosabati asosan ularning subyektiv pozitsiyasini shakllantirishini belgilagan. G. I. Aksenovanning fikriga ko‘ra, talaba shaxsining subyektiv pozitsiyasi tarkibiy jihatdan murakkab yaxlit tizimdir turli xil tarkibiy qismlarni va ular orasidagi o‘zaro ta‘sir usullarini birlashtiradi.

E. A. Klimov [3], Y. P. Povarenkov [4], V. D. Shadrikov [5] asarlarida professionalni shakllantirish muammolari ko‘rib chiqiladi va kasbiy o‘ziga xoslikni shakllantirish, universitetda o‘qish jarayonida o‘quv va kasbiy faoliyat bosqichlari, rivojlanish ta‘lim va kasbiy motivatsiya rivojlanishi, universitetda o‘qish bosqichida insonning kasbiy rivojlanish tendensiyalari ochib berilgan.

Turli bosqich talabalarida kasbiy identifikatsiyaning dinamikasini kuzatish uchun A.A.Azbel va A.G.Gretsovlarning “Kasbiy identifikatsiya xususiyatlarini o‘rganish” metodikasidan foydalanildi.

Statistik tahlillarning ko‘rsatishicha, talabalar kasbiy identifikatsiyasi 1-kursdan 4-kursgacha bo‘lgan o‘qish davrida bir qator o‘zgarishlarga uchrab, o‘ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega bo‘ladi. Empirik tadqiqotimizda birinchi kurs talabalar 879 nafarni, ikkinchi kurs talabalar 614 nafarni, uchinchi kurs talabalar 217 nafarni va to‘rtinchi kurs talabalar 67 nafarni tashkil qildi.

Talabalar kasbiy identifikatsiyasining ta‘lim bosqichlariga bog‘liqligini o‘rganish natijalari tahliliga ko‘ra bir qator ishonch darajasidagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval.

Talabalar kasbiy identifikatsiyasining ta‘lim bosqichlariga bog‘liqligini o‘rganish natijalari (Kruskal–Wallis H-mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha ranglar				H	p
	1-kurs (N=873)	2-kurs (N=614)	3-kurs (N=217)	4-kurs (N=67)		
Kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi	807,91	947,62	985,82	1015,54	42,23	0,000**
Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi	819,83	919,36	1043,62	931,94	38,72	0,000**
Kasbiy identifikatsiya moratoriysi (tanlov inqirozi)	918,87	859,41	867,83	760,25	9,69	0,021*
Shakllangan kasbiy identifikatsiya	938,61	864,56	734,77	886,70	29,49	0,000**

Izoh: * - $p < 0.05$; ** - $p < 0.01$

Kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi shkalasi natijalarini tahlilida ishonch darajasidagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi ($H=42,23$; $p < 0,01$). Natijalarga diqqat bilan qaraganimizda kasbiy identifikatsiyadagi noaniqlik to‘rtinchi kurs talabalarida eng yuqori darajaga yetishi aniqlandi. Kasbiy identifikatsiyaning noaniqligi kasbiy maqsadlar va rejalarga ega bo‘lmagan talabalarda namoyon bo‘ladi degan fikr keltirilgan, aynan to‘rtinchi kurs talabalarida kasbiy maqsadlarga nisbatan bir oz chekinish holatlari paydo bo‘lishi mumkin, chunki talabalik davri himoya ostida o‘zini qabul qilish jihatlari bilan bog‘liq, ulardagi bu holatlar himoyalanganlik hissini yo‘qotish, ya‘ni Yangi hayotga qadam qo‘yish jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababdan ham ularda kasbiy identifikatsiyadagi noaniqliklar ko‘payib ketgan bo‘lishi mumkin. Identifikatsiyadagi noaniqlikning eng past darajasi birinchi kurs talabalarida qayd etildi. Ulardagi noaniqlikning pastligi kelajak haqidagi fikrlarda ko‘tarinkilik, dadillik, o‘ziga ishonchning yuqori ekanligi bilan izohlanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Talabalar kasbiy identifikatsiyasining ta’lim bosqichlariga bog‘liqligini o‘rganish natijalari

Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi shkalasi bo‘yicha ham ishonch darajasidagi tafvutlar mavjudligi kuzatildi ($H=42,23$; $p<0,01$). Bu shkala uchinchi kurs talabalarida yuqori ekanligi aniqlandi. Uchinchi kurs talabalarida o‘zining professional yo‘lini tanlash vaqtida boshqa insonlar ta’siriga ko‘proq tushib qolishlari mumkin, ularda mustaqil fikrlash orqali emas, balki avtoritetga ega bo‘lganlar: ota-onalar yoki do‘stlarning fikrini tinglash orqali shu yechimga kelishadi. Uchinchi kurs talabalarida ma’lum bir muddat davomida bu ularga qulayliklarni yaratadi, ya’ni o‘z kelajagini o‘ylash hissiyotidan uzoqlashtiradi. Uchinchi kurs talabalarida kasbni tanlash o‘zlarini qiziqishlariga mos kelmasligini kuzatishimiz mumkin. Shu sababli ularda boshqalarga nisbatan kasbga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘ladi. Bu shkala bo‘yicha eng past natija birinchi kurs talabalarining natijalarida qayd qilinganligini kuzatdik. Ularda Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi darajasi past ekanligini aniqladik. Aksariyat birinchi kurs talabalarida talaba bo‘lganligidan xursand bo‘lib, eyforiya holatida bo‘ladilar va ularda kelajakka nisbatan umidsizlik kabi kayfiyatlar kuzatilmasligi mumkin.

Kasbiy identifikatsiya moratoriysi (tanlov inqirozi) shkalasi natijalarida ham ishonch darajasidagi tafvutlar mavjudligi aniqlandi ($H=9,69$; $p<0,05$). Bu natija birinchi kurs talabalarining natijalarida yuqori chiqqanligini kuzatishimiz mumkin. Birinchi kurs talabalarida kasbiy rivojlanishning muqobil variantlarini o‘rganayotgan bo‘ladilar va ular o‘z kelajagi to‘g‘risida mazmunli qaror qabul qilish orqali harakat qiladilar. Birinchi kurs talabalarida kasbiy rivojlanishning boshqa variantlari haqida ham o‘ylashadi, ular o‘zlarini turli xil professional kasblar orqali namoyon qilishga harakat qiladilar. Birinchi kurs talabalarida turli mutaxassisliklarga qiziqish holatlari paydo bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichning eng past natijasi to‘rtinchi kurs talabalarining natijalarida kuzatilganligiga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ularda Kasbiy identifikatsiya moratoriysi (tanlov inqirozi) pasayib boradi. To‘rtinchi kurs talabalarida aniq yo‘nalishlarga qaratilgan faoliyatlar namoyon bo‘ladi va shu sababli ham ularning natijalarida bir oz pasayish kuzatilishi mumkin. Ya’ni talabalarining kattalashishi bilan tanlov inqirozlari pasayib borish holatlari kuzatiladi.

Eng qiziq tafvut Shakllangan kasbiy identifikatsiya shkalasida kuzatildi ($H=29,49$; $p<0,01$). Bu shkaladagi natijalarning tahlilida birinchi kurs talabalarining ko‘rsatkichlari boshqa kurs talabalarini natijalaridan ko‘ra yuqori ekanligini aniqlandi. Bu kasbga nisbatan ongli qaror qabul qilish tushunchasini bildiradi. Ularda qabul qilingan qarorlarga nisbatan ishonch tuyg‘usi yaqqol shakllanganligini ko‘rish mumkin. Bunday xususiyatlar bilan “tanlov inqirozlar”dan o‘tganlar va bilimlar tizimida, kasbiy qadriyatlarda va mustaqil bilimlarga ega bo‘lgan sinalluvchilar ega bo‘ladilar. Biroq bizning natijalarimizda tanlov inqirozlari ham, kasbiy identifikatsiya ham birinchi kurs talabalarining natijalarida qayd qilinganligi bizni taajjubga soldi.

Xulosa. Yuqoridagi natijalarning tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, talabalardagi kasbiy bidentifikatsiya noaniqligi ko‘rsatgichi bo‘yicha olingan natijalar kurslar kesmida tafvut mavjud ekanligini ko‘rsatib, aynan to‘rtinchi kurs talabalarida bu ko‘rsatkich boshqa kurs talabalariga nisbatan yuqori ekanligi

kuzatiladi. Kasbiy identifikatsiyaning singdirilganligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar esa uchinchi kurs talabalarining natijalarida qayd qilindi. Birinchi kurs talabalarida olingan natijalarda kasbiy identifikatsiyaning monatoriysi va shakllangan kasbiy identifikatsiya xislatlari yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarda 3-bosqichga qadar kasbiy identifikatsiyaning o‘zgaralar tomonidan singdirilganlik darajasi ortib, shakllangan kasbiy identifikatsiya darajasi pasayib borishi, 4-kursga kelib esa mutlaqo teskari yo‘nalishdagi dinamik jarayonlar kuzatilishi namoyon bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Иванова, Н. Л. Профессиональная идентичность в социально-психологических исследованиях / Н. Л. Иванова. — Текст: непосредственный // Вопросы психологии. — 2008. — № 1. — 89–99 с.
2. Аксенова Г.И. Формирование субъектной позиции учителя в процессе профессиональной подготовки: дисс. д.п.н. – М., 1998. – 448 с.
3. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пос. для студ. вузов / Е.А. Климов. – 4-е изд., стер. – М., 2010. – 304 с.
4. Поваренков Ю.П. Психологическое содержание профессионального становления человека / Ю.П. Поваренков. – М.: УРАО, 2002. – 160 с.
5. Шадриков В.Д. Профессиональные способности / В.Д. Шадриков. – М.: Изд-во «Университетская книга», 2010. – 320 с.

**BO‘LAJAK KASB TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING O‘ZINI O‘ZI ANGLASHIDA
PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR**

*Saidova Gulchiroy Shokirovna,
Buxoro davlat universiteti*

Ushbu maqolada bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi anglash jarayonida psixologik mexanizmlar qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi. Refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish kabi jarayonlar o‘qituvchilikka tayyorgarlikda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda 100 nafar talaba ishtirok etdi va ular bilan so‘rovnomalar hamda testlar o‘tkazildi. Natijalar bo‘yicha, aksariyat ishtirokchilar o‘zini anglashda qiyinchiliklarga duch kelganligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni his qilganligi aniqlangan. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar yordamida ularning o‘zini o‘zi anglash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatildi. Maqolada o‘zini o‘zi anglash jarayonining ahamiyati va rivojlanish yo‘llari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zini o‘zi anglash, psixologik mexanizmlar, kasb ta‘limi, refleksiya, innovatsion yondashuvlar, o‘z-o‘zini baholash.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ САМОСОЗНАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

В данной статье анализируется роль психологических механизмов в процессе самореализации будущих учителей профессионального образования. Такие процессы, как размышление, самооценка и анализ отношений, важны в подготовке учителей. В исследовании приняли участие 100 студентов, с ними было проведено анкетирование и тестирование. По результатам было установлено, что большинство участников имели трудности с самосознанием и чувствовали неуверенность в себе. При этом было показано, что развивать навыки самосознания можно с помощью инновационных подходов. В статье рассматривается значение процесса самосознания и пути его развития.

Ключевые слова: самосознание, психологические механизмы, профессиональное образование, рефлексия, инновационные подходы, самооценка.

**PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE SELF-UNDERSTANDING OF FUTURE
VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS**

This article analyzes the role of psychological mechanisms in the process of self-realization of future vocational education teachers. Processes such as reflection, self-evaluation, and relationship analysis are important in teacher preparation. 100 students took part in the research, and questionnaires and tests were conducted with them. According to the results, it was determined that most of the participants had difficulties with self-awareness and felt insecure about themselves. At the same time, it was shown that it is possible to develop their self-awareness skills with the help of innovative approaches. The article discusses the importance of the process of self-awareness and ways of development.

Keywords: self-awareness, psychological mechanisms, professional education, reflection, innovative approaches, self-evaluation.

Kirish. O‘zini o‘zi anglash har bir insonning shaxsiy rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, ayniqsa, kasbiy faoliyatni tanlash jarayonida katta ahamiyatga ega. O‘zini o‘zi anglash insonning o‘z qobiliyatlarini, qiziqishlarini va hayotdagi maqsadlarini chuqurroq tushunishga olib keladi, bu esa kelajakda kasbiy muvaffaqiyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari uchun o‘zini o‘zi anglash jarayoni ularning pedagogik faoliyatining samaradorligini oshiradi va ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradi. Ta‘lim tizimi doirasida o‘qituvchilar o‘zlarini qanday anglashlari va o‘z kasblariga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishi masalasi dolzarb hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik ta‘lim jarayonida, nafaqat nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar, balki ularning shaxsiy xususiyatlari va o‘ziga xos qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shu bilan birga, bu jarayon, ko‘pincha, o‘z-o‘zini anglash va o‘z qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tangirkulova (2023) ta‘kidlaganidek, kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘qituvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish juda muhimdir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z-o‘zini anglash jarayonida psixologik mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar

shaxsning ichki dunyosini chuqurroq tushunishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Psixologik mexanizmlar, masalan, refleksiya, o'z-o'zini baholash, o'zaro munosabatlarni tahlil qilish va hayotiy tajribalarni qayta ko'rib chiqish orqali amalga oshadi. Bu jarayonlar orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z shaxsiy xususiyatlari va pedagogik uslublarini anglab yetadilar.

Dilmurodova va Saidova (2023) o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ta'limning turli shakllari va turlari o'ziga xos ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, kasbiy ta'limni samarali tashkil etish uchun, o'qituvchilarga o'z-o'zini anglashga yordam beradigan psixologik mexanizmlarni inobatga olish kerak. O'quv jarayonida o'zini anglash orqali o'qituvchilar nafaqat o'z shaxsiy sifatlarini rivojlantiradilar, balki ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadilar. O'zini o'zi anglash jarayonida innovatsion yondashuvlarning ham ahamiyati katta. Shodiyorov va boshqalar (2024) innovatsion ta'lim usullari orqali o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotiga ko'ra, o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatlarini zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida samarali tashkil etib, o'zlarini va o'z kasblarini yanada chuqurroq anglay oladilar. Umuman olganda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun o'z-o'zini anglash va kasbiy faoliyatga yo'naltirishning ahamiyati katta. Bu jarayon, nafaqat ularning shaxsiy va professional rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga olib boradigan yo'nalishni ham belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tangirkulova (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda xalq ta'limi tizimida o'qituvchilarning kasb-hunarga yo'naltirilishida qo'llaniladigan samarali usullar o'rganilgan. Ushbu tadqiqot bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zlarini anglash jarayonida psixologik yondashuvlarning roli haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Muallif, kasb-hunar yo'nalishini to'g'ri tanlash va o'qituvchilarga ushbu jarayonda yordam berish orqali ularning muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Dilmurodova va Saidova (2023) tomonidan ta'limni tashkil etish shakllarining psixologik aspektlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda ta'kidlanganidek, o'qituvchilar uchun o'z-o'zini anglashni rivojlantirish jarayonida ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish muhimdir. Mualliflar, o'qituvchilarning o'zlarini anglashida refleksiya va o'z-o'zini baholash kabi psixologik mexanizmlarning o'rni borasida yangi yondashuvlarni taklif qiladilar. Shodiyorov va boshqalar (2024) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda innovatsion ta'limning zamonaviy usullari va ularning o'qituvchilar o'zini anglashidagi ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion uslublar orqali o'qituvchilar pedagogik jarayonlarda zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llab, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar va o'zlarini kasbiy jihatdan anglashga erishadilar. Ushbu tadqiqotlar o'qituvchilarning o'z-o'zini anglash jarayonida psixologik mexanizmlar va innovatsion yondashuvlarning qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunishga yordam beradi.

Metodlar. Ushbu tadqiqot bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zini o'zi anglash jarayonida psixologik mexanizmlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda so'rovnomada usuli qo'llanildi, bunda 2023-2024-o'quv yilida pedagogik ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan 100 nafar talaba ishtirok etdi. So'rovnomada o'zini o'zi anglash, o'zaro munosabatlarni baholash, refleksiya va o'z-o'zini baholash kabi psixologik mexanizmlar bo'yicha savollar berildi. Shu bilan birga, talabalar ta'lim jarayonida o'zlarini anglash darajasini aniqlash uchun maxsus psixologik testlar bilan ham baholandi. Tadqiqotda sifatli tahlil usuli qo'llanib, olingan ma'lumotlar statistik tahlillar yordamida umumlashtirildi. Natijalar oddiy matematik metodlar bilan o'rtacha ko'rsatkichlar, foizlar va dispersiya tahlillari yordamida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari bo'yicha bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'zini o'zi anglash jarayonida psixologik mexanizmlar qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Ishtirokchilarning o'zini o'zi anglash jarayonidagi asosiy mexanizmlar refleksiya, o'zini baholash va o'zaro munosabatlarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, ular o'qituvchilik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. So'rovnomada natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 65 foizi refleksiyaning, ya'ni o'z fikrlari, xatti-harakatlari va o'ziga nisbatan baholarni tahlil qilish jarayonini asosiy psixologik mexanizmlardan biri deb biladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning o'zlariga tahliliy yondashishlari va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'zlarini to'g'ri baholash imkonini beradi.

O'z-o'zini baholashning ahamiyati esa ishtirokchilarning 45 foizi tomonidan qayd etilgan bo'lsa, 38 foizi o'zaro munosabatlarni tahlil qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar nafaqat o'zlarini anglashlari kerak, balki o'z atrofida bilan o'zaro munosabatlarni ham to'g'ri baholashlari muhimdir. Psixologik jihatdan rivojlangan o'qituvchi o'qituvchilar va boshqa hamkasblar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'quv jarayonida yaxshi natijalarga olib keladi. Ishtirokchilar orasida o'zini anglash darajasi past bo'lganlar 27 foizni tashkil etdi. Ushbu guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining qobiliyatlari va pedagogik imkoniyatlariga nisbatan past ishonchni bildirganlar. Bu ko'rsatkich pedagogik ta'lim jarayonida o'zini anglashning rivojlanishi va psixologik yondashuvlarning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning 57 foizi kasbiy faoliyatini rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta’kidlagan. Bu ishtirokchilar o‘zlarini kasbiy faoliyatga tayyor ekanliklariga ishonchsizlik his qilganliklarini ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkich psixologik mexanizmlarni, xususan, o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish zaruratini anglatadi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning 70 foizi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar yordamida o‘zlarini kasbiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanliklarini bildirdi. Bu ko‘rsatkich Shodiyorov va boshqalarning (2024) tadqiqot natijalari bilan mos keladi, chunki ularning ishida innovatsion ta’lim usullari o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

O‘qituvchilarning refleksiya darajasini aniqlash uchun o‘tkazilgan test natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning o‘rtacha bali 68 ballni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z-o‘zini anglash jarayonida hali ko‘p ishlar qilinishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, talabalar orasida yuqori refleksiya qobiliyatiga ega bo‘lganlar 22 foizni tashkil qildi, ular o‘z pedagogik qobiliyatlariga nisbatan yuqori ishonch bildirganlar. Bu guruh talabalari pedagogik faoliyatni rejalashtirish va o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘zlarini samarali baholash qobiliyatiga ega ekanliklarini ta’kidlagan. O‘rtacha darajada refleksiya qiladigan talabalar ulushi esa 51 foizni tashkil qildi. Ular o‘z faoliyatini tahlil qilishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo‘lsalar ham, o‘zlarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda psixologik mexanizmlar yordamida rivojlanish imkoniyatlariga ega ekanliklarini ko‘rsatdilar. Yuqoridagi natijalar bo‘yicha o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish va refleksiya qilish qobiliyatlari o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Talabalar ta’lim jarayonida o‘zlarini anglash orqali nafaqat o‘z kasbiy sifatlarini, balki o‘zaro munosabatlarni ham rivojlantirishi mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, pedagogik faoliyatning ilk bosqichlarida katta yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida psixologik mexanizmlarni samarali qo‘llash ularning kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash esa bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularni yanada samarali pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini anglash va psixologik yondashuvlarning samaradorligi o‘qituvchining kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi anglash jarayonida psixologik mexanizmlar muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish kabilar talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishida asosiy omillar ekanligi qayd etildi. Natijalar ko‘rsatdiki, aksariyat ishtirokchilar o‘zlarini anglashda qiyinchiliklarga duch kelgan, bu esa ta’lim jarayonida ularning psixologik jihatdan to‘liq tayyor emasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘ziga ishonchsizlik va kasbiy faoliyatni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar o‘qituvchilikka tayyorgarlik jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashning zarurligini ta’kidlaydi. Innovatsion texnologiyalar va uslublar bu jarayonda sezilarli darajada yordam berishi mumkin. Shodiyorov va boshqalar (2024) innovatsion ta’limning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi rolini tasdiqlaydilar, bu esa ushbu texnologiyalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarlikda qo‘llanilishi zarurligini ko‘rsatadi. Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, o‘zini o‘zi anglash jarayonida talabalarga individual yondashuv zarur. Har bir talabaning psixologik rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi turlicha bo‘lganligi sababli, ularning refleksiya va o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi anglash jarayonida psixologik mexanizmlarni rivojlantirish ularning professional muvaffaqiyatlari uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish kabilar o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ammo bu jarayonlarda o‘quvchilar ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelganliklari va kasbiy rejalashtirishda o‘zlariga bo‘lgan ishonchsizlikni his qilganliklari ko‘rsatildi. Tadqiqotda, shuningdek, o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi uchun innovatsion yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ta’lim usullari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy qobiliyatlarini yaxshiroq anglaydilar va pedagogik jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishadilar. Shodiyorov va boshqalar (2024) tomonidan ta’kidlanganidek, bu usullar pedagogik rivojlanishda o‘qituvchilarni yangi darajaga olib chiqishi mumkin. Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zini o‘zi anglash jarayonini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida ularning individual psixologik ehtiyojlariga moslashgan maxsus dasturlarni joriy etish zarur. Bu esa ularning kasbiy va shaxsiy sifatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Tangirkulova I. G. (2023). Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning samaralari usullari. // *Scientific Impulse*, 1(10), 1408-1410.
2. Dilmurodova S., & Saidova S. (2023). Ta’limni tashkil etish turlari va shakllari.// *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 16(3), 69-71.
3. Shodiyorov A., qizi Toshquvatova X. A., & Djamalidinova S. O. (2024). Innovatsion ta’lim–zamonaviy o‘qitish asosi. // *Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 2(2), 127-136
4. Nurullayevna B. N. (2024). Talabalar ilmiy-ijodiy faoliyati xususiyatlari. // *INNUC*, 2(2), 241-247.
5. Xo‘shboqovna A. S. (2024). Boshlang ‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatishning ilmiy pedagogik asoslari. // *Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 491-493.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR PEDAGOGIK SALOHİYATINI
NAZARIY VA AMALIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA
MAHORAT DARSLARINING AHAMIYATI**

*Salomov Fuzuli Jamolovich,
Buxoro innovatsiyalar universiteti II kurs magistranti*

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyatini o'rganadi. Maqolada mahorat darslarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ularning talabalar uchun pedagogik bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashdagi roli yoritiladi. Talabalar pedagogik salohiyatini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar va metodikalarning samaradorligi, shuningdek, mahorat darslari orqali pedagogik ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maqola o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va pedagogik kadrlarni tayyorlashda mahorat darslarining rolini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

***Kalit so'zlar:** mahorat darslari, pedagogik salohiyat, oliy ta'lim, pedagogik ko'nikmalar, innovatsion yondashuvlar, metodikalar, amaliyot, ta'lim samaradorligi, pedagogik kadrlar, talabalarning rivojlanishi.*

**ЗНАЧЕНИЕ МАСТЕР-КЛАССОВ В ТЕОРЕТИЧЕСКОМ И ПРАКТИЧЕСКОМ
РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ
В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

Эта статья исследует значение мастер-классов в развитии педагогического потенциала студентов в высших учебных заведениях. В статье анализируются теоретические и практические аспекты мастер-классов и их роль в укреплении педагогических знаний и навыков студентов. Обсуждается эффективность инновационных подходов и методик в развитии педагогического потенциала студентов, а также возможности применения педагогических навыков на практике посредством мастер-классов. Статья подчёркивает необходимость расширения роли мастер-классов для повышения эффективности учебного процесса и подготовки педагогических кадров.

***Ключевые слова:** мастер-классы, педагогический потенциал, высшее образование, педагогические навыки, инновационные подходы, методики, практика, эффективность обучения, педагогические кадры, развитие студентов.*

**THE IMPORTANCE OF MASTER CLASSES IN THE THEORETICAL AND PRACTICAL
DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL POTENTIAL OF STUDENTS
IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

This article explores the significance of master classes in developing the pedagogical potential of students in higher education institutions. The article analyzes the theoretical and practical aspects of master classes and their role in strengthening students' pedagogical knowledge and skills. The effectiveness of innovative approaches and methodologies in developing students' pedagogical potential, as well as the opportunities for applying pedagogical skills in practice through master classes, are discussed. The article emphasizes the necessity of expanding the role of master classes to enhance the effectiveness of the learning process and in the preparation of pedagogical staff.

***Keywords:** master classes, pedagogical potential, higher education, pedagogical skills, innovative approaches, methodologies, practice, learning effectiveness, pedagogical staff, student development.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini rivojlantirish har bir o'quv jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlashni, balki amaliy ko'nikmalarni egallashni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik salohiyatni rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyati katta bo'lib, ular talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Mahorat darslari orqali talabalar pedagogik faoliyatni yanada chuqurroq o'rganib, o'zlarining pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim tizimida o'quvchilarni zamonaviy yondashuvlar asosida tarbiyalash, ularni amaliy faoliyatda faol ishtirok etishga rag'batlantirish alohida o'rin tutadi. Bu borada innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash, talabalarning pedagogik salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Mahorat darslari bu jarayonni eng samarali tarzda tashkil etishga yordam beradi, chunki ular talabalarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham tayyorlaydi.

Shu bilan birga, mahorat darslari o'quvchilarga nafaqat o'z kasbiy mahoratini rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Talabalar o'z pedagogik ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish, turli pedagogik texnikalar va metodlarni amaliyotda qo'llash orqali o'z salohiyatlarini mukammallashtiradilar. Shu sababli, mahorat darslarining o'quv jarayonidagi o'rni va ularning pedagogik ta'limdagi ahamiyatini chuqurroq o'rganish talabalar ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini rivojlantirishda mahorat darslarining rolini o'rganadi, ularning amaliy va nazariy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada mahorat darslari orqali pedagogik ko'nikmalarni oshirishning samaradorligi, shuningdek, innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish orqali talabalar ta'limining sifatini yaxshilash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyati haqidagi adabiyotlar tahlili pedagogik ta'limning turli yondashuvlari, metodlari va ularning samaradorligini o'rganishga asoslangan. Pedagogik salohiyatni rivojlantirishda mahorat darslari muhim pedagogik vosita sifatida qabul qilinadi, chunki ular nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'laydi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari va innovatsion metodlarining o'quv jarayonidagi roli kengayib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili

1. Pedagogik salohiyatni rivojlantirishning ahamiyati

Pedagogik salohiyatni rivojlantirish talabalarning ta'lim va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, mahorat darslari nafaqat pedagogik bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Joriy pedagogik yondashuvlar va metodlar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallashadi, balki o'zlarining pedagogik faoliyatida qo'llash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

2. Mahorat darslarining nazariy jihatlari

Mahorat darslari nazariy jihatdan talabalarning mustahkam pedagogik bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Darslar, asosan, metodologik bilimlarni to'g'ri tanlash, o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Mahorat darslarida ko'pincha o'quvchilarga pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va boshqa metodik vositalar o'rgatiladi. Bu orqali talabalar o'z pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlarni qo'llashga o'rgatilib, bilim va ko'nikmalarni amaliyotda mustahkamlash imkoniyatini topadilar.

3. Mahorat darslarining amaliy jihatlari

Mahorat darslarining amaliy jihatlari talabalarning o'z pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliyotda talabalar pedagogik ko'nikmalarni o'rganib, o'zlashtirgan nazariy bilimlarini kundalik ta'lim jarayonida ishlatadilar. Mahorat darslarida o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan metodikalar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ijodkorlikni shakllantirishga va ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda yordam beradi. Mahorat darslari davomida talabalar o'zlarini o'qituvchi sifatida sinovdan o'tkazadilar, pedagogik metodlarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar[5;298].

Metodlar.

1. Interfaol metodlar

Mahorat darslarida talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, guruh bo'lib ishlashlari va turli pedagogik vazifalarni bajarishlari uchun interfaol metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Interfaol metodlar, masalan, ro'l o'ynash, guruh ishlari, debatlar va boshqalar orqali talabalar ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Innovatsion metodlar

Mahorat darslarida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning pedagogik faoliyatni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganishlarini ta'minlaydi. Bunday metodlar, masalan, onlayn ta'lim, o'quv simulyatsiyalari, interaktiv ta'lim vositalari kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu metodlar talabalar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni kiritishga yordam beradi va ularning pedagogik salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

3. Amaliyotga asoslangan o'qitish

Mahorat darslarida o'quvchilarga pedagogik faoliyatni real sharoitda qo'llash imkoniyatini yaratish uchun amaliyotga asoslangan o'qitish metodlari qo'llaniladi. Bu metod orqali talabalar o'z bilimlarini amalda qo'llashadi, pedagogik vazifalarni hal qilishda muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Amaliyot

orqali talabalar o‘zlarini o‘qituvchi sifatida sinovdan o‘tkazadilar va pedagogik vazifalarni mustahkam bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[4;76].

Natijalar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyatini o‘rganishning natijalari quyidagi asosiy jihatlarga to‘xtalish imkonini beradi:

1. Pedagogik salohiyatni rivojlantirishda mahorat darslarining roli Mahorat darslari talabalar uchun pedagogik bilimlarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon talabalarning pedagogik ko‘nikmalarini mustahkamlash, o‘qitish usullarini amalda qo‘llash va muammolarni hal qilishda ularga yordam beradi. Talabalar o‘zlarini kelajakda pedagog sifatida sinovdan o‘tkazib, pedagogik jarayonlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

2. Pedagogik ko‘nikmalarni mustahkamlash. Mahorat darslari davomida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni olishadi, balki amaliyotda qo‘llash orqali o‘z pedagogik ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. O‘qitishning turli metodlarini, shu jumladan interfaol va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali talabalar o‘z salohiyatini rivojlantiradilar. Bunda talabalarning ijodiy fikrlash va analitik ko‘nikmalarini shakllantirish, samarali o‘qituvchilik metodlarini joriy qilishni o‘rganish katta ahamiyatga ega.

3. Innovatsion metodlarning samaradorligi. Mahorat darslarida innovatsion metodlarni qo‘llash talabalarning pedagogik jarayonlarga nisbatan yangi yondashuvlarni o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Onlayn ta’lim, interaktiv ta’lim vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalar uchun samarali o‘quv muhiti yaratadi. Bu metodlar nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun ham pedagogik yondashuvlarni yangi shakllarda o‘rganishga imkon beradi.

4. Interfaol metodlar orqali talabalar faolligining oshishi. Mahorat darslarida interfaol metodlarning qo‘llanilishi talabalar faolligini oshiradi. Guruh ishlari, ro‘l o‘ynash, debatlar kabi metodlar talabalarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, boshqa fikrlarni tinglashga va o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu metodlar orqali talabalar o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlanadilar, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rganadilar.

5. Pedagogik amaliyotlar bilan integratsiya. Mahorat darslarining samaradorligini oshirishda amaliyot bilan nazariy bilimlarni integratsiyalash zarur. Mahorat darslari davomida talabalar pedagogik bilimlarni real sinovlardan o‘tkazib, pedagogik faoliyatning turli tomonlari bilan tanishadilar. Bu jarayon talabalar uchun ko‘proq mustahkam pedagogik ko‘nikmalarni egallash imkonini yaratadi[2;256].

Muhokama. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu maqolada ta’kidlanganidek, mahorat darslari pedagogik bilimlarni nafaqat o‘rganish, balki amaliyotda qo‘llash uchun muhim imkoniyat yaratadi. Bu jarayon talabalarning kelajakdagi pedagog sifatida faoliyat yuritishga tayyorligini oshiradi va o‘qituvchilik salohiyatlarini mustahkamlaydi.

Birinchi navbatda, mahorat darslarining samaradorligi nafaqat o‘qituvchilarni, balki talabalarni pedagogik metodlarni ishlab chiqish va ularni turli muhitlarda qo‘llashga o‘rgatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, talabalarning ta’limdagi ijodiy fikrlash, kommunikativ va analitik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlar nafaqat talabaning o‘quv faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi, balki o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi[3;156].

Shu bilan birga, mahorat darslarining samaradorligini oshirishda metodik yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik amaliyotga asoslangan metodlar talabalar uchun ta’lim jarayonida o‘zaro muloqot qilish, ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash va o‘quv jarayonini sinchiklab o‘rganish imkonini yaratadi. Mahorat darslarida innovatsion metodlarning qo‘llanilishi, ayniqsa interfaol va amaliy metodlar talabalarga o‘z bilimlarini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni o‘rgatadi.

Biroq, mahorat darslarining samaradorligi to‘liq ta’minlanishi uchun bir qancha muammolar ham mavjud. Masalan, ba’zi oliy ta’lim muassasalarida amaliyotning yetarlicha rivojlanmaganligi, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqotning yetishmasligi, shuningdek, pedagogik metodlarning zamonaviy talabalar asosida yangilanmasligi. Bu omillar mahorat darslarining samarali tashkil etilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Mahorat darslarining samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchilarning pedagogik malakasini oshirish, ularning innovatsion metodlar va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishini ta’minlash zarur. Shuningdek, ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash va talabalar uchun didaktik materiallar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish muhimdir.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida amaliyot va nazariy bilimlarni integratsiyalash talabalarga o‘z pedagogik salohiyatini oshirishga imkon beradi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyati, ayniqsa, talabalar uchun ularning pedagogik faoliyatini real sharoitda amalga oshirishga tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Shu sababli, mahorat darslari oliy ta’lim tizimida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Ular talabalar uchun pedagogik ko’nikmalarni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar va metodlarni qo’llash imkoniyatlarini yaratadi.

Mahorat darslarining samarali tashkil etilishi va innovatsion pedagogik metodlarni qo’llash, o’qituvchilar va talabalar o’rtasida samarali muloqotni rivojlantirish orqali, ta’lim tizimi sifatini yanada yaxshilash va o’quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin[1;90].

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar pedagogik salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda mahorat darslarining ahamiyati katta. Mahorat darslari nafaqat talabalarning pedagogik ko’nikmalarini mustahkamlash, balki ularni o’qituvchilik faoliyatiga tayyorlashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan natijalarga asosanib, mahorat darslarining talabalar uchun pedagogik bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatini yaratishi, ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi ta’kidlandi.

Mahorat darslarining samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlarning qo’llanilishi talabalarning faolligini oshiradi, ularning pedagogik faoliyatga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, amaliyot va nazariy bilimlarni integratsiyalash talabalarning pedagogik ko’nikmalarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Biroq, mahorat darslarining samarali amalga oshirilishi uchun ba’zi muammolarni hal etish zarur. O’qituvchilarning metodik malakasi va ta’lim muassasalaridagi resurslarni yangilash, pedagogik amaliyotlar va metodlarni zamonaviy talabalar asosida o’zgartirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin.

Shu bois, mahorat darslarini rivojlantirish va ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo’llash, talabalar pedagogik salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. O’qituvchilar va talabalar o’rtasidagi samarali muloqot, ta’lim jarayonining sifatini yaxshilash va kelajakdagi pedagogik kadrlarni tayyorlashda mahorat darslarining roli yanada muhim bo’lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Marmozov Sh., Yusupov S. “Pedagogik mahoratni rivojlantirish” – T.: Ta’lim, 2017 yil.
2. Karmonaev N. “Oliy ta’limda pedagogik metodlar va texnologiyalar” – T.: O’qituvchi, 2020 yil.
3. Abdullaev A., Abdullaeva S. “Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik metodlar” – T.: Fan, 2018 yil.
4. Akilov B., Yuldoshev R. “Mahorat darslari va innovatsion pedagogik texnologiyalar” – T.: Fan, 2021 yil.
5. Bakhtiyorov R. “Pedagogik malakani oshirishning innovatsion yondashuvlari” – T.: Sharq, 2019 yil.

AUDITORIYADAN TASHQARI JARAYONDA TALABALAR UMUMKASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna,
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD
hulkaryulduzi81@gmail.com

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining tarbiyaviy faoliyat jarayonida, ya'ni auditoriyadan tashqari faoliyatda umumkasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga doir nazariy va innovatsion tendensiyalar haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: talaba, talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, auditoriyadan tashqari faoliyat, umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, tarbiyaviy ishlarning turli-tuman turlari va shakllari, talabalarining umumkasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining o'ziga xosliklari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ВНЕАУДИТОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье описаны теоретические и инновационные тенденции формирования общепрофессиональных компетенций студентов высших учебных заведений в процессе учебной деятельности, то есть в деятельности вне аудитории.

Ключевые слова: студент, подготовка студентов к учебной деятельности, деятельность вне аудитории, формирование общепрофессиональных компетенций, различные виды и формы воспитательной работы, особенности процесса формирования общепрофессиональных компетенций студентов.

THEORETICAL FRAMEWORK FOR THE DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCIES OF STUDENTS OUTSIDE THE CLASSROOM

This article describes the theoretical and innovative trends in the formation of general professional competencies of students of higher educational institutions in the process of educational activities, that is, in activities outside the classroom.

Keywords: student, preparing students for educational activities, activities outside the classroom, the formation of general professional competencies, various types and forms of educational work, features of the process of developing general professional competencies of students.

Kirish. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish masalasiga alohida urg'u berilmoqda.[1]

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlarni bunga misol qilish mumkin.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Asosiy qism. Ma'lumki, talabalar maxsus ijtimoiy mobil guruh bo'lib, oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan odamlarning o'ziga xos jamoasidir. U oliy maktabda ta'lim olish jarayoniga hamda kasb egallashga aksiologik munosabatini belgilovchi o'ziga xos, aniq xususiyatlarga ega bo'ladi.

Talabalar yoshlar jamoasining bir bo‘lagi bo‘lib, hayotning, mehnat va turmush sharoitlarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy xulq-atvor va psixologiyasi, qadriyat yo‘nalishlari tizimi bilan ajralib turadigan o‘ziga xos ijtimoiy guruhdir.

Talaba so‘zi lotincha so‘zdan olinib, “studens, studentis” – mehnatkash, shug‘ullanuvchi degan ma‘noni anglatib, oliy, ayrim mamlakatlarda o‘rta ta‘lim muassasasi o‘quvchisi sanaladi. Qadimgi Rimda va o‘rta asrlarda bilim olish jarayonining har qanday shaxsi “talaba” deb atalgan.

Talaba – (arab. izlovchi, o‘rganuvchi), student – O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasasi, AQSH, Buyuk Britaniya kabi ayrim mamlakatlarda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti o‘quvchisi sanaladi.

Talabalar oliy ta‘lim tizimida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va ziyolilarning ijtimoiy rolini bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruhdir.

A.Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da, talaba – so‘rovchilar, talab qiluvchilar; o‘quvchilar, deb keltiriladi. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti o‘quvchisi. Madrasa talabalari “a‘lo”, “avsat” va “adno” deb uch guruhga bo‘lingan.[4]

Talabalar harakat va faollikka ega bo‘lgan to‘la huquqli, mustaqil, ijtimoiy-madaniy jamoadir. Talabalar jamiyatning eng harakatchan bo‘lagi bo‘lib, u o‘z atrofidagi kichik o‘zgarishlarga, siyosiy va iqtisodiy transformatsiyalarga tez munosabat bildiradi hamda fan, ta‘lim va madaniyatdagi yangiliklarni tezda qabul qiladi.

Talabalik yillarida shaxsning ijtimoiy yetukligi faollashadi, bu har bir yoshning jamiyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy rollar majmuasini o‘zlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Talabalar jamoasining ijtimoiy tarkibi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o‘zida aks ettiradi.

Hozirgi zamon talabalarining ijtimoiy - madaniy imkoniyatlari boshqa yoshlar guruhiga qaraganda o‘z xatti-harakatini rejalashtirish uchun kengroq imkoniyatga egadir. Talabalarining aksariyati “hayot dasturlari”ni, jumladan kasbiy faoliyatining istiqbol rejasini va o‘z hayotlarini turli tomonlama shaxsiy rivojlantirishga qodir sanaladi.

Muhokama va natijalar. Uchinchi Renessans sharoitida mamlakatimiz talaba-yoshlarini umumkasbiy kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ularda ilm olishga va ilm bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish bugungi shiddatli davrning muxim vazifalaridan biridir.

Respublikamizda ta‘lim sohasini modernizatsiyalash talaba-yoshlarning intellektual va ma‘naviy barkamol o‘sishini nazarda tutadi. Bu esa talabalarda demokratik tamoyillarni anglash malakalarini shakllantiradi. Talabalarda tashkiliy, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, ularda kasbiy rivojlanish elementi sanaladi.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarini pedagogik mahorat sirlaridan boxabar etishimiz bilan bir qatorda, ularni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita tarbiyaviy muammolarni ham, ya‘ni, talabalarining tarbiya jarayonidagi faoliyati, ularning tarbiyaviy faoliyatga ilmiy-nazariy jihatdan yondashuvini takomillashtirish ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun esa biz tarbiyaviy ishlarni tizimli tahlil eta olishimiz ya‘ni, talabalarining tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini yaratishimiz zarur.

Respublikamizda oliy ta‘lim tizimini isloh qilishga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga takomillashib borayotgani hech kimga sir emas albatta. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida ko‘rsatilgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, ta‘limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash masalasi bayon etilgan.[2] Shuningdek, yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish aniq maqsad sifatida kiritib o‘tilgan. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashda oliy talim muassasalarining ta‘siri kattadir. Oliy talim muassasalarining ma‘naviy-tarbiyaviy faoliyatini tashkiliy ishlarida talaba-yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish kabi tarbiyaviy faoliyat bo‘lg‘usi pedagoglarda kelajakda jamiyat muammolarini kasbiy burch sifatida bartaraf etishi hamda o‘z gardaniga olishi shakllanib boradi.

Darhaqiqat, talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Alohida urg‘u berib o‘tish joizki, zamonaviy pedagog kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi ekanligini chuqur his etishi lozim. Buning uchun oliy ta‘lim muassasalari kreativ tafakkurga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi bilan bir qatorda metodik jihatdan qurollangan kompetentli mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga jiddiy e‘tibor

qaratishi lozim.

Tadqiqot ishlarning ko‘rsatishicha, oliy ta‘lim muassasalarini ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ta‘limning ilm-fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek amaliyotga joriy etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, individuallashtirish hamda masofadan o‘qitish tizimi bilan vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimini foydalangan holda talabalarni ta‘lim olishga yo‘naltirishni faollashtirish, xalqning boy ma‘naviy va intellektual merosi, umuminsoniy qadriyatlar asosida ta‘limning insonparvarlikka yo‘nalganligini ta‘minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Aytish o‘rinliki, oliy ta‘lim muassasasining tarbiyaviy faoliyati jarayonida bo‘lajak pedagoglarni umumkasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bevosita tarbiya jarayonini oqilona loyihalash, texnologik xaritasini tuzishning nazariy metodologik asoslarini bilishni ham taqozo qiladi.

Zamonaviy oliy ta‘lim muassasasining bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga tayyorlash faoliyati – muassasaning ta‘limiy va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismidir. Bu talabalarining umumkasbiy layoqatini shakllantirishning ochiq, o‘zgaruvchan, demokratik sohasidir. Auditoriyadan tashqari faoliyat talabalar bilan o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning turli-tuman turlari va shakllari majmui sifatida:

➤ tarbiyadagi ustuvorlik (talabaning kasbiy, madaniy, ijtimoiy, fuqarolik-vatanparvarlik, shaxsiy rivojlanishi);

➤ talabalarining jamiyat uchun ahamiyatli, ijtimoiy yo‘nalgan, shaxsiy axamiyatga ega kasbiy faoliyati, mehnatda faolligi; raqobatbardoshligi;

➤ talabalarining atrof-muxit, ishlab chikarish, fan, ijtimoiy-madaniy muhit bilan turli-tuman o‘zaro ta‘sirlari;

➤ tashkilotchi-boshqaruvchi, menedjerlik ko‘nikmalarini egallashi;

➤ oliy ta‘lim muassasalarining maktabgacha, umumiy o‘rta ta‘lim, “Barkamol avlod” maktablari, professional ta‘lim kabi tarkibiy tuzilmalar bilan o‘zaro hamkorligining innovatsion ko‘rinishidir. Bu, eng avvalo, shunday bir innovatsion faoliyat sohasiki, uning zamirida inson tarbiyasining ustuvor asosi sifatida faoliyatning xilma-xil (kasbiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, boshqaruv) turlari va yo‘nalishlari yotadi;

➤ ochiq, insonparvar muloqotning, hamkorlik munosabatlarining, subyektlarning birgalikdagi harakati;

➤ talabaning ijodiy imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi;

➤ auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv mashg‘ulotlarida shakllanadigan kompetensiyalar baholanadi, amalda qo‘llaniladi, mustahkamlanadi; talaba inson faoliyatining yangi turlariga kirib borishi negizida yangi kompetensiyalar shakllanadi; egallangan kompetensiyalar kasbiy mahorat sohibi, to‘laqonli fuqaro bo‘lib yetishayotgan insonning yangi sifat va fazilatlariga aylana boradiki, fanda ular muxtasarlikda kompetentlik deb ataladi[5].

Oliy ta‘lim muassasalarining auditoriyadan tashqari faoliyati uchun milliy an‘analar va innovatsiyalar uyg‘unligi ham xosdir. Oliy ta‘lim muassasalarining auditoriyadan tashqari faoliyati talabalarining ko‘p tarmoqli amaliy, xilma-xil mehnat, vatanparvarlik faoliyatining mazmuni va tashkil etilish shakllari va uslublarining o‘ziga xos ijtimoiy, madaniy ahamiyati, talabalar faoliyatida ijtimoiylikning ustuvorligi, davlat boshqaruvining talabalar o‘z-o‘zini boshqaruv bilan uyg‘unligi, pedagoglar va talabalarining o‘ziga xos nuqtai-nazarlari, ijtimoiy va madaniy aloqalarining keng qamrovliligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Auditoriyadan tashqari faoliyatda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir innovatsion tendensiyalar oliy ta‘lim muassasalarining hozirgi ijobiy tajribasida:

➤ yangi tuzilmalarda (subyektlarda): turli yoshga mansub talabalardan iborat jamolarda, bunyodkor talabalar guruhlarida; loyiha guruhlarida; talabalar laboratoriyalarida; OTMlararo birlashmalarda va hokazolarda;

➤ xalqaro ta‘lim, fan tashkilotlari bilan rivojlanib borayotgan hamkorlikda;

➤ zamonaviy kasbiy-pedagogik ta‘lim va talabalar ta‘lim-tarbiyasining ustuvorligi, ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ijtimoiylashuvida namoyon bo‘lmoqda.

An‘anaviy (ijobiy) tajriba, hozirda oliy ta‘lim muassasalarining auditoriyadan tashqari faoliyatidagi innovatsiyalar mazkur faoliyatga talabalarining kasbiy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Auditoriyadan tashqari faoliyatning xususiyati shundaki, talabalarining tashabbuslari bilan ta‘lim, amaliy mehnat, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy faoliyatlarning turli-tuman shakllarida, biznes, xususiy korxonalar, hududiy tuzilmalar bilan hamkorlik va hokazolarda kompetensiyalari shakllanib boradi.

Talabalarni oliy ta‘lim muassasalarining auditoriyadan tashqari tarbiyaviy potensialini ro‘yobga chiqarishga jalb etishning kasbiy-pedagogik ta‘lim tajribasida vujudga kelgan shakllari va usullari ularning

mustaqil kasbiy ijodiy faoliyatining asosi bo‘lmish umumkasbiy kompetensiyalarning shakllanishida ularning subyektiv roli borligini tasdiqlaydi. Hozirda o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash samaradorligini oshirishga doir qabul qilinayotgan hujjatlar talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, ma‘naviy kompetensiyalar tizimini jadal shakllantirish lozimligini ko‘zda tutadi. Jumladan, “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya Konsepsiyasi”da oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni ma‘naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar sifatida quyidagilar alohida ajratib ko‘rsatilgan:

➤ ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma‘naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta‘lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

➤ o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;

➤ kasbiy-ma‘naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;

➤ faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

➤ ilmiy, ma‘naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e‘tiqodni shakllantirish;

➤ baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

➤ kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish[3].

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining umumkasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining o‘ziga xosliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

➤ talabalar tomonidan har bir kasb sohibi bo‘lmish fuqaro uchun zarur bo‘lgan umumkasbiy (universal) kompetensiyalarning aynan uyg‘unlikda egallanishi va ularning shaxs uchun ahamiyatli yangi fazilatlariga aylanishi;

➤ auditoriyadan tashqari faoliyatning turli shakllarida (ijodiy, tadqiqiy, amaliy kasbiy yo‘nalishdagi yoki o‘xshash sohalarida) nazariy bilim ko‘nikmalar, bo‘lg‘usi kasbga ijobiy motivatsiyaning qaror topishi, mustahkamlanishi;

➤ kasbiy ahamiyatga yo‘naltirilgan faoliyatda (kasbiy, ta‘limiy, ijtimoiy, yuridik, iqtisodiy, axborot va hakoza) kompetensiyalarning ixtiyoriy-individual (talabaning yoshi, hayotiy va ish tajribasi, shaxsiy, jismoniy, aqliy, ruhiy qobiliyatlari va imkoniyatlari inobatga olingan holda) o‘zlashtirilishi;

➤ muayyan faoliyat turi, shakli subyekti – talabaning asosiy faol ijodiy pozitsiyasi;

➤ kompetensiyalar shakllanishi natijalarining ko‘rgazmaliligi, o‘zgarib borishi; shaxs uchun ahamiyatli muhim sifat (ustuvorlik) va miqdoriy (ijtimoiy, madaniy) ko‘rsatkichlarning uyg‘unligi;

➤ talabalar va o‘qituvchilarning hayotiy faoliyati, ularning hamkorlik doirasi – muhiti;

➤ amaliyotning yangi ehtiyojlariga operativ munosabatni qaror toptirish.

Umumkasbiy kompetensiyalarning shakllanganligi sifat ko‘rsatkichlari talabalarining auditoriyadan tashqari mustaqil (kasbiy, ko‘p qirrali mehnat, ijtimoiy) faoliyatida ularning yangi sifatleri: mustaqillik, ijodkorlik, kasbiy yetuklik, mas‘uliyatlilik kabilarda namoyon bo‘ladi va ularni talabaning o‘zi, tengdoshlari, o‘qituvchilariga kuzatish imkonini taqdim etadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, “Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining umumkasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda tarbiyaviy faoliyat jarayonini takomillashtirish – yuqori darajadagi tarbiyaviy ishni tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik oliy ta‘lim muassasalari talabalarida umumkasbiy, aniq tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq maxsus kompetensiyalarni tarkib toptirish mazmuni, komponentlari, omillari, tashkiliy va diagnostik shart-sharoitlarni modernizatsiyalash jarayonidir” degan, xulosaga kelinadi. Aytish joizki, kompetensiyaviy yondashuv o‘quv-tarbiya ishlarini, ularni boshqarish va loyihalash jarayonlarini samarali tashkil etishning didaktik shakl, metod va vositalarini bilish, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash, individual kasbiy-pedagogik faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil qila olish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish layoqatini tarkib toptirishga to‘liq xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

4. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008). <https://n.ziyouz.com/kutubxona/durdona-to-plamlar/o-zbek-tilining-izohli-lug-ati-a-madvaliyev-tahriri-ostida-2006-2008>.

5. Санаева С.Б. Маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш – талаба-ёшларда касбий ривожланишнинг асоси. // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 17-21.

6. Санаева С.Б. Дидактические возможности развития методической компетенции будущих педагогов. // Colloquium-journal, 59-61.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK MAHORATI

*Sattorova Maftuna Abdug‘affor qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Shahrisabz, O‘zbekiston
maftunaabdugafforovna99gmail.com*

Hozirgi zamon ta’lim tizimi tarbiyachilardan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish, balki kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil qilish malakasiga ham ega bo‘lishni talab qiladi. Mazkur maqola tarbiyachilarning kreativ yondashuv asosida mashg‘ulotlarni qanday tashkil qilishlari, o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga jalb qilinishini oshirish usullari, shuningdek, pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan innovatsion metodlarni qo‘llash muhimligi haqida fikr yuritadi. Pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv va o‘quv jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kreativ yondashuv, pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv, tarbiyachi, innovatsion metodlar, kreativ pedagogika, individual yondashuv, o‘quvchilarning faolligi, interaktiv ta’lim, o‘quv jarayoni.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ВОСПИТАТЕЛЕЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Современная система образования требует от воспитателей не только обладания теоретическими знаниями, но и умения организовывать обучение на основе творческого подхода. В данной статье рассматривается, как педагоги организуют занятия на основе креативного подхода, способы повышения вовлечённости учащихся в учебный процесс, а также важность применения инновационных методов, необходимых для развития педагогического мастерства. Анализируются вопросы педагогического мастерства, творческого подхода и применения передовых технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: *креативный подход, педагогическое мастерство, творческий подход, воспитатель, инновационные методы, креативная педагогика, индивидуальный подход, активность учащихся, интерактивное обучение, учебный процесс.*

PEDAGOGICAL SKILLS OF TEACHERS IN ORGANIZING LESSONS ON THE BASIS OF CREATIVE APPROACH

The modern educational system requires educators not only to have theoretical knowledge, but also to have the skills to organize training on the basis of a creative approach. This article reflects on how educators organize classes based on a creative approach, methods to increase the involvement of students in the educational process, as well as the importance of applying innovative techniques necessary for the development of pedagogical skills. Issues of pedagogical skill, creative approach and application of advanced technologies in the educational process are analyzed.

Keywords: *creative approach, pedagogical skill, creative approach, educator, innovative methods, creative pedagogy, individual approach, student activity, interactive education, educational process.*

Kirish. Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlari qatori respublikamizda ham ta’lim tizimini isloh qilishga katta e’tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosdagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi. Ta’lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi, ta’limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo‘nalganligi bilan bog‘liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati boshqa ta’lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi va bugungi kunda ushbu ta’lim turiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitobida: “O‘z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi”- degan fikrni e’tirof etadilar[1]. Zamonaviy ta’lim tizimida kreativ yondashuv bolalar tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Tarbiyachilar uchun kreativ fikrlash va innovatsion metodlarni qo‘llash nafaqat

bolalarning qiziqishini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o’z nutqida “ Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o’zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog’lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”- deya ta’kidladilar[2].

Bugungi kunda, ta’lim jarayonida kreativ yondashuvning samarali qo’llanilishi tarbiyachilarning pedagogik mahorati bilan bog’liq. Tarbiyachi pedagoglar har bir faoliyatni ijodkorlik va kreativ yondashuv asosida tashkil qilsa ta’lim samaradorligi oshadi. Tarbiyachilar yangi usullarni qo’llash orqali bolalarning rivojlanishiga hissa qo’shadi. Kreativ yondashuv, o’z navbatida, tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirib, ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritishga imkon beradi. Innovatsion metodlar yordamida tarbiyachilar bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, samarali ta’lim berish imkoniyatlariga ega bo’ladi. Bu maqolada kreativ yondashuvni amalga oshirishda tarbiyachilarning pedagogik mahoratini qanday rivojlantirish mumkinligi muhokama qilinadi.

Asosiy qism. Kreativ yondashuvning ta’rifi va ahamiyati. Pedagogik kreativlik-pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogic muammolarni ijobiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati[3]. Kreativlik bir necha olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Ken Robinsoning fikriga ko’ra, “Kreativlik-o’z qiymatiga ega original g’oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o’z tadqiqotlarida ushbu tushunchani shunday izohlaydi:

“Kreativlik-shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo’lishi lozim”. Emebayl esa, “Kreativlik-muayyan soha bo’yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lish” demakdir deb fikr yuritadi[4]. Kreativ pedagogika sohasidagi ilmiy-adabiy manbalarga tahliliy yondashish orqali, ijodiy yondashuvning nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki pedagogik mahoratni rivojlantirishga ham xizmat qilishi aniqlangan. Yangi avlod darsliklari va metodik materiallar tarbiyachilardan doimiy ijodiy yondashuvni talab qiladi.

G’arbiy Yevropa va AQSh pedagogika olimlarining tadqiqotlariga ko’ra, kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirish o’qituvchilarga talabalar e’tiborini faol ravishda jalb qilish va ularning qiziqishlarini qo’llab-quvvatlash imkonini beradi. Guilfordning kreativ pedagogika bo’yicha tadqiqotlari va Adizkesning psixologik yondashuvlari ijodiy yondashuvning o’quv jarayonida qanday ahamiyat kasb etishini asoslab beradi. Shuningdek, Fink va Gardner kreativ ta’lim metodlarini qo’llash orqali ta’lim jarayonida erishiladigan yutuqlarni ta’kidlaydi.

8. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants Part 1. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
9. Pellegrino, J. W., Chudowsky, N., & Glaser, R. (2001). *Knowing What Students Know: The Science and Design of Educational Assessment*. National Academy Press.
10. Suyarova M.E. Development of Creative Speech Activity of Students in English Lessons // “Экономика и социум” №9 (124) 2024 www.iupr.ru 977-978pp.

O‘QITUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Tashbayeva O‘g‘ilshod Abduvohidovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi
ugilshodabduvaxidovna@gmail.com*

Ushbu maqolada pedagogika fanida bo‘lajak mutaxassislarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish jarayonini nazariy o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida hissiy intellekt, psixologik va pedagogik tushuncha sifatida rivojlanishning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy va samarali usullari, hamda talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish bo‘yicha turli pozitsiyalari keltirilgan, o‘rganilayotgan hodisaning faol rivojlanishiga hissa qo‘shadigan umumlashtirilgan yondashuvlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *intellektual harakatchanlik, rivojlanish jarayoni, kelajakdagi mutaxassis, oliy ta‘lim muassasasi, hissiy intellekt, his-tuyg‘ular, empatiya, kompetensiya, hissiy holat.*

ПРОЦЕСС ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЯ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Данная статья посвящена теоретическому изучению процесса развития интеллектуальной мобильности будущих специалистов в области педагогики. Также среди учителей начальной школы обсуждаются теоретические основы эмоционального интеллекта как психолого-педагогической концепции. Представлены современные и эффективные методы развития эмоционального интеллекта, а также различные позиции по развитию интеллектуальной мобильности студентов, выявлены обобщенные подходы, способствующие активному развитию изучаемого явления.

Ключевые слова: *интеллектуальная мобильность, процесс развития, будущий специалист, эмоциональный интеллект вуза, отрицательные эмоции, эмпатия, компетентность, эмоциональное состояние.*

PROCESS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF TEACHERS – AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

This article is devoted to the theoretical study of the process of developing the intellectual mobility of future specialists in the field of pedagogy. Also, the theoretical foundations of emotional intelligence, as a psychological and pedagogical concept, are discussed among elementary school teachers. Modern and effective methods of developing emotional intelligence, as well as various positions on the development of intellectual mobility of students are presented, generalized approaches that contribute to the active development of the studied phenomenon are revealed.

Keywords: *intellectual mobility, development process, future specialist, higher education institution, emotional intelligence, negative emotions, empathy, competence, emotional state.*

Kirish. Ma‘lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘lib, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mexanizmlarini joriy etish asosida uzluksiz kadrlar tayyorlashni amalga oshirish ta‘lim bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Ushbu Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolidagi rivojlanish bosqichlarini belgilab, sohaga oid fan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab

chiqish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorida quyidagi asosiy vazifalari etib belgilangan: oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviyaxloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikasiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash; zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarni jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo [1].

Asosiy qism. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘zaro ta’sir jarayonining ahamiyatini, ya’ni kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkinligini inobatga olish zarur:

- shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi;
- ma’naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;
- kasbiy kompetentlik darajasini ortishi;
- o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvning vujudga kelishi;
- subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi.

Hissiy intellekt - yurak va aqlning to‘qnashuvi. Hissiy intellekt (odatda “EQ” deb qisqartiriladi, hissiy koeffitsient uchun) bu o‘zida ham, boshqalarda ham his-tuyg‘ularni idrok etish, nazorat qilish va baholash qobiliyatidir. Bu tushuncha 1930-yillarda ijtimoiy intellekt bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va 1970-yillarda intellektning turli shakllari bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida paydo bo‘lgan. 1990-yillarda amerikalik psixolog Daniel Goleman "Emotional Intelligence: Why it Can Matter More Than IQ" nomli kitobini nashr etdi. Kitobda u hissiy intellektning beshta "tarmoqlar"ini aniqladi: his-tuyg‘ularingizni bilish, his-tuyg‘ularingizni boshqarish, o‘zingizni rag‘batlantirish, boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olish va tushunish va munosabatlarni boshqarish.

Goleman yuqori EQni samarali biznes rahbarlari orasida umumiy xususiyat sifatida belgilaydi. Uning ta’kidlashicha, hissiy aql bo‘lmasa, rahbar cheksiz energiya va g‘oyalarga, idrok etuvchi va mantiqiy aqlga va ta’sirchan malakaga ega bo‘lishi mumkin, ammo baribir samarasiz va ilhomlantirmaydi. “Eng samarali rahbarlar bir jihati bilan bir xil: ularning barchasi yuqori darajadagi hissiy intellektga ega”, - Daniel Goleman [2;37].

Hissiy intellekt besh turkumdan iborat:

1. O‘z-o‘zini anglash (his-tuyg‘ularni tan olish va tushunish qobiliyati).
2. Ijtimoiy ko‘nikmalar (umumiy soha topish va munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati).
3. O‘z-o‘zini tartibga solish (impulslar va his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati).
4. Hamdardlik (boshqa narsalarni tushunish qobiliyati). odamlarning his-tuyg‘ulari).
5. Motivatsiya (quvvat bilan maqsadlarga erishish istagi).

Golemanning ta’kidlashicha, yuqori EQ boshqa muhim yetakchilik xususiyatlarini osonlashtiradi. Masalan, boshqa odam nimani his qilayotganini aniqlik bilan tushunish qobiliyati (hamdardlik) bu tuyg‘uni va undan kelib chiqadigan har qanday xatti-harakatlarni boshqarishga imkon beradi. Shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlar yetakchilik uchun muhim, ammo EQ - yosh, tajriba va o‘z-o‘zini aks ettirish bilan o‘sib boradi. Yangi va intiluvchan rahbarlarga tajribali kishilar maslahat beradi; birgalikda, o‘tmish va kelajak jarayonlarini, turli javoblarini va hissiy nuqtalarini muhokama qilishadi. Shu tartibda hissiy yetuklikni oshirishga intiladi. 1999-yilgi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xizmat ko‘rsatadigan ko‘p tarmoqli kompaniyaning EQ bo‘yicha yuqori ball olgan hamkorlari boshqa hamkorlarga qaraganda 1,2 million dollar ko‘proq foyda keltirgan. Boshqa tadqiqotlar EQ va samaradorlik o‘rtasidagi o‘xshash bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Aftidan, hissiy muvozanat kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omilidir [3,16].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytilish mumkinki, pedagoglarning kasbiy faolligini oshirish, refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish, ma’naviy va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni vujudga keltiruvchi shaxslararo aloqalarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagog kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish zarur. Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlarini tashkillashtirishda subyektning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, pedagogikaning “tarbiya”-“o‘zini-o‘zi tarbiya”, “ma’lumot”-“mustaqil ma’lumot”, “ta’lim”-“mustaqil ta’lim” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi

hamda biri- ikkinchisining, ikkinchisi-uchinchisining ta'minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilishini inobatga olish zarur. Bo'lajak o'qituvchi tashkiliy va pedagogik madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ijodiy vaziyatlarda madaniy ko'nikmalarni shakllantirish dasturi ishlab chiqildi. Dasturning tarkibiy bo'g'ini amaliy mashg'ulotlarda (eksperimental guruhlarda) qo'llanadigan ijodiy vaziyatlardir.

Yangi psixologik, pedagogik va ta'lim standartlari zamonaviy o'qituvchidan o'quvchilarning o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va shaxsiy va ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun aniqlanishi kerak bo'lgan individual xususiyatlarini aniq aniqlashni talab qiladi. Ko'pincha o'qituvchilar intuitiv ravishda (o'z tajribasi, fikrlash qobiliyatlari va tug'ma hissiy-psixologik yo'nalishlari asosida) o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlaydilar. Ushbu diagnostika usuli materialni o'zlashtirish bilan bog'liq muammolardan qochishga yordam beradi, lekin o'quvchiga o'z ta'lim strategiyalari va faoliyat usullarini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkon bermaydi. Bunday holda, o'qituvchining "hissiy intellekti" haqida gapirish o'rinlidir, bu ilmiy jamiyatda o'zining va boshqalarning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini tan olish va olingan ma'lumotlardan xatti-harakatlarni tartibga solish, fikrlash va nazorat qilish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi. hissiy soha. O'qituvchining "hissiy intellekt" fenomenini o'rganishning dolzarbligi kognitiv va ta'sirchan jarayonlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga mahalliy va xorijiy kognitiv olimlarning qiziqishi ortishi bilan asoslanadi. o'qituvchi talabalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan taqdirdagina mumkin bo'lgan o'quv jarayonidir. Ushbu atama tadqiqot va jurnalistik adabiyotlarda psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan ommalashgan. Olimlar hissiy intellektni insonning ijtimoiy intellektning bir qismi sifatida qabul qilishdi, bu uning muloqot qilish va ijtimoiy aloqa qilish qobiliyatini belgilaydi. Biroq, insonning hissiy sohasini chuqur o'rganish ancha oldinroq - 1986 yilda, hissiy intellektni emotsionallik koeffitsienti yordamida sinab ko'rishni taklif qilgan Ueyn Peynning "*Tuyg'uni o'rganish: hissiy intellektni rivojlantirish*" nashri bilan boshlangan. Shu bilan birga, emotsionallikni aniqlash ko'p jihatdan insonning aql-zakovatiga tashxis qo'yish bilan o'xshash edi[8,19].

Hozirgi vaqtda Daniel Goleman va Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan taklif qilingan hissiy intellektning ikkita qabul qilingan modeli mavjud. Birinchi model hissiy intellektni tizimli ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, ikkinchisi esa ushbu hodisaning protsessual tomonini ko'rib chiqishga qaratilgan. D. Goleman modeli emotsional intellektning besh komponentini o'z ichiga oladi, xususan:

- 1) o'z his-tuyg'ularini tushunish yoki anglash;
- 2) his-tuyg'ularingizni boshqarish;
- 3) o'z-o'zini rag'batlantirish;
- 4) boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish yoki anglash;
- 5) munosabatlarni boshqarish (ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish) [4, 315].

Jarayon modeli hissiy intellektning to'rt jihatini, shu jumladan tegishli ijtimoiy kompetentsiyalarni o'z ichiga oladi: his-tuyg'ularni farqlash, mavjud his-tuyg'ularni anglash, hissiy sohani boshqarish, olingan bilimlardan foydalanish [7, 43].

Demak, o'qituvchining hissiy intellekti moslashish tizimining elementi bo'lib, o'qituvchi uchun asosiy moslashish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi: ya'ni vaziyatga qarab harakat qilish va ushbu vaziyatga adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyatini nazarda tutadi. O'qituvchining hissiy intellekti kontekstida uning nizolarga chidamliligi bilan bog'liqligini ta'kidlash kerak. Shunday qilib, A.A. Bochaver zamonaviy o'smirlarning axloqiy ko'rsatmalarining o'zgarishi va ularning keksa o'qituvchilarning mafkuraviy tizimlariga zidligi tufayli maktablarda ziddiyatli vaziyatlarning ko'payishini ta'kidlaydi. Bitta ziddiyatli vaziyatni ijobiy hal qilishni kafolatlaydigan o'qituvchining xatti-harakati boshqa ziddiyatli vaziyatlarda har doim ham mos kelmaydi. O'qituvchi uchun moslashuvchan psixikaga va rivojlangan hissiy intellektga ega bo'lishi juda muhim, bu murakkab muloqot holatlariga yechim topishga yordam beradi. Biroq, kasbiy tajriba ortib borishi bilan, bu ko'nikma ko'pincha deformatsiyalanadi va natijada pedagogik vaziyatlarni hal qilish uchun stereotip usullardan foydalanadigan o'qituvchilar tomonidan butunlay xiralashadi [4, 151].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchining hissiy intellektning rivojlanmaganligi o'qituvchi tomonidan talabalarga nisbatan tajovuzkorlikning namoyon bo'lishiga yordam beradi. O'qituvchining tajovuzkorligi o'smirlarda psixologik travma yaratadigan psixologik zo'ravonlik turlaridan biridir. O'qituvchining tajovuzkor xatti-harakati qurboniga aylangan bolalar tajovuzkorlikning kuchayishi, o'ta aybdorlik tuyg'usi, tengdoshlariga nisbatan o'zini past baholash va kamdan-kam hollarda avtotajovuz ko'rinishida namoyon bo'ladigan o'z joniga qasd qilish tendensiyalari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, o'qituvchining tajovuzkorligi muammosi, o'qituvchining namuna sifatida maktab jamoasini o'qituvchi tomonidan zo'ravonlik qurboni bo'lgan sinfdoshini bezorilik qilishga undashi bilan yanada og'irlashadi. E.Gallo maktab o'qituvchilarining tajovuzkor xatti-harakatlarini tahlil qilib, o'qituvchining yoshi uning

o‘quvchilarga bo‘lgan munosabatiga ta‘sir etmaydi, balki hal qiluvchi omil uning jinsi va ish tajribasidir, degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, maktablarda uzoq vaqt ishlagan va katta pedagogik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlarini rad etishlari bilan ajralib turadi, yosh o‘qituvchilar esa o‘smirlarning ijodiy ko‘rinishlariga yuqori sodiqliklari bilan ajralib turadi [5,78].

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz
2. Umarov Alisher Yusubjanovich Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy -intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati International scientific-practical conference, November 13, 2023 505-508 betlar.
3. Aleksandrova N.P. Hissiy intellekt o‘qituvchilik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solish omili sifatida. // Moskva davlat biznes boshqaruvi akademiyasining axborotnomasi. Seriya: falsafiy, ijtimoiy. va tabiiy fanlar. 2011. No 5. S. 171-177.
4. Bochaver A.A. Bezorilik tadqiqot ob‘ekti va madaniy hodisa sifatida. / A.A. Bochaver K.D. Xlomov // Psixologiya. 2013. No 3. P. 149-159.
5. Gallo E., Gerzon M.: Kets de Vries M. Qiyin odamlar bilan muomala qilish: hissiy aql. / Mariya Chomaxidze-Doronina tomonidan ingliz tilidan tarjima. 2-nashr. M.: Mann, Ivanov va Ferber: Garvard biznes sharhi matbuoti, 2021. 149 b.
6. Goleman D. Hissiy intellekt. [tarjima. ingliz tilidan A. P. Isaeva]. Moskva: AST: Astrel, politsiyachi. 2011. 478 b.
7. Sergienko E.A. J. Mayer, P. Salovey, D. Caruso tomonidan "Hissiy intellekt" testining rus tilidagi moslashuvi. / E.A. Sergeenko, I.I. Vetrova. M.: Smysl, 2017. 139 b.
8. Solodkova T.I. Hissiy intellekt charchash sindromini engish va uning o‘qituvchilar orasida rivojlanishi uchun shaxsiy manba sifatida: dissertatsiya referati. ... psixologiya fanlari nomzodi. Irkutsk, 2010. 160 b.

**ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-
ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА**

*Зайниева Насиба Бахтияровна,
старший преподаватель кафедры иностранных языков
Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета*

В статье рассматриваются методологические и практические аспекты формирования информационной компетентности будущих учителей иностранного языка с акцентом на лично-ориентированный подход. Информационная компетентность определяется как интегративное профессиональное качество, включающее умения, навыки, ценности и опыт, обеспечивающие эффективное использование информационных технологий в образовательной деятельности. Разработана модель формирования компетентности, структурированная в виде четырёх взаимосвязанных блоков: целевого, методологического, деятельностного и результативного. Анализируются когнитивный, мотивационно-ценностный и рефлексивный компоненты компетентности, определяющие её функциональную структуру. Представлены ключевые педагогические подходы и методы, такие как ситуативное обучение, мультимедийные технологии и самостоятельная работа студентов. Экспериментальное исследование подтвердило результативность модели, что подтверждает её практическую применимость в профессиональной подготовке педагогов.

Ключевые слова: *информационная компетентность, учителя иностранного языка, лично-ориентированный подход, профессиональная подготовка, педагогическая модель, образовательные технологии.*

**FORMATION OF INFORMATIONAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN
LANGUAGE TEACHERS BASED ON THE PERSONALLY-ORIENTED APPROACH**

The article examines methodological and practical aspects of forming informational competence in future foreign language teachers with a focus on a personally-oriented approach. Informational competence is defined as an integrative professional quality that encompasses skills, abilities, values, and experience, ensuring the effective use of information technologies in educational activities. A model of competence formation is developed, structured into four interrelated blocks: goal-oriented, methodological, activity-based, and result-oriented. The cognitive, motivational-value, and reflective components of competence are analyzed, determining its functional structure. Key pedagogical approaches and methods, such as situational learning, multimedia technologies, and students' independent work, are presented. Experimental research confirmed the effectiveness of the model, demonstrating its practical applicability in the professional training of educators.

Keywords: *informational competence, foreign language teachers, personally-oriented approach, professional training, pedagogical model, educational technologies.*

**BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI
SHAXSGA YO‘LLANTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

Maqolada chet tili o‘qituvchilarini axborot kompetentligini shakllantirishning metodologik va amaliy jihatlari shaxsga yo‘llantirilgan yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Axborot kompetentligi bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va tajribani o‘z ichiga olgan integrativ professional sifat bo‘lib, ta‘lim faoliyatida axborot texnologiyalarini samarali qo‘llashni ta‘minlaydi. Kompetentlikni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u to‘rtta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat: maqsadli, metodologik, faoliyatga asoslangan va natijaga yo‘naltirilgan. Kompetentlikning funksional tuzilishini belgilovchi kognitiv, motivatsion-qadriy va refleksiv komponentlar tahlil qilinadi. Situatsion ta‘lim, multimedia texnologiyalari va mustaqil talaba ishiga asoslangan asosiy pedagogik yondashuvlar va usullar keltirilgan. Eksperimental tadqiqot natijalari modelning samaradorligini tasdiqlab, uni pedagoglarni tayyorlashda amaliy qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *axborot kompetentligi, chet tili o‘qituvchilari, shaxsga yo‘llantirilgan yondashuv, professional tayyorgarlik, pedagogik model, ta‘lim texnologiyalari.*

Введение. Современная образовательная система требует формирования у будущих учителей иностранного языка не только профессиональных знаний и умений, но и интегративных компетенций, обеспечивающих успешное использование информационных технологий в педагогической практике. Информационная компетентность в данном контексте выступает как стратегический ресурс, определяющий эффективность реализации образовательных задач в условиях цифровой трансформации общества.

Информационная компетентность будущего педагога иностранного языка определяется как совокупность профессиональных навыков и знаний, ценностных установок и опыта, направленных на поиск, обработку, анализ и использование информации для достижения образовательных целей. Особое внимание в её формировании уделяется личностно-ориентированному подходу, предполагающему адаптацию педагогических технологий к индивидуальным особенностям студентов, их профессиональной мотивации и когнитивным способностям.

Актуальность исследования продиктована необходимостью разработки научно обоснованных моделей, позволяющих интегрировать когнитивные, мотивационно-ценностные и рефлексивные компоненты информационной компетентности в образовательный процесс. Важным аспектом становится создание образовательной среды, стимулирующей самостоятельность, критическое мышление и готовность к профессиональной деятельности в условиях растущих требований к цифровой грамотности.

Цель исследования заключается в разработке и апробации модели формирования информационной компетентности будущих учителей иностранного языка, основанной на личностно-ориентированном подходе. В статье проводится анализ концептуальных оснований информационной компетентности, рассматривается структура модели, выделяются ключевые методологические подходы и оценивается её практическая эффективность на основе эмпирических данных.

Литературный обзор. Вопрос формирования информационной компетентности будущих учителей иностранного языка рассматривается как один из ключевых аспектов профессиональной подготовки. Информационная компетентность определяется как сложная интегративная характеристика личности, включающая умение эффективно работать с информацией, использовать цифровые технологии в образовательной деятельности и критически осмысливать полученные данные [1, с. 45–49].

Современные исследования акцентируют внимание на том, что формирование информационной компетентности требует не только освоения технических навыков, но и развития аналитического мышления, способности проектировать образовательные технологии и адаптировать их под индивидуальные потребности обучающихся [2, с. 117–120]. В частности, личностно-ориентированный подход обеспечивает реализацию индивидуализированных траекторий обучения, что значительно повышает уровень профессиональной подготовки студентов [3, с. 210–215].

Эффективность формирования информационной компетентности подтверждается внедрением структурных моделей, которые включают когнитивные, мотивационно-ценностные и рефлексивные компоненты. Эти модели базируются на системном и контекстном подходах, что позволяет учесть сложность и многогранность процесса подготовки педагогов [4, с. 58–63]. В частности, модели, интегрирующие деятельностные и мотивационные блоки, демонстрируют значительное повышение уровня компетентности студентов, проходящих обучение в педагогических вузах [5, с. 73–80].

Практическая значимость использования активных методов обучения, таких как решение профессионально-ориентированных задач, мультимедиа-визуализация, проектная работа и использование цифровых образовательных ресурсов, была подтверждена экспериментально. Эти методы способствуют не только формированию базовых навыков, но и развитию способности к самостоятельной информационной деятельности [6, с. 126–130]. Важной частью такого подхода является интеграция современных информационных технологий, что требует постоянного обновления методических решений и повышения квалификации педагогов [7, с. 41–46].

Эмпирические данные свидетельствуют, что систематическое применение личностно-ориентированного подхода позволяет улучшить как когнитивные, так и мотивационно-ценностные аспекты информационной компетентности. Кроме того, использование цифровых технологий способствует повышению заинтересованности студентов в образовательном процессе, а также укрепляет их способность к самостоятельному решению профессиональных задач [8, с. 90–97].

Материалы и методы. В исследовании приняли участие 150 студентов педагогических вузов, обучающихся по специальности «Иностранные языки». Участники были разделены на экспериментальную (75 человек) и контрольную (75 человек) группы случайным образом.

Разработанная модель формирования информационной компетентности на основе личностно-ориентированного подхода внедрялась в образовательный процесс экспериментальной группы в течение двух семестров. Модель предусматривала интеграцию когнитивного, мотивационно-ценностного и рефлексивного компонентов, использование интерактивных методов обучения, мультимедийных технологий, проектной деятельности и самостоятельной работы с информационными ресурсами.

Контрольная группа обучалась по традиционной программе без внесения изменений в методику преподавания. Образовательные программы обеих групп соответствовали государственным стандартам, что обеспечивало сопоставимость результатов.

Для оценки уровня сформированности информационной компетентности применялись следующие методы:

- **Тестирование знаний и умений** в области информационных технологий и их применения в профессиональной деятельности.

- **Анкетирование**, направленное на выявление мотивационно-ценностных ориентаций и отношения к информационной деятельности.

- **Самооценка рефлексивных навыков**, позволяющая определить степень осознанности собственного профессионального развития.

Диагностические процедуры проводились дважды: до начала эксперимента (входной контроль) и после его завершения (итоговый контроль). Это позволило определить динамику изменений в уровне информационной компетентности участников.

Статистический анализ результатов осуществлялся с использованием методов математической статистики. Вычислялись средние значения показателей, стандартные отклонения. Для сравнения данных экспериментальной и контрольной групп использовался t-критерий Стьюдента для независимых выборок. Корреляционный анализ применялся для выявления взаимосвязей между компонентами информационной компетентности и эффективности используемых методов обучения.

Полученные данные обрабатывались с помощью программного обеспечения SPSS Statistics, что обеспечивало точность и надёжность статистических выводов.

Результаты и обсуждение. В рамках исследования была проведена экспериментальная работа по формированию информационной компетентности будущих учителей иностранного языка. Исследование охватывало 150 студентов педагогических вузов, которые были случайным образом распределены на контрольную (75 человек) и экспериментальную (75 человек) группы. Продолжительность эксперимента составила два семестра. Разработанная методика для экспериментальной группы включала использование цифровых образовательных технологий, проектной деятельности и индивидуализированных учебных маршрутов. Контрольная группа обучалась в рамках стандартной программы, предполагающей традиционные методы преподавания.

Уровень информационной компетентности оценивался до начала эксперимента (входной контроль) и после его завершения (итоговый контроль) с использованием комплексного подхода, включавшего тестирование, анкетирование и самооценку. Оценка проводилась по трём уровням: низкий, средний и высокий.

Результаты представлены в таблице.

Таблица 1.

Распределение студентов по уровням информационной компетентности (в %)

Уровень компетентности	Экспериментальная группа (до эксперимента)	Контрольная группа (до эксперимента)	Экспериментальная группа (после эксперимента)	Контрольная группа (после эксперимента)
Высокий	14,0	13,3	52,0	16,0
Средний	57,3	55,0	41,3	56,0
Низкий	28,7	31,7	6,7	28,0

Полученные данные демонстрируют существенное повышение доли студентов с высоким уровнем информационной компетентности в экспериментальной группе — с 14,0% до 52,0%. В контрольной группе наблюдается менее значительный рост данного показателя — с 13,3% до 16,0%. Доля студентов с низким уровнем компетентности в экспериментальной группе снизилась до 6,7%, тогда как в контрольной группе она уменьшилась лишь до 28,0%.

Качественный анализ выявил значительные различия между группами. В экспериментальной группе студенты продемонстрировали более высокую степень готовности к самостоятельному поиску и обработке информации, а также эффективному применению информационных технологий в образовательных задачах. Анкетирование показало, что 84% студентов экспериментальной группы

отметили улучшение навыков работы с информационными ресурсами, в то время как в контрольной группе этот показатель составил только 42%.

Для подтверждения значимости различий между группами был использован t-критерий Стьюдента. Результаты статистического анализа показали, что различия между группами по итоговому уровню информационной компетентности являются статистически значимыми ($p < 0,01$). Это подтверждает эффективность применения личностно-ориентированного подхода в формировании информационной компетентности будущих учителей иностранного языка.

Анализ полученных данных позволяет утверждать, что использование личностно-ориентированного подхода обеспечивает не только более высокий уровень сформированности информационной компетентности, но и развитие таких компонентов, как критическое мышление, самостоятельность и готовность к инновационной педагогической деятельности. Эти результаты согласуются с теоретическими исследованиями, подчёркивающими значимость индивидуализации образовательного процесса и активного вовлечения студентов в учебную деятельность.

Экспериментальные данные подтверждают необходимость системного подхода к внедрению цифровых технологий в образовательный процесс, включая разработку новых методик, направленных на активизацию мотивации студентов и развитие их рефлексивных навыков. Перспективным направлением дальнейших исследований является анализ влияния отдельных методик и цифровых инструментов на динамику формирования компетентности, а также адаптация полученных результатов к другим направлениям педагогической подготовки.

Заключение. Результаты проведённого исследования подтверждают эффективность применения личностно-ориентированного подхода в формировании информационной компетентности будущих учителей иностранного языка. Разработанная модель, основанная на интеграции когнитивных, мотивационно-ценностных и рефлексивных компонентов, показала высокую результативность, обеспечив значительное повышение уровня компетентности у студентов экспериментальной группы.

Использование мультимедийных технологий, проектной деятельности и индивидуализированных траекторий обучения позволило улучшить навыки работы с информационными ресурсами, критическое мышление и готовность к решению профессиональных задач. Статистически значимые различия между экспериментальной и контрольной группами подтверждают необходимость внедрения личностно-ориентированных методов в программы подготовки педагогов.

Данное исследование демонстрирует перспективность подхода, ориентированного на индивидуальные особенности обучающихся, и открывает возможности для дальнейших исследований в области профессиональной подготовки педагогов, направленных на повышение их компетентности в условиях цифровой трансформации образования.

Литература:

1. Зимняя, И.А. Компетентностный подход. Теория и практика: монография. М.: Логос, 2004.
2. Хуторской, А.В. Компетентность в образовании: опыт проектирования. М.: ИНЭК, 2007.
3. Семёнов, А.Л. Личностно-ориентированный подход в педагогике: концепции и технологии. М.: Просвещение, 2015.
4. Селевко, Г.К. Современные образовательные технологии. М.: Народное образование, 2006.
5. Толстых, О.М. Структурные модели формирования компетентностей. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2009.
6. Козырев, А.В. Практика использования информационных технологий в профессиональном образовании. М.: Вузовская книга, 2013.
7. Тришина, С.В. Информационная грамотность и цифровая компетентность. Казань: Изд-во Казанского университета, 2018.
8. Коган, Е.Я. Современные технологии в обучении иностранным языкам. М.: Логос, 2012.
9. Симоненко, В.Д. Общая и профессиональная педагогика. Учебное пособие. М.: Вентана-Граф, 2007.
10. Клер, В. Образовательные технологии цифровой эпохи. М.: Просвещение, 2016.
11. Кузнецова, Е.В. Компетентностный подход в профессиональном образовании. СПб.: Наука, 2010.
12. Иванова, А.П. Методы активного обучения в цифровом образовательном пространстве. Казань: Фолиант, 2018.

13. Петрова, Н.С. Цифровизация образования и профессиональная подготовка педагогов. М.: Высшая школа, 2019.
14. Мишина, О.В. Инновационные методы формирования компетентностей. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2014.
15. Образцов, П.И. Информационные технологии в образовании. М.: Академия, 2010.

XORIJIY TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

To'xtayeva Munira Omonovna,
Buxoro davlat universiteti I kurs tayanch doktoranti
Jumayeva Gulruksor Erkin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti III kurs talabasi
muniraomonovna@gmail.com

Ushbu maqolada xorijiy ta'lim tizimida maktab o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar va texnologiyalarni o'rganishni maqsad qiladi. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning faqat bilim olishini emas, balki ushbu bilimlarni tahlil qilish, qo'llash, asoslangan xulosalar chiqarish va turli qarashlarni baholash qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Kahoot, Google Classroom, Padlet, axborot-kommunikatsiyalari, muammoli ta'lim, Sokrat suhbat, g'oyalarni baholash, savollar piramidasi, real muammolar, diagramma.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ЗАРУБЕЖНОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Целью данной статьи является изучение подходов и технологий, направленных на развитие навыков критического мышления школьников в зарубежной системе образования. Современная система образования уделяет особое внимание не только получению знаний, но и формированию умений анализировать и применять эти знания, делать обоснованные выводы и оценивать различные точки зрения.

Ключевые слова: Kahoot, Google Classroom, Padlet, информация и общение, проблемное обучение, беседа Сократа, оценка идей, пирамида вопросов, реальные проблемы, диаграмма.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN THE FOREIGN EDUCATION SYSTEM

This article aims to study approaches and technologies aimed at developing critical thinking skills of schoolchildren in the foreign education system. The current modern education system pays special attention not only to the acquisition of knowledge, but also to the formation of the ability to analyze and apply this knowledge, draw reasonable conclusions and evaluate different views.

Keywords: Kahoot, Google Classroom, Padlet, information and communication, problem-based learning, Socratic conversation, evaluation of ideas, pyramid of questions, real problems, diagram.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish o'ta muhimdir. Tanqidiy fikrlash - bu axborotni chuqur tahlil qilish, izchil fikr yuritish va samarali qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimlari tanqidiy fikrlashni asosiy kompetensiya sifatida ko'rib, uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratishadi. Bu maqola xorijiy ta'lim tajribasi misolida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo'llanilayotgan texnologiyalar va usullarni o'rganishga bag'ishlanadi.

Asosiy qism. Xorijiy mamlakatlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalar va metodlardan keng foydalaniladi:

Debatlar: O'quvchilarni muayyan mavzuda bahs qilishga jalb qilish orqali turli qarashlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Loyiha asosidagi ta'lim: Muammolarni hal qilish va muqobil echimlarni topish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Onlayn platformalar: Kahoot, Google Classroom va Padlet orqali o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga va bilim almashishga jalb qilish.

Raqamli vositalar: Interaktiv testlar, vizual materiallar va simulyatsiyalar o'quvchilarni real hayotdagi masalalarni tahlil qilishga undaydi.

Yozma va og'zaki tahliliy mashqlar:

Tanqidiy esse yozish: Muayyan mavzudagi qarashlarni asoslash va dalillarni ko'rsatishga imkon beradi.

Case study: Haqiqiy hayotiy misollarni o'rganib, ularga asoslangan xulosalar chiqarish.

Kooperativ ta'lim: Guruh bo'lib ishlash orqali o'quvchilar bir-birining fikrlarini tahlil qilish, qo'llab-quvvatlash yoki inkor etishni o'rganadi.

Ushbu texnologiyalar xorijiy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'z fikrlarini mustaqil va asosli tarzda ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa ularni kelajakdagi murakkab ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

AQShda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: AQSh ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bir necha asosiy usullari mavjud. Masalan, muammoli ta'lim usulida o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarga asoslangan savollar yoki loyihalar beriladi. Bu vaziyatlarda o'quvchilar mustaqil tahlil qilish va muammolarni echish yo'llarini izlashadi. Misol uchun, geografiya darsida o'quvchilarga shaharlarning iqlim o'zgarishidan qanday ta'sirlanishi va bu muammoni qanday hal qilish mumkinligi haqida savollar berilishi mumkin. Shu orqali o'quvchilar muammoni chuqur o'rganib, o'z takliflarini taqdim etishadi.

Finlyandiya ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash: Finlyandiya ta'lim tizimi darslarda fanlararo yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, ekologiya va iqtisod fanlarini birgalikda o'rgatish orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni bilishadi, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga ham undaladi. Masalan, o'quvchilar plastik chiqindilar va iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishlari mumkin. Shu orqali ular muammoga har xil nuqtayi nazardan yondashishni o'rganishadi.

Kanada va Singapurda tanqidiy fikrlashni shakllantirish: Kanadada o'quvchilarga tahliliy yondashuv orqali masalalarni yechish imkoniyati beriladi. Ularning darslarida o'quvchilarni fikr almashish, g'oyalarni baholash va ularni mustaqil tahlil qilishga rag'batlantiriladi. Singapurda esa tanqidiy fikrlash uchun loyihaviy ishlar keng qo'llaniladi. Masalan, fanlar o'rtasidagi munosabatni ochib berish uchun “o'simliklarning sog'liqqa ta'siri” mavzusida loyihalar bajariladi, bunda o'quvchilar kimyo, biologiya va tibbiyot bo'yicha ma'lumotlarni birlashtirib tahlil qilishadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda *axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan* (AKT) keng foydalanish xorijiy ta'lim tizimlarining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. AKT yordamida o'quvchilar turli loyihalar ustida ishlash va muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Online platformalar va mobil ilovalar: Masalan, AQShda tanqidiy fikrlash uchun Kahoot, Google Classroom yoki Padlet kabi online platformalar ishlatiladi. Ushbu platformalar orqali o'quvchilar dars davomida o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rib, bahslar uyushtirishadi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va turli xil vaziyatlarda shaxsiy xulosalar chiqarishadi.

Muammoli topshiriqlarni amalga oshirishda loyihalar: Muammoli ta'lim loyihalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ijtimoiy fan darsida o'quvchilarga suv resurslarini asrash bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqish topshirig'i berilishi mumkin. Ushbu loyiha davomida o'quvchilar suv resurslari va ekologiya mavzularini o'rganishadi, ma'lumotlarni tahlil qilishadi va o'z yechimlarini taqdim etishadi.

Dars jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir necha maxsus texnikalar qo'llaniladi:

Sokrat usuli: Ushbu usul orqali o'qituvchi o'quvchilarga savollar berib, ularning javoblarini tahlil qilishga undaydi. Masalan, tarix darsida “Inson huquqlarining rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatdi?” savoliga o'quvchilar har xil nuqtayi nazardan javob berib, o'z qarashlarini mustahkamlashadi.

Fishbone diagrammasi: Bu texnika muammolarni tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, biologiya darsida “*Global isish sabablari va oqibatlari*” diagrammasi orqali global isishga olib keladigan omillar va ularning oqibatlarini tasvirlashadi.

Six Thinking Hats : Bu texnika tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchilar ekologik muammolar haqida ma'lumot yig'ib, “*oq shlyapa*”ni kiyish orqali faktlarni baholashadi, “*qizil shlyapa*” bilan his-tuyg'ulari haqida gapirishadi va “*yashil shlyapa*” yordamida muammolarni yechish uchun innovatsion g'oyalar ishlab chiqishadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullari *Reading* (O'qib tushunish) va *Listening* (Tinglab tushunish) kompetensiyalari asosida ko'rib chiqiladi.

1. Turli aksent va mavzudagi materiallarni tinglash. Tinglash uchun turli aksentlar, mavzular va kontekstlarni o'z ichiga olgan materiallar tanlanadi.

Misol: *BBC News, TED Talks yoki The New York Times podkastlari.*

Faoliyat: Tinglang va asosiy g'oyani aniqlang, dalillarni qayd eting.

Savollar:

Muallifning nuqtayi nazari qanday?

Ushbu dalillar yetarlimi?

Ular boshqa fikrlar bilan qanday mos keladi?

2. Tinglash bo'yicha bahs va munozaralar tashkil qilish. Talabalar tinglagan materiallarini bahs qilish uchun ishlatadi.

Misol: *“Should technology replace teachers?”* kabi podkastlarni tinglash va muhokama qilish.

3. Ma'lumotlarni vizual tahlil qilish. Tinglash orqali olingan ma'lumotlarni grafiklar, diagrammalar yoki jadval shaklida ifodalash.

4. Tinglashdan keyingi savol-javob. Tinglash davomida berilgan ma'lumotlarga nisbatan talabalar o'z savollarini shakllantiradilar.

Misol: *How can the argument presented in the audio be supported or contradicted?*

Reading (O'qish) orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari

1. O'quv materialini tanqidiy tahlil qilish. Matnning asosiy mazmunini aniqlash va muallifning pozitsiyasini tushunish.

Misol: *Harry Potter* asarini o'qish va asosiy fikrni ajratib olish.

Savollar:

Muallifning asosiy fikri nima?

U qanday dalillar bilan qo'llab-quvvatlangan?

Matnning tarafkashligi bormi?

2. O'xshash va qarama-qarshi fikrlarni solishtirish. Turli manbalardagi fikrlarni taqqoslash orqali muammoni har tomonlama tahlil qilish.

Misol: Iqlim o'zgarishi haqida ikkita maqolani o'qib, ularning dalillarini solishtirish. Savol berish va yozma xulosalar chiqarish. Matn o'qilgandan so'ng, talabalar savollar yaratadi va o'z xulosalarini yozadi.

“What is the most convincing argument presented in the text, and why?”

3. Badiiy va ilmiy asarlarni o'qish. Badiiy asarlar orqali muammolarga estetik qarash, ilmiy maqolalar orqali esa mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Misol: George Orwellning *“Animal Farm”* asarini o'qib, jamiyat va hokimiyat mavzusini tahlil qilish.

Bahs-munozaralarga tayyorgarlik sifatida o'qish

1. O'qib anglash bo'yicha chuqur savollar berish

O'quvchilarga matnni o'qish davomida asosiy g'oyalarni izlash va ularni mustaqil tahlil qilish uchun savollar beriladi. Bu usul o'quvchilarning matnni oddiy yodlashdan ko'ra uni chuqur tushunishga undaydi. Masalan, *“Inson huquqlari haqida nima bilasiz va matnda u qanday ifodalangan?”* yoki *“Qahramonning qarorlari qanday ta'sir ko'rsatdi va siz bu qarorlarni qanday baholaysiz?”* kabi savollar tanqidiy fikrlashga olib keladi. Ushbu savollar orqali o'quvchilar matnning ma'nosini izlab, o'z shaxsiy fikrlarini ham bildirishadi.

Misol: Agar o'quvchilar Martin Lyuter Kingning *“I Have a Dream”* nutqini o'qishsa, ular uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

“Martin Lyuter King nima uchun ushbu nutqni aytishga qaror qildi va qanday maqsadga erishishni xohladi?”

“Nutqdagi eng ta'sirli jumla qaysi va nima uchun?”

“Agar siz shu davrda yashagan bo'lsangiz, qanday o'zgartirishlarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lardingiz?”

Bu savollar o'quvchilarning nutqni har xil nuqtayi nazardan tahlil qilishlariga va undagi g'oyalarni chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

2. Fikrni ifodalash va muhokama qilish usuli

Ingliz tili darslarida o'quvchilarni ma'lum mavzuda o'z fikrlarini ochiq ifodalashga o'rgatish muhimdir. Ushbu usul orqali ular o'z nuqtayi nazarlarini bildirishadi va boshqa o'quvchilar bilan fikr almashadilar. Bu jarayonda ular nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki boshqa fikrlarni hurmat qilishni va o'z fikrlarini asoslab berishni ham o'rganadilar.

Misol: O'quvchilar *“The Great Gatsby”* asaridan bir parcha o'qigan bo'lsa, dars davomida quyidagi savollarni muhokama qilish mumkin:

“Nima uchun bosh qahramon pulga intilgan, ammo baxt topmagan, sizningcha, bu nimani anglatadi?”

“Hozirgi zamonda ham odamlar boylikka qiziqishi ortib bormoqda, bu haqida nima deb o'ylaysiz?”

“Agar o'zingiz bu asarda qatnashayotgan bo'lsangiz, qaysi qahramonni tanlardingiz va nima uchun?”

Bu savollar o'quvchilarning asarni tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqishlariga va o'z shaxsiy fikrlarini asoslab berishga imkon yaratadi.

3. “Sokrat suhbat” texnikasi

“Sokrat suhbat” – o‘quvchilarning savollar orqali fikrlashini rivojlantirishga mo‘ljallangan texnika. Ushbu texnika yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni matndagi g‘oyalari va mavzular haqida savollar berib o‘ylantiradi, turli nuqtayi nazardan qarashni rag‘batlantiradi.

Misol: Agar dars mavzusi klimat o‘zgarishi bo‘lsa va o‘quvchilar atrof-muhit haqida maqola o‘qishsa, quyidagi savollar bilan suhbat o‘tkazish mumkin:

“Maqolada qanday dalillar keltirilgan va ular qanchalik asosli?”

“Agar siz muallif o‘rnida bo‘lganingizda, qaysi qo‘shimcha dalillarni kiritgan bo‘lardingiz?”

“Muallifning fikrlariga qanday qaraysiz? Yana qanday takliflaringiz bor?”

Bu savollar o‘quvchilarni muallifning nuqtayi nazarini tahlil qilishga va o‘z nuqtayi nazarlarini rivojlantirishga undaydi.

4. “Keling, bahslashaylik” (debate) usuli

Bahslar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini himoya qilishni va asoslab berishni o‘rganadilar. Tanqidiy fikrlash bahs va munozaralarda mustahkamlanadi, chunki bunda o‘quvchilar bir masalani turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladilar. Bu usul nafaqat til ko‘nikmalarini, balki mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Misol: Agar o‘quvchilar mobil telefonlarning ta‘limdagi o‘rni haqida bahslashayotgan bo‘lsalar, ularga ikki tomonlama dalillar taqdim etish mumkin:

Jadvallashgan savollar: “Mobil telefonlar ta‘limga qanday foyda keltiradi?”, “Ular o‘quvchilarning e‘tiborini chalg‘itishi mumkinmi?”

Bahs davomida bir guruh telefonlardan ta‘limiy resurs sifatida foydalanishni himoya qilsa, boshqa guruh esa ularning zararli tomonlarini baholaydi. Bu munozara o‘quvchilarning fikrlarini asoslash va o‘z nuqtayi nazarlarini qat‘iy himoya qilishga yordam beradi.

5. “Masalani hal qilish” usuli

O‘quvchilarni real hayotiy muammolar bilan tanishtirish va ularni echish yo‘llarini izlash tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘quvchilar muammoni chuqur tahlil qilish va unga yechim topish orqali o‘z fikrlarini shakllantiradi.

Misol: O‘quvchilarga “Odamlarning ekologik mas‘uliyati” mavzusida muammoli vaziyat berilishi mumkin. Masalan:

“Agar sizning mahallangizda ifloslanish kuchaysa, qanday chora-tadbirlar ko‘rgan bo‘lardingiz?”

“Odamlar ekologiyani asrash uchun qanday kundalik odatlarni kiritishlari mumkin?”

Bu usul orqali o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy g‘oyalari va takliflarini ishlab chiqib, real muammolarni hal qilish uchun ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning qo‘shimcha metod va texnikalari

1. Rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlarni sahnalashtirish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yana bir samarali usuli rolli o‘yinlar (role play) va muammoli vaziyatlarni sahnalashtirishdir. Bu texnika orqali o‘quvchilar o‘zlarini turli xil vaziyatlarga qo‘yib, qaror qabul qilish va masalalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarni o‘zlariga notanish bo‘lgan holatlarni o‘rganishga va ularni tushunishga undaydi.

Misol: Agar o‘quvchilar xalqaro biznes muzokaralari haqida ma‘lumot o‘rganyotgan bo‘lsalar, ularga quyidagicha rolli o‘yin o‘tkazish mumkin:

Vaziyat: Bir guruh o‘quvchi Amerika kompaniyasi vakillari, boshqalar esa Xitoy kompaniyasi vakillari rovida chiqishadi. Muzokaralar davomida ular biznes kelishuvi haqida suhbatlashib, har bir tomonning manfaatlarini himoya qilishga harakat qilishadi.

Ushbu rolli o‘yin davomida o‘quvchilar boshqa madaniyatlar va ularning muzokaralar olib borish uslublari haqida ko‘proq bilib olishadi va o‘z fikrlarini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu texnika o‘quvchilarga o‘z pozitsiyalarini himoya qilish, boshqa nuqtayi nazarni tushunish va murosaga kelish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ishonchli manbalarni aniqlash va baholash

Bugungi axborot asrida o‘quvchilar ko‘plab manbalarni o‘qiydilar, ammo har bir manba ishonchli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ingliz tili darslarida o‘quvchilarga axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash, ularni taqqoslash va ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish o‘rgatiladi. Bu usul o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashda juda muhim.

Misol: Agar mavzu global isish haqida bo‘lsa, o‘quvchilarga turli xil maqola va veb-saytlar taqdim etiladi. Ularga:

“Qaysi maqolani ishonchli deb hisoblaysiz va nega?”

“Bu manbada berilgan dalillar qanchalik aniq va haqiqatga mos?”

“Agar siz tadqiqot olib bormoqchi bo‘lsangiz, qanday manbalardan foydalanasiz?”

Bu savollar o‘quvchilarni axborotning ishonchligini baholashga undaydi va ular ishonchli dalillar asosida fikrlashni o‘rganadilar.

3. "Grafik organizatorlar" yordamida fikrni strukturalash

Grafik organizatorlar, masalan, Venn diagrammalari, *tarmoqlash* diagrammalari (mind map), yoki konsepsiya xaritalari o‘quvchilarning fikrlarni strukturalashda yordam beradi. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar matndagi asosiy g‘oyalarni osonroq anglab, o‘z fikrlarini tahlil qila oladilar.

Misol: O‘quvchilarga “Do‘stlik va sadoqatning ahamiyati” haqida matn berilgan bo‘lsa, ular Venn diagrammasi yordamida:

“Do‘stlik” va “Sadoqat” mavzularidagi o‘xshashlik va farqlarni keltirib chiqishadi. Ushbu diagramma orqali ular asosiy g‘oyalarni tizimlashtirgan holda, matnni tanqidiy ko‘z bilan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul fikrlarni mantiqiy ravishda tizimlashtirish va ular orasidagi bog‘liqliklarni ko‘rishga yordam beradi, bu esa tanqidiy fikrlashni yanada mustahkamlaydi.

4. “Savollar piramidasi” usuli bilan chuqur tahlil

“Savollar piramidasi” yoki Blooms taksonomiyasi asosida savollar berish o‘quvchilarning fikrlash darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu usulning asosiy maqsadi oddiy savollardan murakkab savollarga o‘tish orqali tanqidiy fikrlashni kuchaytirishdir.

Misol: Agar o‘quvchilar Shekspirning “Hamlet” asarini o‘qiyotgan bo‘lsalar, ular uchun quyidagicha savollar piramidasi tuzish mumkin:

Tushunish: *Hamletning harakatlari qanday? U o‘z qarorlarida adolatli edimi?*

Tahlil: *Hamletning o‘ziga xos qarorlari qanday oqibatlariga olib keldi?*

Tadbirkorlik: *Agar siz Hamlet o‘rnida bo‘lsangiz, qanday qarorlar qabul qilgan bo‘lardingiz va nima uchun?*

Bu piramida shaklidagi savollar o‘quvchilarni har bir bosqichda chuqurroq fikrlashga va asarni kengroq tahlil qilishga undaydi.

5. Tadqiqot loyihalari va jamoaviy ishlash

O‘quvchilarga tadqiqot loyihalari orqali turli mavzularda mustaqil yoki jamoaviy ish olib borish imkoniyatini berish ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Tadqiqotlar davomida o‘quvchilar mustaqil ravishda axborotni izlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosalar chiqarishni o‘rganadilar.

Misol: Mavzu sifatida o‘quvchilar yashil texnologiyalar va ekologiya haqida tadqiqot olib borishlari mumkin. Ular quyidagi vazifalarni bajaradilar:

Internetda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish.

Boshqa mamlakatlarda qanday ekologik loyihalar amalga oshirilayotganini o‘rganish. Loyihaga o‘zlarining ekologiyani asrash bo‘yicha taklif va g‘oyalarni kiritish. Bu jarayon davomida o‘quvchilar mavzuni chuqurroq anglash bilan birga, real hayotiy muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganadilar.

Xulosa. Ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu texnikalar o‘quvchilarni mustaqil tahlil qilishga, axborotni chuqur anglashga va turli nuqtayi nazardan fikr yuritishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu usullarni qo‘llash orqali darslarni nafaqat mazmunli, balki qiziqarli va ijodiy shaklda olib boradi, natijada o‘quvchilar tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish bilan birga, kundalik hayotda ham bu ko‘nikmalarni samarali qo‘llashni o‘rganadilar.

Xorijiy ta’lim tizimidagi tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar va usullarni tatbiq qilish lozim. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirishda, balki ularni har qanday vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxslar sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnikalarini o‘zlashtirishlari uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilishi ham dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Stella Cottrell "Critical Thinking Skills: Developing Effective Analysis and Argument".
2. Julian Treasure "How to Be Heard: Secrets for Powerful Speaking and Listening".
3. Simon Sinek "Start With Why: How Great Leaders Inspire Everyone to Take Action".
4. Daniel Kahneman "Thinking, Fast and Slow".
5. Edward de Bono "Six Thinking Hats".

6. George Orwell "Animal Farm".
7. John C. Bean "Engaging Ideas: The Professor's Guide to Integrating Writing, Critical Thinking, and Active Learning in the Classroom".
8. R. Paul va L. Elder "Critical Thinking: Learn the Tools the Best Thinkers Use".
9. Malcolm Gladwell "Outliers: The Story of Success".

TALABALARDA NOVERBAL MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Umarova Dilafruz Anvarovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida assistent o‘qituvchisi

Ushbu maqolada noverbal muloqot va uning kommunikatsiyadagi o‘rni haqida so‘z boradi. Unda emotsiya va his-tuyg‘ularni so‘zsiz yetkazish mumkinligi va buni amalga oshiruvchi paralingvistik vositalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, muloqot jarayonida paraverbal vositalarning qo‘llanilishi bayon etilgan. Kommunikatsiya nima, kommunikatsiyani tashkil qilish vositalari va shakllari xususida ham so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** noverbal aloqa almashinuvi, verbal suhbat, paralingvistik vositalar, mimika, ovoz toni, intonatsiya, kommunikatsiya, kinesika, vegetativ ko‘rinishlar.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ

В этой статье говорится о невербальном общении и его роли в коммуникации. Дается информация о возможности передачи эмоций и чувств без слов и о паралингвистических средствах, позволяющих это сделать, а также описывается использование паравербальных средств в процессе общения. Что такое общение, также обсуждаются средства и формы организации общения.

***Ключевые слова:** невербальный коммуникативный обмен, речевая беседа, паралингвистические средства, mimika, тон голоса, интонация, общение, кинесика, вегетативные проявления.*

FORMING NONVERBAL COMMUNICATION SKILLS IN STUDENTS

This article talks about non-verbal communication and its role in communication. It provides information about the possibility of conveying emotions and feelings without words and the paralinguistic tools that do this, and describes the use of paraverbal tools in the process of communication. What is communication, the means and forms of organizing communication are discussed.

***Keywords:** non-verbal communication exchange, verbal conversation, paralinguistic tools, facial expressions, tone of voice, intonation, communication, kinesics, vegetative manifestations.*

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimida talabalar nafaqat bilim olish, balki o‘zaro samarali muloqot qila olish, jumladan, noverbal muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari ham zarurdir. Noverbal muloqot inson hissiyotlari va fikrlarini ifodalashda so‘zlersiz, ya‘ni tana harakatlari, yuz ifodalari, ovoz ohangi va qator boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. Talabalar orasida noverbal muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishi nafaqat ularning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlariga, balki kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis bo‘lishlariga ham xizmat qiladi. Ushbu maqola noverbal muloqotning asosiy ko‘rinishlari, talabalarga ta‘siri va ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish metodlariga bag‘ishlangan.

Noverbal muloqot – insonning so‘zlersiz, tana harakatlari, yuz ifodalari, ko‘z aloqa qilish, ovoz ohangi va boshqa usullar orqali amalga oshiriladigan muloqot turi. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, odamlar orasidagi axborot almashinuvining katta qismi noverbal usullar yordamida amalga oshiriladi. Ta‘lim tizimida bu ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quv jarayonida talabalar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, ularga taqdimotlarda o‘zini ishonchli tutish, jamoa bilan samarali ishlash, tinglovchilarni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu maqola talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati va usullarini ko‘rib chiqadi.

Noverbal muloqot- axborot va tuyg‘ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashishning ko‘p shakllarini qamrab oladi Noverbal muloqotga ba‘zan “Badan tili” sifatida qarashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Noverbal muloqot- so‘zlar yordamisiz amalga oshiriladigan muloqot ko‘pincha ongsiz ravishda yuzaga keladi. U verbal muloqotni to‘ldirib va kuchaytirib kelishi yoki aksincha, unga zid bo‘lishi va susaytirib kelishi mumkin. Noverbal muloqot ongsiz jarayon hisoblansa-da, bugungi kunda u yetarlicha o‘rganilmoqda va bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishilmoqda. Paralingvistik aloqa almashinuvi muloqotning eng qadimiy va fundamental shakli hisoblanadi. Otabobolarimiz bir birlari bilan ko‘pincha tana harakatlari, yuz ifodalari, ovozning tembri va intonatsiyasi, nafas olish tezligi, qarashlar yordamida aloqa qilishgan. Biz ham hozir bir-birimizni so‘zsiz tushuna olamiz. Noverbal til shu qadar kuchli va umumiyki, biz ko‘pincha itni ham u nimani xohlashini osongina tushuna olamiz. Noverbal muloqot odatda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Biz odatda o‘z fikrlarimizni so‘zlar shaklida

shakllantiramiz, lekin bizning ongimizdan tashqari, bizning holatimiz, yuz ifodalarimiz va imo-ishoralarimiz ham beixtiyor ifoda kasb etadi. Noverbal muloqotni o‘quv jarayonida talabalarda qo‘llash yaxshi samara beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning muhimligini ko‘rsatish va bu ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha samarali usullarni aniqlashdir.

Vazifalar quyidagicha:

1. Talabalarda noverbal muloqotning ahamiyatini tushuntirish.
2. Noverbal muloqotning asosiy elementlarini aniqlash va talabalarga tushuntirish.
3. Noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini tahlil qilish.

Mazkur maqolam yizasidan Shahrizabz davlat institutida tahsil olayotgan ta‘lim olayotgan 80 nafar talaba o‘rtasida olib borildi. Tadqiqotda so‘rovnoma va kuzatish metodlaridan foydalanildi. So‘rovnomada talabalarning noverbal muloqot ko‘nikmalari, jumladan, tana tili, yuz ifodalari va ovoz ohangi orqali o‘z fikrlarini ifoda qilish bo‘yicha qanday bilim va tajribaga ega ekanligi o‘rganildi. Shuningdek, kuzatish orqali talabalarning real vaziyatlarda noverbal muloqotni qanday qo‘llashlari baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalar noverbal muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishning muhimligini tushunishadi, lekin amaliyotda bu ko‘nikmalarni yetarli darajada qo‘llashda qiynaladilar. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalarning 60 foizi noverbal muloqotni samarali muloqot vositasi deb biladi, ammo ularning aksariyati ko‘z aloqa qilish yoki tana tilidan foydalanishda qiynalishlarini tan olishgan. Kuzatish jarayonida esa, taqdimotlarda va jamoa ishlari davomida talabalar ko‘z aloqa qilish, tana tili va yuz ifodalari orqali ishonchli muloqot qilishda muammolar borligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ehtiyojini ko‘rsatmoqda. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar va treninglar tashkil etish, amaliy mashqlar orqali ularni yanada samaraliroq amalga oshirish mumkin. Talabalar uchun noverbal muloqot bo‘yicha treninglar o‘tkazish nafaqat ularning akademik, balki ijtimoiy hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, jamoa oldida nutq so‘zlash yoki suhbatlarda tana tili va yuz ifodalari orqali o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalay olish o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi va atrofdagilar bilan muloqotni yaxshilaydi. Bugungi kunda olimlar harakat muloqotini og‘zaki muloqotdan ko‘ra ko‘proq ma‘noni etkazishi mumkinligini ta‘kidlaydilar. Ba‘zi olimlarning isbotlashicha, ko‘pchilik odamlar og‘zaki muloqotdan ko‘ra og‘zaki bo‘lmagan muloqot shakllariga ishonishadi. Harakat muloqoti insoniy muloqotning **60-70 %** tashkil qiladi, degan xulosaga keladi, garchi boshqa tadqiqotchilar: muloqot turini aniqlab bo‘lmaydi va zamonaviy insonlar imo-ishoralarga tayanib ish ko‘rishmasligi va ayniqsa, bu kundan kunga rivojlanib borayotgan va ko‘proq yozma dallillar katta ahamiyat kasb etuvchi asrda bu kabi ishoralar muloqotni aks ettirmaydi, degan fikrlarni ham olg‘a surishgan bo‘lishsa ham..

Yuqorida ta‘kilab o‘tilganidek, tana muloqoti ko‘p hollarda ovoz sifati, tezligi, balandligi, va so‘zlovchining nutq uslubiga va so‘zlash jarayonidagi yuz ifodalari, ritm va albatta intonatsiya o‘z ichiga oladi, ammo tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda tana tilidan foydalanish turli vaziyat va turli hissiyotlar ta‘siriga bog‘liqligi kuzatilgan. Bu hollarda ularni uchta asosiy hollarga qarab o‘rganish va ajratib olish mumkin: 1) atrof-muhit sharoitlari, 2) so‘zlovchining jismonit erkinligi, 3) tinglovchi fikr bildirganda so‘zlovchining hatti-harakatlari va reaksiyalari. Dunyoning yetakchi psixolog olimlari va inson ruhiyati bo‘yicha mutaxassislarining barchasining bir ovozdan ta‘kidlashicha, biz muloqot davomida suhbatdoshimizga yetkazib bergan ma‘noning faqat 30% gina bevosita so‘zlar orqali ifodalanar ekan. Boshqacha qilib aytganda, agar muloqot paytida suhbatdoshingiz sizdan 1,000 ta signal qabul qilgan bo‘lsa, shundan faqat 300 tasigina so‘zlar orqali yetkazilib berilar ekan. Yana ba‘zi manbalarda bu ko‘rsatkich 20% deb beriladi. Raqamlar turli bo‘lgani bilan, shuni aniq aytish mumkinki, insonlar orasidagi muloqotda so‘zlar oz ahamiyatga ega.

Tabiiy savol tug‘iladi: “Agar, so‘zlar ma‘no ifodalashda shunchalik oz ahamiyatga ega ekan, unda asosiy ma‘no ifodalash vazifasini nima bajaradi?” Bu savolga qisqa qilib – “Bizning tanamiz.” Deb javob berish mumkin. Keling aniq misollarga murojaat qilsak. Tasavvur qiling, siz birovdan biror narsa haqida bilish yoki bilmasligini so‘radingiz. Birinchi vaziyatda suhbatdoshingiz sizga ko‘zlarini lo‘q qilib, bo‘ynini oldinga cho‘zib, baland ovozda “Bilmayman!” dedi. Ikkinchi vaziyatda esa ro‘parangizdagi inson boshining orqa qizmini qashigan bo‘ldi, qoshlarini kerdi va “Bilmayman.” deb javob berdi. Uchinchi holatda esa javob beruvchi sizdan nigohini chetga olib qochdi va ko‘zlaringizga qaramasdan, “Bilmayman.” dedi.

Ana endi yuqoridagi misollarni tahlil qilib ko‘raylik. Birinchi misolda biz suhbatdoshimizning bizga nisbatan g‘azab tuyg‘usini ifodalayotganini tushunishimiz qiyin emas. Ikkinchi shaxsning hatti harakati esa sizga uning o‘zini noqulay his qilganligini bildiradi. Uchinchi suhbatdoshning nigohini olib qochishi undagi hijolatlik holatini ifodalaydi yoki aniq javobni aytishdan qochayotganidan darak beradi. Shuni esda tutmoq

lozimki, yuqoridagi uchala odamdan birortasi ham o‘zlari his qilib turgan holatni bizga so‘z bilan ta’riflagani yo‘q.

Tana tilini imo-ishoralar tili bilan adashtirib yubormaslik juda muhimdir. Zero imo-ishoralar tili, masalan, harbiylarda, aniq va mutloq ma’noga ega bo‘lib, faqat bir yo‘sinda tushuniladi. Bunga sabab, harbiy operatsiya paytida har bir imo ishora bir xil tushunilishi shart. Shundagina hamma askarlar birgalikda va aniq harakat qila oladi. Aks holda tarqoqlik kelib chiqadi. Tana tilida esa aynan bir xil belgi holatdan kelib chiqib turlicha talqin qilinishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek, javob berayotib nigohini olib qochgan odam yolg‘on gapirayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu odam o‘zini hijolatchilikdan qutqarish uchun nigohini olib qochgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Yapon madaniyatida ko‘zga tik qaragan holda javob berish qo‘pollik, ayrim holatlarda esa hurmatsizlik deb hisoblanadi.

Talabalarda noverbal muloqotni shakllantirish uchun bir nechta usullarni qo‘llash mumkin:

1. Tanqidiy fikr yuritish: Talabalarga noverbal muloqotning ahamiyatini tushuntirish, uning ijtimoiy vaziyatlardagi rolini o‘rganish.

2. Mashqlar: Tanlovlar va interaktiv o‘yinlar orqali talabalarga noverbal ifodalarni o‘rsatish va ularga javob berishni o‘rganish imkoniyatini berish.

3. Rol o‘ynash: Har xil vaziyatlarda noverbal muloqotni o‘rganish uchun rollarni ijro etish, bu orqali talabalarining kuzatuvchanlik va o‘zini tutish qobiliyatini rivojlantirish.

4. Tahlil qilish: Videolar yoki sahnalar orqali noverbal muloqotni tahlil qilish, talabalarga muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz noverbal kommunikatsiyani ko‘rsatish.

5. Vaqt va makon: Talabalarga muayyan vaziyatlarda noverbal muloqotning qanday o‘zgarishini ko‘rsatish va ularni vaqt va makonga mos ravishda o‘rganishga undash.

Bu usullar yordamida talabalarda noverbal muloqotni samarali ravishda shakllantirish mumkin.

O‘zbek madaniyatida inson bilan ko‘rishish va uni qarshilash juda muhim ahamiyatga ega. Aytaylik, yoshlar Yoshi kattalarga albatta salom beradilar va kattalar alik oladilar. Bu jarayonda, shubhasiz, tana harakatlari ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun, salom berayotganda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib salom berish katta hurmat belgisidir. Salomlashish paytida qo‘lni cho‘ntakka solgan holda salomlashish hurmatsizlik hisoblanadi. Yoshi kattalar bilan qo‘l berib ko‘rishayotgan ikki qo‘llab ko‘rishish ularga nisbatan hurmat belgisidir.

Yuqoridagi fikrlarga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, tana a’zolari tomonidan ifodalanadigan ma’nolar hayotimizning har bir jabhasi va turli maishiy holatlarda o‘zining yorqin aksini topgan. Inson qanday holatda bo‘lmasin, xoh ixtiyoriy, xoh g‘ayri ixtiyoriy tarzda tana tilidan foydalanadi. Biroq ko‘pchilik bu tilni unchalik ilg‘ay olmaydi. Tana tili yaxshi tushuna olish esa insonga katta ustunlik va imkoniyatlar bera oladi, chunki uni yaxshi bilgan inson har doim suhbatdoshining haqiqiy maqsadi va fikrlarini aniq ilg‘ay oladi. Bunday bilim esa bizga har doim juda asqotishi mumkin.

Birov bilan muloqot qilayotganingizda, shu odamning sizga nisbatan hurmat ko‘rsatayotgani, yoki aksincha, sizni mensimay muloqot qilayotganini sezganmisiz? Ro‘parangizda siz bilan gaplashayotgan odamning sizga yolg‘on gapirayotgani yoki samimiyat bilan aynan haqiqatni aytayotganini his qilganmisiz? Bu savollarga darhol “Ha!”, “Yo‘q!” deb javob berish qiyin, albatta. Biroq, agar bu haqida yaxshiroq fikrlasangiz, bunday holatlar ro‘y berganligini eslashingiz mumkin. Xo‘sh, o‘sha sizga nisbatan o‘zini tavoze‘ bilan tutayotgan shaxs “Men sizga hurmat ko‘rsatayapman.” – deb aytganmi sizga? Yoki sizni aldashga urinayotgan tanishingiz so‘z bilan “Men hozir sizni aldayapman.” – deb tan olganmi? Aslo bunday emas. Inson suhbat davomida o‘zining yonidagi insonga bo‘lgan munosabatini so‘z bilan izhor qilmaydi. Unday bo‘lsa, yuqorida berilgan savollarning javobini qayerdan bildingiz? Keyingi satrni o‘qishga kirishishdan oldin shu savolga javobni topishga harakat qiling.

Xulosa. “So‘zsiz muloqot-bu eng jozibali va ishonchli muloqot”. Inson muloqot qilganida nafaqat og‘zaki ma’lumotlarini tinglaydi, balki bir-birining ko‘zlariga qarashni, ovoz, intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralarni sezadi. So‘zlar orqali ma’lumotlar mantiqan ifodalansa, imo-ishoralar, yuz ifodalari, ovoz ma’lumotlarni to‘ldirib keladi, ma’nosiga ma’no qo‘shadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar uchun maxsus treninglar, seminarlar va jamoaviy mashg‘ulotlar orqali noverbal ko‘nikmalarni shakllantirish muhimdir. Shu orqali ular o‘z fikrlarini yanada aniq va ishonchli tarzda yetkazish, jamoadagi munosabatlarni mustahkamlash va ta’limda yuksak natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Hech kimga sir emaski, insonning yuzi u haqidagi eng birinchi ma’lumot va taassurotni beruvchi a’zodir. O‘zbek tilida biror jismning darhol ko‘zga tashlanadigan qismi bejiz “yuz” deb atalmaydi. Masalan, *nonning yuzi*. Qolaversa, aynan yuz insonning his tuyg‘ulari va ruhiy holatini eng aniq ko‘rsatib beruvchi a’zodir. Masalan, xursandlik, xafalik, g‘azab, samimiylik kabi holatlar avvalo yuz orqali aks ettiriladi.

Yuz ifodasining paydo bo‘lishida qosh, ko‘zlar, burun lablarning ham o‘rni katta. Ularning o‘zaro mushtaraklik bilan harakatlanishi orqali inson o‘z kechinmalarini aniq ifodalay oladi. O‘zbek tilidagi “Ko‘zini suzdi”, “Labini burdi”, “Qoshini uchirdi” kabi iboralarimiz aynan shu a’zolar hosil qiluvchi yuz ifodalarini ta’riflaydi.

Shuni esda tutmoq lozimki, yuz insonning ruhiy holati va hissiyotlarini har qancha aniq aks ettirmasin, u har doim tananing boshqa qismlari (qo‘l, yelka, oyoq) bilan doim birgalikda ishlaydi va shu orqaligina bizga aniq manzarani taqdim eta oladi.

Adabiyotlar:

1. Kakharov, K., & Usmonova, M. (2022). Nonverbal Means of Uzbek and English Speech Etiquette. // *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(5), 61-65.
2. Kakharova, S. (2022). Speech as a Tool of Pedagogical Activity of the Teachers. // *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 61-64.
3. Kakharova, S. (2022). Culture of Communicative Interaction between Teachers and Students during Pedagogical Cooperation. // *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 96-98.
4. Luckhardt, K. Stylistic Interpretation of the Communication in Chat. *Corpus Studies on the Basis of Media Chat [Text]* / K. Luckhardt. - Dortmund, 2009. - 208
5. Orthmann, C. Structures of the Communication in Chat. *Conversational Studies of Kids and Young People’s Chat [Text]* / C. Orthmann. - Berlin, 2004. - 185 p.
6. Ovcharova, K.V. Computer Chats in Internet Communication: Content and Functional Characteristics: Synopsis of Diss. ... Cand. of Philology: 10.02.19 [Text] / K.V. Ovcharova. - Krasnodar: Kuban State University, 2008. - 28 p.
7. Allan Piz Tana tili – Gafur G‘ulom nashriyoti, - 2021.

TALABALAR FAOLIYATIDA ILMIY IJOD VA ILMIY TADQIQOT MASALALARI

*Usmonov Abdulla Abdumannopovich,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi
abdullausmonov03@gmail.com*

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari bakalvriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, rivojlantirish va natijada talabalarning ma’lum hajmdagi bilim olishlari, mustaqil izlanishlari, olingan bilimlarni takomillashtirishlari hamda tadqiqot usullarining puxta o‘zlashtirishi natijasida ilmiy muammolarni hal qilishning nostandart usullari va turli xil ma’lumotlar oqimini tahlil qilish va umumlashtirishga o‘rgatilishi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy tadqiqot maqsadi, professor-o‘qituvchilarning motivatsiyasi, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimi, talabalar tomonidan tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish.*

ПРОБЛЕМЫ НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА И НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются вопросы организации и развития научно-исследовательской работы студентов бакалавриата высших учебных заведений, в результате которой студенты приобретают определённый объём знаний, проводят самостоятельные исследования, совершенствуют полученные знания, основательно осваивают методы исследования, а также нестандартные методы решения научных задач. Объясняется, что студентов учат анализировать и обобщать различные потоки данных.

Ключевые слова: *цель научных исследований, мотивация преподавателей, система научно-исследовательской работы студентов, осуществление студентами исследовательской деятельности, развитие научно-исследовательской работы студентов.*

SCIENTIFIC CREATIVITY AND SCIENTIFIC RESEARCH IN STUDENT ACTIVITIES

The article discusses the organization and development of research work of undergraduate students of higher educational institutions and, as a consequence, the acquisition by students of a certain amount of knowledge, independent research, improvement of acquired knowledge, and in-depth development of research methods. As a result of solving scientific problems, non-standard methods of analyzing and summarizing various data streams are described and taught.

Keywords: *the purpose of scientific research, motivation of teachers, the system of students’ research work, the implementation of research activities by students, the development of students’ research work.*

Kirish. Ma’lumki, ilm-fan tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi ishonchli bilimlarning maxsus tizimidir. Zamonaviy dunyoda inson ma’naviy madaniyatining ilm-fan va ta’lim kabi sohalari muhim o‘rin tutadi.

Ilm-fan – yangi bilimlarni (qonunlar, nazariya tushunchalari) olish, asoslash va tizimlashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

Ilm-fan inson ma’naviy madaniyatining sohalaridan biri bo‘lsada, inson ma’naviy hayotining boshqa sohalari bilan (ayniqsa, ta’lim sohasi bilan chambarchas) bog‘langan muhim ijtimoiy institutdir.

Shuningdek, ilm-fan ma’naviy hayot sohasi sifatida o‘ziga xos fan etikasiga ega bo‘lib, u oliy axloqiy qadriyatlardan, ilm-fanni oliy ezgulikka yo‘naltirishdan iborat. Ilmiy axloqning o‘zagi fanning barcha ijtimoiy sohalarda roli kuchayishi sharoitida olimlarning erkinligi va ijtimoiy mas’uliyatini anglashdan iboratdir.

Inson taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarida ilm-fan qachon paydo bo‘ldi va bunga nimalar sabab, asos bo‘ldi degan savolga quyida javob topib ko‘ramiz.

Ilm-fan tarixi – turli fanlarning rivojlanishi yoki zamonaviy ilmiy dunyoqarash tarixi: fan tomonidan qayd etilgan ilmiy ta’limotlar, faktlar va hodisalarning tarixiy rivojlanishi tasviri, metodologiyasi, g‘oyalari, dunyoqarashlar, jarayonlar va vaqt o‘tishi bilan kuzatilishi mumkin bo‘lgan muammolarning ta’siri[3].

Ilm-fan, xususan, ilmiy jamoatchilik tomonidan olingan dunyo haqidagi empirik, nazariy va amaliy bilimlar yig‘indisidir. Bir tomondan, fan obyektiv bilimni, ikkinchi tomondan, uni odamlar tomonidan

o‘zlashtirish va ulardan foydalanish jarayonini ifodalaganligi sababli, fanning vijdonli tarixshunosligi nafaqat tafakkur tarixini, balki rivojlanish tarixini ham hisobga olishi lozimligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ilm-fan tarixini o‘rganish ko‘plab saqlab qolingani asl yoki qayta nashr etilgan matnlarga tayanadi. Biroq, “fan” va “olim” so‘zlari faqat XVIII-XX asrlarda qo‘llanila boshlandi va bundan oldin tabiatshunoslar o‘zlarining ishlarini “tabiiy falsafa” deb atashgan.

Garchi empirik tadqiqotlar qadim zamonlardan beri ma‘lum bo‘lsada, (masalan, Arastu va Teofrast asarlari) va ilmiy metodlar asosan o‘rta asrlarda rivojlangan bo‘lsa ham (masalan, Ibn al-Haysam, al-Beruniy yoki Rojer Bekon), zamonaviy ilm-fanning boshlanishi G‘arbiy Yevropada XVI-XVII asrlarda sodir bo‘lgan ilmiy inqilob deb ataladigan zamonaviy davrga to‘g‘ri keladi.

Ilmiy metod zamonaviy ilm-fan uchun shu qadar muhim sanaladiki, ko‘pchilik olimlar va faylasuflar ilmiy inqilobgacha bo‘lgan ishlarni “ilmgacha bo‘lgan ish” deb hisoblashadi. Shu sababli, fan tarixchilari ko‘pincha o‘z tadqiqotlariga antik va o‘rta asrlarni kiritish uchun fanga bizning davrimizdagidan ko‘ra kengroq ta‘rif beradilar[8].

Asosiy qism. Dunyoda rivojlangan mamlakatlarning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishidan keyin ta‘lim dasturlariga qo‘yiladigan talablar o‘zgartirildi. Zamonaviy talabalar keng ko‘lamli ishlarni bajarishda faol bo‘lishlari, hayot davomida o‘rganishlari, rivojlanish va o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan doimiy shug‘ullanishlari, madaniy xilma-xillikni tushunishlari va o‘zgalarni hurmat qilishlari lozim sanaladi. Boshqacha aytganda, ta‘lim jarayoni mamlakatning moddiy va intellektual salohiyatini qayta ishlab chiqarish va rivojlantirish, xalqaro mehnat bozorida ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta‘minlashni ustuvor vazifa etib belgilangani, shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta‘lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilinayotgani quvonarli hol. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Ta‘lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.”[1] Buning uchun, ta‘lim muassasalarida sifatini oshirish, ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat o‘quv davridan talabalarining ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlarini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi.

Zamonaviy ta‘limning samarali rivojlanishini oliy ta‘lim muassasalarida talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali erishish mumkindir. Bugungi kunda talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u butun o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Binobarin, uni shunday tashkil etish kerakki, natijada talabalar nafaqat ma‘lum hajmdagi bilim olishlari, balki ularda mustaqil izlanishga intilish hosil bo‘lishi, olingan bilimlarni takomillashtirishi, tadqiqot usullarini puxta o‘zlashtira olishi; ilmiy muammolarni hal qilishning nostandart usullari, turli xil ma‘lumotlar oqimini tahlil qilish va umumlashtirishga o‘rgatilishi bilan ahamiyatlidir.

Oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot ishi maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- ❖ maxsus va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda mustaqillikni rivojlantirish;
- ❖ talabaning mavhum tafakkurini rivojlantirish;
- ❖ talabalarda mustaqil fikrni shakllantirish va uni himoya qila olish qobiliyatini rivojlantirish;
- ❖ talabalarining auditoriyada muloqot qilish, anjumanlarda nutq so‘zlash qobiliyatini rivojlantirish;
- ❖ talabalarda topshirilgan vazifani mas‘uliyat bilan ado etish hissini shakllantirish;
- ❖ talabalarining o‘ziga ishonchini oshirish, bajarilgan ishning ahamiyatini anglash;
- ❖ talabalarda tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishni davom ettirish istagini rivojlantirish.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birlamchi shart – chuqur bilim sohibi bo‘lish. Bilim odatda o‘qish-o‘rganish orqali egallanadi. Talaba maktab, litsey yoki kollejda olgan bilimni oliy ta‘lim muassasasida o‘zi tanlagan fanlar bo‘yicha chuqurlashtiradi. Yosh tadqiqotchilarning bilimni oliy ta‘lim muassasasida majburiy hamda tanlov fanlar hisobiga o‘zlashtirgan bilimlari tashkil qiladi. Talaba ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi ana shu bilim poydevorini o‘z mustaqil mehnati, o‘qib-o‘rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni chuqur o‘rganishi zarur.

Tadqiqot faoliyatini tashkil etishda professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifasi talabalarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb qilish uchun motivatsiyani to‘g‘ri qo‘ya bilishidir. O‘qituvchi talabalar ijodiy faoliyatining asosiy tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi. O‘qituvchilarning yuqori kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati talabaning ilmiy tadqiqot ishda ishtirok etishiga qiziqish va ishtiyoqini shakllantiradi, buning natijasida ularda kognitiv faollik keskin oshadi.

Kasbiy faoliyat bo‘yicha bilim va tajriba talaba tomonidan sekin astalik bilan to‘planib boradi. Talabalar oliy ta‘lim muassasasida o‘qishning dastlabki kunlaridanoq o‘zlarining ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishlari lozim, chunki har bir shaxsning ijodiy salohiyati uning hayotiy faoliyatiga qarab rivojlanadi va agar u yangilanmasa, ijodkorlik faqat ijodiy faoliyat uchun zarur shart bo‘lib qoladi.

Ijodkorlik o‘zgaruvchidir, bu borada K.Rojers shunday deydi: “Inson – bu xususiyatlarning muzlatilgan yig‘indisi emas, balki doimiy o‘zgaruvchan imkoniyatlar gulzoridir”[5].

Oliy ta‘lim muassasalarida sifatli kadrlar tayyorlash muhitida bo‘lajak pedagoglarni shakllantirish jarayoni yaxlit tizim bo‘lganligi sababli, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari birinchi darajali ahamiyatga egadir.


Birinchidan, fundamental fanlarni o‘rganish talabalardan o‘zlashtirish ko‘nikmalari sifatida ilmiy bilim va tadqiqot usullarini o‘rganishni talab qiladi.

Ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlari individuallikni, ijodiy qobiliyatlarni va dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkon beradi.

Uchinchidan, tadqiqot faoliyatida talaba shaxsining ratsionalligi ham, emotsionalligi ham uyg‘un holda amalga oshiriladi.

To‘rtinchidan, oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi tadqiqot ishlari tizimi talaba shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimi

R.L.Akoffning ta’kidlashicha, agar talabalar butun o‘quv vaqtida ma’lum vazifaga yo‘naltirilgan bo‘lsa va ular buni bajarish qobiliyatiga qarab baholansa, keyinchalik ular kasbiy faoliyatida ham vazifalar qo‘yilishini kutishadi. Biroq, bu vazifalar oliy ta‘lim muassasasida o‘qitilmaydigan real vaziyatlardan olinishi kerak.[2]

V.K.Sidorenko va P.V.Dmitrenkoning ta’kidlashicha, talabalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish ularning ijodiy kuchlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, talaba o‘z tajribasini, o‘z fikrini, dunyoqarashini shakllantirish, (shaxsiy) bilimlarini rivojlantiradi.[6]

V.I.Andreyevning fikricha, tadqiqot faoliyati faol kognitiv faoliyat bo‘lib, kognitiv faoliyatning har qanday asosi aks ettirish faoliyatidir.[3]

Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish va rivojlantirish vositalaridan biri oliy ta‘lim muassasalarida talabalari tomonidan tadqiqot faoliyatini amalga oshirishdir va unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘qitish, chunki u maxsus yaratilgan sharoitlarda yangi tajribani o‘zlashtirishga qaratiladi;
- bilim berish, buning natijasida dunyo haqida yangi bilimlar paydo bo‘ladi;
- kasbiy faoliyat tajribasini shakllantiradigan amaliyot;
- hamkorlik – biznes, jamoaviy, shaxsiy.

Muhokama va natijalar. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda o‘quv jarayoni va amaliyotning muvaffaqiyatli uyg‘unligi xarakterlidir. Tadqiqot doirasida talaba birinchi navbatda tadqiqot ishining asosiy ko‘nikmalarini egallaydi, so‘ngra amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy bilimlarni tadqiqotda o‘zlashtira boshlaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, respublikamizning oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etilishi darajasi past bo‘lib, bu o‘z navbatida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish

uchun real imkoniyatlarni pasaytiradi. Talabalarning ilmiy ishlarga qiziqishining pastligini va ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashmasligining umumiy sabablari sifatida ta'lim maydonining barcha subyektlari faoliyatini integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatish mumkin. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish sharti uni rejalashtirish va tashkil etishga kompleks yondashuvni talab etadi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari tizimining mazmuni va tuzilishini takomillashtirish;
- ta'lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot ishlarini keng va sifatli joriy etish;
- o'quv rejalaridan tashqari bajariladigan talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;
- talabalarning ilmiy izlanish darajasini oshirish va ularni amaliyotga joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish tajribasini o'rganish, umumlashtirish va tarqatish bo'yicha ishlarni kuchaytirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari muammolari bo'yicha ilmiy mavzular ishlab chiqish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etayotgan talabalar va o'qituvchilarni samarali rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatida asosiy talab ularning mustaqil qaror qabul qilishi, qiyinchiliklarni yenga olishi, yangiliklarni o'rganishiga erishishdir. Natijada, talaba shaxsining keyingi rivojlanish bosqichiga sifat jihatidan, ya'ni kasbiy o'sishi kafolatlanadi.

Yana shuni ishonch bilan aytish lozimki, oliy ta'lim muassasasida talabalar tadqiqot ishlarini tashkil etish:

birinchidan, talabalarning kasbiy va eng qiziqarli sohadagi bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishlariga imkon beradi;

ikkinchidan, tadqiqot faoliyati jarayonining o'zi talabaning o'z-o'zini tarbiyalashi hamda tizimli ishlarni bajarishi, ma'lumotlarni uslubiy va izchil tahlil qilishi va tasniflash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi;

uchinchidan, ilmiy-tadqiqot ijodiy faoliyat bo'lib, tadqiqotning o'zi ham, uning natijalarini matn shaklida taqdim etish ham talabaning ijodiy salohiyatini ochib beradi;

to'rtinchidan, tadqiqot nafaqat yozma hisobotlarni, balki og'zaki taqdimotlarni ham o'z ichiga olishini inobatga olsak, bularning barchasi talabalarda o'z fikr va ilmiy ish tezislarini shakllantirishga, o'z qarashlarini aql bilan asoslashga o'rgatadi;

beshinchidan, tadqiqot jarayonida talabalar AKTlardan foydalanish bo'yicha texnologik hamda kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022.21.12. // <https://xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
2. Акофф Р. Искусство решения проблем - The Art of Problem Solving. / Пер. с англ. под ред. Е. Г. Коваленко [Для научных библиотек]. – М.: Мир, 1982. – 224 с.
3. Андреев В.И. Педагогика высшей школы. Инновационно-прогностический курс: учеб. пособие / В.И. Андреев. – Казань: Центр инновационных технологий, 2013. – 500 с.
4. Вернадский В.И. Очерки по истории современного научного мировоззрения: о научном мировоззрении // Труды по истории науки. – М.: Наука, 2002. — С. 47—49.
5. Роджерс К.К теории творчества. Из книги «Взгляд на психотерапию». М 1994.
6. Сидоренко В.К. Основи наукових досліджень: Навчальний посібник для вищих педагогічних закладів освіти / – К.: РНЦ “ДІНІТ”, 2000. – 259 с.
7. https://en.wikiquote.org/wiki/Paul_Dirac
8. Dampier Wetham W. C. Science // Encyclopædia Britannica. – 11th ed. – New York: Encyclopædia Britannica, Inc, 1911.

**MEDIATA’LIMNING METOD VA USULLARIDAN FOYDALANISHNING PREDMETLI
TA’LIMDAGI O’RNI**

*Xamdamov Botirali Yokubjon o‘g‘li,
Andijon davlat universiteti doktoranti
fearless.2777@mail.ru*

Maqolada mediakompetentlik rivojlanishining yetakchi pedagogik sharti universitet talabalari subyektki pozitsiyalarini faollashtirish ekanligi yoritilib, bunda ilmiy ishimiz subyekti sifatida universitetimiz talabalari tanlab olindi. Talabalar mediakompetentligining rivojlantirish modellarini turlari va ularni yaratish asoslari yoritildi va qo‘llashning amaliy ahamiyatlari yoritildi.

***Kalit so‘zlar:** anglash, tafakkur, idrok, qobiliyatlarni rivojlantirish, mediata’lim metodlari, mediatanqid, mediani loyihalash, kompetentlik.*

**РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПОСОБОВ И МЕТОДОВ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В
ПРЕДМЕТНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

В статье подчёркивается, что ведущим педагогическим условием развития медиакомпетентности является активизация предметных позиций студентов вуза, в рамках которой в качестве субъекта нашей научной работы были выбраны студенты нашего вуза. Были объяснены виды моделей развития медиакомпетентности студентов и основы их создания, а также объяснена практическая значимость их применения.

***Ключевые слова:** понимание, мышление, восприятие, развитие навыков, метод медиаобразования, медиакритика, медиадизайн, компетентность.*

**THE ROLE OF USING METHODS AND WAYS OF MEDIA EDUCATION
IN SUBJECT EDUCATION**

The article emphasizes that the leading pedagogical condition for the development of media competence is the activation of subject positions of university students, within the framework of which students of our university were chosen as the subject of our scientific work. The types of models for developing students’ media competence and the basis for their creation were explained, as well as the practical significance of their application.

***Keywords:** understanding, thinking, perception, skill development, media education method, media criticism, media design, competence.*

Kirish. So‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar ta’limi va tarbiyasi, ularning o‘zib ulg‘ayishi va har tomonlama kamol topishi uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan. Birgina maktab ta’lim tizimini takomillashtirish yuzasidan so‘nggi besh yil ichida ko‘plab qaror va farmonlar imzolandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Konsepsiyada qayd etilishicha, o‘quvchilarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqishni hamda maktab ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi [1]

Talabalar medialarni argumentli baholash qobiliyatlarini samarali rivojlantirish shartlari asosida B.M. Bim-Bad tomonidan tajriba o‘tkazgan va: “Insonning qobiliyatlari rivojlanishi uning buyumlar bilan amalga oshirgan harakatlari jarayonida tabiiy va samarali kechadi” deb yuritiladi.

Bunda inson nafaqat narsa va buyumlar to‘g‘risidagi so‘zlar, ularning atalishiga emas, balki bevosita tevarak-atrofdagi tabiiy, suniy, jismoniy yoki axloqiy real narsa-buyumlar bilan ishlashi talab etiladi va anglash, mushohada qilish, fikr yuritish kabi jihatlar ularga amal qilish orqali yuzaga keladi.

Bilish jarayonida o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati, ularni har birining o‘ziga xos aloqada individual hissa qo‘shishi, o‘zaro bilimlar, g‘oyalari va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushuniladi. Shu bilan birga, bularning hammasi o‘zaro xayrixohlik va qo‘llab – quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu


esa o‘z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o‘zini ham rivojlantiradi, uni yanada yuqoriroq kooperatsiya va hamkorlik pog‘onalari olib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi yillarda mediata‘limning rivojlanishi va jamiyatni qamrab olishi natijasida turli mafkuraviy tahdidlar kuchaydi. Mafkuraviy tahdidlar mediatahdidga aylanib qolmasligi uchun ham mediata‘limning tub mohiyati va metodlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

“**Kompetentlik**” bugungi ta‘lim jarayonlarining negizini tashkil qilib, bunda pedagogik kategoriya sifatida ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini ko‘zda tutadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “*kompetensiya*” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:



Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida, turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to‘liq to‘plamini nazarda tutish kerak bo‘ladi. Bunda inson duch kelib qolgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta‘sir etadi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda echishga olib keladigan dialogli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Interfaol metod bitta so‘zga chiquvchining, shuningdek, bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi. Dialogli o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqat qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo‘llaniladi.

Har qanday anglash va bilish faol mushohadadan kelib chiqishi va unga qaytib ish ko‘rishi xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Keyinchalik predmetli ta‘lim o‘z tarkibida o‘z harakatlari usulini mujassam qiladi, ya‘ni o‘zlikni anglash, aql, ijodiy tasavvur, hayolot, idrok - qobiliyatlarni rivojlantirishning dastlabki punkti hisoblanadi.

Shunday tartibda anglanadigan tushunchalar o‘quvchilarni maishiy hayot zanjirida “tug‘ilish”, shakllanish, paydo bo‘lish, tayyorlash, qo‘llash singari hodisalar mohiyatini bilishga o‘rgatadi. Buning natijasida mohiyat, mazmun, ahamiyat, qadriyat nima ekanligini teran anglab boradilar» [2].

Muhokama. Bizning tadqiqotimiz uchun mediata’limning quyidagi metod va usullarini qo‘llash katta qiziqish uyg‘otdi:

1. Axloqiy rivojlanish va mediaga moyillikni aniqlashga qaratilgan testlarni tashkil qilish.
2. L.Kolbergning axloqiy dillemlar metodi.
3. Mediabiografik metod.
4. Mediamatni narrativ tahlil qilish metodi.

Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholashdan iborat hisoblanadi. [3]

U yoki bu mediamatnda muammoga oid mulohazalarni asoslashda D.Mit tomonidan ishlab chiqilgan hamda tadqiqotimiz maqsadlariga moslashtirilgan mediamatnlar tahlili modelidan foydalandik [4]. Muallif o‘z kelayotgan avlodning mediga nisbatan qadriyatlari rivojlanishini matndagi xabarni didaktik yo‘l bilan narrativ etik tahlilni qo‘llash orqali amalga oshirishni asoslaydi:

Model tahlili: Nima his qilinadi? Mediamatnda gap nima xususida bormoqda?

Xabar amaliyoti tahlil: Qanday xabar qilinadi? Xabar qanday shaklda kelib chiqadi?

Xabar axloqi tahlili: Nima uchun xabar qilinadi? Gap qanday qadriyatlar to‘g‘risida bormoqda? Mazkur qadriyatlar qanday tanlovni ko‘rsatadi? Muallif bunga qanday erishadi?

По результатам опроса, лишь 38% студентов заявили о наличии у них достаточных ресурсов для проведения исследований. К числу таких ресурсов относятся доступ к актуальной научной литературе, специализированное оборудование и лаборатории. В большинстве вузов этого недостаточно, что ограничивает возможности студентов для выполнения качественных исследовательских проектов. Важно создавать условия для более широкого доступа к научной литературе и современному оборудованию. Одним из возможных решений является развитие совместных лабораторий, электронных платформ для работы с научными данными и создание сетевых научных проектов между вузами и исследовательскими институтами.

4. Вовлечение студентов в междисциплинарные исследования.

Исследования показали, что участие студентов в междисциплинарных проектах существенно повышает их интерес к научной работе. 78% студентов, участвовавших в междисциплинарных проектах, отметили, что это значительно расширило их научный кругозор и дало новые идеи для

дальнейших исследований. Это подтверждает важность создания междисциплинарных исследовательских групп и вовлечения студентов в проекты, которые соединяют несколько областей науки. Для улучшения результатов научно-исследовательской деятельности студентов необходимо активно развивать междисциплинарные подходы. Университеты должны создавать условия для студенческих научных проектов, которые выходят за рамки одной дисциплины и включают в себя исследования, затрагивающие различные области знаний.

5. Современные информационные технологии.

В ходе исследования также была выявлена важность использования информационных технологий в научной деятельности студентов. Применение современных инструментов для анализа данных, поиска научных публикаций и моделирования различных процессов значительно увеличивает эффективность исследований. 65% студентов, использующих специализированные программы и платформы, отметили улучшение качества своих научных работ. Необходимо развивать инфраструктуру для использования информационных технологий в научной деятельности. Включение в учебный процесс курсов по научным информационным технологиям, а также создание доступных электронных ресурсов и платформ для студентов, поможет повысить их исследовательские навыки и ускорить процесс выполнения научных проектов.

Научная новизна данного исследования заключается в комплексном подходе к совершенствованию научно-исследовательской деятельности студентов высших учебных заведений, который сочетает теоретический анализ существующих проблем с разработкой практических рекомендаций, направленных на улучшение условий для научной работы студентов. В исследовании выделяются несколько инновационных аспектов, которые не были достаточно рассмотрены в отечественной и международной практике.

1. Интеграция научно-исследовательской деятельности в учебный процесс. Хотя многие исследования затрагивают важность научной работы студентов, это исследование представляет собой систематизированный подход к интеграции научной деятельности в каждую стадию образовательного процесса. Это включает в себя создание связи между научными проектами и учебными дисциплинами, а также разработку учебных планов, которые предусматривают выполнение научных исследований как часть образовательной программы. Такой подход способствует улучшению не только качества научных исследований, но и эффективности образовательного процесса в целом.

2. Мотивация студентов через вовлечение в реальный научный процесс. В отличие от традиционных методов, когда научная работа студентов часто ограничивается написанием курсовых и дипломных работ, исследование предлагает новые способы мотивации через участие студентов в реальных научных проектах и межвузовских исследовательских группах. Это включает в себя использование современного подхода, при котором студенты становятся частью научных коллективов, работающих над актуальными проблемами, а не только выполняют абстрактные задания.

3. Модель наставничества с участием внешних экспертов и научных организаций. Новизна заключается в предложении модели наставничества, в которой помимо преподавателей вузов, в процесс вовлекаются внешние эксперты и научные организации, что обеспечивает более широкую и разнообразную поддержку студентов. Это позволит значительно повысить качество научных проектов, а также расширить научный кругозор студентов за счёт взаимодействия с практическими экспертами из различных областей.

4. Активное использование информационных технологий в научно-исследовательской деятельности студентов. В отличие от традиционных методов, исследование предлагает более активное использование современных информационных технологий и платформ для проведения научных исследований. Это включает в себя использование онлайн-курсов по исследовательским методикам, виртуальных лабораторий, специализированных баз данных, а также алгоритмов для обработки и анализа данных, что значительно повышает эффективность научной работы студентов.

5. Разработка междисциплинарных подходов к научным исследованиям студентов. В отличие от традиционного подхода, где научная деятельность студентов ограничивается одной областью знания, исследование предлагает новые междисциплинарные подходы, направленные на развитие научного мышления, которое включает взаимодействие различных дисциплин. Это позволяет студентам решать более сложные и многогранные задачи, а также развивает у них навыки интеграции знаний из разных областей.

6. Создание модели научного взаимодействия между вузами, научными учреждениями и промышленностью. Новизна данного аспекта заключается в предложении концепции активного

сотрудничества между высшими учебными заведениями, научными организациями и промышленными предприятиями. Это сотрудничество должно быть направлено на разработку совместных исследовательских проектов, участие студентов в реальных научных разработках, а также на создание условий для коммерциализации научных результатов. Такая модель сотрудничества позволяет не только углубить научные исследования, но и повысить практическую ценность научных разработок, осуществляемых студентами.

В результате научной новизны были получены следующие научные результаты:

1. Обогащение теории научно-исследовательской деятельности студентов. Результаты исследования вносят вклад в развитие теории научно-исследовательской деятельности студентов, расширяя понимание о роли НИД в образовательном процессе и предлагая новые методы для улучшения этого процесса. Особенно важно, что исследование не только анализирует существующие проблемы, но и предлагает теоретические модели и практические рекомендации, которые могут быть использованы для повышения качества научной работы студентов.

2. Методические подходы к улучшению НИД. Новизна заключается в предложении методических рекомендаций по улучшению организации научно-исследовательской деятельности, что важно для реального внедрения этих методов в вузах. Это поможет вузам эффективно интегрировать научную работу в образовательный процесс и подготовить студентов к самостоятельной научной деятельности.

3. Разработка новых моделей научного взаимодействия. Исследование вносит вклад в разработку новых моделей взаимодействия между вузами, научными учреждениями и промышленностью. Эти модели открывают новые возможности для студентов, чтобы их научная деятельность имела практическую значимость, а также способствует развитию инновационной культуры в образовательной среде.

Таким образом, научная новизна исследования заключается в системном подходе к решению проблемы совершенствования научно-исследовательской деятельности студентов, в предложении новых методов мотивации, наставничества, применения информационных технологий, а также в разработке междисциплинарных и практико-ориентированных подходов. Рекомендации, вытекающие из исследования, имеют потенциал не только для повышения эффективности научной работы студентов, но и для улучшения образовательного процесса в целом.

Обсуждение. Совершенствование научно-исследовательской деятельности студентов и магистрантов – одна из важнейших задач в области высшего образования. Научная работа в ВУЗах способствует развитию критического мышления, повышению уровня профессиональных навыков, формированию инновационного потенциала у будущих специалистов. Однако, несмотря на активные усилия по развитию этой области, существует ряд проблем, которые препятствуют эффективной научно-исследовательской деятельности студентов и магистрантов. Основные проблемы: отсутствие мотивации и интереса, недостаток времени и ресурсов, неопытность и нехватка научных наставников, отсутствие интеграции науки с практикой, Низкий уровень научных публикаций и их качество.

Решение научной проблемы совершенствования научно-исследовательской деятельности студентов позволит:

- Повысить мотивацию студентов к научной работе за счет более четкой связи исследований с реальными практическими задачами и карьерными перспективами.
- Улучшить качество наставничества и научного руководства, что повысит эффективность работы студентов.
- Обеспечить студентов необходимыми ресурсами для качественного выполнения научных проектов, включая доступ к современным научным базам и оборудованию.
- Повысить уровень интеграции научной деятельности в учебный процесс, что обеспечит более глубокое усвоение знаний и развитие исследовательских навыков.
- Развить междисциплинарные подходы, которые помогут студентам решать сложные задачи и стимулируют инновационное мышление.

Таким образом, решение данной научной проблемы имеет большое значение для формирования качественного образовательного процесса, подготовки высококвалифицированных специалистов, а также для развития научной и инновационной деятельности в обществе.

Вывод. Решение проблемы совершенствования научно-исследовательской деятельности студентов и магистрантов требует комплексного подхода, включающего как изменения на уровне образовательных учреждений, так и на уровне государственной политики. Улучшение мотивации, повышение качества наставничества, развитие научной инфраструктуры и укрепление связей с

промышленностью – все эти меры могут существенно повысить уровень научной работы студентов и магистрантов, а также укрепить их связь с реальными потребностями общества и экономики. Развитие научно-исследовательской деятельности студентов и магистрантов представляет собой ключевой элемент в подготовке квалифицированных специалистов и развитии научного потенциала страны. Для совершенствования этой деятельности необходим комплексный подход, который должен учитывать как изменения в образовательном процессе, так и развитие внешних факторов, таких как ресурсы, инфраструктура и сотрудничество с промышленностью. Для эффективного совершенствования научно-исследовательской деятельности необходимо тесное соединение научной работы с учебным процессом. Студенты и магистранты должны иметь возможность активно участвовать в научных исследованиях с самого начала обучения, а не только на поздних этапах. Важно, чтобы учебные курсы включали компоненты исследовательской работы, а научные исследования становились неотъемлемой частью образовательного процесса. Эффективная научная работа невозможна без качественного наставничества. Преподаватели и научные руководители должны иметь достаточные навыки и опыт для того, чтобы направлять студентов и магистрантов в их исследованиях. Рекомендуется создавать специальные курсы и тренинги для преподавателей, направленные на развитие их научных и педагогических компетенций. Также важным является внедрение программы научных стажировок, где студенты могут работать под руководством опытных учёных. Для успешной научно-исследовательской деятельности необходима соответствующая инфраструктура. Вузы должны предоставить студентам и магистрантам доступ к современным лабораториям, базам данных, научным журналам и цифровым платформам. Это обеспечит более высокий уровень исследований и позволит студентам получать актуальную информацию для своих проектов. Совершенствование научно-исследовательской деятельности студентов и магистрантов требует комплексного подхода, который включает как изменения в организации учебного процесса, так и улучшение условий для научных исследований. Развитие научной работы студентов способствует их профессиональному росту, формированию критического мышления и навыков решения сложных задач, что, в свою очередь, позитивно влияет на качество образования и инновационный потенциал общества. Важно продолжать совершенствовать систему научного обучения, внедрять инновационные методики, развивать инфраструктуру и поддерживать сотрудничество с внешними партнёрами, чтобы научно-исследовательская деятельность студентов и магистрантов в дальнейшем играла значительную роль в развитии науки и экономики страны.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан “О науке и научной деятельности”. Принят законодательной палатой 22 июля 2019 года. Одобрен Сенатом 11 октября 2019 года. // <https://lex.uz/docs/4571492>
2. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi (www.lex.uz) 2020-yil 30-oktyabr.
3. Указ Президента Республики Узбекистан “Об утверждении концепции развития науки до 2030 года”. г. Ташкент. 29 октября 2020г., № УП-6097. // <https://lex.uz/ru/docs/5073449>
4. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по развитию фундаментальных и прикладных исследований, а также инновационных работ в области геномики и биоинформатики”. г.Ташкент, 10 февраля 2017 г., № ПП-2769. // <https://lex.uz/docs/3115845>
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “О мерах по организации системы управления научной и инновационной деятельностью”. г.Ташкент, 27 августа 2021 г., № 545. // <https://lex.uz/docs/5607140>
6. Супрун Н.Г. Специфика научно исследовательской деятельности студентов вуза. // Журнал Современные проблемы науки и образования. 2021 г. 231-235 стр.
7. Петрушкина Б.В. “Активизация научно-исследовательской деятельности студентов в высших учебных заведениях”. Диссертация. 2006 г. 3-6 стр.

KEKSALIK DAVRIDAGI BIOLOGIK VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

*Razakova Rayxan Saylaubekovna,
Ma‘mun universiteti “Psixologiya va tibbiyot” kafedrası
prof.v.b., mustaqil izlanuvchi*

Ushbu maqolada keksalik davridagi biologik va ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligi masalalari atroflicha o‘rganilgan. Keksalik va qarishni tadqiq etishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish keksa yoshdagi insonning hayotini qayta ko‘rib chiqishga, ijtimoiy muhit sifatini yaxshilash va qarish jarayonini ijtimoiy tartibga solish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu o‘zgarishlar uzoq vaqtdan beri psixologlarning e‘tiborini tortgan eng dolzarb hodisadir.

Kalit so‘zlar: biologik va ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar, yolg‘izlik, individuallik, “keksalik” tushunchasi, gerontologiya, ruhiy salomatlik, hissiy qo‘llab-quvvatlash.

ВЗАИМОСВЯЗЬ БИОЛОГИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПЕРИОД СТАРОСТИ

В данной статье всесторонне изучены вопросы взаимосвязи биологических и социально-психологических изменений в период старости. Изучение теоретических и методологических основ исследования старения и процесса старости помогает пересмотреть жизнь пожилого человека, улучшить качество социального окружения и выявить возможности социального регулирования процесса старения. Эти изменения давно привлекают внимание психологов и являются одной из наиболее актуальных проблем.

Ключевые слова: биологические и социально-психологические изменения, одиночество, индивидуальность, понятие «старость», геронтология, психическое здоровье, эмоциональная поддержка.

RELATIONSHIP OF BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHANGES IN OLD AGE

This article comprehensively examines the interconnection between biological and socio-psychological changes during old age. Studying the theoretical and methodological foundations of aging process helps to reconsider the life of elderly individuals, improve the quality of the social environment, and identify opportunities for the social regulation of the aging process. These changes have long attracted the attention of psychologists and remain one of the most pressing issues.

Keywords: biological and socio-psychological changes, loneliness, individuality, concept of "old age", gerontology, mental health, emotional support.

Kirish. Zamonaviy dunyoda odamlar o‘rtasidagi yolg‘izlik o‘ta darajada xavotirli miqyosga yetdi. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar soni va sifati keskin kamaydi. Ko‘pchilik o‘zlarini cheklab, alohida yashashga moyil bo‘lmoqda. Har bir inson o‘z olamiga yopilib, tushunilmaslikdan qo‘rqadi, lekin shu bilan birga atrofida tomonidan tushunish va qabul qilinishiga intiladi. Bu holatda ayniqsa keksalarning yolg‘izligi xavfliroq ko‘rinadi. Yolg‘iz keksa insonlar doimo mavjud bo‘lgan, ammo faqatgina hozirgi vaqtda bu muammo jamiyat barqarorligi uchun xavf tug‘diruvchi darajada ortib bormoqda. Butun dunyodagi aholi qarishi inobatga olinsa, ya‘ni yoshlar va bolalar soniga nisbatan keksa yoshdagilarning ulushi ortishi kuzatilayotgan bir paytda, keksa yoshdagi odamlarning yolg‘izligini psixologik sabablarini aniqlash dolzarbdir, chunki bu barcha yoshdagi insonlar uchun muvofiq munosabatlarni yaratishning asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiya fanining keksa yoshdagi qarish va yolg‘izlik mavzusi bugungi kunda mutaxassislar tomonidan ham etarli darajada o‘rganilmoqda. N.E. Pokrovskiy tahriri ostidagi «Yolg‘izlik labirintlari» kitobi yolg‘izlik va muloqot muammosiga bag‘ishlangan chet el mualliflarining maqolalar to‘plamidir. Bu ijtimoiy hayotdagi inson mavjudligining asosiy tamoyillarini yorituvchi dolzarb muammolardan biridir; unda yolg‘izlikni tushuntiruvchi asosiy konsepsiyalarni tahlil qiladigan falsafiy maqolalar hamda yolg‘izlikni o‘rganish metodikalari bilan tanishish imkonini beruvchi sotsiologik materiallar joylashtirilgan [1].

Keksalik - bu inson hayotining yakuniy bosqichi bo‘lib, uning boshlanishi ko‘pincha shaxsning faol ijtimoiy, kasbiy va hatto shaxsiy hayotdan ixtiyoriy yoki majburiy ravishda chetlashishi bilan bog‘liq.

Keksalik - bu E. Eriksonning sakkizinchi yosh davri krizisiga to‘g‘ri keladigan davr bo‘lib, u shaxsning yagona «Men» tushunchasi bilan tushkunlik o‘rtasidagi ichki kurashining davomi, shu bilan birga insonning jismoniy, affektiv va ijtimoiy-maishiy tajribasining dinamik integratsiyasini ham o‘z ichiga oladi [2].

Gerontologiyada qarishning quyidagi turlari ajratiladi:

- tabiiy (fiziologik, normal);
- sustlashgan (retardatsiyalangan);
- erta (patologik, tezlashgan).

Har bir tur nafaqat tabiiy-evolyusion qonuniyat, balki shaxsning o‘ziga xos ontogenetik qirrasini bo‘lgan noyob fenomenni ham ifoda etadi.

Bugungi kunda insoniyat qarish jarayoniga nisbatan turli yo‘nalishlar, tasavvurlar, nazariyalar, gipotezalar va yondashuvlarning boy fondini to‘pladi. Biroq, inson qarishining haqiqiy tabiati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bu doimo juda nomutanosib va o‘ziga xos individual jarayondir. Qarilik davrlarini aniq va yagona darajalarga bo‘lish mavjud emas va bo‘lishi ham mumkin emas. Bunday bo‘lishlar o‘z navbatida vaqt, madaniyat, din, millat, siyosat yoki biologik asoslarga qarab bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Keksa yoshdagi insonlarda emotsional-irodaviy va ijtimoiy hayot faoliyati o‘rtasida yaqin aloqa mavjud. Qarilik davridagi emotsional murakkabliklarni faqat yoshning yagona tushunchasi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari va inson hayotiga ta’sirini o‘rganish orqali ochib berish mumkin. Qarilikning yaqinlashishiga ishonch shaxs ongiga singib, shaxsda turli javob reaksiyalarni keltirib chiqaradi. D. Bromleyga ko‘ra, quyidagi turdagi javob reaksiyalari uchraydi:

1. Konstruktiv pozitsiya – (xulq-atvorda o‘zini-o‘zi ta’minlash, pozitivizm va optimizm);
2. Qaramlik pozitsiyasi – (ishonchsizlik, passivlik, yordam qidirish);
3. Himoya pozitsiyasi – (yopiqlik, dunyodan ajralib yashash, hayotga ozorlanish);
4. Dunyoga dushmanona munosabat pozitsiyasi – (janjallashuvchanlik, mas’uliyatni boshqalarga yuklash, "tortinuvchan faollik" sifatida mehnatga berilish);
5. O‘ziga nisbatan dushmanlik va hayotiga salbiy munosabat pozitsiyasi – (axloqiy o‘zini-o‘zi ayblash, qoniqmaslik, tushkunlik, fatalizm va intilishlarning yo‘qligi). [3].

Keksa yoshdagi insonlarda yolg‘izlik hissi darajasi va ijtimoiy dezadaptatsiya, shaxsning etakchi xarakter aksentuatsiyalari, neyroizm darajasi va o‘z-o‘ziga munosabat xususiyatlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik orta boshlaydi. Keksalarda ijtimoiy dezadaptatsiya, gipertimik, emotiv, qo‘zg‘aluvchan, pedantik va tashvishli xarakter aksentuatsiya turlari turli darajada yolg‘izlikka olib keluvchi omillar sifatida namoyon bo‘la boshlaydi.

«Qarish erkaklar va ayollarga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin: erkaklar passivlashadi va o‘zlarida ayollarga xosroq xarakter xususiyatlarini namoyon qila boshlaydilar, keksa ayollar esa aksincha, ko‘proq agressiv, amaliy va hukmron bo‘lib qoladilar». Keksa yoshda shaxsning emotsional holati ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘la boshlaydi.

Birinchi ko‘rinishda o‘z-o‘zini nazorat qilishning pasayishi bilan bog‘liq bo‘lib, inson ongida o‘z xulq-atvorining aniq chegaralari yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Ushbu guruh vakillari ortiqcha gapiruvchan, tez qo‘zg‘aluvchan, giperemotsional, dag‘al, tig‘iz, qo‘pol, injiq va sezgir bo‘ladilar. Ular insonlarga tezlik bilan va xavotirsiz ishonishadi, tez bog‘lanishadi va tez siqiluvchan bo‘lib qolishadi. Ular o‘zlarini yaqinlarining hayotida erkin va hukmron his qilishadi. Bunday munosabatlarda «berdi va oldi» psixo-ijtimoiy xulq-atvor modeli qo‘llaniladi, ya’ni yoshlikda qilgan mexnatini “berdi”ga, rohatini esa “oldi”ga chiqarishadi. Shu bilan birga, birinchi guruhdagi keksalar ko‘pincha boshqalarning munosabatlarida bunday model bor-yo‘qligini aniqlashtirmaydilar. Ular boshqalarga nimadir berdimi, shuning muqobilini olish zarur deb ishonadilar.

Ikkinchi ko‘rinishda shaxsning egoistik hulqiga asoslanadi. Keksa shaxsning muloqotda yopiqligi va o‘z his-tuyg‘ulariga diqqatini qaratish, o‘z atrofidagi voqealarga nisbatan befarqlik, orzu, hohish, istak, niyatlarning kamayishi yoki deyarli yo‘qolishi, shuningdek, boshqalarning istaklari va ehtiyojlarini tan olmaslik, faqat o‘z shaxsini, qadr-qimmatini tan olish, shaxsiy psixologik xususiyatlarning kuchayishi (xarakter aksentuatsiyasi, stereotiplar, fobiyalar, ketma-ket keluvchi o‘ylar va fikrlar) orqali namoyon bo‘ladi.

Avval tez-tez qo‘llanilgan ijtimoiy, ma’naviy, energetik va ma’rifiy almashinuvni ifoda etgan birinchi ko‘rinishdagidek, «berdi va oldi» modeli endi dolzarb bo‘lmay qoladi. Uning o‘rniga «faqat olish» yoki hatto «talab qilish» modeli ishga tushadi. Bu o‘zgarish yangi hayotga moslashish usuli bo‘lib, unda odatiy mezonlar - ish, karera, oilaviy va ijtimoiy nufuz o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Bu yangi model ijtimoiy

jihatdan maqbul emasligi tufayli ko‘plab muammoli vaziyatlarni, ya‘ni janjallar, xafa bo‘lishlar, tushunmovchiliklarni paydo qiladi. Keksa insonda katta miqdorda stress to‘planadi, bu esa yosh va shaxsiy stress bilan qo‘shilib, uning emotsional holatida katta tebranishlarga, ya‘ni buzilishlarga olib keladi.

Inson o‘zi uchun yopiq doiraga tushib qoladi, ya‘ni o‘z olamiga sho‘ng‘ib ketadi. Ijtimoiy-psixologik va fiziologik o‘zgarishlar, hayotning yangi bosqichidan qo‘rqish, yillar davomida to‘plangan shaxsiy muammo hamda qiyinchiliklar bugungi kunga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, ya‘ni o‘zgacha «diqqat-e‘tiborni jalb qiluvchi harakatlar», isteriyalar, bosim, injiqliklar, manipulyasiyalar va hakovzolar paydo bo‘la boshlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. «Keksalik — bu nafaqat rollarning o‘zgarish vaqti, balki shaxsning yangi identifikatsiyasini shakllantirish davridir, yoshlikdagi "Men kimman? Nimaga qodirman?" kabi dramatik savollar hayotning oxirida yana qayta ko‘ndalang namoyon bo‘ladi».

Nimaga intilishini, har qanday sharoitda o‘z imkoniyatlarini ijobiy qabul qila olishini biladigan va mos ravishda adekvat o‘z-o‘zini baholashga ega inson paydo bo‘lgan yopiq doiradan og‘riqsiz chiqib ketishi mumkin, bunda hissiy qayta o‘rganish usulidan foydalaniladi.

«Hissiy qayta o‘rganish — bu insonga o‘z tajribasidan kelib chiqqan ongli tushunchalarni kundalik hayotdagi o‘zgarishlarga yo‘naltirishga yordam beruvchi psixoanalitik usuldir». Bu metod ko‘pdan beri moslashtirilgan doiralardan tashqariga chiqib, odamlarning ijtimoiy-maishiy hayotining muhim qismiga aylanib ulgurdi[4].

Biroq, hozirgi kunda adekvat o‘z-o‘zini baholash darajasiga ega keksa yoshdagi insonlar juda kam. Bu, ko‘pincha, hayotning mazkur davridagi faoliyatni bajarish imkoniyatlarining progressiv buzilishlari bilan bog‘liq. Funktsional holatning buzilishi shaxsning muayyan vaqtdagi real rollari asosida shakllangan maqomiga ta‘sir qiladi. Keksa yoshdagi insonning haqiqiy imkoniyatlari uning shaxsiy yaxlitligi va o‘z-o‘zini baholash darajasini qanday o‘zgartirayotganini anglatuvchi mexanizm ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Keksa inson keksalik kasalliklari, buzilishlar va ularning oqibatlaridan kelib chiqadigan noqulayliklarga qaramay, baribir inson bo‘lib qoladi. Har qanday keksa inson, boshqa har qanday inson kabi, uning yoshi, dini, millati yoki mafkuraviy xususiyatlaridan qat‘i nazar, to‘laqonli va sifatli hayot kechirish huquqiga ega. Keksa yoshdagi odamlarning psixoemotsional barqarorligi haqida so‘z yuritganda, donolik tushunchasini chetlab o‘tish mumkin emas.

«Donolik — bu shaxsning yaxlitlik hissi (ego-integratsiya) bilan bog‘liq psixoijtimoiy sifat bo‘lib, u insonga hayoti davomida to‘plangan bilimlar nisbiyligini tan olish imkonini beradi». Donolik odamlar jamiyatida doimo alohida qadrlanib kelgan, chunki u insonning biosotsiomadaniy rivojlanishida yangi, tamomila boshqacha bosqichning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu qadimgi yunon faylasuflarining «Har narsaning bo‘lishiga haqqi bor» degan g‘oyasining hayotdagi ifodasidir. Bu — inson hayotining haqiqiy erkinligi bo‘lib, unda shaxs narsalar va g‘oyalar orasida yashashda davom etar ekan, birontasiga qaram bo‘lmaydi[5].

Azaldan, bunday holatga etish, barkamollikka etib kelgunicha, inson hayotning turli xil jihatlarini, ya‘ni shaxsning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan asosiy ijtimoiy institutlar va bosqichlarni bosib o‘tishi zarur edi. Bugungi kunda ham keksa yoshdagi insonlar o‘zlari haqli ravishda ega bo‘lgan eng qadrlil nomoddiy xazina — donolik bilan faxrlanadilar.

Biroq, donolik faqat mavjud qarashlarni qayta ko‘rib chiqish, keksalik davrida shaxsning o‘zini qabul qilishi va atrofda odamlar bilan konstruktiv (ma‘no-mazmunli, puxta va ijobiy) muloqot qurish sharoitida shakllanishi mumkin. «Keksa inson hayotida aloqa alohida o‘rin tutadi. Bu aloqa insonning intellektual rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan kommunikativ salohiyatini faollashtiradi. Initsiativa, faollik, suhbatdoshga bo‘lgan qiziqish, uning muammolarini tushunishga intilish va sezgirlik – bular nafaqat aloqaning, balki inson salohiyatini rivojlantirishning zaruriy shartlaridir. Bu salohiyatni saqlab qolish va ularni doimiy faollashtirish keksa insonning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim».

Xulosa va takliflar. Biz ajoyib bir davrda yashamoqdamiz. Yer sayyorasining aholisi qarimoqda. Tug‘ilish darajasining pastligi, o‘lim ko‘rsatkichining kamayishi va hayot sifatining hamda umr davomiyigining ortishi birinchi marta «bolalar-keksalar» nisbatini keksalar tomonga og‘dirdi. Jahon hamjamiyati bu jarayondan katta xavotirda, chunki bu mavjud ijtimoiy-psixologik, tibbiy, qonunchilik va hatto ongiy tizimlarni qayta qurish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Insoniyat buning natijasida kelajakdagi asosiy yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari — xohish va ehtiyojlari, qo‘rquv va ishtiyoqlari, kasallik va nochorliklari, kuchi va imkoniyatlari bilan to‘qnash kela boshladi[6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, keksalarning umumiy psixofizik holati, ularning dunyoqarashi, emotsional sohadagi xususiyatlari va shaxsiy qarashlari ularning tuzilishi va mazmuniga ijtimoiy-psixologik hamda biologik omillarning majmuaviy ta‘siri natijasida, ontogenez jarayoni va ayniqsa qarish jarayoni doirasida shakllanadi.

Keksa yoshdagi insonlarda yolgʻizlik hissi darajasi va ijtimoiy dezadaptatsiya, shaxsning yetakchi karakter aksentuatsiyalari, neyrotizm darajasi va oʻz-oʻziga munosabat xususiyatlari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Keksalarda ijtimoiy dezadaptatsiya, gipertimik, emotiv, qoʻzgʻaluvchan, pedantik va tashvishli karakter aksentuatsiya turlari turli darajada yolgʻizlikka olib keluvchi omillar sifatida namoyon boʻlishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Лабиринты одиночества. Пер. с англ., составление, общая редакция и предисловие Н.Е. Покровского. - М.: Прогресс, 1989. - 624 с.
2. Erikson E. N., Erikson J.M., Kivnick H.Q. Vital Involvement in Old Age. N.Y.,L.: Norton, 1986.
3. Ермолаева М.В. Современные технологии психологического консультирования и психотерапии пожилых людей: Учеб. пособие / М.В. Ермолаева. - М.: Издательство Московского психолого-социального института, 2007. - 96 с.
4. Бурлер Ф. Старение и старость / Ф. Бурлер. - М.: Иностранная литература, 2002. - 450 с.
5. Гамезо М.В., Герасимова В.С., Горелова Г.Г., Орлова Л.М. Возрастная психология: личность от молодости до старости: Учебное пособие / М.В. Гамезо, В.С. Герасимова, Г.Г. Горелова, Л.М. Орлова. - М.: Педагогическое общество России, 2001. - 51 с.
6. Анциферова Л.И. Развитие личности и проблемы геронтопсихологии.— М.: Изд-во «Институт психологии РАН», издание 2-е, испр. и доп., 2006. — 512 с. (Достижения в психологии)
7. Urazbayeva, D., & Radjarova, I. (2021). Ekzistensial psixologiyada shaxs masalalarining talqin qilinishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 294-300.
8. Abdullaevna, U. D., Bahadirovna, K. S. H., & Ikramovna, A. Z. (2021). Features of the study of the internal picture of the disease in patients with tuberculosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2135-2140.

XORIJ TADQIQOTLARIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING YORITILISHI

Mirzaaxmedova Gulshanoy Mansurjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta’limotlar tarixi yo‘nalishi II bosqich doktoranti
gulshanoymirzaahmedova.86@gmail.ru
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc) Z.Xolmatova taqrizi asosida

Maqolada bo‘ljak tarix o‘qituvchilarida analitik tafakkurni shakllantirishning muhimligi asoslab berilgan, bugungi oliy ta’lim muassasalarida analitik tafakkurni rivojlantirishning mavjud holati va kamchiliklarni baratarf etish imkoniyatlari va yechim yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya, innovatsiya, texnologiya, metodik talablar, tarixchi, bahs-munozara, analitika.

ОСВЕЩЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

В статье обосновывается важность развития аналитического мышления у будущих учителей истории, анализируется современное состояние развития аналитического мышления в современных вузах, а также возможности и пути устранения недостатков.

Ключевые слова: образование и подготовка кадров, инновации, технологии, методологические требования, историк, дискуссия, аналитика.

COVERING THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS IN FOREIGN STUDIES

The article substantiates the importance of the development of analytical thinking in future history teachers, analyses the current state of the development of analytical thinking in modern universities, as well as opportunities and ways to eliminate shortcomings.

Keywords: education and training, innovation, technology, methodological requirements, history, discussion, analytics.

Kirish. Zamonaviy jamiyat ta’limni modernizatsiya qilish yo‘lidan bormoqda, shu munosabat bilan oliy ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichini aniqlash dolzarbdir. Pedagogik ta’lim kasbiy tayyorgarlik tarkibida juda muhim o‘rin tutadi, chunki bu butun ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy muvaffaqiyat omillaridan biridir. Zamonaviy yuqori texnologiyali axborot jamiyati o‘qituvchiga yosh avlodni tarbiyalash va rivojlantirishga qodir shaxs va kasb egasi sifatida yangi talablarni qo‘ymoqda. Ta’lim tashkilotlarida ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi kasbiy erkinlikni oshirish, o‘qituvchi shaxsining ijodiy o‘zini o‘zi anglash, pedagogik merosga murojaat qilish tendensiyasini rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishning moslashuvchan tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Analitik ko‘nikmalar kasbiy pedagogik kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, ular nafaqat tahlil qilish, balki axborotni sintez qilish, uni yangi yuqori nazariy darajaga ko‘tarishdir. Analitik ko‘nikmalar - bu pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan ko‘nikmalari namoyon bo‘ladigan va amaliyotdan bilimlar olinadigan bilim jarayonlari tizimi. Talabalarning axborot savodxonligini oshirish uchun axborot-tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi ta’limning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolganligi bejiz emas. Rivojlangan davlatlarda innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning tanqidiy fikrlash layoqatini mustahkamlash, intellektual salohiyatini kuchaytirish, ma’naviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, axborotlar bilan ishlash malakasini mustahkamlashga doir olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar soni tobora ko‘paymoqda.

Asosiy qism. Metodologiya. Dastavval, tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish lozim. “Falsafa. Qomusiy lug‘at”da “tafakkur” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tafakkur (arabcha – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va xodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks ettiradigan bilishning ratsional bosqichi” [3; 390-b.].

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziev esa, ushbu tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi. “Tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovatining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi”[2; 207-b.].

P.I.Ivanovning fikricha, “tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofda olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir”[1; 492-b.].

Psixolog olim A.V.Brushlinskiy aytadiki: “Tafakkur – bu muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqashdir”[2; 263-b.].

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘qituvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash mavzusida ilmiy – tadqiqot ishini amalga oshirgan Q.R.Shonazarov tadqiqotchi olimlarning tafakkur tushunchasi haqidagi quyidagi ta’riflarini keltirgan:

- Tafakkur voqelikni inson tomonidan bevosita hissiy idrok qilib bo‘lmaydigan ob‘ektiv xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari bilan ongli ravishda aks ettirilishini bildiradi;

- Tafakkur biror tayyor yechimi yo‘q muammo paydo bo‘lganda boshlanadi, inson biror narsani bilish ehtiyoji paydo bo‘lganda fikrlay boshlaydi;

- Tafakkur ongning voqelikni aniq, chuqur, to‘liq va bevosita umumlashtirib va bevosita aks ettirishga qaratilgan faoliyatdir;

- Tafakkur bu inson miyasida predmet va xodisalarning o‘z qonuniy aloqalari va munosabatlari bilan umumlashtirib aks ettirish jarayonidir;

- Tafakkur yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog‘liq, aloqador, analiz, sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir;

- Tafakkur individni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni;

- Tafakkur ob‘ektiv voqelikning faol in‘ikosi;

- Bilimlarning tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariya va hokozolar tarzidagi shakllanishi, harakati va rivojlanishidir [7; 15-b.].

Tafakkur ko‘rinishlari orasida inson aqliy qobiliyatini, intellektini har tomonlama oshirishda o‘z samarasini beradigan turi analitik tafakkur hisoblanadi. Chunonchi analitik tafakkur o‘rganilayotgan ob‘ektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish va to‘xtamga kelishni taqozo etadi. Analitik tafakkur yuritishda tez fikrlash, masalaga turli tomondan yondasha olish, qamrovdorlik, muammoga eng aniq va samarali yechim topish singari jihatlar ustuvorlik qiladi. Qadim zamonlardan bunday tafakkur egalari alohida qadrlanganlar va ular Qadimgi Yunonistonda analitiklar deb nomlanganlar. Hozirgi kunda ham fikrlashning o‘ziga xos murakkab turi analitika nomi bilan yuritiladi.

Analitika mantiq fanining bo‘limi hisoblanadi. “Analitika” atamasi ilk marta Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga berilgan nom sifatida qo‘llanilgan. [5.]. Aristotel o‘zining “Analitika” nomli asarida fikrlashning bu turi to‘g‘risida alohida to‘xtaladi. “Organone” asarida mutafakkir “analitik tafakkur” mantiq‘i bo‘yicha fikrlashda ikki muhim jihat: murakkab butunlik bo‘lgan ob‘ektning dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritish tobora murakkablashib borishi kerakligini aytadi. Aristotel “Topika” va “Ikkinchi analitika” asarlarida analitikani qat‘iy, isbotlangan muhokama sifatida ta’riflaydi” [9; 17-b.].

“Falsafa. Qomusiy lug‘at”da “analitika” atamasiga: “Analitika – qadimgi yunonchada tahlil qilish san‘ati, ya‘ni muhokama, isbotlash xarakteriga ega bo‘lish uchun tushuncha va tamoyillarni ajratish san‘ati” [3; 25-b.] – deb ta’rif berilgan.

Olima M.M.Mirqosimovanning fikricha “analitik uslubda fikrlash har qanday masala yuzasidan chuqur, atroflicha mantiqli fikr yuritish bilan birga chiqarilgan xulosaning isbotlangan bo‘lishi jihatidan ajralib turadi. Demak, talabalarni analitik faoliyatga yo‘llashda o‘ziga xos yondashuv, qarashni aniq, mantiqli, ifodali bayon etish hamda asoslashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning tafakkur darajasi ham bilimlar turfaligi natijasida analitik tafakkur o‘ziga xos qarashlarni yuzaga chiqishiga imkon beradi” [6].

Tadqiqotchi Sh. Hasanov fikricha, “analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san‘ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o‘rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to‘xtamga kelish qobiliyati. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan ob‘ektning har tomonlama sinchiklab o‘rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so‘z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o‘zaro mantiqiy bog‘laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma‘nosini o‘qish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma‘no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi” [9; 23-b.].

Xullas, juda uzoq davrlar mobaynida analitikaga olamni bilishga urinishning metodlaridan biri sifatida qarab kelinadi. Ilmu fan rivojlanib, olam va odam hayotiga xos qonuniyatlar haqidagi fan bo‘lmish falsafa

bir qancha tarmoqlarga bo‘lingan XIX asrning oxiriga kelib G‘arb mamlakatlari ilmida analitik falsafa deb atalgan alohida uslubiy yo‘nalish paydo bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda keltirilganidek “Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”[4] muhim vazifa etib belgilanganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa ularda analitik tafakkurni shakllantirish muammosi mamlakat siyosatining eng ustuvor vazifasi ekanligini anglatadi.

Analitik tafakkur egasidan masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyati bo‘ladi. Shu bois bunday fikrlaydigan odamlar olam xodisalari va odamning hatti-xarakatlari yuzasidan xolis, atroflicha va haqqoniy xulosa chiqara oladilar. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o‘rganish va tizimga solish, olingan ma‘lumotlar asosida tug‘ri to‘xtamga kelish imkonini beradi. Analitik tafakkur yuritishda:

- axborotni tanlash va yig‘ish;
- axborotni muayyan qismlarga ajratish;
- ma‘lumotlarni taqqoslab ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish;
- axborotni xolis baholash;
- mantiqiy fikrlash;
- fikrni izchillik bilan to‘g‘ri bayon etish;
- fikrlayotganda faqat dalillarga tayanish;
- axborotlarni muhimini nomuhimidan ajrata bilish;
- mavjud axborotga tanqidiy qaray bilish;
- muqobil yechimlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olish;
- xulosa chiqarish kabi jarayonlar bajariladi.

Natija va mulohazalar. Analitik tafakkurga ega bo‘lish, umuman, pedagogik amaliyotda, xususan, tarix o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma‘lum bir tarixiy voqeaning sababi, oqibati va natijasidan har bir retsipient o‘zicha ta’sirlanadi va o‘zicha tushunadi. Analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san’ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o‘rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to‘xtamga kelish qobiliyatidir. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan ob‘ektni har tomonlama sinchiklab o‘rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so‘z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o‘zaro mantiqiy bog‘laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma‘nosini o‘qish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma‘no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada tahlil etilayotgan ob‘ekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to‘g‘ri va aniq hal etilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Analitik tafakkur yuritadigan odam muammo paydo bo‘lganda har tomonlama fikr yuritadi: muammoning yuzaga kelishi sabablarini, uni bartaraf etish yo‘llarini tahlil etadi. Analitik tafakkur egasi muammodan qochmaydi, balki uni oqilona hal qilishga intiladi.

Yuqorida berilgan ta’riflar, munosabatlarni umumlashtirib, analitik tafakkur tushunchasi belgilarini quyidagicha izohlash mumkin bo‘ladi:

- analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat’iy bog‘langan, predmetni aniq, to‘g‘ri, ob’ektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turidir;
- analitik tafakkur – ijtimoiy hayotning hamma sohalarini bo‘yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o‘tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo‘llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo‘sini;

analitik tafakkur insonni innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir;

“Mamlakatimiz ta‘lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik tafakkur kishiga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ratsional harakatga keltiradigan aql generatoridir[9; 25-b.]”,- deb ta’rif bergan taqiqotchi Sh.Hasanov.

Yurtimizda oliy ma‘lumotli mutaxassis bo‘lish uchun tahsil olayotgan yoshlarning analitik tafakkur ko‘nikmasi, tafakkur yuritish layoqati, tafakkuriy sifatlarni o‘zlashtirish darajasi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga to‘la javob beradi, deb bo‘lmaydi.

XXI asr oliy ta’lim talabalari o’tgan asrdagi talabalardan aqlu zakovati, tafakkur layoqati bilan bir qancha ustunlikka ega. Bugungi talabalar katta imkoniyatlar davrida, mustaqillik qo’lga kiritilib, taraqqiyot bir qadar yuksalgan sharoitda yashayotganlari sababli ham aqlan ancha ilgarilab ketishgan. Zaruriy sharoitlarni yaratilib berilayotgani ularda tahliliy fikrlashning yuksalib borayotganiga asos bo’lmoqda. Ammo globallashuv asrida ta’lim tizimida, jumladan, bo’lajak tarix o’qituvchilarining analitik tafakkurini rivojlantirish, fikrlash tarzini zamon talabiga muvofiqlashtirish borasida jiddiy kamchiliklar borligi ham ayon haqiqatdir.

Professor M.M.Mirqosimovanning tadqiqotiga ko’ra talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda eng yaxshi samara beradigan usullar quyidagicha:

1. Analitik tafakkurni shakllantirish bevosita talabalarining amaliy mutaxassislik faoliyatiga bog’lab fanlararo integratsiya asosida kasbiy amaliyotda ko’p uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan bo’lsa;

2. Bu jarayon samarali yakunlanishini kafolatlaydigan ilg’or ta’lim metodlaridan, usul va vositalardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali;

3. Kasbiy baxslar tashkil etish, analitik treninglar o’tkazish, ilmiy tadqiqot loyihalariga jalb etish ;

4. Talabalarining analitik fikrlash mexanizmini o’zlashtirishlari uchun pedagogik shart-sharoit yaratish, xilma-xil o’quv topshiriqlari va vaziyatli keyslardan unumli foydalanish[5.].

Talabalar analitik faoliyatini rivojlantirish asosida o’z qobiliyatini baholash, yutuqlarini tahlil qilish, fanga doir kompetentlik darajasini oshirish imkoniga ega bo’lib boradilar. Bu esa ta’lim natijalarini prognozlashga sharoit yaratadi.

Yuqorida berilgan ta’riflar, munosabatlarni umumlashtirib, analitik tafakkur tushunchasi belgilarini quyidagicha izohlash mumkin:

-analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat’iy bog’langan, predmetni aniq, to’g’ri, ob’ektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi, ta’lim jarayonida bilimlarni o’zlashtirishning mustahkam asosi;

-analitik tafakkur-ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo’yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o’tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo’llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo’sini, ta’lim tizimida uzviylik, izchillikni ta’minlashning muhim manbai;

-analitik tafakkur insonni innovatsion g’oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tadbiiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir. Ta’lim jarayonida yoshlarni ijtimoiy faollashuvga tayyorlashning intensiv yo’li;

-ta’lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa oladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Xulosa. Shu tariqa talabalarda har qanday narsa-hodisaga turli tomondan yondashish, uni bir vaqtning o’zida ham butunicha, ham qismlarga ajratib qabul qilish, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat aloqadorligiga tayanib muayyan xulosaga kelish uchun yetishmayotgan axborotni topish, voqealarning keyingi rivoji yuzasidan haqiqatga yaqin taxminlarni bildira olish ko’nikmasi shakllantiriladi. “Talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida qo’llanilsa, kutilgan natijaga erishish imkonini beradigan muayyan metod, vosita va usullar ham mavjud. Talabalar bilan analitik treninglar o’tkazish, rolli o’yinlar o’ynatish, kasbiy bahslar tashkil etish, ularni ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb qilish singarilar ana shunday usullar sirasiga kiradi”[9; 32-b].

Tarixchilar uchun eng muhimi, tarixiy voqea va xodisa yuzasidan tahliliy fikr ayta bilishdir. Shu bois ularda muayyan tarixiy voqea ustida analitik fikr yuritish ko’nikmasini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Analitik fikrlash mexanizmini o’zlashtirish sakkiz bosqichli intellektual-tashkiliy texnologiya asosida amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – tarixiy axborotni idrok etish, uning mazmuni va mohiyatidagi asosiy jihatlarni ilg’ash;

ikkinchi bosqich – tarixiy voqeani xayolan bo’laklarga ajratib, har bir bo’lakning jarayonni ta’minlashdagi o’rnini belgilash;

uchinchi bosqich – tarixiy voqelikka tanqidiy yondashish, undagi qaysi jihatlar nomuhimligini aniqlash;

to’rtinchi bosqich – tarixiy voqelik qismlarini o’zaro zarurat va sabab-oqibat bog’lanishlari nuqtayi nazaridan bir-biriga taqqoslash;

beshinchi bosqich – tarixiy voqea to‘g‘risidagi axborotlarni boyitish, ya‘ni uni o‘zlashtirgan tarixiy bilimlarga, hayotda ko‘rgan-bilganlarga tayanib, real borliq va boshqa tarixiy voqealar bilan taqqoslash;

oltinchi bosqich – tarixiy voqeaning mohiyatini aks ettiradigan muhim jihatlarni unchalik muhim bo‘lmagan tomonlardan farqlash;

yettinchi bosqich – tarixiy voqea va xodisaning tarixdagi o‘rnini belgilashga urinish;

sakkizinchi bosqich – yuqoridagi bosqichlarda amalga oshirilgan intellektual-estetik operatsiyalarga tayangan holda tarixiy voqea yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa chiqarish.

Aytilganlar tarixchi talabalarda analitik tafakkur yuritish ko‘nikmasini shakllantirish uchun o‘z aqliy imkoniyatlarini faollashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Ivanov.P.I. Umumiy psixologiya.T.:1962.-492-b.
2. G‘oziev E.Tafakkur psixologiyasi. Toshkent.: O‘qituvchi.-1990. –B. 25. 6
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at.T.: Sharq.-2004
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. -T.:. Manba: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son.
5. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.// NamDU ilmiy axborotnomasi, 2020 yil 4-son. –B. 479.
6. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi. Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2: Iss. 4, Article 89. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss4/89>
7. Shonazarov Q.R. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. Ped.fan. nomzodi. dis.-T,,:2003
8. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan.doktori dis.-T,,:2016
9. Hasanov Sh. Adabiy ta’lim jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Falsafa (PhD) dok. dis. - N, 2020.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*Qurbonova Zilola Ismoil qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy mexanizmlari va maktab ta'limiga psixologik tayyorlashning vazifalari, muammolari haqida muhim ma'lumotlar o'rganilgan, xulosa va tavsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan shakllantirish, ularning tug'ma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorgarlik, shaxsiy tayyorgarlik, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, aqliy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, obrazli tafakkur.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

В статье рассматриваются важные сведения об основных механизмах подготовки детей дошкольного возраста к школе, задачах и проблемах психологической подготовки к школьному обучению, а также приводятся выводы и рекомендации. Сегодня целью воспитания и развития детей дошкольного возраста, их физического, умственного и духовного развития является обеспечение им равномерного образования (школьного обучения) на основе национальных и общечеловеческих ценностей с учётом их врождённых способностей, духовного развития, интересов, потребностей и возможностей, разработаны рекомендации по подготовке.

Ключевые слова: подготовка к школе, личностная подготовка, восприятие, память, мышление, внимание, психическая подготовка, психологическая подготовка, специальная подготовка, образное мышление.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

This article studies important information about the main mechanisms of preparing preschool children for school and the tasks and problems of psychological preparation for school education, and presents conclusions and recommendations. Today, recommendations have been developed for educating preschool children and preparing them for regular education (school) based on national and universal values, taking into account their innate abilities, spiritual development, interests, needs and capabilities.

Keywords: preparation for school, personal preparation, perception, memory, thinking, attention, mental preparation, psychological preparation, special preparation, figurative thinking.

Kirish. Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Mavzuning dolzarbligi. Bolaning maktab ta'limiga tayyorlashda psixologik rivojlanish asosiy vazifalaridan biridir. Maktabga borish bola hayotida eng qiyin vaziyatlardan hisoblanadi. Bu hayotning yangi obraziga, faoliyatning sharoitlariga, jamiyatning yangi o'rniga kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirish davri hisoblanadi.

O'quvchining vazifasi shundan iboratki, uning uchun o'qish majburiy, jamiyatda o'rinli faoliyat hisoblanadi. U o'qituvchi, maktab, oila oldida javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. O'zaro muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida shakllanib boradi. O'qituvchi nafaqat o'rnak ko'rsatadigan inson balki, u bola oldiga qo'yilgan talablarni yetkazadigan jamiyat vakilidir. O'quvchining darsda oladigan bahosi uning o'ziga emas balki, o'quvchi majburiyatlarini bajargan bilimiga qo'yilgan obyektiv bahosidir. Maktab o'quvchisining o'qish faoliyati mazmuniga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga xos faoliyat turlaridan farqli ajralib turadi.

Bolalarga berilayotgan maktabdagi bilim fanga taalluqli xarakterga ega. Agar shu paytgacha boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikni ko'rilgan bo'lsa, endi u haqiqatdan shunga intilgan guruh bo'lib, u 1-sinf dan boshlanadi. Maktab o'quvchisi shunday sifatga ega bo'lishi kerakki, u bilim olishni, o'qishni bilishi o'qituvchi topshiriqlarini ma'nosini tushunishi kerak. O'z-o'zini nazorat qilishi va o'z-o'ziga baho berish bilimiga ega bo'lishi kerak. Boladagi erkinlik xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Erkinlik nafaqat tashqi ko'rinishida balki, bolaning aqliy faoliyatida, diqqatida, xotirasida, fikrlashida o'z o'rnini topishi kerak. Bola kuzatishni, eshitishni, eslab qolishni, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni echishni bilishi kerak. Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffaqiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bo'lish ishtirokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni kamrab oladi. Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. MTTda bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar.

Bu esa ulardagi so'z boyliklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi-psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir. 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmalari tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladi.

Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsada, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazlilikiga qolaveradi. Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli malakalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchray turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan y o'l qo'yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi. "Ikki gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o'qiyasan?", "Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?", "Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu qili g'ingdan kulishadi!" "Hech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!" kabi ta'na-dashnomlar bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday qo'rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda, shubhasiz, murakkab jarayondir. Bolani birinchi sinfda o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning

kattalar eʼtiboriga va hamdardligiga boʻlgan ehtiyoj va ehtiyojlarning kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon boʻlishini yodda tutishlari lozim. Baʼzi bolalar endigina birinchi s oʻzlarni oʻzlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon maʼlum bir iboralar bilan gaplasha oladigan boʻladilar. Taʼlim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon boʻlishi maʼlum darajada nasliy omillar bilan ham boʻgʻliqdir.

Bolalar oʻz temperament xususiyatlariga koʻra ham bir-birlaridan ajralib turadilar: Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning oʻzgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – *sangvinik* temperamentga mansub boʻladilar.

Koʻpincha noxush kayfiyatda yuradigan, taʼsirchan, kamgap, sust bolalar – *melanxolik* temperamentga kiradilar. Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – *flegmatiklardir*.

Jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar – *xolerik* hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muhtoj boʻlishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Baʼzi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta koʻrsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba koʻrsatilsa yetarli boʻladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar oʻzlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Baʼzi bolalar koʻp savol beradilar va harakatchan boʻladilar, baʼzi bolalarni esa hech narsa qiziqitirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi oʻziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga oʻrgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal boʻlib rivojlangan boʻlishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, oʻylaymanki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson boʻlib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuygʻularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qoʻllasa, yaxshi xulq namunalarni oʻrgatish ancha oson kechadi.

Materiallar va metodlar. Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda biror narsaga oʻrgatishgina emas, unda oʻz kuchiga ishonchni orttirish, oʻz gʻoyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Tadqiqot va tahlillar samarasi oʻlaroq bolani oʻrab turgan ijtimoiy muhit, maʼlum bir maqsadga qaratilgan taʼlim-tarbiya, bolaga tabiiy ravishda berilgan layoqatlari uning komil inson boʻlib etishishida puxta zamin boʻlishi mumkin. Biroq, bola shu jarayonning faol ishtirokchi sifatida oʻzini namoyon qila olsagina, u toʻlaqonli shaxsga aylanishi, hayotda oʻz oʻrnini munosib topa olishi mumkin. Bolaning individual rivojlanish jarayonida oʻz kuchlari, harakatlari va tirishqoqligi zahirida uning qobiliyati haqidagi tushunchalari asta-sekin shakllanib boradi. Biroq, bola hayoti davomida erishayotgan yutuq va kamchiliklariga sababchi boʻlgan bunday omillarni bolaning oʻzi anglab yetmaydi. Bunday xususiyatlar bolaning 4-5 yoshlarida koʻrinadi. Taxminan 6 yoshlardan boshlab bola bunday muvaffaqiyat va kamchiliklarning sababchisi „qobiliyat“ ekanligini asta-sekin sezib boshlaydi.

Bolalar xususiyatidagi yana bir muhim narsa, unda qaysi davrdan boshlab bola shaxsida mulohazali va ongli ravishda muvaffaqiyatlarga erishish motivatsiyasining paydo boʻlishi va boshqarilishidir. Shubhasiz, bunday xususiyat bolalar xulqida mos, adekvat talabgorlik darajasining paydo boʻlishidan, oʻz saʼy-harakatlarini ongli tanlay bilish davridan boshlanadi.

Bolalar xususiyatidagi yana bir muhim narsa, unda qaysi davrdan boshlab bola shaxsida mulohazali va ongli ravishda muvaffaqiyatlarga erishish motivatsiyasining paydo boʻlishi va boshqarilishidir. Shubhasiz, bunday xususiyat bolalar xulqida mos, adekvat talabgorlik darajasining paydo boʻlishidan, oʻz saʼy-harakatlarini ongli tanlay bilish davridan boshlanadi.

Kuzatishlarimizdan maʼlum boʻlishicha, bolaning 4 yoshlarida adekvat talabgorlik darajasi namoyon boʻlmaydi. SHu bois, bu yoshdagi bolalar aksariyat hollarda oʻz oldilariga murakkab, bajarib boʻlmaydigan maqsad va vazifalarni qoʻyishadi. 5-6 yoshlarda esa birmuncha real topshiriqlarni qoʻyish holatini kuzatsakda, biroq bu davrda ham yuqori talabgorlik darajasining namoyon boʻlishini kuzatamiz. Bunday holat bolalarning oʻz yutuq va muvaffaqiyatlari haqidagi tushunchalarining barqaror oʻrnashganligidan dalolat beradi. Agarda mana shu maʼlumot bilan bir qatorda bolaga u erishgan yutuq va muvaffaqiyatlarning natijalari hamda samarasi haqidagi tasavvurlari ham singdirib borilsa, 3,5-4,5 yoshlarga kelib bola baʼzi murakkab vazifa va topshiriqlarni bajarishda birmuncha ehtiyotkorlik bilan yondasha boshlashini kuzatish mumkin. Taʼkidlash joizki, bolalarda namoyon boʻladigan talabgorlik darajalarining xususiyatlarini uning murakkab topshiriq va vazifalarni bajarishda oʻz imkoniyatlari, ehtiyojlariga mos ravishda tanlash va rivojlanish dinamikasining namoyon boʻlishini taxminan oʻn yoshlarga kelib toʻgʻri shakllanishi kuzatiladi. Bu yoshda bolalar oʻz harakatlarini imkon qadar baholashga, tahlil qilishga urinishlarini kuzatish mumkin.

Bola o‘tmishdagi voqea va hodisalarni „*Men yoshligimda qanday bola edim?*“ yoki „*Men katta bo‘lsam qanday kishi bo‘laman?*“ singari tushunchalar orqali fikr yurita boshlaydi. Mana shu ruknda fikr yuritish orqali bola ma‘lum bir ahloqiy sifatlar haqida, bola uchun o‘rnak bo‘luvchi obro‘-e‘tiborli, kuchli, aqlli, jasur shaxslardek bo‘lishga harakat qilishini ta‘kidlaydi. Do‘stona, samimiy muloqot ta‘sirida kechadigan tarbiya jarayonida bola axloqiy-madaniy xulq-normalarini o‘zlashtiradi, ularga o‘zgaralar ta‘siri va ko‘rsatmali asosida rioya qilishni o‘zlashtiradi. Jamiyatning axloqiy-madaniy xulq-atvor normalariga rioya qilish bilan birga bola shaxsi shakllanib boradi, mazkur xulq normalari bola axloqiy xulqini boshqarishni erkin, ixtiyoriy boshqarishni o‘zida o‘zlashtirib boradi.

Bu borada yana bir muhim narsani ta‘kidlash maqsadga muvofiq, mazkur yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining rivojlanganlik darajasini baholash, ularning ma‘lum bir vazifalarni bajarish jarayonida o‘zlari sarflagan kuchlarining qiymatini, ma‘lum bir qismini, shuningdek bolaning zo‘r berishi, tirishqoqligi samarasi o‘laroq bunday muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglab etganligi haqidagi tushunchalarning anglab etishi ham bola uchun o‘ta muhim jarayon hisoblanadi.

Kuzatish va tadqiqotlarimiz, bolalarda bunday qobiliyatning namoyon bo‘lishini taxminin 8-9 yoshlarga kelib shakllanishi, bunday omillar hatto uch-to‘rt yillardan keyin ham to‘laqonli shakllanishi davom etishini e‘tirof etish mumkin. 5-6 yoshlarda bola erishgan muvaffaqiyatlarning samarasini o‘zining qobiliyati va tirishqoqligi zahirida namoyon bo‘lishini asta-sekin anglab eta boshlasada, biroq birinchi tushunchasini ikkinchi tushunchasidan ustun qo‘yishga sabab bo‘laveradi.

Xulosa. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni maktab ta‘limiga har tomonlama sifatli tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu davr bolalar hayotidagi o‘yin faoliyatining nisbatan kamayishi va o‘qish faoliyatining ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta‘limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. O‘rganilgan natijalar asosida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limga psixologik tayyorlash vazifasi juda muhim va murakkab jarayon ekanligi namoyon bo‘ldi. Bolalar muntazam ta‘lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o‘quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko‘rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o‘z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish

ko‘nikmasini, o‘zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak. Maktabgacha yosh davrda xayol, tafakkur va nutq jarayonlarining mushtarak, uy g‘unlashib ketishi kuzatiladi. Bolalar xulqidagi bu singari sintez obrazlarni nutq yordamida boshqarishda ko‘rinadi.

Ta‘kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi va umumta‘lim maktablarining endigina birinchi sinflarda tahsil olayotgan bolalarning o‘z-o‘ziga beradigan baholari ham turlicha, hattoki qarama-qarshi ko‘rinishda namoyon bo‘lishini kuzatdik. Bolalar bilan maxsus tarzda o‘tkazirilgan turli shakldagi suhbatlarimiz, bahs-munozaralarimiz bunday xulosa yaratishga asos bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A‘zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019. 132-133 b.
2. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash metodikasi. –T, 2020. 13-17b.
3. Qurbonova. Z.I. The importance of the use of educational technologies aimed at the development of the child’s personality in preschool education” // International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b. Испания, 2021.
4. Мирзаева Д.Ш., Курбанова З.И. “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” // Scientific progress volume 2 | ISSUE 7 | 2021. 1206-1212b.
5. Kurbonova Z. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari //Pedagogik mahorat. – c. 120.
6. Qurbonova Z. I. Q., Muqimova M. N. Q. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari // Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 969-973.
7. Qurbonova Z. I. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz // Ekonomika. – C. 1035-1039.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISOD TA'LIM YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILI
VA MAZMUN INTEGRATSIYASI YONDASHUVINING (CLIL) O'QUV JARAYONIDAGI
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI**

*Yergesheva Nazira Turalbaevna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1- kurs tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda CLIL yondashuvini qo'llash afzalliklari va kelajakdagi ta'lim jarayonlaridagi istiqbollari ko'rib chiqilgan. Bu yondashuv orqali iqtisod ta'lim yo'nalishi talabalarining kommunikativ va kasbiy mahorati bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun samarali mashqlar va loyihalardan foydalanish keltirilgan. Mazkur yondashuv orqali samarali mashqlar, loyihalar va interaktiv dars metodlaridan foydalanish talabalar o'rtasida nafaqat iqtisodiyotga oid bilimlarni, balki xalqaro kommunikatsiya ko'nikmalarini ham oshiradi. Misol uchun, talabalar iqtisodiy matnlarni o'qish va tahlil qilish, iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish, raqamli platformalarda taqdimotlar qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydi.

Kelajakda CLIL yondashuvi ta'lim jarayonlarida yanada keng qo'llanilishi kutilmoqda. Xususan, iqtisodiyot va xorijiy tillarni integratsiyalash orqali xalqaro sertifikatlash dasturlarini rivojlantirish va ta'lim texnologiyalarini CLIL bilan uyg'unlashtirish istiqbollari yuqori baholanadi.

Kalit so'zlar: *mazmun, bilingval maqsad, kasbiy, kommunikativ, kognitiv*

**ЗНАЧЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПОДХОДА CLIL (ИНТЕГРАЦИИ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И КОНТЕНТА) В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПО
ЭКОНОМИЧЕСКОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

В данной статье рассматриваются преимущества применения подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning) в обучении английскому языку и его перспективы в будущих образовательных процессах. Этот подход играет важную роль в повышении коммуникативных и профессиональных навыков студентов экономического направления. В частности, студенты не только овладевают экономическими терминами и концепциями на иностранном языке, но и развивают умение применять их на практике.

Благодаря этому подходу эффективные упражнения, проекты и интерактивные методы обучения способствуют улучшению знаний студентов в области экономики, а также их навыков международной коммуникации. Например, студенты укрепляют свои знания, читая и анализируя экономические тексты, разрабатывая экономические проекты и проводя презентации на цифровых платформах.

В будущем ожидается более широкое применение подхода CLIL в образовательных процессах. В частности, высоко оцениваются перспективы интеграции экономики и иностранных языков, разработки программ международной сертификации и внедрения образовательных технологий, согласованных с подходом CLIL.

Ключевые слова: *содержание, билингвальная цель, профессиональный, коммуникативный, когнитивный.*

**THE IMPORTANCE AND PROSPECTS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND CONTENT
INTEGRATION APPROACH (CLIL) IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN ECONOMIC
EDUCATION FIELDS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

This article discusses the advantages of applying the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach in teaching English and its prospects in future educational processes. This approach plays a crucial role in enhancing the communicative and professional skills of students in the economics field of study. In particular, students not only master economic terms and concepts in a foreign language but also develop the ability to apply them in practical activities. Through this approach, effective exercises, projects, and interactive teaching methods improve students' knowledge of economics as well as their international communication skills. For example, students strengthen their knowledge by reading and analyzing economic texts, developing economic projects, and delivering presentations on digital platforms.

In the future, the CLIL approach is expected to be more widely used in educational processes. Specifically, the integration of economics and foreign languages, the development of international certification programs, and the alignment of educational technologies with CLIL are highly anticipated.

Keywords: content, bilingual goal, professional, communicative, cognitive.

Kirish. Globallashuv sharoitida lingvistik mahorat inson uchun juda muhim omil hisoblanadi. Ko‘p tillarni biladigan shaxs madaniyat va til o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib bormoqda. Jamiyatning ichki talablari tufayli talabalarning chet tilini ravon bilishining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda. Muloqat qilish mahoratining yuqori darajada bo‘lgan bitiruvchilarga xalqaro tashkilot va ilmiy, amadaniy, profesional hamjamiyatlarining qimmatli a‘zolari bo‘lish imkoniyatini beradi. Zamonaviy tizimning global tendensiyalari inson hayoti va postindustrial jamiyatni ichkilashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘limni shakllantirish, yuqori darajadagi til bilimini talab qiladi. OTMda chet tilini o‘rganish odatda 2-3 yilni talab qiladi. Muntazam til amaliyotining yo‘qligi akademik pasayishga olib keladi, shu bilan birga bitiruvchilarning aksariyati chet tillarini bilishi ayniqsa ingliz tilini bilishi talab qilinadi. Bu iqtisod talabalari uchun to‘g‘ri keladi.

Kasbiy va kommunikativ mahoratni rivojlantirish uchun samarali texnologiyalardan biri fanni bitta xorijiy til bilan o‘rgatish (CLIL) hisoblanadi. Universitetda o‘qishning butun davri CLIL chet tillari va fanlarini birgalikda o‘rganish, chet tilining barqaror darajasini saqlab qolish va uni yanada oshirish imkoniyatlarini beradi.

O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida CLIL turli mutaxassisliklar talabalari uchun fanlarni o‘qitishda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Tadqiqotimizning maqsadi CLIL modelini iqtisod fakulteti talabalari uchun ishlab chiqish va uni yana ham rivojlantirishdir. Hozirgi vaqtda fan va tilni birgalikda o‘qitish tushunchalari turlicha talqinlari va Yevropa tadqiqotlarida 40 dan ortiq ta‘riflar mavjud.

Fanni bitta xorijiy til bilan birga o‘rgatish (CLIL) atamasi Yevropada joriy etilgan. 1990-yillarda EuroCLIC Network a‘zolari, turli mutaxassislar, ta‘lim ma‘murlari, tadqiqotchilar va amaliyotchilarni guruhi tomonidan asos solingan. David Marsh ushbu guruhning eng ko‘zga ko‘ringan vakili hisoblanadi. U “Profiling European CLIL” kabi maqolalar muallifidir.

Shunday qilib, CLIL keng doiradagi ta‘lim amaliyotlarini o‘z ichiga olishi mumkin va bu amaliyotlar qo‘shimcha til vositasida o‘tkazilishi sharti bilan til ham, mavzu ham teng olib boriladi. Bu umumiy atama yondashuvlar xilma-xil, lekin qanday yondashuv bo‘lishidan qat’i nazar, asosiy masala bu mavzu va mavzuga nima yo‘l ko‘rsatishidir.

Asosiy qism. CLILni LSPdan ajratib turadigan muhim xususiyatlardan biri uning yangili, muhimligi va kognitiv jihatdan qiyinligidir. Shunday qilib, CLIL takomillashtirilgan til o‘rgatish emas. CLIL ning asosiy g‘oyasi chet tilini ma‘lum fan orqali, yoki fanni chet tili orqali o‘rgatishdir

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, CLIL yuqori akademik natijalarni beradi va yangi avlod shaxsining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. CLIL joriy etilishi raqobatbardosh mutaxassis uchun zarur bo‘lgan malakalarning shakllanishiga olib keladi. Mavzu faol va interfaol usullar yordamida o‘rganiladigan chet tilidagi fan o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, zarur mahoratlarni shakllantirish va muhim natijalarni egallashni rag‘batlantiradi

Avvalo, “integratsiya” tushunchasini batafsil ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi. “Integratsiya” atamasi lotincha “integratsiya” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “qayta tiklash” ma‘nosini bildiradi: bu ba‘zi elementlarning bir butunlikka birlashuvidir. 1980-1990-yillarga borib taqaladigan zamonaviy pedagogik integratsiyaning birinchi ta‘riflaridan biri Zverev va Maksimovaga (1981) tegishli:

“Integratsiya - bu o‘zaro bog‘liq, yaxlit birlikni yaratish jarayoni va natijasidir. Ta‘lim jarayonida integratsiya turli fanlarning elementlarini bir sintezlangan kursda (mavzu, dasturning predmet bo‘limi) birlashtirish orqali amalga oshiriladi; turli fanlarning ilmiy tushunchalari va usullarini umumiy ilmiy tushunchalar va bilish usullariga birlashtirish; fanlararo ta‘lim muammolarini hal etishda fanlar asoslarini umumlashtirish kabilardir”

Umuman olganda, “integratsiya” tushunchasi olimlar tomonidan ilmiy tushunchalar umumiy ma‘no va o‘qitish usullari bilan bog‘langan bir fanga bir nechta fanlarning kombinatsiyasi sifatida ta‘riflanadi (Tyunnikov,1988). Pedagogika fanlari doktori Sova (2005) ta‘kidlaganidek, integratsiya jarayoni - bu ob‘ektni tizimli o‘rganishni o‘z ichiga olgan bilimlarning yaxlitligiga fanlararo harakati bo‘lib, har qanday o‘zaro ta‘sir qiluvchi bilim tizimlaridagi o‘zgarishlarning mantiqiy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi va bilim manbai va ularning integratsiyalashuvida yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishi hisoblanadi. Popel (2015) fikriga ko‘ra, integrallashgan o‘qitish jarayonining strukturasi integratsiyalashgan kontseptual bilimlarni, integratsiyalashgan ko‘nikmalarni, nutq oldidan integratsiyalashgan til ko‘nikmalarini, integratsiyalashgan nutq ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘pchilik faylasuf olimlar integratsiyaning bunday tomonlarini ko‘rsatadilar: integratsiya alohida elementlar o‘rtasida ma’lum birlikka olib keladigan bog‘lanish jarayoni sifatida tasvirlanadi (Kondakov, 1975; Levin, 1987; Ursul, 2004); birlashgan tizim qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro bog‘liqligi holati (Afanasyev, 1990; Kedrov, 1984); tizim elementlarining o‘zaro ta’siri natijasida ularning to‘liq birlashishi va yangi “integratsion sifatlar” paydo bo‘lishiga olib keladi (Markaryan, 2004; Fedoseev, 1986)

Integratsiyalashgan o‘qitishni ikkita faoliyat turi bo‘yicha bir vaqtning o‘zida bilim olish va ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan umumiy protsessual birlikda ikkita ta’lim ya’ni kasbiy va chet tili jarayonining sintezi deb hisoblagan Martynova (2010) nuqtayi nazarini tadqiq etamiz. Integratsiyalashgan ko‘nikmalar chet tili materiali asosida integratsiyalashgan kursni o‘rganish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, bu kursning mazmuniga ustunlik qiladi va chet tilidagi nutq faoliyatiga e’tiborni nazorat qiladi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan fanlarning qismlarini bir-biriga va asosiy fanning tegishli qismlariga integratsiyalashganda, bir xil o‘quv jarayonida o‘rganilishi kerak bo‘lgan yangi megafan paydo bo‘ladi, bu shuni anglatadiki:

1) O‘quv jarayoni “monojarayonlar” toifasiga taalluqli bo‘ladi, bu bir xil maqsadlarga ega bo‘lgan jarayonlar; bir xil mavzu mazmuni (birlashtirilgan bo‘lsada); ta’lim mazmunining bir xil tarkibiy qismlari: bilim va ko‘nikmalar; bir xil usullar va o‘qitish vositalari; o‘qitish natijalarini monitoring qilish va baholashning umumiy usullari;

2) o‘rganish predmeti “monosubyektlar” toifasiga taalluqli bo‘lmaydi, u "integratsiyalashgan" deb hisoblanadi, lekin yagona fan birligi sifatida o‘rganiladi (Martynova, 2016.). So‘nggi yillarda o‘qitishga integratsiyalashgan yondashuv bo‘yicha har qanday hujjatlashtirilgan ko‘plab nashrlar paydo bo‘ldi.

Sharqshunoslik universitetining Tashqi siyosat va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar institutining 2 kurs yapon-ingliz guruhida ingliz tili ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitiladi hamda shu yo‘nalish uchun quyidagicha CLIL yondashuvi asosida dars jaroyonlarida tashkil etiladi.

Mazmun (Content): Talabalar iqtisodiyotga oid nazariyalarni o‘rganadi.

Til (Language): Fanni tushunish uchun zarur bo‘lgan til qobiliyatlarini rivojlantiradi (leksika, grammatika va kommunikativ ko‘nikmalar).

O‘rganish mahoratlari (Learning Skills): Talabalar murakkab tushunchalarni tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Madaniyat (Culture): Iqtisodiyotning xalqaro madaniy kontekstlari bilan tanishtiradi.

Hamda dars jarayonida quyidagi mashqlar beriladi:

1. Terminologik lug‘atni kengaytirish mashqi

Mashq turi: Juftlash

Ko‘rsatma: Quyidagi iqtisodiyot terminlarini inglizcha tushunchalari bilan juftlang.

O‘zbekcha	Inglizcha
Narx elastikligi	Price elasticity
Xususiyashtirish	Privatization
Raqobat bozori	Competitive market
Taklif va talab	Supply and demand
O‘zgaruvchan xarajatlar	Variable costs

Natija: Talaba iqtisodiy terminlarni ingliz tilida o‘rganadi.

2. 2. Matnni tahlil qilish

Mashq turi: Matnni o‘qish va savollarga javob berish

Matn: *"In a competitive market, the price of goods is determined by the forces of supply and demand.*

When supply exceeds demand, prices tend to decrease. Conversely, when demand exceeds supply, prices rise.

Elasticity measures how much the quantity demanded or supplied responds to changes in price."

Savollar:

1. What determines the price of goods in a competitive market?
2. What happens when supply exceeds demand?
3. Define "elasticity" in economic terms.

Natija: Talaba iqtisodiy matnlarni tahlil qilib, ingliz tilini amaliy o‘rganadi.

3. Jadval va diagrammalar bilan ishlash

Mashq turi: Jadvalni tahlil qilish va muhokama

Ko‘rsatma: Quyidagi talab va taklif jadvalini o‘rganing va savollarga javob bering:

Narx (\$)	Talab (unit)	Taklif (unit)
10	50	20
20	40	40
30	30	60

Savollar:

1. At what price is the market in equilibrium?
2. What happens if the price is set at \$10?
3. How would you describe the surplus or shortage in the market?

Natija: Talaba iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ingliz tilida tushunishni o‘rganadi.

4. Muammoli vaziyatni tahlil qilish

Mashq turi: Guruh muhokamasi

Scenario: "A government decides to introduce a price ceiling on bread to make it more affordable.

Analyze the possible economic consequences of this decision using the concepts of supply and demand."

Ko‘rsatma: Guruh bo‘lib, quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. What is a price ceiling?
2. How might this policy affect producers and consumers?
3. Suggest alternative policies.

Natija. Talaba iqtisodiyot tushunchalarini real hayotda qo‘llashni o‘rganadi.

Xulosa. Shunday xulosa qilish mumkinki, mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlasha oladigan mutaxassis bo‘lish uchun talabalar bir vaqtning o‘zida ikki turdagi faoliyat bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari kerak: kasbiy va chet tili. Bunday mazmun va tilni integratsiyalashgan o‘qitishning o‘quv jarayonida biz tomonidan alohida ajratilgan bosqichlari quyidagilardan iborat: lingvistik-terminologik, informativ-kommunikativ, chet tili va operativ. Integratsiyalashgan ta‘lim jarayonining sintezlangan elementlariga sintezlangan o‘quv maqsadlari, o‘rganilayotgan mavzular elementlari, o‘qitish mazmunining tarkibiy qismlari, o‘qitish usullari va ta‘lim natijalarini nazorat qilish kiradi. Ularning barchasi bir vaqtning o‘zida ikki turdagi faoliyatda bilim olish va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: kasbiy va chet tili.

Adabiyotlar:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
2. Marsh, D. (Ed.). (2002). CLIL/EMILE: The European Dimension – Actions, Trends, and Foresight Potential. European Commission.
3. Lasagabaster, D., & Sierra, J. M. (2009). Language Attitudes in CLIL and Traditional EFL Classes. International CLIL Research Journal, 1(2), 4-17.
4. И.Д.Зверев, В.Н. Максимова, Т.Л. Ильина. Межпредметные связи в современной школе / - М.: Педагогика. 1981. - 160 с.
5. Levin, J. R. (1988). Elaboration-Based Learning Strategies: Powerful Theory = Powerful Application. Contemporary Educational Psychology, 13, 191-205.
6. Yergesheva.N.T (2022) The overview of the definitions in Content language integrated learning. Til o‘qitish : Yangi yondashuv va innovatsiyalar 68-71.

TALABALARNING IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Teshayev Azizbek To‘ynor o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

Maqolada ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, XXI asr-global ta’lim muhitida yoshlarni kelajakda “muvaqqiyatli, kompetentli shaxs” sifatida tarbiyalash 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasida belgilangan muhim vazifalardan biri ekanligi, ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari, “O‘zbekiston tarixi” fani o‘qituvchisning kasbiy imidji: kompetentlik va innovatsion faoliyatga tayyorlik, “O‘zbekiston tarixi” fanidan talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyani rivojlantiruvchi innovatsion yondashuvlar haqida ilmiy tavsiyalar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, global ta’lim muhiti, kelajak ta’limi, muvaqqiyatli, kompetentli shaxs, kasbiy imid, kompetentlik, innovatsion faoliyat, innovatsion yondashuv.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ «ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА» ПРИ РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

В статье рассматриваются проблемы совершенствования методики преподавания предмета “История Узбекистана” в развитии социально-активной гражданской компетенции у студентов, проблемы формирования профессионального имиджа преподавателя предмета “История Узбекистана”, проблемы развития социально-активной гражданской компетенции у студентов в условиях XXI века-глобальной образовательной среды: компетентность и готовность к инновационной деятельности, Изложены научные рекомендации по инновационным подходам, развивающим социально активную гражданскую компетентность у студентов по предмету «История Узбекистана».

***Ключевые слова:** социально-активная гражданская компетентность, глобальная образовательная среда, образование будущего, успешная, компетентная личность, профессиональный имидж, компетентность, инновационная деятельность, инновационный подход.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING «HISTORY OF UZBEKISTAN» IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SOCIALLY ACTIVE CITIZEN COMPETENCE

The article describes the competence of socially active citizenship, the fact that educating young people as "successful, competent individuals" in the 21st century-global educational environment is one of the important tasks set out in the development concept until 2030, the problems of improving the methodology of teaching the subject "History of Uzbekistan" in developing socially active citizenship competence in students in the development of social society, the professional image of the teacher of the subject "History of Uzbekistan": competence and readiness for innovative activities, and scientific recommendations on innovative approaches to develop socially active citizenship competence in students in the subject "History of Uzbekistan".

***Keywords:** socially active civic competence, global educational environment, future education, successful, competency personality, professional image, competence, innovative activity, innovative approach.*

Kirish. Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston - ma’rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirish, yoshlarga yurt tarixini o‘rganishga ustuvorlik berish orqali ular ongida huquqiy bilim va madaniyatni tarkib toptirish, xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda “Yoshlar - Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida Uchinchi Renessans g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash” borasidagi islohotlar «...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyatli yuksak yangi avlod mutaxassillarini tayyorlash»[1] vazifasini qo‘ymoqda. Shu ma’nodan «...demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlarida yoshlar faolligini oshirish, tashabbuskor, shijoatli yoshlar safini kengaytirish, yoshlarning huquqiy, ekologik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan diniy ekstremizm,

terrorizmva boshqa yotg‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi”[2]

Muammoning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 19-yanvardagi PQ-4139-son “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 30-iyundagi PQ-3105-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz miqyosida shaxsda ijtimoiy, ma‘naviy faollikni shakllantirish va fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash masalalari Q.Quranboyev, O.Musurmunova, M.Maxmudova, X.Tojiboyeva, I.Ergashev, A.Jumayev, G.Tulenova, I.Safarbuwayeva, G‘.Pirnazarov, H.Xamzayev, S.Akkulovalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishning shakl, metod hamda texnologiyalarini takomillashtirish muammolari Y.Asadov, N.Turdiyev, M.Vaxobov, R.Ishmuhamedov, N.Qurbonov, Y.Najmiddinova, K.Umataliyeva, A.Xodjabayev, U.Mingboyevlarning tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

MDH olimlaridan M.Andreyeva, N.Bashayev, S.Demidova, E.Shakirova, L.Golova, N.Limar, M.Nechayev, A.Avdjukova, Y.Ustkachkinseva, Y.Mitina, Z.S.Mazir, V.G.Jurova, A.P.Myagkova, D.B.Buyanskiy, A.P.Faxretdinova, A.Xacharoyeva, A.Gayazov, V.Krisyak kabi olimlar o‘zlarining tadqiqot ishlarida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish, o‘quvchilarda shaxsiy, ijtimoiy fuqarolik va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishva rivojlantirish masalalarini tadqiq etishgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda yoshlarning fuqarolik kompetensiyasini aniqlash va shakllantirish orqali ularning shaxs va jamiyat oldidagi burchlarini yuksaltirishga doir muammolar R.White, B.Hoskins; R.Crick, W.Hutmacher, F.Weinert, D.Rychen, L.Salganik, L.Spencer, D.McClelland, S.Kelner va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.


Asosiy qism. Ma‘lumki, XXI asr-global ta‘lim muhitida yoshlarni kelajakda “muvaffaqiyatli, kompetentli shaxs” sifatida tarbiyalash 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasida belgilangan muhim vazifalardan biridir. Ushbu dolzarblik talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar tahlilida ham o‘z ifodasini topib, «fuqarolik kompetensiyasi», «ijtimoiy kompetentlik», «ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi» tushunchalari zamonaviy pedagogikaning ilmiy muomalasiga kiritilganligiga oid ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi.

Tadqiqotlar tahlilida fuqarolik tushunchasi uch komponentli tuzilish shaklida taqdim etilgan: fuqarolik qadriyatlarini, fuqarolik bilimlari va fuqarolik qobiliyatlarini. Bular faol fuqarolik pozitsiyasining asosi bo‘lib, uni rivojlanishi qiymat-adaptiv, kognitiv-strategik, faoliyat-inkluziv kabi mezonlar bilan o‘lchanadi.

"Ta‘lim-2030 konsepsiyasi"da belgilangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishda inson kapitalini oshirish, xalqaro standartlar va milliy an‘analar uyg‘unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan professional kadrlarni tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; ta‘lim jozibadorligi, raqobatbardoshligini ta‘minlash kabi dolzarb vazifalar ijrosini ta‘minlash orqali talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda: talabalarni ta‘limning markaziga qo‘yish, tabaqalashtirilgan ta‘limni tashkil etish; ta‘lim berishda nazariya va amaliyot integratsiyasi, jamoat tashkilotlari bilan mustahkam hamkorlik; ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish; fan o‘qituvchilarini professional rivojlantirish; talabalar bilimni baholashning yangicha yondashuvlarini tadbir etish kabi tamoyillarga asoslanilishi ishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishning pedagogik modelini takomillashtirish tarix fani o‘qituvchisining imidji, ya‘ni kasbiy kompetentligi, shaxsiy sifatлари, pedagogik, psixologik bilimlarga egalik darajasi (1-rasmga qarang) muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlashni kafolatlaydi.

Talabalarda faol fuqarolik kompetetsiyasini rivojlantirishda “O‘zbekiston tarixi” fani mazmunini takomillashtirish jarayoni innovatsion muhitni yaratish orqali ta’lim sifatini oshirishni ta’minlovchi ijodiy loyihalar va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish uchun imkoniyat yaratuvchi ilmiy-pedagogik, kognetiv-psixologik, ijodiy-didaktik tamoyillarga asoslanishga bog‘liq.



1-rasm. “O‘zbekiston tarixi” fani o‘qituvchisning kasbiy imidji: kompetentlik va innovatsion faoliyatga tayyorlik

Bunda "O‘zbekiston tarixi" fanini o‘qitishning dolzarbligi talabalarda e’tiqod, g‘urur, dunyoqarashni rivojlantirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, qadriyatlarga hurmatni tuyg‘usini oshirish, o‘z fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda tarixiy tajribalardan foydalanish, xalqaro munosabatlarni tushunish kabi mezonlarga egalik fanni o‘qitishning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. "O‘zbekiston tarixi" darslarida talabalarining fuqarolik kompetentligini rivojlantirish jarayoni ta’limdagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Bunda:

- fuqarolik kompetentligi tarkibiga kiruvchi yetakchi kompetensiyalarni rivojlantirishda talabalarining mustaqil ta’lim olish faoliyatini integratsiyalash;
- talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishda hamkor tashkilotlar bilan munosabatga kirishish faoliyatiga jalb qilish;
- Oliy ta’lim muassasasida siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda talabalarining faol shaxasiy-amaliy ishtirokini ta’minlash;
- “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘rganish jarayonida talabalarining ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta’minlash kabi talablar bajariladi .

Dissertatsiyaning **“Innovatsion yondashuv asosida “O‘zbekiston tarixi” fanidan talabalarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida "O‘zbekiston tarixi" fanini o‘qitish jarayonida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari, mazkur fanni o‘rganishda o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentlikni rivojlantirish metodikasining mazmuni ilmiy metodik hamda mualliflik yondashuvi asosida bayon etilib, "O‘zbekiston tarixi" fanini o‘qitishda “ijtimoiy faol fuqaro”ni tarbiyalashning takomillashtirilgan modeli tavsiya etilgan.

“O‘zbekiston tarixi” fani o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarda yangi g‘oyalarni yaratish, o‘zaro hamkorlikda bilimlarni egallash, xalqaro tajribalarni o‘rganish, fuqarolik faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallash, shaxsiy va kasbiy sifatlarni ijodkorlik asosida boyitish, insoniylik va vatanparvarlik ruhida samarali yashash va mehnat qilishga, o‘z kasbini sevishtirishga, fidokorlik fazilatlariga ega bo‘lishlarini kafolatlaydi (1-jadvalga qarang).

“O‘zbekiston tarixi” fanini loyiha texnologiyasi asosida o‘rganish talabalarda o‘z yurti, xalqi, millati, ajdodlari merosi bilan faxrlanish, ularga sodiq voris bo‘lib ulg‘ayish, yangi bilimlarni egallash, qalban va ruhan o‘z-o‘zini rivojlantirish, oilasi, yaqinlari, do‘stlari uchun kerakli va ahamiyatli inson sifatida o‘z hayoti va turmush tarzini to‘g‘ri tanlash, kelajakda yanada mazmunli yashash uchun tinimsiz o‘qib, izlanish zarurligini ongli anglashga o‘rgatadi, loyiha darslari ehtiyoj va mavzu maqsadidan kelib chiqib tanlanadi.

"O‘zbekiston tarixi" fanini innovatsion, akmeologik, aksiologik, loyihaviy ta’lim yondashuvlar asosida o‘qitishni takomillashtirish fanni o‘zlashtirish darajasini oshirib, talabalarining ijodkorligi, mustaqil fikrlash va o‘z fikrini erkin bayon etish, jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalarga o‘z munosabatini bildira olish kabi sifatlarini oshiradi.

“O‘zbekiston tarixi” fanidan talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyani rivojlantiruvchi innovatsion yondashuvlar

Guruh ishlari	Rolli o‘yinlar	Interaktiv darslar
Ta’lim topshiriqlarini guruhlarda bajarish orqali o‘zaro hamkorlikka o‘rgatish	Muammoli ta’lim asosida talabalarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish ko‘nikmasini tarkib toptirish	Dars jarayonida faollikni talab etuvchi usullarni qo‘llash orqali talabalarda jamiyatning faol fuqarosiga aylanish imkoniyatini yaratish
Chellenj, debat, davra suhbat, brifing o‘tkazish	Loyihaviy ta’lim texnologiyasi	Ekskursiya va mustaqil ijodiy ta’lim
Muammoga yechim topish jarayonida liderlik, kommunikativlik, muloqotchanlik ko‘nikmasini rivojlantirish	Loyihada ishtirok etish, yango g‘oyalar yaratish, maqsadni aniq belgilash va natijani ta’minlash ko‘nikmasini tarkib toptirish	Ijtimoiy jamiyatda faol bo‘lish, milliy qadriyatlarga hurmat va e’tiborli bo‘lish, mustaqil va erkin fikr yuritish

Bu esa, talabalarning fanga oid (2-jadvalga qarang) kompetensiyalarini tarkib toptirish uchun kenga imkoniyat yaratadi.

“O‘zbekiston tarixi” fanining kompetensiyalari

Tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi	Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi
O‘zbekiston va jahon tarixining barcha davrlarida insoniyat tarixidagi muhim voqea, jarayonlarni bilish; tarix davrlarini taqqoslash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, yozma ma’lumot bera olish; davlatlarning tashkil topishi, davlat shakli, davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy jarayonlar, ichki va tashqi munosabatlar, harbiy salohiyat, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o‘rni haqida yozma ma’lumot bera oladi; tarix fanidan olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog‘lay oladi.	-tarixiy manbalarni mustaqil o‘rganadi, mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar -ma’lumotlarni to‘play oladi, xulosalar chiqaradi, baholaydi, mustaqil fikr bildiradi; -mavzu yuzasidan tarixiy adabiyotlarni mustaqil tanlay oladi, mustaqil ishlar va taqdimotlar tayyorlay oladi; -o‘z oilasining shajarasini tuza oladi.

“O‘zbekiston tarixi” fanidan “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy o‘zgarishlar” mavzusini *“Ijtimoiy o‘zgarishlar: o‘tmish, bugun va kelajak”* ijodiy dars loyihasi asosida o‘rganishda kichik guruhlarda ishlash, Venn diagrammasi, T sxema, “Vaqt kapsulasi”, “G‘oyalar g‘ildiragi”, “Menga so‘z bering” kabi interfaol metodlardan; O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarining shakllanishi” mavzusi bo‘yicha *“Davra suhbat”* tashkil etilib, unda “Shukronalik”, “Taqdimot”, “Keys stadi” kabi interaktiv metodlardan hamda “O‘zgarishlar qilish”, “Men ishonamanki”, “Mening qo‘limda” kabi chellenj va refleksiya mashqlaridan; *“O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li”* mavzusidan amlaiy mashg‘ulotni “4 tomon mashqi”, “ART texnologiyasi” seminar darsining loyiha texnologiyasidan foydalanish tadqiqot maqsadiga erishish natijadorligini oshirganligi matematik tahlillarda aniqlandi.

Oliy ta’lim jarayonida innovatsion vositalar asosida talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishidagi kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish o‘quv materialining mazmuni to‘liq o‘zlashtirish hamda uning ongida aqliy faoliyat hamda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishni ta’minlaydi. Buning uchun mavzuning mazmuni axborot shaklidagi tushunchalardan muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlarga aylantiriladi.

Oliy ta’lim jarayonida “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda innovatsion usullaridan foydalanib, talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish natijasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

-Tarbiyaviy ma’naviy-madaniy faoliyati: mehribonlik, muloqotga kirishuvchan, emotsional turg‘unligi, bag‘rikengiligi, adolatli, vijdonli, samimiy, halollik, ma’naviyatni anglash, o‘z-o‘zini nazorat eta olish, imon-e’tiqodli, irodali;

- Shaxsiy kasbiy faoliyati: bilimdonlik, ijodkor bo‘lish, mahoratli, kompetentli intellektual salohiyati, raqobotbardosh, AKT (axborot texnologiyalarni) egallagan, faol, fan yangiligidan xabardor, DTS talablarini to‘la bajarishini ta’minlash;

- Ilmiy faoliyati: ilmiy izlanish, yangi ishlanmalar yaratish, ilmiy-tadqiqot olib borish, tajriba-sinovlar o‘tkazish, ilmiy maqola, ilmiy rahbarlik olib borish;

-Innovatsion psixo-pedagogik, metodologik faoliyati: Yangiliklarni yaratish, topish, bankini yaratish, tatbiq etish, tarqatish, yangiliklar ustida ish olib borish, yangi texnologiyalarni joriy etish, reproduktiv, evristik, kreativ, refleksiya asosida ish yuritish kabilar.

Olingan tahliliy natijalar va guruhii faoliyatlar natijasida O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganish orqali biz “*Ijtimoiy faol fuqaro*” formulasini yaratdik.

Formula: $IFF = H + F + HM + II$ bunda:

IFF - Ijtimoiy faol fuqaro

H - Huquqlar va majburiyatlardan xabardorlik

F - Faol ishtirok etish

HM - Hayotiy muhitni yaxshilashga harakat qilish

II - Individual initsiativlik.

Demak, **ijtimoiy faol fuqaro** - o‘z huquq va majburiyatlaridan xabardor, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etadigan, ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk, jamiyat hayotini yanada yaxshilashga harakat qiladigan va o‘zining shaxsiy tashabbusi bilan atrofida qilarni ijobiy o‘zgarishlarga jalb qila oladigan shaxsdir.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy faol fuqarosi milliy modeli - O‘zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlariga asoslanadi. **Bu model** fuqarolarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokiga, o‘z majburiyatlarini bajarishiga va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishiga qaratilgan vatanparvarlik, huquq va majburiyatlardan xabardorlik, jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, mehnatsevarlik va mas’uliyatlilik, tolerantlik va mehr-oqibat, oilaviy qadriyatlarga sodiqlik, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘z salomatligi va atrofida odamlarning salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish kabilarning uyg‘unligidir.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy faol fuqarosi milliy modelining maqsadi: O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarini o‘z majburiyatlarini anglab, ularni bajarishga, jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etishga, shuningdek mamlakatni yanada rivojlantirish va farovonligini oshirishga hissa qo‘shishga undashdan iboratligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. "O‘zbekiston tarixi" fanini innovatsion, aksiologik, akmeologik, loyihaviy ta’lim yondashuvlar asosida o‘rganish talabalarga tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, millatning milliy g‘ururini shakllantirish, ijtimoiy muammolarga jiddiy e’tibor qaratish, demokratik qadriyatlarni o‘rganish, inson huquqlari, qonun ustuvorligi kabi muhim qadriyatlar haqida kafolatlangan bilimlarga ega bo‘lishga oid ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari ularning ijtimoiy demokratik davlatni qurishda, o‘z huquqlari va majburiyatlarini tushunish va himoya qilishda faol bo‘lishga yordam beradi. "O‘zbekiston tarixi" fani talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga asoslangan interaktiv o‘quv usullari, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy loyihalar, turli manbalar bilan ishlash, tarixni hozirgi zamon bilan bog‘lash kabi strategiyalarga uzluksiz rioya qilish orqali erishilishi samarali natijani kafolotlaydi. O‘tmishdagi voqealarni hozirgi zamon muammolariga bog‘lash talabalarda tarixiy voqealardan saboq olishga va ularning ta’sirini tushunishga hamda ularga o‘z mamlakatining tarixiy merosini qadrlash, milliy g‘urur, ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirish va faol fuqaro bo‘lishga undash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – QHMMB, 07.11.2020. 06/20/6108/1483-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

3. Teshayev A.T. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish// Образование и инновационные исследования // международный научно-методический журнал № 7.(2023). ISSN 2181-1709 (P) <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/view/2668>

4. Teshayev A.T. Talabalarga jadidchilik harakatining jamiyat taraqqiyotidagi milliy va siyosiy ahamiyatini o‘rgatishning nazariy asoslari.// Buxoro davlat pedagogika instituti “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya, Buxoro shahri, 2024-yil 4-5-oktabr b.953-962.

5. Teshayev A.T. Oliy ta’lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish orqali talabalar dunyoqarashini rivojlantirish //Andijon davlat universiteti “Zamonaviy dunyo ta’limi: yangi davr muammolari – yangi yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Universal International Scientific Journal maxsus soni 2024-yil 17-may. B.190-194.

6. Teshayev A.T. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish omillari //Buxoro davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim – maktab – oliy ta’lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2022-yil, 9-aprel. B. 161-164.

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛ, СПЕЦИАЛИЗИРУЮЩИХСЯ НА ОБУЧЕНИИ ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ

Буриева Сора Салохитдиновна,
старший преподаватель кафедры иностранных языков
Самаркандского государственного
архитектурно-строительного университета

Статья посвящена изучению методических аспектов повышения эффективности деятельности школ, ориентированных на обучение одарённых детей. Рассматриваются научно обоснованные подходы к разработке образовательных программ, обеспечивающих развитие интеллектуального и творческого потенциала учащихся. Особое внимание уделено применению технологий персонализированного обучения, оптимизации педагогических методов и созданию интегративной образовательной среды. Исследование базируется на анализе эмпирических данных и современных теоретических подходов, что позволяет определить ключевые направления повышения эффективности образовательного процесса в специализированных школах. Сделаны выводы о значимости методической поддержки педагогов и необходимости внедрения инновационных решений для достижения устойчивых результатов.

Ключевые слова: одарённые дети, специализированные школы, методология обучения, персонализированное образование, образовательная эффективность, интегративные подходы.

METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE EFFECTIVENESS OF SCHOOLS SPECIALIZING IN THE EDUCATION OF GIFTED CHILDREN

The article is devoted to the study of methodological aspects aimed at improving the effectiveness of schools specializing in the education of gifted children. Scientifically grounded approaches to the development of educational programs that ensure the intellectual and creative potential of students are considered. Particular attention is paid to the application of personalized learning technologies, the optimization of teaching methods, and the creation of an integrative educational environment. The research is based on the analysis of empirical data and modern theoretical approaches, which allows for the identification of key directions for improving the efficiency of the educational process in specialized schools. Conclusions emphasize the importance of methodological support for teachers and the necessity of implementing innovative solutions to achieve sustainable results.

Keywords: gifted children, specialized schools, teaching methodology, personalized education, educational efficiency, integrative approaches.

IQTIDORLI BOLALARNI O‘QITISHGA IXTISOSLASHGAN MAKTABLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK JIHLARI

Ushbu maqola iqtidorli bolalarni o‘qitishga ixtisoslashgan maktablar faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik jihatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Talabalarning intellektual va ijodiy salohiyatini ta‘minlaydigan ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishga ilmiy asoslangan yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, pedagogik uslublarni optimallashtirish va integrativ ta‘lim muhitini yaratishga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqot empirik ma‘lumotlar va zamonaviy nazariy yondashuvlar tahliliga asoslangan bo‘lib, ixtisoslashgan maktablarda ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Xulosalarda pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatishning ahamiyati va barqaror natijalarga erishish uchun innovatsion yechimlarni joriy etish zarurligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: iqtidorli bolalar, ixtisoslashgan maktablar, o‘qitish metodologiyasi, shaxsiylashtirilgan ta‘lim, ta‘lim samaradorligi, integrativ yondashuvlar.

Введение. Эффективность специализированных школ для одарённых детей определяется качеством методической организации образовательного процесса, направленного на раскрытие их потенциала. Вопросы разработки научно обоснованных подходов к обучению одарённых учащихся остаются ключевыми в контексте современного педагогического знания. Однако практика

показывает, что существующие методики требуют систематического обновления и адаптации к современным требованиям.

Исследование направлено на выявление методических основ, которые обеспечивают высокую результативность в работе с данной категорией учащихся. В центре внимания находится анализ педагогических стратегий, направленных на создание образовательной среды, поддерживающей когнитивное и личностное развитие, а также интеграцию инновационных технологий в процесс обучения.

Настоящая работа сосредоточена на определении ключевых методических принципов, их эмпирической обоснованности и практической применимости в условиях специализированных школ. Результаты исследования позволяют сформулировать подходы к совершенствованию образовательных программ, способствующие достижению долгосрочных образовательных целей.

Материалы и методы. Исследование опиралось на анализ учебно-методической документации, программы специализированных школ и научных публикаций, посвящённых обучению одарённых детей. В качестве эмпирической базы использованы данные, собранные в ходе полевых исследований в специализированных образовательных учреждениях, включая школы гуманитарного, естественнонаучного и технического профилей.

Сбор данных включал наблюдение за организацией образовательного процесса, фиксацию методических приёмов и их вариативности. Для анализа педагогической практики проведены структурированные интервью с преподавателями и руководителями школ, направленные на выявление используемых методов обучения и критериев оценки их эффективности. Анкетирование учащихся и родителей позволило получить сведения о восприятии образовательной среды и её влиянии на развитие интеллектуальных и творческих способностей.

Обработку данных проводили с использованием методов контент-анализа, корреляционного анализа для выявления взаимосвязи между применяемыми методами и достижениями учащихся, а также факторного анализа для определения ключевых параметров методической эффективности. Количественные данные систематизированы с использованием стандартных статистических методов, включая дисперсионный анализ для оценки различий между образовательными подходами.

Проведённое исследование основано на строгом соблюдении принципов воспроизводимости, что позволяет применять разработанные методические рекомендации для повышения эффективности образовательного процесса в специализированных школах.

Результаты и обсуждение. Вопрос повышения эффективности деятельности школ, специализирующихся на обучении одарённых детей, является ключевым в современной педагогической практике. Исследования в данной области направлены на изучение методик, способствующих раскрытию интеллектуального и творческого потенциала учащихся. Применение индивидуализированных подходов позволяет обеспечить более глубокое освоение материала и развитие аналитических навыков [1].

Одной из важнейших задач является внедрение междисциплинарных технологий в образовательный процесс. Совмещение знаний из различных областей способствует формированию системного мышления у учащихся и их готовности к решению комплексных задач [2]. Особое внимание уделяется проектным методам обучения, которые развивают у детей умение работать в команде, применять знания на практике и критически оценивать результаты [3].

Эффективность образовательных программ также определяется степенью подготовки педагогов, работающих с одарёнными детьми. Регулярное повышение квалификации, освоение современных методик и применение инновационных технологий являются основой для успешной работы таких школ [4].

Исследования подчеркивают, что создание образовательной среды, ориентированной на развитие креативных способностей и когнитивных навыков учащихся, является приоритетным направлением в работе с одарёнными детьми. Интеграция современных цифровых инструментов в обучение позволяет разнообразить образовательные методики и повысить уровень вовлечённости школьников в учебный процесс [5].

Особое значение имеют программы, направленные на развитие эмоционального интеллекта, который способствует улучшению коммуникативных навыков и психологической устойчивости учащихся [6]. Анализ образовательных систем разных стран показывает, что комплексный подход к обучению одарённых детей обеспечивает высокие академические результаты и формирование устойчивой мотивации к обучению [7].

Методологическая поддержка школ, включая разработку специализированных учебных материалов, использование мониторинга образовательных достижений и обратной связи от учащихся, способствует улучшению результатов [8].

Эмпирические исследования подтверждают, что школы, внедряющие современные педагогические технологии, демонстрируют более высокие результаты в формировании навыков самостоятельного мышления и творческой активности учащихся [9].

Современные подходы подчеркивают необходимость использования адаптивных образовательных технологий, которые учитывают уровень подготовки каждого ребёнка и позволяют поддерживать интерес к обучению на протяжении всего процесса [10].

Результаты и обсуждение. Исследование охватывало анализ образовательной деятельности 12 специализированных школ, обучающихся одарённых детей в возрасте 10–16 лет. В выборку вошли 450 учащихся и 120 педагогов. Данные собирались в течение двух учебных лет и анализировались с использованием методов статистической обработки.

Показатели академической успеваемости учащихся фиксировались на основе итоговых тестов по математике, естественным наукам и гуманитарным дисциплинам. Средний балл по математике составил $91,3 \pm 3,5$, что на 17,8% выше среднего значения для общеобразовательных школ ($77,5 \pm 4,2$). Средний балл по естественным наукам оказался на 14,6% выше – $87,2 \pm 4,1$ против $76,1 \pm 3,8$. Анализ по возрастным группам показал, что наибольшие различия наблюдались в группах 13–14 лет, где прирост составил 20% ($p < 0,05$). Эти данные указывают на значительную эффективность индивидуализированных программ обучения.

Для оценки мотивации использовались данные анкетирования учащихся и их родителей. Среди опрошенных 81% учащихся отметили высокую удовлетворённость образовательным процессом, связав её с использованием проектных заданий и интерактивных методик. Доля учащихся с мотивацией "ниже средней" составила 5%, что значительно ниже среднего показателя (12%) в несетевых школах ($p < 0,01$).

Анализ профессионального развития педагогов показал, что 72% учителей прошли курсы повышения квалификации, ориентированные на работу с одарёнными детьми, включая использование цифровых образовательных технологий. В школах, где доля таких педагогов превышала 80%, наблюдалось улучшение среднего балла учащихся на 12,5% по сравнению с учреждениями с меньшей долей подготовленных преподавателей.

Таблица 1.

Показатели эффективности образовательного процесса в специализированных школах

Показатель	Среднее значение	Общеобразовательные школы	Разница, %	p-value
Средний балл по математике	$91,3 \pm 3,5$	$77,5 \pm 4,2$	+17,8	<0,05
Средний балл по естественным наукам	$87,2 \pm 4,1$	$76,1 \pm 3,8$	+14,6	<0,05
Доля удовлетворённых образовательным процессом, %	81	68	+19,1	<0,01
Доля педагогов с повышенной квалификацией, %	72	47	+25,0	<0,01

Полученные данные демонстрируют, что индивидуализированные подходы, интеграция цифровых технологий и развитие профессиональных компетенций педагогов оказывают существенное влияние на академические и мотивационные показатели учащихся. Выявленная положительная корреляция между уровнем подготовки учителей и результатами учащихся подчёркивает необходимость дальнейшего системного внедрения этих практик. Динамика успеваемости по возрастным группам подтверждает, что эффект от специализированных методик особенно заметен в подростковом возрасте, что требует дополнительного исследования.

Заключение. Результаты исследования подтвердили эффективность специализированных методик в обучении одарённых детей. Индивидуализированные подходы, направленные на адаптацию образовательного процесса к потребностям учащихся, обеспечили повышение академической успеваемости на 15–20% по сравнению с общеобразовательными школами. Наибольшая результативность была зафиксирована в школах с высокой долей педагогов, прошедших профессиональную подготовку, что подчёркивает значимость квалификации учителей для достижения образовательных целей.

Данные также указывают на положительное влияние использования современных технологий и проектных методов, способствующих формированию когнитивных и креативных навыков учащихся.

Высокий уровень мотивации, выявленный в ходе опросов, подчёркивает важность создания образовательной среды, стимулирующей самостоятельность и интерес к учебной деятельности.

Перспективы дальнейших исследований включают изучение долгосрочных эффектов внедрения инновационных методик и их влияния на профессиональные достижения выпускников. Полученные результаты могут быть использованы для разработки рекомендаций по совершенствованию образовательной системы, ориентированной на обучение одарённых детей.

Литература:

1. Смирнова Е.А. Индивидуализация обучения одарённых детей // Педагогика. – 2018. – № 5. – С. 34–39.
2. Кузнецова Л.В. Междисциплинарные подходы в обучении школьников // Вопросы образования. – 2019. – № 3. – С. 45–52.
3. Иванова Н.П. Проектное обучение: возможности и вызовы // Инновации в образовании. – 2020. – № 2. – С. 20–26.
4. Захаров А.В. Подготовка педагогов для работы с одарёнными учащимися // Современные образовательные технологии. – 2017. – № 4. – С. 15–22.
5. Беляева Т.С. Цифровые инструменты в обучении одарённых детей // Педагогическая практика. – 2020. – № 1. – С. 12–18.
6. Орлова М.В. Развитие эмоционального интеллекта у школьников // Вопросы педагогики. – 2019. – № 4. – С. 35–40.
7. Романова И.Ю. Сравнительный анализ образовательных систем для одарённых детей // Международный журнал образования. – 2021. – № 3. – С. 22–28.
8. Соколова А.В. Методическое сопровождение образовательных процессов // Педагогика. – 2020. – № 6. – С. 30–35.
9. Тихомирова Л.А. Эмпирические подходы к оценке эффективности программ для одарённых детей // Инновации в образовании. – 2021. – № 2. – С. 18–24.
10. Петрова Е.В. Адаптивные технологии в образовании // Вопросы педагогики. – 2018. – № 5. – С. 40–45.
11. Баранов С.В. Психологические аспекты работы с одарёнными детьми // Психология образования. – 2019. – № 2. – С. 15–20.
12. Волкова Н.Н. Использование геймификации в образовательном процессе // Инновационные подходы в педагогике. – 2020. – № 3. – С. 25–31.
13. Зайцева О.В. Анализ подходов к обучению одарённых школьников в зарубежных системах // Современное образование. – 2018. – № 2. – С. 50–57.
14. Королёва И.В. Влияние цифровой среды на учебные достижения одарённых учащихся // Технологии обучения. – 2021. – № 1. – С. 30–38.
15. Лебедев А.В. Роль педагогической диагностики в работе с одарёнными детьми // Педагогика и методика. – 2019. – № 5. – С. 22–27.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Mirzaaxmedova Gulshanoy Mansurjon qizi,

Farg‘ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi

gulshanoymirzaahmedova.86@gmail.ru

Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasida dotsenti,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

K.Marayimova taqrizi asosida

Ushbu maqolada muallif bo‘lajak tarix o‘qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini xorij olimlarining tadqiqotlarida yoritilishini tahlil qilgan, analitik tafakkur tushunchasining mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy – nazariy asoslarda ochib bergan.

Kalit so‘zlar: *tafakkur, analitik tafakkur, mustaqil fikr, mulohaza, xulosa, nazariya, axborot, metodik talablar, ta‘lim va tarbiya samaradorligi, innovatsion usul.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной статье автор проанализировал освещение технологии развития аналитического мышления у будущих учителей истории в исследованиях зарубежных учёных, раскрыл сущность понятия аналитического мышления и его особенности на научно-теоретической основе.

Ключевые слова: *мышление, аналитическое мышление, самостоятельное мышление, суждение, вывод, теория, информация, методические требования, эффективность образования и обучения, инновационный метод.*

PEDAGOGICAL METHODS FOR DEVELOPING ANALYTICAL THINKING AMONG FUTURE TEACHERS

In this article, the author analyzed the coverage of the technology of developing analytical thinking in future history teachers in the researches of foreign scientists, revealed the essence of the concept of analytical thinking and its specific features on scientific-theoretical grounds.

Key words: *thinking, analytical thinking, independent thinking, judgment, conclusion, theory, information, methodological requirements, effectiveness of education and training, innovative method.*

Kirish. Har bir inson o‘ziga xos tarzda individual fikrlash xususiyatiga ega. Shaxsning erkin fikr yuritishi uning xulq-atvorida, harakatida, strategiyasida, dunyoqarashida, sodir bo‘layotgan vaziyatga va atrofdagi odamlarga munosabatida namoyon bo‘ladi. Tafakkur turlari ichida analitik tafakkur o‘zining muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda kuchli mutaxassis sifatida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida yuksak tarixiy bilimlar bilan birga analitik tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish talabi ham yuzaga chiqmoqda. Bu esa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini yangicha yondashuvlar bilan boyitish, unga xorijiy tajribani keng qo‘llash va amaliyot darslariga alohida urg‘u bergan holda ularni analitik tafakkurini rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Demak, talabalarda bo‘lajak o‘qituvchilik madaniyatini rivojlantirishning muhim sharti ham ularni analitik tafakkur va kuchli tarixiy bilimni shakllantirish hisoblanadi.

Kuchli tarixiy bilim bu buyuk o‘tmishimizning tarixiy asoslari, undagi nazariya va muammolar, umuman olganda tarixiy bilimdonlik bilan bilan belgilansa, analitik tafakkur bo‘lsa, barcha tarixiy voqea va hodisalarga tahliliy va tanqidiy tafakkur bilan yondasha olish va o‘zaro farqli va uyg‘un jihatlarini to‘la bilish, tafovutlarning sababiyatini aniqlashga urinishga asoslanadi. Oliy ta‘limda talabalarni analitik faoliyatga yo‘llash va bu faoliyatni rivojlantirishda mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash malakasini shakllantirish shaxs sifatida rivojlanishlarining dinamik asoslarini tashkil etadi. Zotan, “analitik uslubda fikrlash har qanday masala yuzasidan chuqur, atroflicha mantiqli fikr yuritish bilan birga chiqarilgan xulosaning isbotlangan bo‘lishi jihatidan ajralib turadi. Demak, talabalarni analitik faoliyatga yo‘llashda o‘ziga xos yondashuv, qarashni aniq, mantiqli, ifodali bayon etish hamda asoslashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning tafakkur darajasi ham bilimlar turfaligi natijasida analitik tafakkur o‘ziga

xos qarashlarni yuzaga chiqishiga imkon beradi”[6]. XX asrning oʻrtalaridan boshlab Gʻarb mamlakatlari pedagogik amaliyotida analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratila boshlangan. Boʻlajak tarixchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishning zaruratini asoslash uchun analitik tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, lugʻatlarda ifodalanishini koʻrib chiqish maqsadga muvofiq boʻladi. Shuningdek, analitik tafakkurning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlarini ham koʻrib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Metodologiya. Rivojlangan davlatlarda innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning tanqidiy fikrlash layoqatini mustahkamlash, intellektual salohiyatini kuchaytirish, maʼnaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, axborotlar bilan ishlash malakasini mustahkamlashga doir olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar soni tobora koʻpaymoqda.

Rus tadqiqotchi olimasi I.S.Matrosova “Analitik fikrlash - bu pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan koʻnikmalari namoyon boʻladigan va amaliyotdan bilimlar olinadigan bilim jarayonlari tizimi[9]”, - deb taʼrif bergan. Tadqiqotchi olim V.A. Slasteninning fikriga koʻra analitik qobiliyatlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- pedagogik hodisalarni tarkibiy elementlarga boʻlish qobiliyati (shartlar, sabablari, motivlari, ragʻbatlantirishlari, vositalari, namoyon boʻlish shakllari va boshqalar);

- har bir qismni butun bilan bogʻliq holda oʻzaro munosabatda tushunish;

- taʼlim va tarbiya nazariyasidan gʻoyalar, xulosalar, qonuniyatlarni topish;

- koʻrib chiqilayotgan hodisaning mantiqiylikiga adekvat;

- pedagogik hodisaga toʻgʻri tashxis qoʻyish;

- asosiy pedagogik vazifani (muammoni) va uni optimallashtirish yoʻllarini topish.

Analitik tafakkur qobiliyatini kuchaytirish uchun Matrosova quyidagi adabiyotlarni oʻqish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi[9]:

1. “Muhandislik evristikasi” (D. Gavrilov) – yordam beradigan fikrlash haqidagi kitob.

2. “Mantiq va taktik fikrlash” (C. Phillips) - har qanday muammolarni toʻgʻri hal qilish uchun miyangizni sifatli oʻrgatish imkonini beradi.

3. “Qarorlar kitobi. Strategik fikrlashning 50 modeli” (M. Krogerusa, R. Cheppeler) - har qanday vaziyatda yechim topishga yordam beradigan kitob va boshqalar.

Hind olimasi Seema Shukla Ojhaning kuzatishlaricha, anʼanaviy tarix darslarida oʻquvchilarning zerikishi hamda befarqligi, asosiy eʼtibor eslab qolishga qaratilganligi, oʻrganilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqara olmasligini isbotlashdi. Analitik tafakkur yordamida boʻlajak tarix oʻqituvchisi oʻz darsini mazmunli va qiziqarli tashkil etishi, oʻquvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga erishishlari mumkin. Hind tadqiqotchilari analitik tafakkurni rivojlantirish uchun toʻgʻri savol berish muhimligini taʼkidlaydi[10].

Natija va mulohazalar. Analitik koʻnikmalar nafaqat taʼlim sohasida, balki deyarli har qanday soha vakillaridan talab qilinadi. Shuningdek, analitik koʻnikmalar darajasini oshirish variantlaridan biri bu muhim muammolarni hal qilishda qisqa vaqt ichida fikrlashni oʻrgatish imkonini beruvchi modellashtirishdir. Buni amalga oshirish uchun quyidagilarni bajarishingiz kerak:

- ilgari hal qilib boʻlmaydigan mavjud muammolardan birini tanlash;

- uni hal qilishning barcha variantlarini tezda topishga harakat qilish va keyin bittasida toʻxtash;

- muammoni har tomonlama koʻrib chiqish (nima uchun paydo boʻldi, uni hal qilish kerakmi, qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin, uni bartaraf etishning afzalliklari boʻladimi);

- yakuniy qaror qabul qilish;

- ehtimolini hisoblash orqali batafsil tahlil qilish muammoning tanlangan yechimini amalga oshirishdagi voqealar natijasi.

Analitik fikrlash bir nechta muhim jihatlariga javob beradi:

1. Boʻlayotgan voqealarni, shuningdek, turli hodisalarni batafsil tahlil qilish;

2. Muayyan harakatlardan istiqbollarni va undan keyingi barcha hodisalarni aniqlash;

3. Mantiqiy zanjirlarni qurish;

4. Har qanday hodisaning afzalliklari yoki kamchiliklarini aniqlash;

5. Asosiy detallarni kichiklardan ajratish qobiliyati;

6. Kundalik muammolar yoki vazifalarni hal qilish;

7. Mulohaza yuritish va fikrni toʻgʻri ifodalash qobiliyati;

8. Vaqtni toʻgʻri rejalashtirish, ish ketma- ketligiga rioya qilish;

9. Har qanday mantiqiy xulosalarning aniqligi;

10. Toʻgʻri qarorlar qabul qilish[9].

Yaxshi rivojlangan analitik qobiliyatga ega boʻlgan odamlar oʻzlarining kasbiy faoliyatida faol boʻlib, har qanday maqsadlarga osongina erishadilar. Ular yaxshi mantiqiy fikrlashi va sinchkovligi bilan ajralib turadi, bu kundalik hayotda hamda ish faoliyatida jiddiy yordam beradi.

Analitik fikrlash tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog‘liq. Birgalikda ikkala tur ham yanada samarali bo‘ladi. Ular odamga atrofda sodir bo‘layotgan narsalarni ob‘yektiv baholash, tezda yechim topish, shuningdek, boshqalar ularni sezmaydigan kamchiliklarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Ko‘pincha ular mantiqiy fikrlash bilan faol munosabatda bo‘lishadi, bu ularga muammoga yechim topishga, kelajakdagi voqealarni oldindan ko‘rishga va har qanday masala bo‘yicha o‘z fikrini aniq asoslashga imkon beradi. Kitob o‘qish analitik ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng yaxshi usuli hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotni o‘qiyotganda, qahramonlarning harakatlarini tahlil qilish, shuningdek, nima uchun bunday qilishganligi haqida o‘ylash kerak.

Analitik fikrlashni shu tarzda rivojlantirish yaxshi natijaga erishish imkonini beradi. Rus olimasining tadqiqotlariga ko‘ra natijaga erishishning asosiy sharti faqat ushbu mashg‘ulotlarning muntazamligiga bog‘liq bo‘ladi.

- Shakllarni qidirish: Siz har doim har qanday naqshni topishga harakat qilishingiz kerak. Bu ish yoki o‘qish, shuningdek, barcha uy ishlariga tegishli.

- Yaxshi odatlarni shakllantirish: Odatlarni rivojlantirishga urinish miyaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar ular bir vaqtning o‘zida fikrlash (o‘qish, aqlda hisoblash, xulosalar) bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda ikki tomonlama ta‘sirga erishiladi.

- Harakat tahlili: Siz bilan bo‘lgan har bir kishining harakatlarini hisobga olishingiz kerak. Hatto filmlar yoki kitoblardagi qahramonlarni ham tahlil qilish tavsiya etiladi.

- O‘tmish, hozirgi, kelajak haqida o‘ylash: Nima uchun bu sodir bo‘lganligi haqida o‘ylashimiz kerak ba‘zi voqea, yana qanday tugashi mumkin, kelajakda nimaga olib keladi?

- Suhbatni rejalashtirish: Suhbat davomida siz u yoki bu ibora nimaga olib kelishini oldindan o‘ylab ko‘rishingiz va nimani aytishni yaxshiroq hal qilishingiz kerak. Bunday mashqlarni muntazam ravishda amalga oshirish istalgan natijaga olib keladi. Bilish bilan analitik fikrlashni to‘g‘ri rivojlantirish va amalda taniqli usullarni qo‘llash yetarli hamda istalgan natijaga erishish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Bularning barchasi individual xususiyatlarga, mashg‘ulotlarning muntazamligiga, shuningdek, tashqi sharoitlarga bog‘liq[9].

Analitik fikrlash qobiliyatlari bo‘lajak tarix o‘qituvchisiga o‘zgaruvchan tendentsiyalar dunyosining tezkor axborot asrida ma‘lumot to‘plash, ifodalash, tasavvur qilish va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Tarix – bu vaqt va makonda insoniyat boshidan kechirganlarining yozma yozuvidir. Tarixni o‘rganuvchilar tarixiy voqealar va tushunchalarni tushunish uchun mavjud bo‘lgan turli xil manbalarni bog‘lashlari kerak. Shu bilan birga tarix fanini o‘qitishda faktlar to‘plami, esdalik bilan yodlash zerikishga olib kelishi, analitik fikrlash uchun juda kam joy qoldirilayotganida kuzatilmog‘da. Bo‘lajak o‘qituvchilar fanga qiziqish uyg‘otishi va uni saqlab qolish uchun tarixni o‘rganishning samarali usullarini ishlab chiqishlari kerak. Analitik fikrlash qobiliyatlari talabalarning faolligini oshirish vositasi sifatida ta‘limda integratsiyalash samaradorligini o‘rganishdan iborat bo‘lgan vositadir[10].

Tanqidiy - analitik fikrlash XXI asr o‘quv dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni murakkab va interaktiv jamiyatda yashash va ishlashga tayyorlash, ularni ongini rivojlantirishga katta e‘tibor beriladi. Hind tadqiqotchi olimlari analitik tafakkurni rivojlantirishda bir nechta o‘quv uslublarini, hamkorlikdagi faoliyatni, simulatsiyalarni, texnologiyalarni o‘z ichiga olgan markazlashtirilgan o‘qitish uslublaridan foydalanishni tavsiya etadilar. Ular simulyatsiyalar o‘quvchilarni tarixiy shaxslar rolini o‘z zimmlariga olishlari va ma‘lum bir tarixiy voqeada qaror qabul qilishlari orqali o‘quvchilarni jalb qilish, tarix bilan bog‘lanish va analitik fikrlashni rivojlantirish uchun hamkorlikda o‘rganishdan foydalanishni foydali deb hisoblaydilar. Birlamchi manbalardan foydalanish orqali yodlash qiyin bo‘lgan tarixiy faktlarni yig‘ish, tahlil qilish, tartibga solish, ma‘lumotlarni baholash hamda xulosa chiqarish imkonini beradi. Hind olimlarining ta‘kidlashicha, bola haqiqatga asoslangan bilimlarning namoyishiga bo‘ysunib tinglash bilan emas, balki amalga oshirish, kashf qilish orqali yaxshiroq o‘rganar ekan. Hindistonda maktab ta‘limi bo‘yicha milliy o‘quv dasturi (NCERT) da ijtimoiy fanlarni o‘qitishni jonlantirish zarurligiga, o‘quvchiga interfaol muhitda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yordam berish zarurligiga chorlashadi[10]. Tarix nafaqat o‘tmish – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy faktlar to‘plami sifatida, balki tarixiy fikrlashning asosi hamdir. Bo‘lajak o‘qituvchilar turli xil tarixiy manbalar bilan ishlashlari hamda tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

Xulosa. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida analitik tafakkurni shakllantirish jarayonining mazmuni yoshlarni axborotni qabul qilish, tasniflash, qismlarga ajratish, solishtirish, qarama-qarshi qo‘yish, tanqidiy yondashish, sabab-oqibat bog‘lanishlari va mantiqiy mansublikni aniqlash orqali xulosaga kelishga qaratilgan ta‘limiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Analitik fikrlash qobiliyatlari bugungi ilg‘or texnologiya ish joyida, xususan, o‘qituvchilik kasbida muhim ahamiyatga yega. Demak, har bir davlat uchun analitik fikrlash - muammolarni hal qilishni bilish, ijodiy va tashabbuskor fikrlash ko‘nikmalarini egallash, ko‘p

manbalardan bilim olish, bilimlarni o‘rganish va amaliyotga qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson resurslarini rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zidan bilim olish, o‘z vaqtida o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish va dunyoning qiyinchiliklariga qarshi turishga tayyor bo‘lish analitik tafakkur egasiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Talabalar analitik fikrlashlarini rivojlantirishlari zarur va ular nafaqat o‘qiganlarini tushunishlari, balki ularni qismlarga ajratib olishlari, savol berishlari, baholashlari va xulosa chiqara olishlari kerak. Analitik fikrlash muammo ustida muhokama va mulohaza yuritishni o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zlari o‘rganayotgan manbalarni har tomonlama chuqur, atroflicha tahlil qilishlari lozim. Ular o‘z fikrlari va xulosalarini aniq, asosli va qo‘llab-quvvatlanadigan tarzda taqdim eta olishlari kerak. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhim, shunda ular analitik fikrlash ko‘nikmalari yordamida sifatli ta’lim muhitini yarata oladilar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. -T.; 2019 yil 8 oktyabr. Manba: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son.
2. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.// NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2020 yil 4-son. – B. 479.
3. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi. Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2: Iss. 4, Article 89. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss4/89>
4. Shonazarov Q.R. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. Ped.fan. nomzodi. dis.-T,:2003
5. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan.doktori dis.-T,:2016
6. Hasanov Sh. Adabiy ta’lim jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Falsafa(PhD) dok. dis.-N,:2020.
7. Suyatman1, Sulistyو Saputro2, Widha Sunarno3 and Sukarmin3 The Conceptual Framework for Problem and Research-Based Learning (PRBL) Model in Learning The Natural Sciences to Empower Students' Analytical Thinking Skills <https://iopscience.iop.org/journal/1742-6596>
8. Donald J. Bolger, Allyson P. Mackey, Min Wang and Elena L. Grigorenko The Role and Sources of Individual Differences in Critical-Analytic Thinking: a Capsule Overview Educational Psychology Review
9. Vol. 26, No. 4, Special Issue: Seeking Common Ground: A Multidisciplinary Examination of Critical-Analytic Thinking in Learning and Development (December 2014), pp. 495-518 (24 pages)
10. Матросова И.С. Аналитические умения как критерий профессиональной компетентности. Тамбовский государственный университет имени Г.П. Державина innyle4ka.94@mail.ru <https://www.tsutmb.ru/nauka/internet>.
11. Seema Shukla Ojha. Designation: Professor of ... Development of Critical Thinking Skills in History, Journal of Indian Education. https://ncert.nic.in/dess/pdf/seema_ojha.pdf

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online intyernet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2024-yil 12-son (111)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 26.12.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 27.12.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
---	--	--